

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**RUSTAM SHARIPOV**

# **O‘ZBEK ADABIYOTI**

Oliy ta’lim muassasalarining “Filologiya va tillarni o‘qitish”,  
“Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Gid hamrohligi va  
tarjimonlik faoliyati” hamda “Xalqaro jurnalistika” ta’lim  
yo‘nalishlari talabalari uchun darslik

**Toshkent – 2025**

**UO‘K: 821.512.133 (075)**

**KBK: 83.3 (5 Uzb)**

**Sh: 54**

**Rustam Sharipov.** O‘zbek adabiyoti. Darslik. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025. – 268 bet.

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabida tayyorlangan va respublika oliy ta’lim muassasalarining “Filologiya va tillarni o‘qitish”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati” hamda “Xalqaro jurnalistika” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan mazkur darslik “O‘zbek adabiyoti” fanining oquv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda adabiyot nazariyasi, badiiy adabiyot turlari va janrlari, xalq og‘zaki ijodi, eng qadimgi yozma yodgorliklar, XI-XIV asrlar adabiyoti, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, XVII-XIX asrlar adabiyoti, XIX asr ikkinchi yarmi adabiyoti, milliy uyg‘onish davri adabiyoti, XX asr adabiyoti va mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti haqida atroflicha ma’lumotlar, o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga qaratilgan mustaqil ta’lim topshiriqlari va test savollari berilgan.

Mazkur darslik Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida tayyorlangan.

**Mas’ul muharrir:**

filologiya fanlari doktori, professor  
**Xayrulla Hamidov**

**Taqrizchilar:**

filologiya fanlari doktori  
**Hulkar Hamroyeva**

filologiya fanlari doktori  
**Dilfuza Ahmedova**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 19-oktabrdagi 3-son qaroriga binoan TDSHU rektorining 2024-yil 24-oktabrdagi 285-UM-son buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8696-0-0

© Rustam Sharipov, 2025.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025.

## MUNDARIJA

|                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------|-----|
| <u>1-dars. Kirish. Fanni o'qitishning maqsadi va vazifalari.</u>     |     |
| <u>Badiiy adabiyotga oid asosiy tushunchalar.....</u>                | 4   |
| <u>2-dars. Badiiy adabiyot turlari va janrlari .....</u>             | 9   |
| <u>3-dars. Xalq og'zaki ijodi (folklor) .....</u>                    | 50  |
| <u>4-dars. Eng qadimgi yozma yodgorliklar .....</u>                  | 67  |
| <u>5-dars. XI-XIV asrlar o'zbek adabiyoti .....</u>                  | 73  |
| <u>6-dars. Alisher Navoiy hayoti va ijodi .....</u>                  | 88  |
| <u>7-dars. Alisher Navoiyning epik asarlari .....</u>                | 104 |
| <u>8-dars. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy merosi....</u> | 121 |
| <u>9-dars. XVII-XIX asrlar o'zbek adabiyoti .....</u>                | 130 |
| <u>10-dars. O'zbek shoiralari .....</u>                              | 144 |
| <u>11-dars. XIX asr ikkinchi yarmi adabiyoti .....</u>               | 149 |
| <u>12-dars. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti .....</u>        | 159 |
| <u>13-dars. XX-XXI asr o'zbek adabiyoti. G'.G'ulom, Oybek .....</u>  | 194 |
| <u>14-dars. Usmon Nosir, Hamid Olimjon, Abdulla Qahhor .....</u>     | 202 |
| <u>15-dars. Maqsud Shayxzoda, Uyg'un, Mirtemir .....</u>             | 215 |
| <u>16-dars. Zulfiya, Said Ahmad .....</u>                            | 222 |
| <u>17-dars. Asqad Muxtor, Odil Yoqubov .....</u>                     | 227 |
| <u>18-dars. Pirmqul Qodirov .....</u>                                | 232 |
| <u>19-dars. Husniddin Sharipov .....</u>                             | 235 |
| <u>20-dars. Erkin Vohidov .....</u>                                  | 239 |
| <u>21-dars. Abdulla Oripov .....</u>                                 | 243 |
| <u>22-dars. O'tkir Hoshimov .....</u>                                | 246 |
| <u>23-dars. Muhammad Yusuf .....</u>                                 | 250 |
| <u>24-dars. Xayriddin Sultonov, Sirojiddin Sayyid, .....</u>         |     |
| <u>Minhojiddin Mirzo .....</u>                                       | 253 |
| <u>Test savollarining kaliti .....</u>                               | 262 |

## 1-DARS

### FANNI O‘QITISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI

**Darsning maqsadi:** talabalarga badiiy adabiyotga oid asosiy tushunchalar, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid kabi bo‘limlari, badiiy asar tuzilishi haqida umumiy ma’lumotlarni berish.

#### Reja:

1. Badiiy adabiyotga oid asosiy tushunchalar.
2. Adabiyot nazariyasi.
3. Adabiyot tarixi.
4. Adabiy tanqid.
5. Badiiy asar tuzilishi.

**Tayanch tushunchalar:** badiiy adabiyot, adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid, asar kompozitsiyasi, syujet, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, echim, epilog, konflikt, badiiy obraz, xarakter, prototip.

### BADIIY ADABIYOTGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR

Badiiy adabiyot (arabcha “odob” so‘zidan olingan) hayotiy voqea-hodisalar, inson turmushi, uning xatti-harakati, o‘y-fikrlari, his-tuyg‘ularini badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi san’atdir.

Har bir san’at turining o‘z quroli mavjud: tasviriy san’atniki - rang, bo‘yoq, musiqaniki – ohang, haykaltaroshniki – marmar, ganch, yog‘och. Badiiy adabiyotniki esa SO‘Zdir. Yozuvchi o‘z maqsadini, fikrlarini ana shu so‘z orqali ifodalaydi. Badiiy adabiyot va uning mohiyatini, tabiati, kelib chiqishini adabiyotshunoslik fani o‘rganadi. U quyidagi bo‘limlardan iborat:

**Adabiyot nazariyasida** badiiy ijodning o‘ziga xos hamda umumiy qonuniyatlari, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, badiiy asar shakli, mazmuniga dahldor masalalar (badiiy asar tili, tur va janrlari, badiiy tasviriy vositalar va h.k.) o‘rganiladi.

**Adabiyot tarixida** badiiy san’atning vujudga kelishi va rivojlanish tarixi, badiiy adabiyotning kishilik jamiyati taraqqiyotida tutgan ahamiyati haqida bahs yuritiladi.

**Adabiy tanqid** badiiy asarlarni xalq hayoti, uning bugungi kundagi talab va ehtiyojlari jihatidan tahlil etadi, baholaydi, yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatib beradi.

## Asar kompozitsiyasi

Kompozitsiya (lotincha “tuzilish”) badiiy asardagi qismlar, obrazlarning ma’lum bir tartibda joylashuvidir. Adib asarni yozishdan avval uning har bir obrazi, epizod (ko‘rinish)larini qanday joylashtirish kerakligini rejalashtirib oladi. Asarga butun voqealarni sig‘dirishda muallif bahosi, monolog, dialoglardan, xotira, lirik chekinish, lirik xotima, ruhiy iztirob kabi turli usullardan foydalanadi. Bularning barchasi asar kompozitsiyasini tashkil etadi.

**Syujet** badiiy asarning bevosita mazmunini tashkil etuvchi, o‘zaro bog‘langan va rivojlanib boruvchi voqealar tizimidir. Syujet badiiy adabiyotning barcha janrlarida mavjuddir. Biroq she’riy asarlarda, ayniqsa, kichik she’riy asarlarda nasriy asarlarga nisbatan syujet yashirinroq bo‘ladi. Syujet asar qahramonlarining xatti-harakati orqali rivojlanib boradi. Bu jarayon syujet chiziq-lari deyiladi. Ular quyidagilardan iborat:

**Ekspozitsiya** voqealar yuz beruvchi, asar qahramonlari xarakterini shakllantirib boruvchi joy, ijtimoiy muhit, psixologik iqlim va shart-sharoitlar tasviridir. Masalan, A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani konfliktning keskinlashib borishiga sabab bo‘luvchi voqeadan – Otabekning Marg‘ilonga, savdogarlar saroyiga kelib qolishi, Homid va Rahmatlarning uni qidirib kelishidan – boshlanadi.

**Tugun** badiiy asarda voqea va qahramonlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning boshlanishiga va keyinchalik keskinlashib, eng yuqori cho‘qqiga chiqishiga sabab bo‘luvchi asosiy voqeadir (Otabekning Kumushga unashtirilishi).

**Voqea rivoji** syujet tugunidan so‘ng asarda voqealarning asta-sekin kuchayib, keskinlashib borish jarayonidir (Toshkentda Azizbekka qarshi ko‘tarilgan isyon, Otabek va Mirzakarim qutidorning dor ostiga yuborilishi, maktub tufayli omon qolishi, Otabekning Zaynabga unashtirilishi, qipchoqlar va qora choponlilar o‘rtasidagi qonli to‘qnashuv, Homidning soxta xatlar uyushtirib, ikki oraga sovuqchilik tushirishi, Otabekning Kumush uyidan haydalishi va h.k.).

**Kulminatsion nuqta** (lot. “cho‘qqi”) asardagi voqealar rivojining eng oliy nuqtasi, voqealarning o‘ta keskinlashgan o‘rnidir (Kumushning Zaynab tomonidan zaharlanishi).

**Yechim** asardagi barcha konfliktlarning hal etilishi va adib maqsadi, g'oyasining yechilishidir (Kumushning vafoti, Otabek va o'g'li Yodgorning Marg'ilonga ketishi).

**Epilog** (xotima) asar so'ngida yozuvchi tomonidan beriladigan xulosa (hamma asarda ham bo'lavermasligi mumkin), yakundir (Otabekning bir yildan so'ng Toshkentga qaytib kelishi va Kumush qabrini ziyorat qilib, usta Alim bilan yana Marg'ilonga qaytib ketishi, oradan ko'p o'tmay, Oqmachitda rus bosqinchilari bilan kurashda halok bo'lishi, O'zbek oyimning qora kiyib, aza ochishi).

**Konflikt** (lot.to'qnashuv, ziddiyat ma'nosida) badiiy asar voqealari jarayonida qahramonlar o'rtasida, ba'zan bir qahramon xarakterining o'zida yuz beradigan to'qnashuvlardir. Asar voqealarining rivojlanib, keskinlashib borishi aynan shu konfliktlar tufayli amalga oshadi. Konfliktlar bosh va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin: Otabek va Xudoyorxon va Otabek–Homid o'rtasidagi ziddiyatlar asarning bosh konflikti, Otabek - Yusufbek hoji, Otabek - O'zbek oyim, Otabek - Mirzakarim qutidor o'rtasidagi ziddiyatlar esa asarning ikkinchi darajali konfliktlaridir, ular asar voqealarining rivojlanishiga turtki bo'ladi, xolos.

### **Badiiy obraz**

Badiiy asarda adib o'z o'quvchisiga nimanidir aytishni, qandaydir g'oyani o'rtaqa tashlashni maqsad qilib qo'yadi. Ana shu aytmoqchi bo'lgan fikr va g'oyani yozuvchi u yoki bu voqea-hodisalar, yo bo'lmasa, o'zining ichki ruhiyatida yuz berayotgan kechinmalar timsolida bayon etadi. Masalan, tong otishini yorug'lashib borayotgan osmon, aytaylik, xalq hayotini Otabek yoki Yo'lchiga o'xshash qahramon, zahmatkash inson xususiyatini chumoli, ayyor kishilar qiyofasini tulki timsollari yordamida ko'rsatib beradi.

**Bosh obraz (qahramon)** asar voqealari markazida turib, shu voqealarning rivojlanishiga asosiy turtki beruvchi, asardagi ziddiyatlarning hal etilishida yetakchilik qiluvchi va adibning asosiy maqsadini ifodalovchi personajdir ("O'tgan kunlar"da Otabek, Kumush, Yusufbek hoji).

Asar markazida turmasa ham, o'zining biror xarakteri, intilishlari bilan adib maqsadi, g'oyasini to'ldirishga xizmat qiluvchi obrazlar ikkinchi darajali obrazlar hisoblanadi.

**Xarakter** obrazning ancha murakkablashgan, o'zining turli qirralari bilan bo'rtib turgan, o'quvchining ko'zi o'ngida yarq etib ko'rinuvchi va asar oxirigacha o'z xislatlari bilan boshqa obrazlardan ajralib turuvchi obrazdir ("O'tgan kunlar"da Otabek).

**Prototip** (gr. "obraz asosidagi shaxs") asardagi biror obraz uchun asos bo'lgan real shaxsdir. H. Olimjonning "Zaynab va Omon" dostonidagi Zaynab uchun Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi sobiq Stalin nomli kolxozning brigada boshlig'i, O'zbekistonda paxta mustaqilligi uchun kurashda jonbozlik ko'rsatgan Zaynab Omonova yoki Asqad Muxtorning "Buxoroning jin ko'chalari" asaridagi bosh qahramon uchun Fayzulla Xo'jaev prototip hisoblanadilar.

#### **Savollar:**

1. Adaboiyot nazariyasida nima o'rganiladi?
2. Adabiyot tarixida nimalar haqida bahs yuritiladi?
3. Adabiy tanqid bo'limining mazmun-mohiyati haqida nima bilasiz?
4. Badiiy asarning kompozitsion tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Mavzuga oid tayanch tushunchalar va atamalar bilan tanishing.
2. Adabiyot nazariyasiga oid asarlar bilan tanishib, ro'yxatini shakllantiring.
3. Adabiyot tarixiga oid asarlarga xos xususiyatlarni aytib bering.
4. Taniqli adabiy tanqidchilar haqida ma'lumot bering.
5. Badiiy asar syujeti haqida ma'lumot bering.

#### **Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:**

##### **1. Badiiy adabiyotning quroli nima?**

- A) tasvir
- B) obraz
- C) so'z
- D) hayotiy voqealar
- E) mubolag'a

##### **2. Syujet deganda, nimani tushunasiz?**

- A) asar qahramonlari o'rtasidagi ziddiyatlar
- B) badiiy asar qismlarining ma'lum tartibda joylashuvi
- C) badiiy asarning bevosita mazmunini tashkil etuvchi, o'zaro bog'langan va rivojlanib boruvchi voqealar tizimi
- D) asar qahramonlari o'rtasidagi ziddiyatlarning eng yuqori cho'qqisi
- E) asarda tabiat tasviri

**3. Kulminatsiya nima?**

- A) voqea yuz beruvchi joy
- B) asar qahramonlarining tashqi qiyofasi
- C) asar oxirida yozuvchi tomonidan beriladigan xulosa
- D) asardagi barcha ziddiyatlarning hal etilishi
- E) asardagi voqealar rivojining eng oliy nuqtasi, voqealarning o'ta keskinlashgan o'rni

**4. Konflikt deganda, nimani tushunmoq kerak?**

- A) asar qahramonlari o'rtasida, ba'zan bir qahramon xarakterining o'zida kechadigan ziddiyatlar
- B) asardagi tabiat tasviri
- C) asar qahramonlarining tashqi qiyofasi
- D) asardagi ikki kishining o'zaro suhbat
- E) asardagi ziddiyatlarning hal etilishi

**5. Personaj...**

- A) asardagi bosh qahramon
- B) asarning ikkinchi darajali qahramoni
- C) salbiy qahramon
- D) asarda ishtirok etadigan barcha qahramonlar
- E) B va D

**6. Asardagi biror obraz uchun asos bo'lgan real shaxs ...**

- A) prototip
- B) personaj
- C) xarakter
- D) tip
- E) qahramon

**7. Qaysi qatorda adabiy tur (jins) lar to'g'ri sanalgan?**

- A) lirika, peyzaj, portret, epik
- B) ritm, komediya, turoq, lirika, epik
- C) lirika, dramatik va epik tur
- D) proza, she'r, dramatik, tur
- E) she'riy tur, nasriy tur, tragediya

**8. Badiiy adabiyotning qaysi turida voqea emas, insonning ruhiy kechinmalari, hissiyoti yetakchi o'rin egallaydi.**

- A) lirikada
- B) prozada
- C) dramada
- D) komediyada
- E) tragediyada

## 2-DARS

### BADIIY ADABIYOT TURLARI VA JANRLARI

**Darsning maqsadi:** talabalarga badiiy adabiyot turlari va janrlari, jumladan, lirik, epik, liro-epik, dramatic janrlar va badiiy san'atlar haqida ma'lumot berish.

#### Reja:

1. Lirik janrlar.
2. Epik janrlar.
3. liro-epik janrlar.
4. Dramatik janrlar.
5. Badiiy san'atlar.

**Tayanch tushunchalar:** lirika, g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a, epik janrlar, liro-epik janrlar, dramatik janrlar, komediya, tragediya, badiiy san'atlar, qofiya, lirik chekinish.

#### Lirik janrlar

**Lirika** (grekcha “lira” - musiqa asbobi soʻzidan olingan) badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan biri boʻlib, unda hayotiy voqea-hodisalar taʼsirida inson ruhiyatida, ichki olamida yuz beradigan turli nozik kechinmalar, fikr-tuygʻular aks ettirilgandi.

Lirik asarlar, odatda, kichik hajmli boʻladi. Ularda, muhimi, biror voqea-hodisani bayon qilishdan koʻra, ana shu voqea-hodisa natijasida inson ruhiyatida yuz beruvchi hissiyotlar, ruhiy gʻalayonlar, lirik qahramon - shoirning quvonch va dardlari, hayrat, nafrat, hamdardlik va shunga oʻxshash nozik tuygʻularni ifodalash maqsad qilib qoʻyiladi.

Sharq mumtoz adabiyotida lirikaning quyidagi janrlari mavjud:

**gʻazal** (arabcha “gʻazaliya”-ayollarga xushomad qilish maʼnosida) lugʻaviy maʼnosiga koʻra xotin-qizlarga muhabbat izhor etish maʼnosini beradi. Janr sifatida esa ishq-muhabbatni kuylaydigan sheʼrlarga nisbatan gʻazal deyilgan. Keyinchalik uning mavzu doirasi ancha kengaygan. Fors adabiyotida Hofiz Sheroziy, turkiy adabiyotda Alisher Navoiylar gʻazal mulking sultoni sifatida bu janrning ham shaklan, ham mavzu-mazmun jihatidan mukammallashuviga ulkan hissa qoʻshganlar. A. Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” (“Maʼnolar xazinasi”) devonidan 2600 gʻazal oʻrin olgan boʻlib, ular orasida faqat

ishqiy g‘azallargina emas, balki diniy-falsafiy (orifona) g‘azallar, hayotiy va axloqiy mavzulardagi hamda hajviy g‘azallar ham mavjud.

G‘azal hajm jihatidan yetti baytdan o‘n-o‘n olti baytgacha bo‘ladi. G‘azal odatda, a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanadi, birinchi o‘zaro qofiyalangan bayt «matla’» yoki “mabda’”, ohirgi, shoir taxallusi qo‘llaniladigan bayt esa “maqta’” deyiladi. Agar g‘azalning birinchi baytdan tashqari ikkinchi bayti ham qofiyalangan bo‘lsa, “g‘azali husni matla’”, barcha baytlari qofiyalangan bo‘lsa, “g‘azali zeb qofiya”, bayt ichidagi ikkidani ortiq so‘zlar o‘zaro qofiyalangan bo‘lsa, “g‘azali musajja’” deb ataladi. G‘azallar tuzilishiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) g‘azali musalsal: shoir fikrlari, lirik manzara baytma-bayt o‘zaro bog‘liq holda tadrijiy ravishda o‘sib, rivojlanib, fikr va tuyg‘ular bir-biriga mantiqiy ravishda bog‘lanib boradi. A. Navoiyning mashhur “Yordin ayru ko‘ngil mulkedurur sultoni yo‘q...” g‘azalini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Mazkur g‘azalda shoir fikrlari quyidagicha tadrijiy shakllanib boradi:

1-bayt: Yordan ayrilgan ko‘ngil sultonsiz mulkdir.

2-bayt: Sultonsiz mulk jonsiz jismdir.

3-bayt: Jonsiz jism rayhonsiz qora tuproqdir.

4-bayt: Rayhonsiz qora tuproq oysiz tundur.

5-bayt: Oysiz tun ob-hayoti bo‘lmagan zulmatdir.

6-bayt: Ob-hayoti bo‘lmagan zulmat yonida jannati yo‘q do‘zaxdir.

7-bayt: Jannatdan yiroq bo‘lgan do‘zax mastlik imkonini topmagan xumoriydir.

8-bayt: Lirik xotima: hijronning ana shunday azoblari bo‘lganda ham, yoringdan (Ollohdan) voz kechma.

b) Voqeaband g‘azal: butun g‘azal davomida tugal bir voqelik-muayyan bir syujetdagi voqea ifodalanib, ma’lum bir g‘oyaviy mazmunni yoritishga qaratilgan bo‘ladi. G‘azalning bu turini “lirik hikoya” ma’nosida tushunish mumkin. A. Navoiyning “Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulruh shitob aylab...” g‘azali voqeaband g‘azalning eng go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi.

c) Yakpora g‘azal: g‘azalning matla’sida ko‘tarilgan masala, fikr ohirgi bayt-maqta’ga qadar izchil yoritib boriladi, baytlar mazmunan bir-birini to‘ldirib, davom ettirib boradi. A. Navoiy ayrim g‘azalnavis

shoirilar gʻazallaridagi mantiqiy tarqoqlik (parokandalik)dan qanoatlanmaydi, matlaʻdan maqtaʻga qadar mazmun va maʼni oʻzaro muvofiq va mutobiq keluvchi yakpora gʻazalni maʼqul koʻradi. M. Shayxzoda taʼbiri bilan aytganda, A. Navoiy “baytlarni maʼnan, fikran va suratan bogʻlash” kabi yuksak sanʼatni egallagan. “Qaro koʻzum, kel-u mardumligʻ emdi fan qilgʻil...”, “Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulroʻ kelmadi...” gʻazallari yakpora gʻazal hisoblanadi.

d) Mustaqil baytlardan tuzilgan gʻazallar (parokanda gʻazallar): bu gʻazallar garchi vazn, qofiya, radif jihatidan muayyan bir qolipda boʻlsa-da, baytlar mazmunan bir butunlikni tashkil etmaydi, bir gʻazalning oʻzida turlicha mavzu koʻzga tashlanib turadi, ular mazmunan, mantiqan bir-biriga izchil bogʻlanmagan, yaʼni bir silsilani tashkil etmagan boʻladi. Gʻazalning bu turi oʻzbek gʻazaliyotining birinchi bosqichida keng tarqalgan.

**Ruboiy** (arabcha “rabaʼa” - toʻrtlik) hazaj bahrining ahram va ahrab shajaralarida bitiladigan ishqiy, axloqiy, siyosiy-falsafiy mavzulardagi toʻrt misrali sheʼr (forsiyalarda “dubaytiy” - ikki baytli deb ham ataladi). Qofiyalanishiga koʻra ruboiylar ikki xil boʻladi:

a) ruboi xosa - misralarning a-a-b-a tarzida qofiyalanuvchi ruboiy;

b) taronai ruboiy –misralarning a-a-a-a tarzida qofiyalanuvchi shakli. Forsiy adabiyotda ruboiy janri Umar Hayyom ijodida oʻz sayqalini topdi, turkiy adabiyotda esa A. Navoiy, Z. M. Boburlar ruboiyning eng goʻzal namunalarini yaratganlar. A. Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” devonidan 133 ta ruboiy oʻrin olgan.

**Tuyuq** bevosita turkiy adabiyotda shakllangan boʻlib, u qatʼiy aruzning ramali musaddasi maqsur (foilotun, foilotun, foilon) vaznida bitiladi. Uning hajmi va qofiyalanishi ruboiynikiga oʻxshaydi, biroq farqi shundaki, tuyuq shakldosh (omonim) soʻzlar qofiyasiga - tajnisga asoslanadi.

Necha dedim ul sanamgʻa, bormogʻin, (bormagin)

Qilmadi ul tark oxir bormogʻin. (borishini)

Munchakim xudroylik koʻrgazdi ul,

Aql hayrat qildi, tishlab bormogʻin. (barmogʻini)

**Murabbaʼ** (ar. - toʻrtlik) har bandi toʻrt misradan iborat boʻlgan bir necha bandli sheʼr. Murabbaʼ a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a... tarzida

qofiyalanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida Muqimiy murabba’ janrining 21ta go‘zal namunalarini yaratgan.

**Muxammas** (ar.-beshlik) har 21ta bandi besh misradan iborat bo‘lgan bir necha bandli she’r. Shoirlar o‘zlari mustaqil ravishda muhammas yaratganlar yoki boshqa biror shoirning g‘azaliga muhammas bog‘laganlar. Ogahiy bu janrda g‘oyat go‘zal she’rlar yaratib, Navoiyning 36 ta g‘azaliga muxammas tuzgan. Agar bir shoir boshqa shoir g‘azaliga muxammas bog‘lasa, bunday she’r taxmis deb atalgan. Taxmisda har bir bandning dastlabki uch misrasi g‘azalga muhammas bog‘lovchiniki, ohirgi ikki misra — bayt esa g‘azal muallifiniki bo‘ladi.

Falakkim, yaxshilar bazmida qadrimni baland etmas (Ogahiy).

Dame yo‘qkim, yomonlar majmaida mustamand etmas (Ogahiy).

Bu hasratdin ko‘zim ashki yo‘lin bir lahza band etmas (Ogahiy).

Mani man istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas (Navoiy).

Mani istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas (Navoiy).

Muxammas a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a tarzida qofiyalanadi.

Alisher Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” devonidan 10 ta muhammas o‘rin olgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida muhammas janrida barakali ijod etgan, A. Navoiyning 30 ta g‘azaliga muhammas bog‘lagan shoir Ogahiydir.

**Musaddas** (ar. - oltilik) har bandi olti misradan iborat bo‘lib, a-a-a-a-a,b-b-b-b-b-a... tarzida qofiyalanuvchi bir necha bandli she’rdir.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 5 ta musaddas mavjud.

**Musabba’** (ar. - yettilik) har bandi yetti misradan iborat bo‘lgan she’r. Musabba’ a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-a... tarzida qofiyalanadi. A. Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” devonidan 5 ta musabba’ o‘rin olgan.

**Musamman** (ar.-sakkizlik) har bandi sakkiz misradan iborat bo‘lgan va a-a-a-a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-b-b-a... tarzida qofiyalanuvchi she’rdir. Navoiy kulliyotida bitta musamman mavjud.

**Mustazod** hazaji axrabi makfufi mahzuf vaznida yozilgan g‘azalga qo‘shimcha ikki rukn (axrab va mahzuf) orttirilgan she’r bo‘lib, g‘azal shaklida qofiyalanadi, qo‘shma misralari ham o‘zaro qofiyalanadi.

Din ofati bir mug‘abachai mohiliqodur,  
mayxoravu bebok,  
Kim ishqidin aning vatanim dayri fanodur,  
sarmastu yaqom chok.  
Ham turrasining dudi vara’ beliga zunnor,  
men kofiri ishq,  
Ham yuzi majus o‘ti kibi shu’lafizodur,  
men o‘rtanibon pok. (A. Navoiy)

A. Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” devonidan 4 ta mustazod o‘rin olgan.

**Qit'a** (ar. - bo'lak, parcha) kamida ikki baytdan besh baytgacha iborat bo'lgan va b-a, v-a, g-a tarzida qofiyalanuvchi she'rdir. U xuddi matla'si yo'q g'azalni eslatadi. Demak, qit'a deganda, she'riy parchani tushunmoq kerak, biroq u mustaqil she'r hisoblanadi. Qit'ada ijtimoiy hayotning muhim masalalari, falsafiy-axloqiy masalalar yechimi ixcham, aforistik tarzda bayon etiladi.

Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho,  
Ki o‘tlar sochur qahr hangomida.  
Aning komi birla tirilmak erur,  
Maosh aylamak ajdaho komida. (Alisher Navoiy.)

Alisher Navoiy 300 dan ortiq qit'a yozgan.

**Qasida** (ar. - qasd) asosan mashhur tarixiy shaxslar, muhim tarixiy voqealarga bag‘ishlab tantanali usulda madh etib yozilgan asar (rus adabiyotida-oda)dir. Qasida g‘azal shaklida qofiyalanadi. Turkiy tilda birinchi qasidani Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida (“Bahor madhi”, “ Yigitlikdan shikoyat qilib, qarilik aytadur”) bitgan. Sakkokiyning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidasi bu janrning eng go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiyning ustozi Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan “Tufhat-ul afkor” (“Fikrlar sovg‘asi”), Husayn Boyqaroning 1469 yilda Xuroson taxtiga o‘tirishi munosabati bilan yozgan “Hiloliya” («Yangi oy ta’rifi»), tabiatning to‘rt fasliga bag‘ishlab bitgan “Fusuli arbaa” («To‘rt fasl»), falsafiy dunyoqarashni aks ettirgan “Sittai zaruriya” («Olti zarurat») qasidalarini shoir ijodining gulto‘ji deb atash mumkin.

**Fard** (ar. - yakka, yolgʻiz) bir baytdagina iborat boʻlgan, xikmat tarzida bitilgan sheʼr, a-a shaklida qofiyalanadi.

Haq yoʻlinda kim sanga bir harf oʻqitmish ranj ila,  
Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ila. (Alisher Navoiy)

Alisher Navoiyning “Favoyidul-kibar” devonida 86 ta fard mavjud.

**Muammo** (ar. - yashirin) yolgʻiz bir baytdan iborat boʻlgan, tarkibidagi soʻzlar tagida biror kishining nomi yashiringan sheʼriy janr. A. Navoiyning devonida 52 ta muammo joylashgan.

Navoiy Jomiyning iltimosi bilan uning oʻgʻliga maxsus forsiy tilda muammo haqida “Mufradot” (“Risolai muammo”) asarini yozdi.

**Lugʻz** (ar. - topishmoq) topishmoq sheʼr. Forsiy sheʼriyatda “chiston” deyiladi. Shoir bunda biror narsani yoki hodisaning koʻrinish, xususiyatlarini tilga olib, tavsif etadi va kitobxonni uning nomini topishga undaydi.

A.Navoiy anor, igna, miqroz (qaychi), qalam, oʻq, bel, tuxum (yumurtqa), poki, parvona, tanga kabi narsalarga lugʻz bitgan.

Ikki mahbubni koʻrdim, ikkisining kindigi bir,  
Ikkisin orasiga tushsang, topadirsan kasir. (Uvaysiy)

Oʻzbek klassik adabiyotida lugʻz janrida barakali ijod qilgan ijodkorlardan biri shoira Uvaysiydir.

## Epik janrlar

**Roman** inson hayotini barcha murakkabligi, qirralari bilan har tomonlama toʻliq va keng tasvirlovchi, keng syujetga ega boʻlgan yirik hajmdagi epik asardir. Roman janrining shakllanishi uygʻonish davrida Gʻarb adabiyotida yaratilgan Jovanni Bokachchoning “Dekameron” asarining yuzaga kelishi bilan bogʻliqdir. Romanda qalamga olingan hodisalarda koʻp kishi qatnashadi, ularning hayoti va kurashi bir-biri bilan bogʻlanadi, toʻqnashadi. Baʼzan bir roman qahramonlari boshqa romanlarda ham ishtirok etadi. Oʻzining umumiy mavzui, yetakchi gʻoyasi, asosiy qahramonlari, syujet aloqadorligi bilan bir butunlikni tashkil etuvchi ikki mustaqil asar – dilogiya (Oybekning ”Qutlugʻ qon” va “Ulugʻ yoʻl” romanlari), uch mustaqil asar. (Said Ahmadning “Ufq” romani) trilogiya, toʻrttasi esa tetrologiya deb ataladi.

Katta bir tarixiy davr yoki yirik, uzoq tarixiy voqealarni, jamiyatdagi muhim ijtimoiy-sinfiy kurashni keng planda yoritib beruvchi roman epopeya hisoblanadi.

**Qissa** oʻrta hajmli nasriy (epik) janr boʻlib, voqea-hodisalar qamrovi romanga nisbatan kichik, hikoyaga nisbatan esa yirikroq boʻladi. Qissada inson hayotining maʼlum bir davri xronikal tarzda bayon etiladi. Romanda qahramon hayoti nisbatan toʻliqroq, qissada esa uning maʼlum bir davri, hikoyada uning hayotidan bir yoki bir necha epizod tanlab olinadi. Qissaning oʻziga xos belgisi uning hajm jihatidan katta-kichikligida emas, balki asar asosida yotgan hayotiy qamrovning romanga nisbatan torligi, hikoyaga nisbatan kengligi, syujet va kompozitsiyaning ham romanga nisbatan soddaligi, hikoyaga nisbatan murakkabligidadir.

**Hikoya (novella)** inson hayotidan kichik bir epizod (voqea) tanlab olinib, uning eng muhim tipik tomonlarini oʻta ixcham shaklda tasvirlab beruvchi epik janr. Bu janrda oʻzbek adabiyotida A. Qahhor barakali ijod etib, oʻziga xos hikoyachilik maktabini yaratib ketdi.

**Ocherk** oʻz hajmi jihatidan hikoyaga yaqin turuvchi, maʼlum bir tarixiy davrda yuz bergan real tarixiy voqealar, real qahramonlarni aniq hujjatlar asosida yorituvchi badiiy-publitsistik janr. Ocherkda badiiy toʻqimaga keng yoʻl berilmaydi. Hikoyada badiiy toʻqima birinchi oʻrinda turgani uchun ham yozuvchi oʻz fikrini istagan tarzda, istagan toʻqima obraz va voqea, detallar orqali bayon eta oladi, ocherkda esa yozuvchi oʻzi tanlab olgan faktlarni oʻzgartirishga yoki qahramon xarakteridagi sifatlarni oʻzi istagancha boʻrttirib koʻrsatish imkoniyatiga ega boʻlmaydi.

**Esse** erkin kompozitsiyaga ega boʻlgan, shaxsiy mulohaza va qarashlarni ifodalovchi, unchalik katta hajmga ega boʻlmagan asar. Esselar sof falsafiy, publitsistik, adabiy-tanqidiy, tarixiy-biografik mavzularda yozilib, muallif oʻzining qarashlarini turli xulosa va daʼvolardan foydalangan holda dalillab beradi.

**Memuar asar** - esdaliklar, xotiralar demakdir. Yozuvchining oʻzi qatnashgan, bevosita guvohi boʻlgan, koʻrgan-kechirgan voqealarni yorituvchi asardir. Ularda hikoya qiluvchi shaxs ishtirokchi yoki shohid sifatida voqealar markazida turadi. Masalan, “Boburnoma”ning asosiy qahramoni ham shoirning oʻzidir. Bayon qilish shakli, izchilligi

bilan memuar asarlar esdaliklarga yaqin turadi. Ularda voqealar to‘qima tarzda emas, real, ishonchli tarzda bayon etiladi.

### **Liro-epik janrlar**

Ba’zi asarlar borki, adib ham voqealarni tasvir etadi, ham shu voqealarga o‘z munosabatini, shu voqealar tufayli o‘z ruhiyatida yuz bergan ichki kechinmalarini ifodalaydi. Bunday asarlarda voqeahodisalarni tasvirlash shoir ichki tuyg‘ulari, kechinmalari bilan uyg‘unlashib ketadi. Liro-epik turga quyidagi janrlar kiradi:

**Poema (doston)** insonning nozik qalb tuyg‘ularini, hayotning dolzarb muammolarini aks ettiruvchi yirik hajmli asardir. Doston asosan she’riy yo‘l bilan yoziladi. O‘zbek klassik adabiyotida dostonlar masnaviyda, aruz vaznida yozilgan.

**Masnaviy** (ar.-ikkilik) nisbatan tugal fikrni anglatuvchi va a-a b-b tarzida qofiyalanuvchi she’riy shakldir. Masnaviyni ikki ma’noda: ham she’riy shakl, ham janr sifatida tushunmoq kerak. Masalan Huvaydoning “Rohati dil” asari masnaviy deb atab kelinadi. Masnaviy she’riy shakl sifatida boshqa qofiya usullariga nisbatan keng imkoniyatli bo‘lgani uchun ham A. Navoiy uni “usuli xub”, “keng maydon” sifatida ta’riflaydi.

Mumtoz adabiyotimizdagi barcha dostonlar hamd (Allohg murojaat), undan so‘ng esa na’t (payg‘ambarga murojaat) bilan boshlangan.

**Ballada** (fransuzcha “ballare” - raqsga tushaman) inson hayotining eng muhim, murakkab lahzalarini va poetik nuqtalarini ko‘tarinki ruhda ifodalovchi rivoya shaklidagi she’riy asardir. Balladada voqealar o‘tkir dramatik tarzda kechadi, turmushdagi g‘oyat muhim muammolar yoritiladi.

**Masal** (ar. – namuna) ta’limiy-axloqiy, didaktik (tarbiyaviy), kinoyaviy xarakterdagi kichik hajmli she’riy yoki nasriy asar. Masalda, odatda, kishilarning ayrim nuqsonlari, ijtimoiy hayotdagi ba’zi kamchiliklar allegorik (majoziy) obrazlar (hayvonlar, jonsiz predmetlar) orqali tanqid ostiga olinadi, pand-nasihatlar, o‘gitlar targ‘ib etiladi. Masal janriga asos solgan adib antik adabiyotning yirik vakili grek shoiri Ezopdir. Hindlarning ”Kalila va Dimna”si, Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari ham masal janrining eng nodir namunasi hisoblanadi.

## **Dramatik janrlar**

**Drama** (gr. - harakat) sahna uchun yaratilgan asar bo'lib, unda muallif tasvirga mutlaqo aralashmaydi, asar g'oyasi, voqealar muallifning ishtirokisiz personajlarning xatti-harakatlari, gaplari orqali o'z ifodasini topadi. Drama faqat sahnada ijro etilgandagina badiiy asar darajasiga ko'tariladi.

Dramatik asarlarda asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakati, qiliqlari, intonatsiyasi, sahna manzarasi haqida muallif tomonidan beriladigan izohlar remarka deyiladi. Asar personajining o'ziga yoki suhbatdoshiga, tomoshabinga qarata aytgan nutqi monolog, asardagi ikki kishining suhbatlari esa dialog deb ataladi.

**Komediya** (gr. "komos"- xushchaqchaq olomon, "ode"- qo'shiq) dramatik turga mansub janrlardan biri bo'lib, unda voqealar, karakterlar, ziddiyatlar kulgi orqali ifodalanadi. Komediya. dastlab, Gresiyada eramizdan avvalgi V-IV asrlarda maydonga kelgan bo'lib, uning asoschisi Aristofan hisoblanadi.

Komediylar kulgining xarakteriga qarab hajviy (satirik) va yumoristik turlarga bo'linadi. Satirik komediyalarda ijtimoiy hayotdagi muhim nuqsonlar, jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'lib turgan illatlar ayovsiz fosh etiladi. Bunga Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" komediyasini misol qilib qilib keltirish mumkin. Yumoristik komediyada esa kishilar turmushidagi ayrim nuqsonlar yengil kulgi ostiga olinadi. Erkin Vohidovning "Oltin devor", Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" asarlari yumoristik komediyalardir.

**Tragediya** (gr. "tragos" - echki, "ode" - qo'shiq) asosida keskin, kelishtirib bo'lmaydigan ziddiyatlar yotuvchi, oqibatda qahramonlar taqdiri fojia bilan tugaydigan dramatik janrdir. Tragediyada kishilar hayotining, tarixiy taraqqiyotning muhim muammolari falsafiy tarzda keskin hal etiladi. Tragediya qadimgi Gresiyada paydo bo'lgan. Dionis deb ataluvchi may va xushchaqchaqlik xudosi sharafiga o'tkazilgan bayramda Dionisga qurbonlik sifatida echki olib kelishgan. Bu marosimda echki haqida qo'shiqlar kuylashgan, raqsga tushishgan. Grek antik adabiyotida Esxil, Sofokl, Evripid, Angliyada Vilyam Shekspir, nemis adabiyotida Shiller tragediyalari, ayniqsa, dunyo sahnasida juda mashhur bo'lib ketgan. O'zbek adabiyotida esa Fitratning "Abulfayzxon", Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek"

asarlari tragediyaning go‘zal namunalari hisoblanadi. Birinchi o‘zbek fojiasi sifatida M.Behbudiyning “Padarkush” asari tilga olinadi.

**Tragikomediya** tragediya xususiyatlari va komediya elementlari birgalikda aks ettirilgan asar. Unda ma’lum bir tarixiy sharoitda jamiyat hayotida yuz bergan muhim voqealar, ijtimoiy illatlar, muammolar fojia va hajv xususiyatlari uyg‘unlashgan holda aks ettiriladi. O‘zbek dramaturgiyasida Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asari jiddiy komediya sifatida talqin etiladi. Unda turg‘unlik yillarida o‘zbek ayollarining hayotidagi dolzarb muammolar kulgi asosida yoritiladi.

### **Badiiy san’atlar**

Badiiy asar bizni o‘z mazmuni bilangina emas, shakli bilan ham, voqea-hodisalarning qay tarzda obrazli, rango-rang, badiiy-tasviriy vositalar yordamida o‘ynoqi, ta’sirchan, serjilo tasvirlanishi bilan ham mahliyo etadi. Til, badiiy-tasvir vositalari, konflikt, kompozitsiya, adabiy til, janr, she’r tuzilishi qabilar, birinchi navbatda, shakl hodisasi hisoblanadi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasining shakli deganda, biz shu hikoya poetikasini, ya’ni yozuvchi tili, qahramonlar tili, uning syujeti, kompozitsiyasini, badiiy til xususiyatlarini tushunamiz. Bir voqeaning o‘zini o‘nta yozuvchi turlicha, o‘ziga xos usulda tasvirlab beradilar. Qaysi birlariniki tuyg‘ularimizga chuqur ta’sir ko‘rsatadi, bizda kuchli kulgu yoki iztirob uyg‘otadi, qaysi birlariniki esa qalbimizda hech qanday hissiyot uyg‘otmaydi, bizga ta’sir ko‘rsatmaydi va shu bois yodimizdan tez ko‘tariladi. Demak, shakl mazmunni to‘ldiruvchi, boyituvchi bir vosita ekan. Yozuvchi turmushni qanchalik mukammal tasvirlasa, o‘z asarining g‘oyaviy-mavzu asosini shunchalik chuqur va aniq ochib bera oladi. Quruq bayonchilik, voqeani shunchaki birin-ketin bayon etish - bu san’at emas.

Klassik shoirlarimiz lirik qahramon kechinmalarini chuqur va ta’sirli ifodalash, obrazlarning rang-barangligi, she’rning ohangdorligini, jozibasini ta’minlash maqsadida turli badiiy-tasviriy vositalar – san’atlardan foydalanganlar.

## Tashbeh (o'xshatish)

Ikki yoki undan ortiq narsa yoki hodisalarning o'rtasidagi mavjud o'xshashlik, umumiylikning biri ikkinchisiga qiyoslanishi tashbeh hisoblanadi. Bu o'xshashliklarni shoir -dek, -day qo'shimchalari yoki go'yo, xuddi, misli, yanglig', kabi, singari so'zlari yordamida ifodalaydi.

Ko'zda ashkim qonidin har sori ko'ngul, qatralar  
Nuqtalar yanglig'kim, qo'yg'aylar qachon yozilsa qon.

(Alisher Navoiy)

Bu baytda lirik qahramon ko'zlaridagi yosh "qon" so'zidagi "qof" va "nun" harfining nuqtalariga o'xshatilmoqda. Bunda o'xshatilgan narsa – ko'z yoshi mushabbah, o'xshagan narsa – nuqtalar mushabbah un-bihi, o'xshatish sababi – chunki ko'z yoshi nuqtalarga o'xshab ketadi vajhi shaboh, o'xshatish vositasi – yanglig' esa odoti tashbeh deb ataladi. Ayrim hollarda odoti tashbeh, ya'ni o'xshatuvchi vositalar qo'llanmasligi mumkin.

Dema mashhur bo'lmoq yaxshi, bug'doy donasi pinhon,  
Daraxte qildi javlon, sarg'ayib oxir somon bo'ldi.

Baytda "somon" so'zidan keyin kelishi lozim bo'lgan yanglig' - o'xshatuvchi vosita qo'llanmagan.

Shoirlar ko'pincha ma'shuqa yoki oshiqning tik qomatini sarv yoki shamshod daraxtiga. yo bo'lmasa "alif" harfiga, oshiqning hijron azobidan egilgan qaddini "yoy", "dol" harflariga, oshiq ko'zlaridan oqqan yoshni yulduzlarga, yorning qoshlarini kamon, yoy, "nun" harfiga, lablarini yoqut, la'l, shahd va shakar, g'uncha, «mim» harfiga, tishlarini dur, sadaf, marjon, "sin" harfiga, ko'zlarini jodu, nargis, "sod" harfiga, oshiq oldida erkalanib, achchiqlanganda peshonasiga tushadigan ajinni dengiz to'lqiniga, ma'shuqa yuzlarini oy, quyosh va arg'uvonga, hayotni karvonlar bir kechaga qo'nib o'tadigan rabotga, bilimni kimyoga, so'zni shakar yoki zaharga o'xshatadilar.

Ba'zan bir narsaning o'zini shoir bir necha narsaga o'xshatadi. Masalan, Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida hayvon (yilqi)ni ham oddiy xalqqa, ham nodon, bilimsiz kishiga, ham zakovatsiz, yomon xulqli, ochko'z shaxslarga, zolim beklarni, amaldorlarni bo'riga nisbatan tashbeh beradi.

Tashbehning bir necha turlari mavjud.

•**tashbehi sareh (tashbehi mutlaq)**da o‘xshagan va o‘xshatilgan narsalar o‘xshatuvchi vositalar yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanadi:

Qilsangiz tasvir Layli husnin ul oydek sizin,  
Lek Majnunni Navoiy birla monand aylangiz.

Bunda o‘xshatilgan narsa (husn – mushabbah), o‘xshagan narsa – oy (mushabbah un-bihi), odoti tashbeh (-dek), vajhi tashbeh (asos—yuz ham, oy ham bir-biriga o‘xshash, ya’ni yumaloq va yorqin) qatnashgan.

•**tashbehi mashrut (shartli o‘xshatish)**: tashbehning bu turida ikki narsa yoki hodisa bir-biriga ma’lum bir shart asosida o‘xshatiladi.

Kimning himmati bo‘lmasa, ulug‘,  
Ekagun ajunda u bo‘lmas ulug‘. (Yusuf Xos Hojib)

Baytda himmatsiz, ya’ni nokas, baxil kishi o‘likka shart asosida o‘xshatilyapti, bunda inson himmatdan mahrum bo‘lgan taqdirdagina o‘likka o‘xshaydi, chunki u o‘lik-tiriklikdan mahrum degan xulosa kelib chiqadi.

•**tashbehi tafsil**: bunda shoir bir narsani ikkinchisiga o‘xshatib turib, so‘ng bu tashbehdan go‘yo qoniqmagandek, yangi tashbehni qo‘llaydi, keyingi o‘xshatish avvalgisidan kuchliroq, ta’sirli va yorqinroq bo‘lishi talab etiladi.

Vale yodig‘a keldikim ul oy,  
Demay oy, oftobi olamoroy. (Alisher Navoiy)

•**tashbehi aks (aks tashbeh)** bunda o‘xshagan va o‘xshatilgan narsalar dastlab o‘z o‘rnida, keyingi misralarda esa o‘rinlari almashgan holda qo‘llaniladi.

Budum erdi o‘qteg ko‘ngul erdi ya,  
Ko‘ngil qilg‘u o‘qteg budum bo‘ldi ya. (Yusuf Xos Hojib)  
Qaddim o‘qdek to‘g‘ri, ko‘nglim esa yoydek edi,  
Ko‘ngil orzulari hamon o‘qdek, biroq qaddim endi yoy bo‘ldi.

**Istiora** ikki predmet o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslanib, so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llash san’atidir. Tashbehda ham o‘xshatuvchi, ham o‘xshatiluvchi qo‘llaniladi, istiorada esa faqat o‘xshatuvchining o‘zi qo‘llaniladi. Masalan, tashbehda “qadding nihol

yanglig‘ nozik” deyilsa, istiorada “qad” so‘zi, ya’ni o‘xshatiluvchi qo‘llanmaydi.

Bir yo‘qlamaysan sodiq qulingni,  
Ko‘zlari jallod, nozik niholim. (Muqimiy)

**Tazod** qarshilantirish san’atidir (G‘arb adabiyotida “antiteza” deb yuritiladi). Shoir o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni yoki tasvirlamoqchi bo‘lgan narsani kuchliroq, ta’sirliroq aks ettirish maqsadida bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan obrazlarga, sifat va xislatlarga murojaat etadi, bunda u asosan antonim so‘zlardan foydalanadi:

Rahm qilg‘il bandag‘a, ey shoh, ul tengri uchun,  
Kim etar bizni gado, ul sizni sulton aylagan. (Lutfiy)

**Talmeh** she’rda mashhur tarixiy shaxslar, afsonaviy qahramonlar, joylar, tarixiy voqealar, afsonalar, eng nodir adabiy asarlar, maqollarga ishora qilib o‘tish san’atidir. Sharq klassik shoirlari ishq, mavzusidagi she’rlarida ko‘pincha “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Vomiq va Uzro” kabi asarlar va ularning qahramonlariga, Behistun tog‘i, Hazrat Ali farzanlari - Hasan va Husaynlar qatl etilgan Karbalo dashtiga yoki xasisligi orqasidan beqiyos boylik to‘plagan Qorun nomiga ishora qilib o‘tadilar. Shoir Munis ustozlariga bag‘ishlab yozgan «Ustozlar e’tirofi» g‘azalida Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Ansoriy, Jomiy va Navoiy va boshqa shoirlar nomini tilga oladi.

Jafo tegdi boshimg‘a Layliyu Shirinu Uzrodim,  
Bukun Vomiq ila Majnunu Farhodimni sog‘indim. (Uvaysiy)

### **Tajohuli orifona.**

Bilib bilmaslikka olish ma’nosini ifodalagan bu san’atda shoir o‘zi bilgan narsani boshqalardan go‘yo bilmagandek so‘raydi.

Malak yo hur, bilmon yo parisan,  
Bu raftor ila yo kabki dariysan. (Lutfiy)

Lirik qahramon ma’shuqaning hur, pariga o‘xshashligini bilsa-da, o‘zini bilmaslikka olib “bilmon” - bilmayman so‘zini qo‘llamoqda.

### **Iyhom (ar. shubhaga solish, adashtirish).**

Shoir she’rida shunday bir so‘zni qo‘llaydiki, aslida u ikki xil ma’no beradi. O‘quvchi beixtiyor bu so‘zning birinchi ma’nosini

anglaydi, chunki uning e'tiborini shu ma'no o'ziga tortadi. So'zning ikkinchi ma'nosi esa yashiringan bo'ladi, uni dabdurustdan ilg'ab olish qiyin bo'ladi.

Qaro ko'zum, kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,  
Ko'zim qarosig'a mardum kibi vatan qilg'il. (Alisher Navoiy)

Baytning ikkinchi misrasidagi "mardum" so'zi inson ma'nosidan tashqari "ko'z qorachig'i" ma'nosini ham beradiki, u bayt zamirida yashirindir.

**Irsoli masal** she'rda ifodalanayotgan fikrni asoslash, isbotlash maqsadida biror halq maqolini keltirish san'atidir.

Umrini oshiq hamisha o'tkazar orzu bilan,  
Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yog'du bilan. (E. Vohidov)

**Husni ta'lil** (ar.-chiroyli asoslash ma'nosida).

Shoir she'rda biror fikrni bayon etar ekan, uni kutilmagan, hayotiy bo'lmagan dalil va xulosalar orqali g'oyat nazokatli tarzda, chiroyli asoslab beradi.

Quyosh oydek yuzungning hijlatidin  
Qochib to'rtinchi ko'k uzra chiqibdur. (Lutfiy).

Bu baytda shoir quyoshning yerdan ancha olisda joylashuviga tabiat hodisasi sifatida qaramay, ma'shuqaning oydek beqiyos go'zal chehrasidan xijolat bo'lganligi uchun ham go'yo quyosh osmonining to'rtinchi qavatiga qochib chiqib ketganligini asos-dalil qilib ko'rsatmoqda.

**Ta'did** (e'dod, shumor, te'dod) baytda fikrni ketma-ket tadrijiy ravishda sanab, rivojlantirib borish san'atidir.

O'qi bu Lutfiy munglik niyoznomasini,  
Savobu olqishu yuz ming duo kerak bo'lsa.

**Tashxis, intoq** (jonlantirish) insonga xos xususiyatlarni (so'zlash, kulish, his qilish, fikrlash, harakat qilish) jonsiz narsalar yoki tabiat hodisalariga ko'chirish, ya'ni jonsiz narsalarni tirik qilib tasvirlash san'atidir. Agar jonsiz narsalarni shoir gapirtirsa, intoq san'ati hisoblanadi:

Qatra qonlarkim tomar ko'ksimg'a urg'an toshdin,  
Zahmdindur demakim, qon yig'lar ahvolimg'a tosh.  
(Alisher Navoiy)

Bunda qorning taglarida qish  
Bahor uchun so‘ylaydi olqish. (H.Olimjon).

**Mubolag‘a** (ar.-kattalashtirish, kuchaytirish) badiiy obraz xislatlarini holati yoki harakatlarini o‘ta bo‘rttirib ko‘rsatish san‘atidir. Mubolag‘a yozma adabiyotda ham, og‘zaki adabiyotda ham uchraydi.

Vah, muhabbat ko‘yida qon yig‘ladim,  
Yetti iqlim g‘arq bo‘ldi yoshima. (Mashrab)

**Ifroq (Ifrot)** o‘ta kichraytirilgan mubolag‘a san‘atidir. Shoirilar ma’shuqaning og‘zini shu qadar kichraytirib tasvirlaydilar ki, go‘yo ko‘rinmaydi. Alisher Navoiy o‘z qahramoni Farhod sifatlarini tasvirlashda ham bu san‘atdan ustalik bilan foydalanadi, go‘yo u chumoliday kam sut ichsa-da, kun sayin sherday o‘sib boradi. Xorazmiy esa ma’shuqaning belini qilday ingichka deya tavsiflaydi:

Bo‘ying sarvu sanuvbartek, beling qil,  
Vafo qilg‘on kishilarg‘a vafo qil.

**Tarze’** baytda bir yo‘la bir necha so‘zlarning o‘zaro qofiyalanib kelish san‘atidir. Agar baytda faqat ikki so‘z qofiyalanib kelsa, zul-qofiyatayn deyiladi:

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,  
Mendek senga bir zori vafodor topilmas. (Bobur)

**Shiru shakar** bir she’rni ikki tilda yozish san‘ati.

Ey, labat purxandavu chashmi siyohat mastu xob,  
Ikki zulfing orasida oy yuzungdir oftob. (A.Jomiy)

Agar bir she’r uch tilda yozilgan bo‘lsa, u holda shahdu shiru shakar deb ataladi.

**Tanosib** she’rda mantiqan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan va bir-birini taqozo etadigan so‘zlarni yonma-yon keltirish san‘atidir. Atoiyning quyidagi baytida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan zulf, ko‘z, jamol so‘zlari yonma-yon ishlatilgan:

Zulfung cheriki jamol mulkin  
Oldi ko‘zung ittifoqi birla.

**Ishtiyoq** baytda o‘zakdosh so‘zlarni qo‘llash san‘atidir.

Baholik dinor ul biliklik kishi,  
Bu johil biliksiz, bahosiz bishi. (Yusuf Xos Hojib)

Tolib ulkim, topmasang dog‘i bu baskim aylamas  
Bir nafas g‘ofil seni matlub yodidin talab.

Navoiydan keltirilgan ushbu baytda tolib, matlub, talab so‘zlari o‘zakdosh so‘zlardir.

**Qofiya** misralardagi o‘zaro ohangdosh so‘zlar. Qofiya ko‘pincha misra oxirida, o‘rtasida, ba‘zan misra boshida kelishi mumkin. Sharq klassik adabiyotida qofiya maxsus fan sifatida o‘rganilgan. Qofiya asosini so‘z o‘zagidagi so‘nggi tovushning takrori tashkil etadi: jahon, osmon, tomon, yomon. Ana shu so‘zlardagi «n» tovushi raviy deb atalgan. Raviydan oldin keluvchi to‘rt tovushning ham tugal mos kelishi qofiyaning mukammalligi va ohangdorligini ta‘minlaydi va ular ta‘sis, dahil, ridf, qayd deb ataladi. Qofiyadan keyin mos keluvchi tovushlar vasl, xuruj, mazid, noira deb ataladi.

Ba‘zan qofiyadan so‘ng butun she‘r davomida bir so‘z takrorlanib kelishi mumkin:

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,  
Sarrishtai ayshdin ko‘ngulni zinhor,  
Uz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Bunday so‘zlar radif deb ataladi (arabcha otning orqasiga mingashib, ergashib boruvchi). Agar qofiyadan oldin bir so‘z takrorlanib kelsa, hojib deb ataladi.

Tig‘ ila yorib jigarim yonini,  
Yerga oqizdi jigarim qonini. (A. Navoiy)

**Saj’** - nasriy qofiya. Masalan, A. Navoiy “Mahbub-ul qulub” asarida saj’ni qo‘llaydi: “Olam ma‘murlig‘i alardin, alam ahli masrurlig‘i alardin, har qancha qilsalar harakat, elga qut yetar, ham barakat...”

**Lirik chekinish** badiiy ifoda usullaridan biri bo‘lib, yozuvchi asarning ma‘lum bir joyida (asar o‘rtasi yoki oxirida) voqeani yoki kishilar xarakterini tasvirlashdan to‘xtaydi-da, o‘zida tug‘ilgan fikr, his-hayajonni lirik tarzda ifodalashga beriladi. Masalan, G‘. G‘ulom “Sen yetim emassan” she‘rida urushdan yetim qolgan bolalarga murojaat qilar ekan, bir joyda to‘xtaydi-da, o‘z yetimligini esga oladi:

Yetimlik nimadir  
Bizlardan so‘ra.

O'ninchi yillarning sargardonligi  
Isitma aralash  
Qo'rqinch tush kabi  
Xayol ko'zgusidan o'chmaydi sira.  
Men yetim o'sganman...

**Lirik qahramon** o'y-fikri, his-hayajoni, kechinmalari lirik she'rda ifodalangan shaxs hisoblanadi. Lirik she'rda ko'pincha shoirning o'z kechinmalari beriladi, shuning uchun ham lirik qahramon deganda, shoirning o'zini tushunamiz.

### **Lirik obrazlar.**

Mumtoz adabiyotda oshiq va ma'shuqa, payg'ambarlar, orif, rind (ritsar) soqiy, mug'bacha(may quyib beruvchi bola), "biru bor" (Alloh) beriladi. Shuningdek, koinot jismlari (Oy, Quyosh, Zuhra, Mushtariy, Atorud, Mirrix, Kayvon) obrazlari ham uchraydi. Bulardan Mirrix - Mars Sharq nujum ilmida jangu-jadal timsoli hisoblangan.

**Ritm** bu she'rda hijolarning misralar bo'yicha muayyan tartibda takrorlanib kelishidir.

**Turoq** pauza bilan ajratilgan, teng bo'laklardan tuzilgan va misralar bo'yicha ma'lum tartibda takrorlanadigan misra. Masalan, H. Olimjonning "O'zbekiston" she'rda turoqlar quyidagicha joylashgan:

Vo-diy-lar-ni (4) ya-yov kez-gan-da, (5)  
Bir ajib his (4) bor e-di man-da (5)

Turoq rus adabiyotida **stopa**, aruzda esa **rukni**, **sutun** deb ataladi.

**Oq she'r** - vazni, turog'i aniq, lekin qofiyasiz she'r. A.Pushkinning "Boris Godunov", N.Nekrasovning "Russiyada kim yaxshi yashaydi?", M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" fojialari oq she'rda yozilgan.

**Nasriy she'r** - sochma, qat'iy bir vazni bo'lmagan, ta'sir kuchi baland bo'lgan, nasriy yo'lda yozilgan she'r. Sochma shunday paytda yoziladiki, tuyg'u va fikrlar to'liqlanib, toshib ketadi, uni biror to'siq bilan to'xtatib bo'lmay qoladi. U vazn va ritmning biz tushungan ma'nodagi qolipiga sig'may qoladi. Sochmaning qofiyadosh shakli ham bor. Uning o'zida ichki ritm, ichki bir musiqa, jarang bor. O'zbek she'riyatiga sochma she'r shaklini 20-yillarda shoir Mirtemir olib kirgan.

## She'riy vaznlar

Vazn (arabcha – tarozi) adabiyotshunoslik istilohi sifatida she'r o'lchovi ma'nosini ifodalaydi. Vazn she'riy va nasriy asarlarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy xususiyatdir.

- Nasriy asarda biror hayotiy voqea – hodisa yozuvchi yoki qahramon tilidan hikoya (rivoya) tarzida birin – ketin erkin bayon etiladi.

- Xuddi shu voqea ta'sirida lirik qahramon (ko'pincha shoirning o'zi) ruhiyatida kechadigan his-tuyg'ularning ifodasi o'laroq she'riy asarlar esa o'ziga xos ritmik nutq bo'lib, u ohang jihatidan ma'lum tartibga solingan, o'lchovli bo'ladi va o'zining ta'sinchan bo'yoqlari bilan ajralib turadi.

- O'zbek she'riyatida uch xil vazn: barmoq, aruz va erkin (sarbast) vaznlari qo'llanib kelinadi.

**Barmoq vazni** she'riy misralarda bo'g'inlar miqdorining tengligiga asoslanadi. Hamid Olimjonning mashhur “O'zbekiston” she'rini esga olaylik:

Vodiylarni yayov kezganda,  
Bir ajib his bor edi manda.

She'rning har bir misrasi 9 bo'g'indan iborat. Bu miqdor she'r oxiriga qadar saqlanib qoladi.

### Yodingizdan chiqarmang!

- Barmoq vazni she'riyatimizga hali aruz tizimi kirib kelmasidan uzoq yillar muqaddam mavjud bo'lgan. Mahmud Qoshg'ariyning “Devonu lug'atit turk” asari tarkibiga kirgan “Alp Er To'nga marsiyasi” esingizdami? Marsiya misralari she'r boshidan oxirigacha 7 bo'g'indan iborat:

*Alp Er To'nga o'ldimu?  
Ajuz dunya qaldimu?*

- Turkiy ajdodlarimiz she'riyatida (V – VIII) barmoq tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, Aprinchur Teginning Tong tangrisi haqidagi madhiyasida bo'g'inlar miqdori misralarda har xil bo'laganligini kuzatishimiz mumkin:

*Tang tangri kalti,* (5)  
*Tang tangri o'zi kalti.* (7)  
*Turunlar, qamug' beklar, qadashlar!* (10)  
*Tang tangriga o'galim...* (6)

### **Erkin vazn**

Jangovar ruhni ifodalaydigan bu she'riy tizim o'zbek adabiyotiga rus she'riyati ta'sirida XX asrning 30-yillarida kirib kelgan. Bu vaznda ko'proq G'. G'ulom va H.Olimjonlar ijod qilganlar.

- Erkin vazn talablariga ko'ra, misralar bir necha zinachalarga bo'lib yuboriladi. Ulardagi har bir so'z alohida mantiqiy urg'u, ohang bilan aytilib, aynan shu so'z shoirning ruhiy holati, pafosini, ya'ni ko'tarinki kayfiyatini to'la ifodalashga xizmat qiladi. Qaysi so'z shoirning hayajoni va jo'shqin fikrini to'la ochib berishga qaratilgan bo'lsa, o'sha so'z pastki alohida misarachalarga (zinachalarga) tushiriladi:

*Bu yo'llar*  
*Ko'p qadim yo'llardir ...*  
*Jahonning fотиhi Iskandar,*  
*Rum qaysari,*  
*qotil Chingiz,*  
*Botu,*  
*Jo'ji,*  
*Temurlang qoldirib kimsasiz iz...*

### **Aruz vazni**

Aruz barmoq vaznidan farqli o'laroq, misralardagi bo'g'inlar miqdorining tengligiga emas, balki ana shu bo'g'in (hijo)larning muayyan tartibda cho'ziq-qisqa bo'lib guruhlanib kelishiga asoslanadi.

### **Bilib qo'ying!**

- Aruz dastlab arab she'riyatida paydo bo'lib, uning asoschisi Halil ibn Ahmad bo'lgan. Vazn nomi ham u yashagan Aruz vodiysi nomi bilan bog'liqdir.

- Bayt arabcha "baytun" – uy, arablar yashaydigan chodir ma'nosini bildirgani uchun ham aruziy atamalar u bilan bog'liq holda paydo bo'lgan: sutun (rukni) – chodirning ustuni, sabab, vatad, fosila

esa shu chodirni tiklashda ishlatiladigan arqon, qoziq, namatlar ma'nosini beradi.

- Aruz tizimi arablardan forslarga, forslardan XI asrda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yetaklovchi yo‘l”) asari orqali turkiy adabiyotga kirib keldi.

- Shunday qilib, arab va fors aruzshunosligi qatorida “Turkiy aruz” tushunchasi paydo bo‘ldi. A. Navoiy “Mezonul-avzon” (“Vaznlar o‘lchovi”), Z. M. Bobur “Muxtasar” (“Mufasssal”) asarlarida turkiy aruzning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy tahlil etibgina qolmay, bu vaznni turkiy til fonetikasi artikulyatsiyasi, bo‘g‘in, urg‘u jihatlari asosida yanada boyitdilar.

- “Muhtasar”da Z.M. Bobur aruz bahrlariga yana ikkita bahrni qo‘shib, 21 taga yetkazdi va ularning 537 ta shajarasini tasnif etib chiqdi.

- Buyuk allomalarimizdan ancha keyinroq Furqat, Fitratlar ham turkiy aruz haqida alohida risolalar yaratdilar.

### **Unutmang!**

Tilshunoslik fani bizga har bir so‘zda qancha unli tovush bo‘lsa, bo‘g‘in ham shuncha bo‘ladi, deb o‘rgatadi. Biroq bu tushuncha aruz tizimi xususiyatlariga har doim ham mos tushavermaydi. Unda birgina undosh tovushining o‘zi ham ba‘zan bo‘g‘in – hijo hosil qilaveradi. Aruz ilmida “bo‘g‘in” o‘rnida “hijo” atamasi ishlatiladi va bu hijo o‘z fonetik xususiyatlariga ko‘ra uch xil bo‘ladi:

#### **1. Qisqa hijo.**

Unlisi qisqa talaffuz etiladigan ochiq bo‘g‘inlar qisqa hijo hisoblanadi. U shartli ravishda (V) belgisi bilan ajratiladi. Odatda, aksariyat hollarda so‘zning dastlabki ochiq bo‘g‘inlari **a, i** tovushlari bilan tugallansa, qisqa talaffuz etiladi: ki-tob, da-raxt, ta’-na.

#### **2. Cho‘ziq hijo**

Cho‘ziq hijo ( - ) belgisi bilan ajratiladi:

a) unlisi cho‘ziq talaffuz etiladigan ochiq bo‘g‘inlar (odatda, **o, u, o‘** unlilari bilan tugagan ochiq bo‘g‘inlar ko‘pincha cho‘ziq talaffuz etiladi): o-shi-no, jo-nu;

b) unlisi qisqa talaffuz etiluvchi yopiq bo‘g‘inlar cho‘ziq hijo hisoblanadi: mak-tab, tak-lif.

### 3. O'ta cho'ziq hijo.

O'ta cho'ziq hijolar bayt boshi yoki o'rtasida kelsa (-V), agar misra oxirida kelsa (~) belgisi bilan ajratiladi:

a) unlisi cho'ziq tallafuz etiladigan yopiq bo'g'inlar: zo-r-roq, al'-a-mon;

b) qo'sh undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar o'ta cho'ziq hijolardir: char-x, dar-d, meh-r.

Endi hijolarning cho'ziq-qisqaligiga qarab, ushbu bayt so'zlari ostiga o'z belgilarini qo'yib chiqamiz, ya'ni bayt taqti'sini (paradigmasini) tuzamiz:

A-ga-ro-shiq // l-g'i-mayt-sam // ku-yub jo-nu // ja-ho-no'r-tar,  
Bu ishq sir-rin // ba-yo-net-sam // ta-qi-ul xo // nu-mo-nur-tar.

Yuqorida ko'rib turganingizdek, hijolardagi ayrim undoshlar boshqa hijolarga qo'shilib ketyapti (ro-shiq, mayt-sam, no'r-tar, net-sam). Aruzda bunday hodisa **vasl** deb ataladi (arabcha – qo'shilish, uchrashish).

### Eslab qoling!

Qisqa va cho'ziq hijolar hamda ularning turlicha birikishidan **sabab**, **vatad**, **fosila** deb ataladigan bo'laklar hosil bo'ladi.

#### 1. Sabab.

- **sababi hafif** (yengil sabab) faqat bir cho'ziq hijodan iborat bo'ladi: qoch, tom, kul, yo'l;

- **sababi saqiyl** (og'ir sabab) ikki qisqa hijoning qo'shilishidir: qa-ni, ju-da, na'-ra.

#### 2. Vatad.

- **vatadi majmu'** (qo'shilgan vatad) bir qisqa va bir cho'ziq hijolarning birikishidir: ba-hor, sa-har;

- **vatadi mafruq** (ajratilgan vatad) bir cho'ziq va bir qisqa hijolarning qo'shilishidir: tax-ta, ting-la.

#### 3. Fosila.

- **fosilai sug'ro** (kichik fosila) ikki qisqa va bitta cho'ziq hijolardan tashkil topadi: be-za-may, qa-ra-mang;

- **fosilai kubro** (katta fosila) uchta qisqa va bitta cho'ziq hijolardir: ta-ni-ma-gan, qa-ra-ma-ngiz.

Sabab, vatad, fosilalarning turlicha qo'shilishidan qisqa pauzalar bilan ajralib turuvchi, ma'lum bir ritmda cho'ziq va qisqa holda

takrorlanuvchi bo‘laklar hosil bo‘ladi. Bunday bo‘laklar ruknlar (sutunlar) deb ataladi. Aruzda 8 ta asliy ruknlar (asllar) mavjud. Bu ruknlar sifat va son jihatidan qisqarishga, ya’ni o‘zgarishga duch kelishi va natijada yana qancha-qancha tarmoqlar (shohobchalar) paydo qilishi mumkin. Bu hodisa aruz ilmida zihof deb ataladi. Masalan, maf’ulun-faulun-faal-fa’ mafoiylun ruknining tarmoqlaridir.

Keling, endi asliy ruknlar (afoillar) bilan tanishaylik.

- |                |           |
|----------------|-----------|
| 1. Faulun      | V - -     |
| 2. Foilun      | - V -     |
| 3. Mafoiylun   | V - - -   |
| 4. Foilotun    | - V - -   |
| 5. Mustaf’ilun | - - V -   |
| 6. Mafulotu    | - - - V   |
| 7. Mutafoilun  | V V - V - |
| 8. Mafoilatun  | V - V V - |

Bu asliy ruknlarning turlicha shaklda birikishidan endi bahrlar vujudga keladi. Aruzda 19 ta bahr mavjud. Ulardan ramal, hazaj, rajaz, mutaqorib bahrlari turkiy adabiyotda keng qo‘llanilib kelingan. Masalan, Husayniy(Husayn Boyqaro) devonidagi she’rlarning barchasi ramal bahrida yozilgan.

Bahrlar, asosan, quyidagi qo‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

**1. Bir xil ruknning aynan takrorlanishi:**

- **foilotun** ruknining aynan takrorlanishidan **ramal bahri** vujudga keladi;
- **mafoiylun** ruknining aynan takrorlanishidan **hazaj bahri** paydo bo‘ladi;
- **faulun** ruknining aynan takrorlanishidan **mutaqorib bahri** hosil bo‘ladi;
- **mustaf’ilun** rukni aynan takrorlansa, **rajaz bahri** yuzaga keladi.

**2. Ikki xil ruknli bahrlar:**

- **mafoiylun va foilotun** ruknlarining ketma-ket takrorlanishidan **muzore’ bahri** hosil bo‘ladi;
- **foilotun va mustaf’ilun** ruknlarining qo‘shilib takrorlanishidan **hafif va mujtass bahrlari** vujudga keladi va h.k.

Bayt 4 rukndan iborat bo‘lsa – **murabba’**, 6 ruknli bo‘lsa – **musaddas**, agar 8 ruknli bo‘lsa, **musamman** hisoblanadi.

Ba'zan baytdagi asliy ruknlar qisqarmasdan to'laligicha takrorlanishi, masalan, **foilotun, foilotun, foilotun** tarzida kelishi yoki sifat va son jihatidan qisqarishi, o'zgarishga uchrashi mumkin.

Agar baytdagi rukn o'zgarishsiz to'laligicha takrorlansa, bunday bayt «solim», ohirgi rukn foilun tarzida qisqarsa «mahzuf», bordi-yu, «foilon» shaklida qisqarsa «maqsur» deb ataladi.

Ke-cha kel-gum // dur de-bo-nul // sar-vi gul-ru // kel-ma-di,  
*fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun*

Ko'z-lar-rim-g'a // ke-cha tong ot // qu-cha uy-qu // kel-ma-di.  
*fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lo-tun fo-i-lun*

Ko'rib turganingizdek, ohirgi rukn o'zgarishga uchrayapti. G'azal hijolar sifati va tarkibi, joylashuviga ko'ra **ramal** bahrida yozilgan bo'lib, 8 ta rukndan iborat, ohirgi rukn **foilun** tarzida qisqarib kelyapti. Demak, bu g'azal **ramali musammani mahzuf** deya nomlanadi (agar **foilun** tarzida qisqarganda edi «**maqsur**» deb atalgan bo'lardi).

- Faqat turkiy adabiyotgagina xos bo'lgan tuyuq, odatda, 6 (bir baytda)rukndan iborat bo'lganligi va ohirgi bayt «**foilon**» tarzida o'zgarishga uchrashi (- V ) sababli qat'iy **ramali musaddasi maqsur** deb yuritiladi.

Baytda birin-ketin joylashgan har bir rukn o'zining alohida nomiga ega:

1. Sadr - birinchi misraning birinchi rukni;
2. Hashv - bayt o'rtasidaga rukn (bayt 6 ruknli bo'lsa, hashv ikkita, 8 ruknli bo'lsa hashv to'rtta bo'ladi);
3. Aruz - birinchi misraning ohirgi rukni;
4. Ibtido - ikkinchi misraning birinchi rukni;
5. Ajuz - ikkinchi misraning ohirgi rukni.

**Adabiyot nazariyasiga oid adabiyotlarning QR kodi**



### **Topshiriqlarni bajaring:**

1. Quyida berilgan baytlarni avval ruknlarga ajratib chiqing.
2. Har bir rukn hijolarining cho‘ziq yoki qisqaligini aniqlang va ular ostiga o‘z belgilarini qo‘yib chiqing.
3. Ruknlar miqdori, solim yoki zihofga (qisqarishga) uchragan yo uchramaganligiga qarab, g‘azalning qanday nomlanishini aniqlang.

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas. (A. Navoiy)

Charxning men ko‘rmagan jabru jafosi qoldimu,  
Xasta ko‘nglum chekmagan dardu balosi qoldimu? (Bobur)  
Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim,  
Jon base qildim fido, oromijone topmadim. (A. Navoiy)

Barcha shodlik senga bo‘lsin, bor sitam, zorlik menga,  
Barcha dildorlik senga-yu barcha xushtorlik menga. (E. Vohidov)

Yuzung ochkim, quyosh sadqang bo‘lib boshingdin aylansun,  
Yangi oy yuz tavozu’ ko‘rguzib qoshingdin aylansun. (Ogahiy)

O‘zga millat uchsalar, hikmat topib so‘yi samo,  
Bizni ellar loaqal yer uzra davron istamas. (Hamza)

### **Savollar:**

1. Qanday adabiy janrlarni bilasiz?
2. Epik janrlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Liro-epik janrlar deganda nima tushunasiz?
4. Qofiya nima?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Lirik janrlar bilan tanishing.
2. G‘azal janriga oid asarni yod oling.
3. Liro-epik janrga oid asarlarga xos xususiyatlarni aytib bering.
4. Nasriy sher haqida ma’lumot bering.

### **Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. O‘zbek klassik adabiyotida eng ko‘p tarqalgan janr ...**

- A) ruboiy
- B) tuyuq
- C) muammo
- D) fard
- E) g‘azal

**2. G‘azalning qofiyalanish tartibi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) a-a-a-a, b-b-b-b...
- B) a-a, b-a, v-a...

- C) a-a-a-a, b-b-b-b-a...
- D) a-a, b-b, v-v, g-g...
- E) a-a-a, b-b-a, v-v-v...

**3. G‘azali husni matla’ nima?**

- A) barcha misralari o‘zaro qofiyalangan g‘azal.
- B) matla’si va maqta’si o‘zaro qofiyalangan g‘azal.
- C) birinchi va ikkinchi baytlari ham o‘zaro qofiyalangan g‘azal.
- D) faqat birinchi bayti o‘zaro qofiyalangan g‘azal.
- E) faqat oxirgi bayti qofiyalangan g‘azal.

**4. Qofiya deganda, nimani tushunmoq kerak?**

- A) bir xil tovushlarning misra boshida takrorlanib kelishini
- B) bir xil so‘zlarning misra o‘rtasida takrorlanib kelishini
- C) bir xil so‘zlarning misra oxirida takrorlanib kelishini
- D) misradagi o‘zaro ohangdosh so‘zlarni
- E) ochiq bo‘g‘indan iborat bo‘lgan so‘zlarni

**5. Raviyni qanday tushunasiz?**

- A) qofiyadan oldin kelgan tovush
- B) qofiyadan keyin kelgan tovush
- C) qofiyani tashkil etgan oxirgi tovush
- D) qofiyani tashkil etgan birinchi tovush
- E) qofiyadan keyin kelgan so‘z

**6. Saj’ nima ?**

- A) nasriy qofiya
- B) she’riy qofiya
- C) qofiyadan avval takrorlangan so‘z
- D) qofiyadan keyin takrorlangan so‘z
- E) qofiyani tashkil etgan so‘z

**7. Vasl ...**

- A) qofiyadan keyin takrorlanuvchi so‘z
- B) qofiyadan avval takrorlanuvchi so‘z
- C) qofiyani tashkil etuvchi tovush
- D) qofiyani tashkil etuvchi tovushdan keyingi tovush
- E) qofiyadan avval va keyin keluvchi tovush

**8. Misra boshida yoki o‘rtasida qofiyadan takrorlanib keluvchi so‘z .**

- A) radif
- B) xojib
- C) saj’
- D) vasl
- E) qofiya

**9. Taronai ruboiy qanday qofiyalanadi?**

- A) a-a-a-a
- B) a-b-a-b
- C) a-a-a-b
- D) a-b-a-a
- E) a-b-b-a

**10. A.lisher Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” kulliyotidan nechta g‘azal o‘rin olgan?**

- A) 3 mingta
- B) 10 mingta
- C) 2900 ta
- D) 2600 ta
- E) 5000 ta

**11. A. Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” kulliyotidagi ruboiylar soni...**

- A) 52 ta
- B) 86 ta
- C) 165 ta
- D) 133 ta
- E) 2600

**12. Quyidagi janrlardan qaysi biri bevosita turkiy adabiyot bilan bog‘liq ?**

- A) tuyuq
- B) ruboiy
- C) g‘azal
- D) fard
- E) muammo

**13. Tuyuq qofiyasi nimaga asoslanadi ?**

- A) sinonim so‘zlarga
- B) antonim so‘zlarga
- C) omonim so‘zlarga
- D) ko‘chma ma’noli so‘zlarga
- E) bir ma’noli so‘zlarga

**14. Murabba’ning qofiyalanish tartibini ko‘rsating.**

- A) a-a-a-a, b-b-b-a, v-v-v-a ...
- B) a-b-a-b, v-a-v-a, g-a-g-a ...
- C) a-a-a-a, b-b-b-b, v-v-v-v ...
- D) a-b-b-b, a-v-v-v, g-g-g-a ...
- E) a-a-a-a-a, b-b-b-b-b-a ...

**15. Har bandi besh misradan iborat bo'lgan va a-a-a-a-a, b-b-b-b-a tarzida qofiyalanadigan she'r nima deb ataladi?**

- A) g'azal
- B) musaddas
- C) ruboiy
- D) muxammas
- E) musabba'

**16. Qaysi javobda qit'aga to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A) faqat ikki baytdan iborat bo'ladi va a-a, b-b tarzida qofiyalanadi.
- B) ikki baytdan besh baytgacha bo'ladi va b-a, v-a, g-a tarzida qofiyalanadi.
- C) faqat bir baytdan iborat bo'ladi va a-a tarzida qofiyalanadi.
- D) uch baytdan iborat bo'ladi va a-b, v-v tarzida qofiyalanadi.
- E) to'rt baytdan iborat bo'ladi va a-a, b-b, v-v tarzida qofiyalanadi.

**17. A) Navoiy qit'alari soni taxminan qanchaga boradi ?**

- A) 2000
- B) 5000
- C) 300 dan ortik.
- D) 133ta
- E) 500ta

**18. Har bandi yetti misradan iborat bo'lgan she'r....**

- A) musaddas
- B) musabba'
- C) musamman
- D) mulamma
- E) murabba'

**19. Qaysi javobda qasidaga to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A) yolgiz baytli bo'lgan va ulug'larni ta'riflashga bag'ishlangan she'r
- B) mashhur tarixiy shaxslar, mu-him tarixiy joylar, voqealar ta'riflangan tantanali ruhda yozilgan she'r
- C) mashhur tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar, tabiat voqealari va fasllari ulug'lanib, tantanali ruh bilan yozilgan she'r
- D) muhabbat mavzuida yozilgan she'r
- E) faqat tarixiy shaxslar ulug'langan she'r

**20. Yolg'iz baytdan iborat bo'lgan she'r ...**

- A) tuyuq
- B) fard
- C) qit'a
- D) ruboiy
- E) murabba'

**21. Muammo deganda qaysi janrni tushunmoq kerak?**

- A) mashhur tarixiy shaxslar ulug‘langan she’r.
- B) muhabbat mavzuida yozilgan she’r.
- C) biror predmet nomi yashiringan she’r.
- D) biror shaxs nomi yashiringan she’r.
- E) biror voqea nomi yashiringan she’r.

**22. O‘zbek adabiyotida topishmoq she’r qanday nomlanadi?**

- A) lug‘z yoki chiston
- B) muammo
- C) tarkibband
- D) tarje’band
- E) mulamma

**23. O‘zbek klassik adabiyotida dostonlar asosan ...**

- A) murabba’ shaklida yaratilgan.
- B) musaddas shaklida yaratilgan.
- C) muxammas shaklida yaratilgan.
- D) masnaviy shaklida yaratilgan.
- E) musamman shaklida yaratilgan.

**24. Alisher Navoiy qaysi she’riy shaklni “usuli xub” deb atagan edi?**

- A) murabba’
- B) g‘azal
- C) masnaviy
- D) ruboiy
- E) fard

**25. Italyancha yangilik ma’nosini ifodalovchi, inson xayotidan kichik bir epizod olinib, uning eng muhim, tipik tomonlarini o‘ta ixcham shaklda yorituvchi asar...**

- A) roman
- B) povest
- C) novella
- D) komediya
- E) qissa

**26. Esdaliklar, xotiralar tasvirlangan, adibning bevosita o‘zi ishtirok etgan, shohidi bo‘lgan voqealarni tasvirlovchi asar...**

- A) roman
- B) povest
- C) memuar
- D) tragediya
- E) novella

**27. Klassik adabiyotimizda dostonlar asosan asosan nima bilan boshlanadi?**

- A) hamd
- B) na't
- C) debocha
- D) prolog
- E) epilog

**28. Fransuzcha “raqsga tushaman” ma’nosini beruvchi she’riy janr...**

- A) poema
- B) ballada
- C) tragediya
- D) masal
- E) komediya

**29. Masal janri nimaga asoslanadi?**

- A) allegorik obrazlarga
- B) antonim so‘zlarga
- C) omonim so‘zlarga
- D) iboralarga
- E) realistik obrazlarga

**30. Masal janrida ijod qilgan adiblar nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Jek London, Dyuma, Lev Tolstoy.
- B) Ezop, Lefonten, Krilov, Gulxaniy.
- C) Navoiy, Bobur, Lutfiy, Gulxaniy.
- D) Gadoiy, Muqimiy, Muammoiy, Hamza
- E) Merime, Mopassan, Gulxaniy, Hamza

**31. Dramatik turga mansub janrlarni ko‘rsating.**

- A) roman, hikoya, novella, komediya
- B) komediya, tragikomediya, vodevil, hikoya
- C) ssenariy, tragediya, komediya, intermediya, povest
- D) tragediya, komediya, intermediya, vodevil, tragikomediya
- E) tragediya, vodevil, povest, intermediya

**32. Dramatik turga mansub bo‘lgan asarlarning umumiy nomi...**

- A) pesa
- B) tragediya
- C) drama
- D) komediya
- E) tomosha

**33. Grekcha “echki qo‘shig‘i” so‘zlaridan olingan janr nima?**

- A) pesa
- B) komediya
- C) ballada
- D) tragediya
- E) qo‘shiq

**34. Tragiklar deb kimlarni atashgan?**

- A) Dionis deb ataluvchi xudo sharafiga qurbonlik — echki olib boruvchi kishilarni
- B) Afrodita deb ataluvchi go‘zallik xudosi sharafiga qurbonlik — gul olib boruvchi kishilarni
- C) Zevs sharafiga echki olib boruvchi kishilarni
- D) Sahnada bir-birini o‘ldiruvchi gladiatorlarni
- E) qullikka mahkum etilgan negrlarni

**35. Tragediya janrida ijod etgan mashhur adiblar...**

- A) Molper, Mopassan, Merime, Golsuorsi
- B) Navoiy, Hiloliy, Geyne, Dyuma
- C) Shekspir, Gogol, Esxil, Gorkiy
- D) Sofokl, Esxil, Evripid, Shekspir
- E) M. Shayxzoda, Behbudiy, G‘. G‘ulom

**36. Dramatik asarlarda qahramonlarning tashqi qiyofasi, yoshi, xatti-harakati, sahna buyumlari haqida muallif tomonidan berilgan izoh nima deb ataladi?**

- A) epilog
- B) portret
- C) peyzaj
- D) remarka
- E) dialog

**37. Monolog...**

- A) ikki kishining o‘zaro suhbat.
- B) bir kishining o‘ziga yoki tomoshabinga qarata aytgan gap
- C) muallif beradigan izohlar.
- D) asar qahramonlarining tashqi ko‘rinishi haqidagi izohlar
- E) To‘g‘ri javob yo‘q.

**38. Klassik adabiyotimizda biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsaga o‘xshatish san’ati nima deb ataladi?**

- A) tazmin
- B) istiora
- C) talmeh
- D) tashbeh
- E) intoq

**39. Ifrot san'ati nima?**

- A) biror voqeani unga dahli bo'lmagan hodisa bilan asoslash
- B) o'ta kichraytirish
- C) she'rda biror xalq maqolini keltirish
- D) misralarda bir xil tovushlar uyg'unligi
- E) qofiyadan avval bir xil so'zlar takrori

**40. Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,  
Ko'zlarimga kecha tong otqucha uyqu kelmadi. (A.Navoiy)**  
Ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?

- A) tashbeh
- B) istiora
- C) irsoli masal
- D) iltizom
- E) taxmis

**41. Omonim so'zlar asosan qaysi janrda qo'llaniladi?**

- A) qit'ada
- B) ruboiyda
- C) g'azalda
- D) tuyuqda
- E) fardda

**42. Antonim so'zlar vositasida yaratiladigan san'at...**

- A) tashbeh
- B) tazmin
- C) tajnis
- D) tazod
- E) istiora

**43. Talmeh...**

- A) fikrni chiroyli asoslash
- B) she'rda biror tarixiy yoki afsonaviy shaxs, tarixiy joy yoki voqealarga ishora qilish
- C) biror tarixiy shaxs qiyofasini bo'rttirib ko'rsatish
- D) voqeani o'ta kichraytirib ko'rsatish
- E) baytda biror xalq maqolini keltirish

**44. Baytda bir yo'la bir necha so'zlarning o'zaro qofiyalanib kelishi...**

- A) talmeh
- B) tarse'
- C) iltizom
- D) ishtiyoq
- E) tashxis

**45. Sendek menga bir yori jafokor topilmas,  
Mendek senga bir zori vafodor topilmas. (Z. M. Bobur)**  
Ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?

- A) tarse'
- B) tazmin
- C) tashbeh
- D) takrir
- E) hojib

**46. Fig'on aylar, rubobi yod qilur,  
Urar ko'ksigayu, faryod qilur...**  
Ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?

- A) tarse'
- B) ifrot
- C) ig'roq
- D) tashxis
- E) talmeh

**47. Ikki yoki uch tilda yozilgan she'r qanday nomlanadi?**

- A) shiru shakar
- B) shahdu shiru shakar
- C) irsoli masal
- D) mulamma
- E) A va B

**48. Ishtiyoq san'ati nima?**

- A) barcha baytlarning o'zaro qofiyalanishi
- B) baytlarda o'zakdosh so'zlarning takrori
- C) misra boshida bir xil so'z takrori
- D) misralarda bir xil tovushlar uyg'unligi
- E) baytda bir yo'la ikki yoki uch so'zning qofiyalanishi

**49. Husni ta'lil...**

- A) o'z fikrini chiroyli asoslash san'ati
- B) voqealarni o'ta bo'rttirib ko'rsatishi
- C) voqealarni o'ta kichraytirib ko'rsatish
- D) bir predmet yoki tushunchani boshqa predmet yoki tushunchaga o'xshatish
- E) ikki yoki uch so'zning qofiyalanishi

**50. Tovug'i ignachi-yu o'rdagi, g'ozi kapalak .... (Maxmur)**  
Ushbu misrada qanday badiiy san'at qo'llanilgan?

- A) tashbeh
- B) tashxis
- C) tazmin

- D) tarse'
- E) ifrot

**51. O'zga shoir g'azalidan bir bayt yoki bir misra olib, xuddi shu vazn shu qofiya va radifda boshqa bir g'azal bitish nima deyiladi?**

- A) tarse'
- B) tazmin
- C) tashxis
- D) tazod
- E) ifroq

**52. Qofiyadan avval takrorlanib keluvchi so'z...**

- A) hojib
- B) radif
- C) vasl
- D) raviy
- E) ridf

**53. Bunda bulbul kitob o'qiydi,**

**Bunda qurtlar ipak to'qiydi... (H.Olimjon)**

Ushbu misralarda qanday tasviriy san'at qo'llanilgan?

- A) tashxis va tarse'
- B) anafora va tashxis
- C) faqat tashxis
- D) tarse' va tazmin
- E) tazmin va ifrot

**54. Tig' ila yorib jigarim yonini,**

**Yerga oqizdi jigarim qonini...**

Navoiydan olingan ushbu baytda qanday badiiy san'at qo'llanilgan?

- A) muvashshah
- B) tashbeh
- C) ishtiyoq
- D) hojib
- E) radif

**55. Tajnis san'ati...**

- A) ikki predmetni qarama-qarshi qo'yish
- B) fikrni chiroyli asoslash
- C) voqealarni haddan ziyod bo'rttirish
- D) voqealarni haddan tashqari kichraytirish
- E) shakldosh (omonim) so'zlar asosida she'r yaratish

**56. Forsiy adabiyotda gʻazal mulkining sultoni kim boʻlgan?**

- A) Umar Xayyom
- B) Hiloliy
- C) Binoiy
- D) Hofiz Sheroziy
- E) Saʼdiy Sheroziy

**57. Ruboiy janrida eng goʻzal sheʼrlar bitgan fors-tojik shoiri kim?**

- A) Saʼdiy Sheroziy
- B) Turdiy
- C) Furqat
- D) Umar Xayyom
- E) Rumi

**58. Boshqa biror shoir gʻazaliga bogʻlangan sheʼr...**

- A) tazmin
- B) taxmis
- C) muxammas
- D) musaddas
- E) tatabbu

**59. A) Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonidan qancha fard oʻrin olgan?**

- A) 86 ta
- B) 79 ta
- C) 133 ta
- D) 2600 ta
- E) 165 ta

**60. Oʻzbek klassik adabiyotida koʻproq chiston janrida ijod qilgan adib..**

- A) Nodirabegim
- B) Uvaysiy
- C) Bobur
- D) Muqimiy
- E) Anbar Otin

**61. Adiblar hayoti va ijodi haqida muxtasar maʼlumot beruvchi asar qanday nomlanadi?**

- A) tazmin
- B) tatabbu
- C) memuar
- D) tazkira
- E) xotira

**62. Menga Bayron bir jahonu, menga Pushkin bir jahon,  
Lek Navoiydek bobom bor, ko'ksi osmon o'zbe'gim.**

*(E. Vohidov.)*

Ushbu baytdagi badiiy san'atni toping.

- A) o'xshatish
- B) talme'h
- C) istiora
- D) takrir
- E) A va B

**63. "Echki qo'shig'i" so'zi qaysi janrni eslatadi?**

- A) dramani
- B) komediyani
- C) tragediyani
- D) romanni
- E) balladani

**64. Pauza bilan ajratilgan, teng bo'laklardan tuzilgan va misralar bo'yicha ma'lum tartibda takrorlanib keladigan misra bo'lagi...**

- A) turoq
- B) radif
- C) hojib
- D) epitaf
- E) remarka

**65. Dramatik tur asosan nimaga asoslanadi?**

- A) voqealarning o'ta keskin berilishiga
- B) monolog va dialoglarga
- C) ko'proq badiiy tasviriyl vositalarga
- D) qahramonlarning kam ishtirok etishiga
- E) voqealarning haqqoniy berilishiga

**66. She'rda hijolarning bir me'yorda cho'ziq va qisqa bo'lib takrorlanib kelishi qaysi vaznga xos?**

- A) barmok
- B) sarbast
- C) aruz
- D) erkin
- E) B va C

**67. Nasriyl she'r deganda nimani tushunmoq kerak?**

- A) aruzda yozilgan she'r
- B) barmoq vaznida yozilgan she'r
- C) erkin vaznda yozilgan she'r
- D) qofiyasi bo'lmagan she'r
- E) qat'iy bir vazni bo'lmagan, ta'sir kuchi baland bo'lgan sochma she'r

**68. O‘zbek she‘riyatida qo‘llanilib kelgan vaznlar qaysi javobda to‘g‘ri va to‘liq ko‘rsatilgan?**

- A) aruz, sarbast, erkin, vaznlar
- B) barmoq, aruz, erkin vaznlar
- C) aruz, lirik, epik, dramatik vaznlar
- D) lirik, epik, dramatik vaznlar
- E) barmoq, sillabo-tonik, sarbast vaznlar

**69. Barmoq vazni nimaga asoslanadi?**

- A) misralardagi bo‘g‘inlar miqdorining tengligiga
- B) misralarda qisqa va cho‘ziq hijolarning ma’lum tartibda guruhlanib kelishiga
- C) baytda bo‘g‘inlar sonining har xil bo‘lishiga
- D) misralarda ochiq va yopiq bo‘g‘inlarning ma’lum tartibda kelishiga
- E) baytda hijolarning urg‘u olish yo olmasligiga

**70. Turkiy adabiyotda barmoq tizimida yozilgan qadimgi yozma yodgorlikni aniqlang.**

- A) “Alp Er To‘nga marsiyasi”
- B) “Tong tangrisiga madhiya”
- C) Qutadg‘u bilig”
- D) A va B
- E) A, B, C

**71. Erkin vazn o‘zbek she‘riyatiga qachon kirib kelgan?**

- A) V –VII asrlarda
- B) XI asrda
- C) XVIII asrda
- D) XX asrning 30 yillarida
- E) XX asrning boshida

**72. Aruz vaznining asoschisi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Muhammad Shayboniyxon
- B) Halil ibn Ahmad
- C) Ibn Sino
- D) Yusuf Xos Hojib
- E) Ahmad Yugnakiy

**73. Misralarda qisqa va cho‘ziq hijolarning ma’lum tartibda guruhlanib kelishiga nima deyiladi?**

- A) aruz
- B) barmoq
- C) zihof
- D) rukn
- E) bahr

**74. Aruzda qanday hijolar qisqa hisoblanadi?**

- A) Faqat ochiq bo‘g‘inlar
- B) Unlisi qisqa talaffuz etiluvchi ochiq bo‘g‘inlar
- C) Unlisi cho‘ziq talaffuz etiluvchi ochiq bo‘g‘inlar
- D) Faqat yopiq bo‘g‘inlar
- E) B va C

**75. Aruzda qanday hijolar cho‘ziq hisoblanadi?**

- A) Yopiq bo‘g‘inlar
- B) Unlisi qisqa talaffuz etiluvchi yopiq bo‘g‘inlar
- C) Unlisi cho‘ziq talaffuz etiluvchi ochiq bo‘g‘inlar
- D) Faqat ochiq bo‘g‘inlar
- E) B va

**76. Rukn nima?**

- A) Baytda qisqa hijolarning birikishi
- B) Qisqa va cho‘ziq hijolarning birikishi
- C) Baytda hijolarning qo‘shilib ketishi
- D) Cho‘ziq va o‘ta cho‘ziq hijolarning qo‘shilib ketishi
- E) Baytda cho‘ziq va qisqa hijolarning ma’lum bir tartibda takrorlanib keluvchi bo‘lagi

**77. Aruzda nechta asliy ruknlar (asllar) mavjud?**

- A) 16 ta
- B) 19 ta
- C) 21ta
- D) 8 ta
- E) 12 ta

**78. Faulun ruknining taqti’si (paradigmasi)ni aniqlang.**

- A) – V – V
- B) V – V –
- C) V – –
- D) V – – V
- E) – V –

**79. Foilotun ruknining taqti’si qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) – V – –
- B) V – – –
- C) – – V V
- D) V – V V
- E) – V V V

**80. Mustaf'ilun ruknining taqti'sini belgilang?**

- A) – V V –
- B) – – V –
- C) – – – V
- D) V – V V
- E) V V – V

**81. Ma'foiylun rukning takti'si qaysi qatorda berilgan?**

- A) V – – V
- B) V – – –
- C) – – – V
- D) V V – –
- E) – – V

**82. Aruz ilmida asliy ruknlarning she'r misralarida turli o'zgarishlarga uchrashi nima deyiladi?**

- A) Fa'ala
- B) sakta
- C) zihof
- D) sabab
- E) vatad

**83. She'riy baytlarda asliy ruknlar qaysi jihatdan o'zgaradi?**

- A) Rukn tarkibidagi hijolarning soni jihatidan
- B) Rukn tarkibidagi hijolarning sifati jihatidan
- C) Rukn tarkibidagi hijolarning soni va sifati jihatidan
- D) Barcha javoblar to'g'ri
- E) To'g'ri javob yo'q.

**84. Hijolarning bir-biriga qo'shilib ketishi aruzda nima deb ataladi?**

- A) Afoil
- B) zihof
- C) vasl
- D) sabab
- E) vatad

**85. Faqat bir cho'ziq hijodan tashkil topgan bo'lak aruzda qanday nomlanadi?**

- A) Sababi hafif
- B) Sababi saqiyl
- C) Fosilai kubro
- D) Vatadi majmu'
- E) Fosilai sug'ro

**86. Fosilai sug‘ro qanday hijolardan tashkil topadi?**

- A) Qisqa+qisqa+cho‘ziq hijolardan
- B) Qisqa+qisqa+qisqa+cho‘ziq hijolardan
- C) Faqat bir qisqa hijodan
- D) Cho‘ziq+qisqa hijolardan
- E) Ikki qisqa hijolardan

**87. Aruzda bir qisqa va bir cho‘ziq (qisqa+cho‘ziq) hijolardan tashkil topgan maxsus bo‘lak qanday nomlanadi?**

- A) Vatadi majmu’
- B) Vatadi mafrug
- C) Fosilai sug‘ro
- D) Sababi saqiy
- E) Fosilai kubro

**88. Sabab, vatad, fosilalarning birikuvidan nimalar hosil bo‘ladi?**

- A) Ruknlar
- B) zihof
- C) sutun
- D) bahr
- E) zarb

**89. Baytning birinchi misrasidagi birinchi rukn qanday nomlanadi?**

- A) hashv
- B) ibtido
- C) sadr
- D) vasl
- E) zarb

**90. Ibtido deb qaysi ruknga aytiladi?**

- A) birinchi misraning birinchi rukniga
- B) ikkinchi misraning birinchi rukniga
- C) birinchi misraning ohirgi rukniga
- D) ikkinchi misraning ohirgi rukniga
- E) baytdagi o‘rta ruknlarga

**91. Aruzda birinchi misraning ohirgi rukni ...**

- A) aruz deb ataladi
- B) xashv deb ataladi
- C) sadr deb ataladi
- D) ajuz deb ataladi
- E) zarb deb ataladi

**92. Aruzda baytning o‘rta ruknlari qanday nomlanadi?**

- A) hashv
- B) sadr
- C) ibtido
- D) ajuz
- E) aruz

**93. Agar bayt bir xil ruknlarning to‘liq takrorlanishidan tashkil topgan bo‘lsa, u qanday nomlanadi?**

- A) solim
- B) mahzuf
- C) maqsur
- D) makfun
- E) makbuz

**94. Hazaj bahrining rukni va paradigmasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) foilotun ( –V – – )
- B) ma’foilun ( V – – – )
- C) foi’lun ( – V – )
- D) faulun ( V – – )
- E) mustaf’ilun ( – – V – )

**95. Ramal bahrining rukni va uning paradigmasi berilgan qatorni aniqlang.**

- A) foilotun ( –V – – )
- B) faulun ( V – – )
- C) foi’lun ( – V – )
- D) ma’foilun ( V – V V – )
- E) mustaf’ilun ( – – V – )

**96. Mutaqorib bahrining afoilini belgilang.**

- A) foi’lotun ( –V – – )
- B) faulun ( V – – )
- C) foilun ( – V – )
- D) mafoiylun ( V – – – )
- E) mustaf’ilun ( – – V – )

**97. Rajaz bahrining afoilini belgilang.**

- A) ma’foilun ( V – V V – )
- B) fa’ulun ( V – – )
- C) maf’ulotu ( – – – V )
- D) mustaf’ilun ( – – V – )
- E) foilun ( – V – )

**98. Agar hazajning asliy rukni – mafoiylun baytda 4 marta o‘zgarishsiz makrorlansa, u qanday nomlanadi?**

- A) Hazaji musaddasi mahzuf
- B) Hazaji musammani mahzuf
- C) Hazaji murabbai solim
- D) Hazaji musaddasi solim
- E) Hazaji musammani solim

**99. Agar mustaf’ilun rukni bir bayt 6 marta to‘liq takrorlansa, bayt qanday nomlanadi?**

- A) Rajazi murabbai solim
- B) Rajazi musammani solim
- C) Xazaji murabba mahzuf
- D) Xazaji musaddasi solim
- E) Rajazi musaddasi solim

**100. Agar baytda faulun rukni sakkiz marta to‘liq takrorlansa, u holda nima deb ataladi?**

- A) Rajazi musammani solim
- B) Hajazi musaddasi solim
- C) Ramali murabbai maqsur
- D) Mutaqoribi musammani solim
- E) Mutaqoribi musaddasi solim

**101. O‘zbek she’riyatida keng qo‘llanilgan aruz bahrlari qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

- A) Ramal, mushokil, rajaz, hazaj
- B) Komil, basit, madid, g‘arib
- C) Hazaj, ramal, rajaz, mutaqorib
- D) Munsarih, tavil, mutaqorib
- E) Mushokil, qarib, sari’

**102. Husayniy (Husayn Bayqaro) she’rlarining barchasi aruzning qaysi bahrida yozilgan?**

- A) Hazaj
- B) rajaz
- C) ramal
- D) mutaqorib
- E) komil

**103. Buyung sarvu sanuvbartek, beling qil,**

**Vafo qilg‘on kishilarg‘a vafo qil.**

“Muhabbatnoma”ning ushbu bayti qaysi vaznda bitilgan?

- A) ramal
- B) hazaj

- C) rajaz
- D) mutaqorib
- E) komil

**104. Topulmas husn mulkinda senga teng bir qamar manzar,  
Na manzar, manzari shohid, na shohid, shohidi dilbar?**

Sayfi Saroiyning ushbu bayti nomlanishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Ramali musaddasi mahzuf
- B) Hazaji musammani solim
- C) Rajazi musaddasi maqsur
- D) Mutaqoribi musammani aslam
- E) Mujtassi musammani mahbuni mahzuf

**105. Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinodin lolarang,  
G'ozadin yuzlarda tobu o'smadin qoshlar tarang.** (Furqat)

Ushbu baytning vaznini aniqlang.

- A) Ramali musammani mahzuf
- B) Ramali musammani maqsur
- C) Hazaji musaddasi solim
- D) Mutaqoribi musammani solim
- E) Hazaji musammani mahfuz

### 3-DARS

#### XALQ OG'ZAKI IJODI (FOLKLOR)

**Darsning maqsadi:** talabalarga o'zbek xalq og'zaki ijodi (folklor), jumladan, miflar (asotirlar), afsonalar, xalq dostonlari, xalq maqollari, ertaklar, mehnat qo'shiqlari haqida ma'lumot berish.

#### Reja:

1. Miflar (asotirlar).
2. Afsonalar.
3. Xalq dostonlari.
4. Ertaklar.
5. Xalq maqollari.

**Tayanch tushunchalar:** folklor, miflar, xalq dostonlari, ertaklar, xalq maqollari, mehnat qo'shiqlari, latifalar, askiya, lof, xalq qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, mavsum qo'shiqlari.

## **Xalq og‘zaki ijodi (folklor)**

Xalq og‘zaki ijodi - folklor (gr.- xalq donishmandligi) yozma adabiyotga nisbatan ancha avval paydo bo‘lgan, uning yozma adabiyotdan birmuncha farqli tomonlari bor. Birinchidan, folklor asarlarining muallifi aniq bo‘lmaydi, ular kollektiv, ko‘pchilik tomonidan yaratiladi. Bir ertak yo dostonni minglab odamlar turlicha aytganlar, kimdir voqea, epizodlarni qo‘shib yoki tushirib, o‘zgartirishlar kiritib aytgan, kimdir voqea va qahramonlarga keskin tus berib, bo‘rttirib aytgan. Demak, folklorga xos bo‘lgan xususiyatlarning yana biri variantlilikdir. Folklor asarlarining yana bir boshqa xususiyati o‘ta xalqchilligidadir, ularda oddiy xalq orzu-umidlari, oddiy xalqqa xos bo‘lgan oliy fazilatlar ulug‘lanib, yovuzlik, xudbinlik, tekinxo‘rlik, yolg‘onchilik va boshqa salbiy sifatlar qoralanadi. Asar oxirida ezgu kuchlar yovuzlik ustidan albatta g‘alaba qozonadilar. Yozma adabiyotda bo‘lganidek, folklorda ham o‘ziga xos janrlar mavjud.

### **Miflar (asotirlar)**

- Ibtidoiy odamlar tabiatda yuz beradigan hodisalar (fasllar almashishi, yorug‘lik va qorong‘ulikning tushishi, zilzila, qurg‘oqchilik va h.k.) sirini tushuna olmaganlar va bu hodisalar mohiyatini o‘zlaricha qandaydir ilohiy kuchlar bilan bog‘lab talqin etganlar, ular haqida og‘zaki hikoyalar to‘qiganlar. Miflarda yaxshilik va yovuzlik, yorug‘lik va qorong‘ulik, issiqlik va sovuqlik o‘rtasidagi kurashlar hikoya qilinib, ularda ko‘pincha xudolar qatnashganlar.

- Zardushtiylarning muqaddas “Avesto” kitobida naql qilinishcha, dunyoda ikki olam: ezgulik va yovuzlik olami mavjud. Ezgulik (yaxshilik) olamiga Axura Mazdo (Xurmuzd), yovuzlik olamiga esa Angra Manyu (Axriman) boshchilik qiladi. Xurmuzd Axrimanga qarshi birinchi odam — Kayumarsni yaratadi. Axriman uni o‘ldirsa ham, yaxshilik urug‘ini yo‘qota olmaydi. Bu kurashlarda Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Gershasp kabi mifologik qahramonlar ishtirok etadilar.

### **Afsonalar**

Afsonalar folklorning eng qadimiy, nisbatan kichik hajmli nasriy janri bo‘lib, unda u yoki bu voqeani hikoya qilish yetakchi o‘rin egallaydi. Afsonalar zamirida ma’lum darajada tarixiy voqea,

hodisalar yotsa-da, ular vaqt o'tishi bilan o'zlarining tarixiy ildizlarini yo'qotib borganlar, shu bois afsonalar xayoliy uydirmalarga aylanib qolgan. Aristotel afsonalarni «haqiqatdan darak beruvchi yolg'on hikoyalar» deya bejiz ta'riflamagan. Afsonalar, odatda, qisqa, bir-ikki epizoddan iborat bo'ladi, shunga ko'ra afsonalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- qahramonlik afsonalari (tarixiy afsonalar);
- sirli, tilsimli joylar (g'or, ko'l, tog', dengiz, okean) nomi bilan bog'liq bo'lgan afsonalar;
- diniy afsonalar.

### **“To'maris”**

“To'maris” afsonasi Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak afsonasidir. Uning mazmuni grek tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobi orqali bizgacha yetib kelgan. Miloddan avvalgi VI asrda bir necha mamlakatlarni ishg'ol etgan Kir Markaziy Osiyoga ham bostirib keladi. To'maris boshchiligidagi massagetlar qabilasi Kirga qarshi mardonavor kurash olib boradi. Raqibini kuch bilan yenga olmagan Kir yordamchisi Krezning maslahati bilan To'marisning o'g'li Sparangizni hiyla bilan qo'lga oladi va shu yo'l bilan jasur ayolni tiz cho'ktirmokchi bo'ladi. Biroq To'maris taslim bo'lmaydi, dushmanni yengadi. To'maris o'zi aytganidek, Kirning kallasini olib, uni qon bilan to'ldirilgan meshga soladi va bunday deydi: “Ey, nomard! Sen meni, seni jangda halollik bilan yengib chiqqan bir ayolni farzand dog'ida kuydirding. Sen umring bo'yi qonga to'ymading, men o'z ontimga amal qilib, seni qon bilan sug'ordim”.

### **“Shiroq”**

“Shiroq” afsonasida Markaziy Osiyo xalqlarining bosqinchi ahmoniylarga qarshi mardonavor kurash olib borgan sak qabilalari hayoti haqida hikoya qilinadi. Bu afsona mazmuni grek tarixchisi Polienning “Harbiy hiylalar” kitobi orqali bizga kadar yetib kelgan.

Qahramon massagetlar Kir ko'shinini tor-mor qildilar. Ammo keyingi ahmoniylar shohi Doro uchun bu saboq bo'lmadi. U ham Markaziy Osiyoga hujum qildi. Sak qabilalari boshliqlari Omarg, Saksfar, Oamirislarda dushmanga qarshi qanday kurashish lozimligi haqida maslahatlashib o'tirganlarida, ular oldiga cho'pon Shiroq kirib keladi. U qabila boshliqlariga hiyla bilan dushmanning butun lashkarini yenga olishi mumkinligini aytadi. Shu maqsadda u o'z

burun-quloqlarini kesib, dushman lashkarboshisi Ronosbat qoshiga keladi va unga shunday deydi: “Men qabilam boshliqlariga sizning oldingizda bosh egib taslim bo‘lishimiz kerakligi, sizga sadoqat bilan xizmat etishimiz lozimligini aytganimda, ular meni ana shu ko‘yga soldilar, endi men o‘z qabilamdan o‘ch olmoqchiman, agar ko‘nsangizlar, men sizlarni qabilamning orqa tomonidan boshlab borishim mumkin”. Dushman Shiroqning bu gaplariga ishonadi. Shiroq ularni tamoman boshqa tomonga — inson qadami yetmagan cho‘l tomonga boshlaydi. Oqibatda Doroning minglab qo‘shini suvsiz cho‘lda halok bo‘ladi. Mard cho‘pon ham halok bo‘ladi, ammo uning o‘limi minglab qabiladoshlarining hayotini saqlab qoladi.

### **Xalq dostonlari**

Dostonlar o‘zbek xalq og‘zaki ijodining qadimiy janri bo‘lib, ham nasriy, ham she‘riy shaklda aytiladi. O‘zbek dostonchiligida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Islom shoir, Ro‘zi baxshi, Qodir baxshilar o‘ziga xos dostonchilik maktabini yaratdilar.

O‘zbek xalq dostonlari orasida eng ko‘p tarqalgani “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlardir. Bu turkumga Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishidan tortib, vafotiga qadar davrni aks ettiruvchi oltmishga yaqin dostonlar kiradi, ularda xalqimizga xos mardlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak fazilatlar ulug‘lanadi. Turkumga kiruvchi har bir doston o‘zi bir mustaqil asar hisoblansa-da, ularni ma‘lum obrazlar (G‘irko‘k, qirq yigit, dev-parilar, Chambil), syujet chiziqlari bir-biriga bog‘lab turadi.

### **“Ravshan” dostoni**

Ravshan” dostoni 1928-yilda Hodi Zarif tomonidan mashhur o‘zbek baxshisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan. Asar Go‘ro‘g‘lining Vayangandan Hasanxonni, Xunxordan Avazxonni asrandi o‘g‘il qilib olib kelishi, Hasanxondan Ravshan, Avazxondan Gulianor dunyoga kelishi voqealari bilan boshlanadi. Ravshan va Gulianor barkamol bolalar bo‘lib voyaga yeta boshlaydilar. Go‘ro‘g‘li ikki nevarasining boshlarini qovushtirmoqchi bo‘ladi, ammo o‘g‘li Avazxon bunga rozi bo‘lmaydi. Bundan ranjigan Ravshanning ko‘nglini olish maqsadida buvisi sehrli uzuk beradi, unda go‘zal bir qizning surati solingan bo‘lib, “Zulxumor” degan ism yozib qo‘yilgan edi. Qizga g‘oyibona oshiq bo‘lgan Ravshan uni qidirib, Shirvon

o'lkasiga yo'l oladi, ko'p azoblar bilan uni topadi. Shirvon o'lkasida bir kampir bilan ona-bola tutinadi. Kampirning Aynoq kal (polvon), Jaynoq kal (masxaraboz), Ersak kal (mergan), Tersak kal (sinchi) ismli to'rtta tutingan o'g'li bo'ladi.

Ravshanni Zulxumor haramida ushlab oladilar va zindonga tashlaydilar. Zulxumor Ravshanning otasi Hasanxonga mayna orqali maktub yo'llab, 40 kun ichida yetib kelishi lozimligi, aks holda o'g'li dorga osilishini ma'lum qiladi. Xatni olgan Hasanxon uchqur otida Ravshanning qatl etilishi paytiga yetib boradi va uni o'limdan qutqazib qoladi.

### **“Alpomish” dostoni**

“Alpomish” turkiy xalqlarning qahramonlik dostonidir. Uning 1000 yilligini xalqimiz katta tantana bilan nishonladi. Dostonning mukammal nusxasi 1927-1928-yillarda Mahmud Zaripov tomonidan Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olindi.

*Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:*

Uzoq vaqt tirnoqqa zor bo'lgan aka-ukalar: Boybo'ri (shoh) va Boysari (boy) Shohimardon pirim huzurida qirq kun farzand tilab yotadilar. Nihoyat ularning orzulari ushaladi. Boybo'ri bir o'g'il va bir qiz ko'radi ularga Hakimbek va Qaldirg'och deb ism qo'yadilar, Boysari ham bir qiz ko'radi, uni Barchin deb ataydilar.

Bolalar aqlli, ilmi, baquvat bo'lib o'sa boshlaydilar. Qirq kunligida Hakimbek va Barchinni bir-biriga fотиha qilib qo'yadilar. Hakimbek yetti yoshga to'lganida, bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmonli parli yoyni qo'liga olib, otgan chog'ida Asqar tog'ining katta cho'qqisini o'pirib o'tadi. “Dunyoda bir kam to'qson alp o'tdi, Hakimbek to'qsoninchisi bo'lsin” - deya uni Alpomish deb atay boshlaydilar. Alpomish bir kuni kitob o'qib o'tirgan paytda otasi uni savolga tutadi: “Qanday odamni saxiy va qanday odamni baxil desa bo'ladi?” Hakimbek donolik bilan: “Uyiga mehmon kelsayu, joyi bo'la turib, uni mehmon qilmasa, baxil, mehmonni siylasa - saxiy, qabr yonidan o'tayotib otdan tushmay, gerdayib o'tib ketaversa, baxil, otdan tushib, o'tganlar haqiga fотиha o'qib o'tsa - saxiy, moli bo'la turib, shohga zakot bermasa baxil, bersa - saxiy” deya javob qaytaradi. Boybo'ri o'g'lining gaplarini eshitib, o'ylanib qoladi: “Men-ku, o'zim shoh bo'lsam, kimga ham zakot berardim, ukam boy, uning nomi baxilga chiqib qolmasin”, - deb o'n to'rt mahramini jo'natib, ukam, nomiga, bitta tirraqi, oriq echki bo'lsa ham menga zakot jo'natsin, deb

tayinlaydi. Mahramlardan bu gapni eshitgan Boysari g‘azablanadi: “Hali akamiz o‘g‘illik bo‘lib, odam bo‘pti-yu, biz odam bo‘lmadikmi”, - deb, yetti mahramni qorniga qoziq qoqib, o‘ldiradi, qolgan yettitasining quloq-burunlarini kesib, o‘zlariga yegizib, otlariga chappa o‘tqizib, “zakot degan mana shunaqa bo‘ladi”, - deb haydab yuboradi.

Zakot tufayli aka-uka orasida yuz bergan sovuqchilik ularni ajratib yuboradi. Boysari o‘n ming uyli qo‘ng‘irot elini boshlab Qalmoq yurtiga ketadi. Qalmoq shohi Toychaxonning yaqin kishisi bo‘lgan Surxayl kampir va uning o‘g‘illari tufayli Boysari va Barchin boshlariga ko‘p kulfatlar tushadi. Kampirning yetti o‘g‘li bor edi, ularning to‘ng‘ichini Ko‘kaldosh deb atardilar. Kampirning o‘g‘illari Barchinga oshiq bo‘lib, unga sovchilikka boradilar. Barchin ulardan olti oy muhlat so‘raydi va Hakimbekka xat yo‘llaydi. Xat Boybo‘rining qo‘liga tushadi va u maktubni sandiqqa yashirib qo‘yadi. Qaldirg‘och bir kuni xatni topib olib, o‘qib ko‘radi va akasini Barchinni qutqazib kelishga undaydi. Avvaliga ikkilangan Hakimbek otasining har qancha qarshiligiga qaramay Qalmoq yurtiga jo‘naydi. Chilvir cho‘lida Murodtepaga chiqib, dam olib yotganida, Surxayl kampirning kenja o‘g‘li Qorajon kelib qoladi, ular ajralmas do‘st bo‘lib qoladilar.

Barchin va‘daga vafo tariqasida to‘qson alp oldiga to‘rtta shart qo‘yadi: poygada, kurashda, yoy tortishda, merganlikda kim g‘olib chiqsa, o‘shanga turmushga chiqaman deydi. Alpomishning qistovi bilan poygada uning o‘rnida Qorajon qatnashadi, Qorajon Hakimbekning oti Boychiborda akalaridan ancha avval manzilga yetib boradi. Akalari alamidan Qorajonning oyoq-qo‘llarini bog‘lab, Boychiborning oyoqlariga mixlar qoqib qaytib ketishadi. Biroq qattiq silkingan Boychibor Qorajonni mindirib, yana o‘qday uchib ketadi va manzilga birinchi bo‘lib yetib keladi, Barchinning o‘tovini yetti marta aylanadi. Barchin ro‘moli bilan otning ko‘z yoshlarini artadi, oyoqlaridagi mixlarni tishlari bilan sug‘urib oladi. Keyingi shartlarda Hakimbekning o‘zi g‘olib chikadi, Barchin va amakisi Boysarini olib, Qo‘ng‘irot eliga qaytish taraddudiga tushadi, ammo akasidan alamzada bo‘lgan Boysari qaytishga ko‘nmaydi, Qalmoq yurtida qoladi va ko‘p azoblar ko‘radi. Surxaylning gaplari bilan Toychaxon Boysarining butun mollarini tortib oladi va unga o‘z mollarini boqtiradi. Boysari Qo‘ng‘irot eliga ketayotgan karvondan boshiga

tushgan kulfatlar haqida qiziga xat yuboradi. Xatni olib o'qigan Barchin Hakimbekdan otasini qutqazib kelishini so'raydi. Hakimbek otasining qarshiligiga qaramay, Qalmoq yurtiga yo'l oladi. Alamzada Surxayl Hakimbekni hiyla bilan ushlash maqsadida yo'lda uni poylab o'tiradi. Hakimbek yetib kelgach, unga onalarcha "mehr" ko'rsatib, Toychaxon zulmidan qutqazishni so'raydi. Hakimbek va uning yigitlari Surxayl kampir uyida mehmon bo'ladilar. Yovuz kampir yigitlarga kuchli uxlatuvchi dori berib, asir oldiradi va uning yigitlarini o'ldirtiradi. Behush yotgan Hakimbekni otiga bog'lab, zindonga olib kelib tashlaydilar, Boychiborni ham bandi qilib tashlaydilar.

Toychaxonning Tovka oyim degan bir qizi bo'lib, u Yangibozorning raisi edi. Tasodifan zindon yoniga kelib qolgan Tovka oyim Hakimbekni ko'rib, unga oshiq bo'lib qoladi. U o'z haramidan zindonga tomon lahm qazdiradi va shu yo'l bilan Hakimbek yoniga boradi. Biroq bu lahmga Alpomishning boshi ham sig'maydi. Bu sirdan xabar topgan Surxayl Toychaxonga Zil tog'idan besh yuz aravada tosh olib kelib, Alpomish ustiga tashlashni maslahat beradi. Hakimbek Tovka oyimga isiriq beradi va uni oti yonida tutatishni so'raydi. Isiriq hididan Hakimbekning tirikligini bilib, Boychibor bir kuchli silkinadi, zanjirlarni uzib, zindon yoniga yetib keladi, dumini tushirib, Hakimbekni zindondan qutqazib qoladi.

Hakimbek zolim Toychaxonni yo'qotib, o'rniga cho'pon Kayqubodni shoh qilib ko'taradi va o'z yurtiga qaytadi. Bu yerda esa uni qachonlardir o'ldiga chiqarib qo'yishgan, o'gay ukasi Ultontoz Barchinga uylanmoqchi bo'lib turgan, Hakimbekning o'g'li Yodgor va singlisi Qaldirg'och, do'sti Qorajonlar uning yo'liga mushtoqlik bilan ko'z tutardilar. Hakimbekni birinchi bo'lib qora nor tuyasi tanib qoladi, uning atrofini yetti marta aylanib, tavof qiladi. U Qultoyni uchratib, uning kiyimlarini kiyib, cho'pon qiyofasida uyiga keladi. Taxtni egallab olgan, o'g'li, singlisi boshiga ko'p kulfatlar keltirgan Ultontozni o'ldirib, Barchin bilan maqsadlariga yetadi.

## **Ertaklar**

•Ertaklar folklorning eng ommalashgan qadimiy nasriy janrlaridan biri bo'lib, unda xalqning qahramonlik, vatando'stlik, insonparvarlik haqidagi orzu-umidlari, turmushi, milliy xarakteri, dunyoqarashi o'z ifodasini topadi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu

lug‘otit turk” asarida “ertak” tushunchasi “etuk” tarzida ifodalangan, xalq orasida esa “cho‘pchak”, “ushuk”, “masala” deb ham yuritilgan.

•Ertaklarning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, uning boshlanishi ham, tugallanishi ham an‘anaviy bir xillikka ega bo‘ladi. Ular “Bor ekan-da, yo‘q ekan...” gapi bilan boshlanib, “... murod maqsadlariga yetibdilar” shaklida tugaydi. Ertaklarda faqat bayonchilik emas, badiiy obrazlar xatti-harakati orqali tinglovchilarning ruhiy olamiga ta’sir ko‘rsatish asosiy maqsad qilib qo‘yiladi. Jahon xalqlari og‘zaki ijodida, ayniqsa, “Ming bir kecha” ertagi juda mashhur bo‘lib ketgan. Uning Alovuddin, Ali bobo kabi qahramonlari bizning xotiramizda bolalikdan naqshlanib qolgan. Ertaklar mavzu doirasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

•**sehrli-fantastik ertaklar:** bu ertaklar zamirida asosan sehr-jodu, tilsim yotadi, ularning qahramonlari afsonaviy sehrli kuchga ega bo‘ladilar, devlar, ajdaholar bilan baravar kurashadilar va ularni yengadilar;

•**maishiy ertaklar:** bu ertaklarda ko‘pincha xalq turmushida kechadigan kutilmagan voqealar, rostguylik va yolg‘onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik, halollik va firibgarlik bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar hikoya qilinadi;

•**ishqiy-sarguzasht ertaklar:** xalq tomonidan to‘qilgan bu ertaklarning qahramonlari ko‘pincha har qanday to‘siqlar, qiyinchiliklarni yengib o‘tib, sevgida vafodorligi, mardligini ko‘rsatadilar;

•**hayvonlar haqidagi ertaklar:** bu ertaklarda insonlar qatnashmasa-da, aslida har bir obraz tagida inson hayoti, uning xatti-harakati, xulqi, fazilatlari yotadi. Masalan: bo‘ri - yovuzlik, tulki - ayyorlik, chumoli -mehnatsevarlik timsoli sifatida gavdalanadi.

### **Xalq maqollari**

Xalqning hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan, o‘zida ibratli, dono fikrlarni ixcham ifodalovchi hikmatlar maqol deb ataladi. Maqollar zamirida xalqning uzoq yillar davomida orttirgan hayotiy saboqlari, olijanob xislatlari yotadi, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, rostgo‘ylik, halollik, katta-kichikka, ota-onaga hurmat kabi yuksak fazilatlarni egasi bo‘lishga da’vat etiladi.

Turkiy xalqlar orasida tarqalgan maqollar bizga asosan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari orqali yetib kelgan. Bu maqollarda vatanga muhabbat, uni ardoqlash, muqaddas deb bilish yuksak fazilat ekanligi uqtiriladi: "Tulki o'z iniga ursa, o'juz bo'lur" (Tulki o'z iniga qarab ulisa, qo'tir bo'ladi), "Tulum anutsa, qulun bo'lur - tulum unutsa, bolun bo'lur" (Dushmanga qarshi qurol tayyorlagan kishi qulun (toy) bo'lar, buni unutgan kishi asir bo'lar) - bu maqollarda vatanni ardoqlash va uni dushmanlardan asrash uchun hamisha sergak bo'lishga da'vat etiladi.

Inson uchun eng muqaddas narsa - ozodlik va mustaqillikdir. Mustaqillik bo'ysunib yashashdan ming marta afzal: "O'kuz azaki bo'lguncha, buzag'u bashi bo'lsa yik" (Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq).

Maqollar garchi kichik hajmli bo'lsa-da, ularda o'ziga xos tasviriy vositalar: ko'chim, qarshilantirish, o'xshatishlardan foydalaniladi, ba'zan qofiya ham qo'llaniladi: «Jahl - dushman, aql - do'st», "Yurt tinch - sen tinch", "Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi", "Bulbul chamanin sevar, inson vatanin".

### **Latifalar**

Latifa yumoristik harakterga ega bo'lgan, kundalik turmushda kishilar hayoti, xatti-harakatidagi kulgili voqealar ixcham, qiska shaklda ifodalanadigan, hazil-mutoyibaga boy bo'lgan folklor janridir. O'zbek xalq latifalarida ko'pincha Nasriddin afandi bosh obraz qilib olinadi. Xo'ja Nasriddin obrazi folklorga taxminan XIX asrdan boshlab kirib kelgan, unga qadar xalq orasida "bir kishi", "Mushfiqiy" timsollarida takabbur, yolg'onchi, xasis-qurumsoq, amalparast, xushomadgo'y, ishyoqmas kishilar fosh etilgan.

### **Askiya**

Askiya lutf (ma'nosi yashirin so'z)ga asoslangan bo'lib, odatda ikki kishi yoki ikki guruh o'rtasida o'tadi. Askiya qat'iy o'z payroviga "mavzu"siga ega bo'ladi. Farg'ona vodiysi, Toshkent va uning atroflarida ko'pincha badiiy asarlar nomlari, qo'shiqlar, kinofilmlar, uy hayvonlari, shaharlar mavzu (payrov)larida askiya qilinib kelinadi.

## **Lof**

Biror voqeani o'ta bo'rttirib aytish va shu asosda hazil-mutoyiba qilishga asoslangan qisqa hajmli, yumoristik folklor janri lof deyiladi. Lofda qaysi tarafning lofi ustun chiqsa, g'olib hisoblangan.

## **Xalq qo'shiqlari**

Xalqimiz o'zining ezgu orzu-umidlari, turmushdagi sevinch va qayg'ularini ko'pincha qo'shiq orqali ifodalab kelgan. Ular mavzu doirasi va ijro usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Mehnat qo'shiqlari.
2. Mavsum qo'shiqlari.
3. Marosim qo'shiqlari.

## **Xalq qo'shiqlari**

Ajdodlarimiz qadimdan mehnatkash, zahmatkash o'tgan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan. Ular shu mehnati orqasidan topgan rohat-farog'atlarini ham, chekkan azoblarini ham qo'shiqlarda ifodalaganlar. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar, asosan yerni shudgor qilish (qo'sh qo'shiqlari), hosilni o'rish (o'rim qo'shiqlari, xirmon qo'shiqlari), bug'doy va sholi poyasini yanchish (yanchiq qo'shiqlari, "Xo'p hayda", "Maydalar", "Maydagun"), bug'doyni un qilish ("Yorg'uchoq) jarayonida yaratilgan.

Chorvachilik bilan bog'liq qo'shiqlar ko'pincha uy hayvonlarini iyitib, sut sog'ib olish chog'ida aytilgan ( "Govmishim" - sigir sog'ishda, "Churiya" - echki sog'ishda, "Turey-turey" - qo'y sog'ishda). Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlarga asosan bo'zchi, o'rmak (gilam to'qish chog'ida aytilgan), kashta qo'shiqlari kiradi.

## **Mavsum qo'shiqlari**

Mavsum qo'shiqlarining ko'pi bizga qadar M. Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari orqali yetib kelgan. Qadimgi xalq qo'shiqlari ikkilik va to'rtliklardan iborat bo'lib, ko'proq a-a-a-b, a-b-v-b tarzida qofiyalangan, ular "qo'shug'" deb nomlangan, kuy, maqom esa "yir" deb atalgan. Qo'shiqlarda xalqning tabiatda yuz beradigan hodisalarga turlicha munosabati ifodalanadi, yilning bir fasli ularni quvontirsa, boshqa bir fasli ranjitgan: qishda, odatda, yem-

xashak yo‘qligidan, qattiq sovuqlardan hayvonlar ham, odamlar ham nobud bo‘lganlar. Shuning uchun ham kishilar qishga salbiy munosabatda bo‘lib, yozni olqishlaganlar. Mavsum qo‘shiqlarida yoz va qish bir-biriga qarama-qarshi qo‘yiladi, ular bir-biri bilan jang qiladilar:

Qish yoy bila to‘qushti,  
Qinir ko‘zin baqishti ...  
(Qish bilan yoz to‘qnashdi,  
Bir-biriga yomon ko‘z bilan qarashdi)

Qo‘shiqlarning birida yoz fasli o‘z afzalliklari bilan qish oldida maqtanadi:

Senda qachar sundiloch,  
Manda tinar qarg‘iloch.  
(Sa‘valar sendan qochadilar,  
Qaldirg‘ochlar menda orom oladilar)

Ibtidoiy kishilar tabiatning ayrim hodisalari (qurg‘oqchilik, to‘fon, zilzila) ortida qandaydir ilohiy kuch bor deb hisoblaganlar. Shu bois hosil qurg‘oqchilikdan nobud bo‘lishidan tashvishlanib, yomg‘ir chaqirish uchun “Sus xotin”, shamol kelmay qolganda, “Yo, Haydar” shamol haydashda esa “Choy momo” qo‘shiqlarini aytganlar. Hozirda bu qo‘shiqlar aytilmaydi.

### **Marosim qo‘shiqlari**

Marosim qo‘shiqlari o‘zbek xalqi udumlari, rasm-rusumlari bilan uzviy bog‘liq, ular ko‘pincha to‘ylarda, aza chog‘larida, beshik to‘ylarida aytib kelinadi. “Kelin salom”, “Yor-yor” qo‘shiqlari to‘ylar bilan “Yig‘ilar” esa aza bilan bog‘liq qo‘shiqlardir.

Har yil Navro‘z paytida bolalar aytadigan “Boychechak” qo‘shig‘i ham o‘ziga xos marosim qo‘shig‘i hisoblanadi. “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Ramazon” qo‘shiqlarini ham bolalar aytadilar.

### **Savollar:**

1. Xalq o‘g‘zaki ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qaysi miflarni bilasiz?
3. Afsonalar ijodi haqida nimalarni bilasiz?
4. Xalq dostonlari deganda nimalarni tushunasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. “Avesto” haqida ma’lumot bering.
2. “To‘maris” afsonasi haqida gapirib bering.
3. “Shiroq” afsonasi haqida gapirib bering.
4. Xalq dostonlari afsonasi haqida gapirib bering.

### **Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. Folklorning yozma adabiyotdan farqli tomonlari qaysi javobda to‘g‘ri ifodalangan?**

- A) folklor asarlarida faqat kambag‘al xalq hayoti aks ettiriladi.
- B) folklor asarlarining muallifi ma’lum bo‘lmaydi.
- C) folklor yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo‘lgan.
- D) folklor asarlarining variantlari ko‘p bo‘ladi.
- E) B, C va D

**2. Xalq og‘zaki ijodining qaysi janrida an’anaviylik kuchli bo‘ladi?**

- A) qo‘shiklarda
- B) ertaklarda
- C) askiyada
- D) topishmoqda
- E) dostonlarda

**3. “Yorg‘uchoq” qo‘shig‘i mehnat qo‘shiqlarining qaysi turiga kiradi?**

- A) chorvachilik
- B) dehqonchilik
- C) marosim
- D) hunarmandchilik
- E) mavsum

**4. Yerni shudgor qilish paytida dehqonlar qaysi qo‘shiqni kuylaganlar?**

- A) yanchiq
- B) o‘rmak
- C) “Xo‘p hayda”
- D “Maydalar”
- E) qo‘sh qo‘shiqlari

**5. Qadimgi turkiy xalqlarning mavsum-marosim qo‘shiqlari bizga qadar qaysi manba orqali yetib kelgan?**

- A) “Tunyuquq” bitiktoshlari orqali
- B) “Irq bitigi” orqali
- C) “Devonu lug‘otit turk” orqali
- D) “Bilga Qoon bitiktoshi” orqali
- E) “Kul Tegin bitiktoshi” orqali

**6. “Churiya” qo‘shig‘i qaysi mehnat jarayonida aytilgan?**

- A) tuya sog‘ish paytida
- B) yomg‘ir chaqirish paytida
- C) shamol haydash paytida
- D) echki sog‘ish paytida
- E) shamol chaqirish paytida

**7. Aristotel aytganidek, “haqiqatdan darak beruvchi yolg‘on hikoyalar...”**

- A) ertaklar
- B) asotirlar
- C) rivoyatlar
- D) maqollar
- E) afsonalar

**8. Afsonalar mavzusiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?**

- A) qahramonlik afsonalari
- B) diniy afsonalar
- C) turli sirli joylar bilan bog‘liq afsonalar
- D) B va C
- E) B, C, D

**9. “To‘maris” afsonasi bizga qadar qaysi manba orqali yetib kelgan?**

- A) Diodorning “Kutubxona” asari orqali
- B) Polienning “Harbiy hiylalar” asari orqali
- C) M. Koshg‘ariyning “Devonu lu-g‘otit turk” asari orqali
- D) Gerodotning “Tarix kitobi” orqali
- E) Og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan.

**10. “To‘maris” afsonasida Siparangizni o‘ldirish hiylasini kim o‘ylab topgan?**

- A) Ranosbat
- B) Saksfar
- C) Doro
- D) Kir
- E) Krez

**11. Xalq ertaklari mavzu doirasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?**

- A) hajviy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar
- B) sehrli-fantastik ertaklar
- C) ishqiy-sarguzasht ertaklar
- D) hayvonlar haqidagi ertaklar
- E) B, C, D

**12. O‘zbek xalq ertaklarida uchraydigan Hotami Toy qanday insonlar ramzi hisoblanadi?**

- A) rostgo'y kishilar
- B) saxiy insonlar
- C) vatanparvar kishilar
- D) vafodor insonlar
- E) to'g'riso'z odamlar

**13. Dunyo xalqlari orasida eng mashhur bo'lib ketgan ertaklar turkumi qaysi deb o'ylaysiz?**

- A) ruslarning telba Ivanushka haqidagi ertaklari
- B) Indonez xalqining hayvonlar haqidagi ertaklari
- C) hindlarning "Kalila va Dimna"si
- D) arablarning "Ming bir kecha" ertagi
- E) C va D

**14. "Ali bobo va qirq qaroqchi" ertagida Qosimning o'limiga nima sababchi bo'ladi?**

- A) boylikka hirs
- B) yolg'onchiligi
- C) ichi qoraligi
- D) insonni yoqtirmasligi
- E) qo'polligi

**15. "Ali bobo va qirq qaroqchi" ertagida aqli va tadbirkor ayol...**

- A) Mahbuba
- B) Marjona
- C) Taxmina
- D) Maktuba
- E) Gulandom

**16. "Ur to'qmoq" ertagida kim dehqonga qaynar xumcha, ochil dasturxon va ur to'qmoq beradi?**

- A) baliq
- B) laylak
- C) tulki
- D) o'rdak
- E) Hotam

**17. Adabiy ertak deganda, nimani tushunmoq kerak?**

- A) biror shoir asari asosida xalq to'qigan ertak
- B) hayvonlar haqidagi ertak
- C) ishqiy-sarguzasht ertaklari
- D) sehrli-fantastik ertaklar
- E) xalq ertaklari asosida yozilgan ertak

**18. “Go‘ro‘g‘li” turkumiga kiruvchi dostonlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) “Ravshan”, “Avazxon”, “Rayhonarab”, “Nurali”
- B) “Vafodor”, “Alpomish”, “Orzigul”
- C) “Yoriltosh”, “Kuntug‘mish”, “Hasanxon”
- D) “Jahongir”, “Intizor”, “Yusuf va Zulayho”
- E) “Zariadr va Odatida”, “Doniyorxo‘ja”, “Shodmonbek”

**19. “Alpomish” dostonida Hakimbekning o‘g‘li kim edi?**

- A) Qultoy
- B) Ultontoz
- C) Yodgor
- D) Qulchi
- E) nomi ko‘rsatilmagan

**20. Hakimbek avlodlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Dobonbiy, Alpinbiy, Boysari, Qultoy
- B) Dobonbiy, Alpinbiy, Boybo‘ri
- C) Dobonbiy, Alpinbiy, Ultontoz, Boysari
- D) Alpinbiy, Dobonbiy, Boybo‘ri
- E) Boybo‘ri, Alpinbiy, Qultoy

**21. Surxayl kampir qaysi o‘g‘li uchun Boysarinikiga sovchilikka bordi?**

- A) Ko‘kaman uchun
- B) Ko‘kaldosh uchun
- C) Qorajon uchun
- D) Ko‘kqashqa uchun
- E) Boyqashqa uchun

**22. Hakimbek Murodtepada birinchi bo‘lib kim bilan uchrashdi?**

- A) Boyqashqa bilan
- B) Qultoy bilan
- C) Qorajon bilan
- D) Ko‘kaldosh bilan
- E) Ultontoz bilan

**23. Hakimbekning eng sadoqatli oti...**

- A) Raxsh
- B) Ko‘kqamish
- C) Boyqashqa
- D) Boychibor
- E) Qoratoy

**24. Barchinoy qalmoq polvonlaridan qancha oyga muhlat so‘radi?**

- A) bir yilga
- B) yetti yilga
- C) uch oyga
- D) besh oyga
- E) olti oyga

**25. Qaldirg'och Hakimbekka kim bo'ladi?**

- A) opasi
- B) singlisi
- C) xolasi
- D) qayinsinglisi
- E) ammasi

**26. Barchinning Hakimbekka yo'llagan maktubini kim yashirib qo'ydi?**

- A) Qaldirg'och
- B) Boybo'ri
- C) Boysari
- D) Ultontoz
- E) Qultoy

**27. Barchin qalmoq polvonlari oldiga qanday shartlar qo'ygan?**

- A) kurashish va mushtlashish
- B) poyga, kurashish, merganlik va yoy tortish
- C) kurashish, merganlik, tez chopish, yoy tortish
- D) poyga, merganlik, urishish, yoy tortish
- E) merganlik, yoy tortish, chaqqonlik, sakrash

**28. Hakimbek Qalmoqshoh zindonida necha yil azob chekdi?**

- A) yigirma yil
- B) yetti yil
- C) o'n yil
- D) olti oy
- E) yigirma besh yil

**29. Hakimbekni zindondan kim chiqarib oldi?**

- A) Boychibor
- B) Tovka oyim
- C) Kayqubod
- D) Qultoy
- E) Qora nortuya

**30. Tovka oyim qaysi shahar raisi edi?**

- A) Qalmoq yurti
- B) Yangi bozor
- C) Xiva
- D) Boysun

E) nomi aytilmagan

**31. Hakimbek o‘z uyiga kimning qiyofasida keldi?**

- A) Qultoy
- B) Kayqubod
- C) Ultontoz
- D) Boysari
- E) Qorajon

**32. “Alpomish” dostoni eng mukammal nusxasini qaysi baxshi aytgan?**

- A) Ergash Jumanbulbul o‘g‘li
- B) Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li
- C) Po‘lkan shoir
- D) Islom shoir
- E) Qodir baxshi

**33. “Ravshan” dostonidagi Go‘ro‘g‘lining o‘g‘illari nomi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Ersak kal va Tersak kal
- B) Hasanxon va Avazxon
- C) Kuntug‘di va Nurali
- D) Jahongir va Davronbek
- E) Doniyorxo‘ja va Shodmondek

**34. Kitobiy doston deganda nimani tushunasiz?**

- A) Xalq ertaklari asosida yaratilgan dostonlar
- B) Xalq dostonlari asosida shoirlar tomonidan yaratilgan dostonlar
- C) Xalq asotirlari asosida yaratilgan dostonlar
- D) Xalq afsonalari asosida yaratilgan dostonlar
- E) Yozma adabiyot dostonlari asosida to‘qilgan folklor dostonlari

**35. Xalq maqollarining o‘ziga xos xususiyatlari...**

- A) o‘git, pand-nasihat, bo‘rttirish
- B) qarshilantirish, ko‘chim, o‘xshatish, qofiya
- C) ixchamlik, hazil-mutoyiba, sehr-jodu
- D) qofiya, o‘xshatish, radif, hojib
- E) tashbeh, o‘xshatish, ko‘chim, bo‘rttirish

**36. “Devonu lug‘otit turk” asaridagi “qo‘shug‘”, “yir” so‘zlari nimani anglatgan?**

- A) maqol, qo‘shiq
- B) kuy, qo‘shiq
- C) qo‘shiq, ertak
- D) musiqa
- E) qo‘shiq aytmoq

**37. Qadimgi turkiy xalq qo‘shiqlari qanday shakllarda yaratilgan?**

- A) faqat ikkilik shaklida
- B) faqat to‘rtlik shaklida
- C) ikkilik va to‘rtlik shaklida
- D) uchlik shaklida
- E) uchlik va beshlik shaklida

**38. Turkiy xalqlarning maqollari bizga qadar qaysi manbalar orqali yetib kelgan?**

- A) Gerodotning “Tarix” kitobi orqali
- B) Diodorning “Kutubxona” asari orqali
- C) M. Koshg‘ariyning “Devonu lu-g‘otit turk” asari orqali
- D) Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari orqali
- E) C va D

**39. “Tulku o‘z iniga ursa, o‘juz bo‘lur” (Tulki o‘z iniga qarab ulisa, qo‘tir bo‘ladi).**

**Qadimgi ajdodlarimizning ushbu maqolida qanday g‘oya ilgari surilgan?**

- A) ota-onaga hurmat
- B) vatanni e‘zozlash
- C) muloyim, rahmdil bo‘lish
- D) katta-kichikka izzat
- E) shirinso‘z bo‘lish

**40. XIX asrdan boshlab o‘zbek latifalariga kirib kelgan, xalqning sevimli qahramoniga aylanib qolgan obraz kim?**

- A) Shum bola
- B) Aldar ko‘sa
- C) Soqi sumbul
- D) Xo‘ja Nasriddin
- E) Mushfiqiy.

## **4-DARS**

### **ENG QADIMGI YOZMA YODGORLIKLAR**

**Darsning maqsadi:** talabalarga adabiyotining eng qadimgi yozma yodgorliklari haqida ma‘lumot berish.

**Reja:**

1. “Avesto”.
2. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari.
3. “Irq bitigi”.

**Tayanch tushunchalar:** *Yozma yodgorliklar, Avesto, O'rxun-Enasoy yodgorliklari, Kul Tegin, "Irq Bitigi"*.

### **“Avesto”**

Markaziy Osiyo xalqlari yozma yodgorliklarining ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Ana shunday yodgorliklardan biri “Avesto”-zardo'shtiylarning muqaddas kitobidir. U miloddan avvalgi VI asrda Xorazmda yaratilgan deb taxmin qilinadi. Beruniyning ma'lumot berishicha, “Avesto”ning qo'lyozmasi 12000 ta molning terisiga oltin harflar bilan yozilgan ekan. Asarning uch nusxasi bo'lgan, bir nusxasini Iskandar Makedonskiy kuydirib yuborgan, ikkinchisini Yunonistonga jo'natgan, uchinchi nusxasini esa zardo'shtiylar saqlab qolganlar. Asarning ko'p qismlari bizga qadar yetib kelmagan.

“Avesto”da ta'kidlanishicha, dunyoda ikki kuch: Ezgulik va yovuzlik kuchlari hukmron. Ezgulik xudosi Axura Mazda (“Axura”- oliy hukmdor, “mazda”- dono), uni Xurmuzd deb ham ataganlar, yovuzlik xudosi esa Angra Manyu (Axriman) bo'lgan. Axriman o'z devlari bilan hamisha Xurmuzdning barcha ezgu ishlariga xalal berib keladi, insoniyat boshiga cheksiz kulfatlar keltiradi. U osmonni toraytiradi, makr, hiyla, ichi qoralik bilan kishilar ko'ngliga doimo g'ashlik va xafalik solib yuradi. Axrimanning bir necha devlari bor: o'lim devi, yovuz fikr, urush, hasad, g'azab, xasislik, yalqovlik devlari.

Axura Mazdaning yordamchilari esa ezgu fikr, yuksak haqiqat, qudrat, muqaddas itoat, salomatlik, mangulik kuchlaridir. Ana shu ikki kuch o'rtasida uch ming yil kurash boradi. Axriman o'z devlari bilan Axura Mazda yaratgan dunyoga qarshi kurash boshlaydi. Xurmuzd dunyoga keltirgan birinchi odam – Kayumarsni Axriman o'ldiradi. Biroq uning urug'ini quritib yuborolmaydi. Kayumarsdan to'kilgan urug'dan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa 277 xil hayvonlar hosil bo'ladi. Kayumarsning odam qismidan esa erkak va ayol, hamda metall vujudga keladi.

Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash Mitra, Anaxita, Yima (Jamshid) obrazlarida ham mujassamlashtirilgan.

**Mitra** – kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat in'om etuvchi quyosh xudosi, “Avesto”da u bitmas-tuganmas kuchga ega bo'lgan, o'tda kuymas, suvga cho'kmas, o'q o'tmas pahlavon sifatida tasvirlanadi. U

o‘zining katta, yaltiroq gurzisini ko‘tarib yuradi, ana shu gurzisi bilan dushmanlarni yakson qiladi.

**Anaxita** – yer, suv, unum ma‘budasi. Uni go‘zal, baquvvat, xushqomat, kamarini baland bog‘lagan, oltin ziynatli, ko‘k burmali mursak kiygan bir qiz sifatida ko‘rish mumkin.

### **O‘rxun-Enasoy yodgorliklari**

Turkiy ajdodlarimiz qoldirgan yozma yodgorliklar Urxun daryosi (Mo‘g‘uliston) bo‘ylaridan to Dunaygacha, Yoqutistondan Gobigacha, hatto Sharqiy Yevropagacha tarqalgan. Qabr toshlari, qoyalar, oltin va kumush idishlar, tangalarda naqshlanib qolgan bu noyob yodgorliklar xalqimizning qadimiy tarixi, turmushi, urf-odatlarini, san‘ati haqida so‘zlaydi.

Kul Tegin, Bilga Qoon, To‘nyuquq bitiktoshlari ana shunday noyob obidalaridir. Ularda dastlabki Turk hoqonlarining davlatni kengaytirish va mustahkamlash, yurt ozodligi yo‘lida olib borgan kurashlari haqida, chet el bosqinchilari bilan olib borgan janglari haqida hikoya qilinadi.

Kul Tegin bitiktoshi 732-yilda vafot etgan Kul Tegin qabri ustiga qo‘yilgan marmar toshga o‘yib yozilgan, uning balandligi uch metr o‘n besh santimetr bo‘lib, marmar o‘rtasida besh burchakli qalqon shakli bor. Bitiktoshni Kul Teginning jiyani Yo‘llic‘ Tegin bir oyu to‘rt kunda yozib tugatgan.

Yodgorlikda qayd etilishicha, Kul Tegin jasur lashkarboshi, o‘z xalqi uchun jonini ham ayamaydigan qahramon, xalqni o‘z orqasidan ergashtira oluvchi sarkarda. U az, qarluq, izgil xalqlarini bo‘ysundirishda mislsiz jasorat ko‘rsatadi. 732-yilda turk xalqi o‘zining buyuk farzandidan judo bo‘ldi. Bu og‘ir judolik Bilga Qoon tilidan shunday bayon etiladi: “Inim Kul Tegin vafot etdi. O‘zim alam chekdim. Ko‘rar ko‘zim ko‘rmayotganday, bilar aqlim bilmayotganday bo‘ldi”.

Bilga Qoon (Ulug‘ hoqon degani) ko‘p urushlar olib borib, davlat chegarasini ancha kengaytirgan. O‘zi ta‘kidlashicha: “Yo‘qsil xalqni bo-yitgan, oz sonli xalqni ko‘paytirgan”. Bilga Qoon bitiktoshini ham uning jiyani Yo‘llic‘ Tegin yozgan. Bitik Qoon (hoqon)ning taxtga o‘tirish voqeasi bilan boshlanadi. Bilga Qoon o‘n yetti yoshida navkarlarga boshchi etib tayinlanadi va tangutlarga qarshi qo‘shin tortadi. Qarluq, o‘g‘uz beklari turk hoqoniga bo‘ysunmay qo‘ygan,

avvalgi mag'lubiyatlaridan saboq olmagan edilar. Bilga Qoon ularga ham qarshi qo'shin tortib, ularni butunlay yenggan. Davlatni adolat bilan boshqargan Bilga Qoon 734 yilda o'ziga yaqin kishilar tomonidan o'ldiriladi. To'nyuquq bitiktoshi Ikkinchi turk hoqonligiga asos solgan Eltarish hoqon maslahatchisi va sarkardasi To'nyuquqqa bag'ishlab 712-716-yillarda yozilgan. Bitiktoshda turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashi, To'nyuquqning xalq oldidagi buyuk xizmatlari yodga olinadi. Unda vatanparvarlik va erk g'oyasi o'zining yorqin ifodasini topgan. Uning asosiy g'oyasi vatanni himoya qilish, xalqni erkin, farovon hayot kechirishi uchun kurashdan iborat. Erksizlik xalqni og'ir fojialarga, dunyodan yo'q bo'lib ketishgacha olib kelgan edi. To'nyuquq shunday maqsadni o'z oldiga qo'ygan edi: "Erkinlik o'zi kelmaydi, u tangrining marhamati ham emas, uni kurash bilan qo'l-ga kiritish kerak. Erkinlik o'lim mashaqqatlarida, qonli kurashlarda tug'iladi va qon bilan yuviladi".

O'rxun – Enasoy bitiktoshlari XIX asr oxirlarida topilgan bo'lib, uni dastlab 1893-yilda Daniyalik olim V. Tompsen o'qishga muvaffaq bo'lgan, professor V. Radlov bu yodgorliklarni nemis tiliga tarjima qilgan.

### **“Irq bitigi”**

Irq bitigi qadimgi turk mifologiyasi va urf-odatlarini zaminida yaratilgan yodgorlik bo'lib, qabr toshlariga emas, qog'ozga run yozuvida taxminan VIII asr o'rtalarida yozilgan. “Irq” so'zi hozirgi “fol” so'ziga to'g'ri keladi, demak kishilarni ezgulikka chorlovchi bu asar o'ziga xos fol kitobi, ya'ni ta'birnomadir. U Isig Sangun va Ite Chuk nomli ikki shogird bola uchun yozilgan. Asarning asosiy g'oyasi kishilarni yaxshi bilan yomonni ajrata bilish, ezgulikka da'vat etishdan iborat:

Yigit lochin patin qo'lga kiritdi,  
Ko'p qutlug' bo'lsin der, shunday bilinglar: yaxshidir bu...

### **Savollar:**

1. Eng qadimgi yozma yodgorliklar haqida nimalarni bilasiz?
2. “Avesto” yozma yodgorligida qanday mavzu ko'tarilgan?
3. O'rxun-Enasoy yodgorligi haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. “Avesto” haqida ma'lumot bering.

2. O'rxun-Enasoy yodgorligi haqida gapirib bering.
3. "Irq bitigi" haqida ma'lumot bering.

**Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. Turkiy ajdodlarimizning qadimiy yozma yodgorliklari qaysi bitiklarda naqshlanib qolgan?**

- A) "Qutadg'u bilig"da
- B) Sopolli tepadan topilgan kumush tangalarda
- C) O'rxun – Enasoy bo'ylaridan topilgan qabr toshlarida
- D) Zarafshondagi eski devorlarda
- E) "Devonu lug'otit turk"da

**2. "Avesto" - bu...**

- A) Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yozma yodgorligidir
- B) Zardushtiylarning muqaddas kitobidir
- C) Nasroniylarning muqaddas kitobidir
- D) Budda dinining muqaddas kitobidir
- E) A va B

**3. "Avesto" qachon va qaerda bitilgan deb taxmin qilinadi?**

- A) taxminan 3 ming yil ilgari Xorazmda
- B) taxminan 5 ming yil ilgari Xitoyda
- C) taxminan 10 ming yil ilgari Eronda
- D) taxminan 2 ming yil ilgari Afg'onistonda
- E) qachon va qaerda yaratilgani ma'lum emas

**4. "Avesto"da tasvirlangan ezgulik xudosi...**

- A) Kayumars
- B) Yima
- C) Axriman
- D) Xurmuzd
- E) Mitra

**5. Axriman (Angra Manyu) nimaning ramzi bo'lgan?**

- A) Quyosh xudosi
- B) Yovuzlik xudosi
- C) Ezgulik xudosi
- D) Go'zallik xudosi
- E) Baxt, omad xudosi

**6. "Avesto"da kishilarga baxt-saodat keltiruvchi yengilmas, cheksiz kuchga ega bo'lgan pahlavon obrazi...**

- A) Anaxita

- B) Mitra
- C) Xurmuzd
- D) Axriman
- E) Yima

**7. “Avesto”da Kayumars qiyofasi qanday tasvirlangan?**

- A) ikki yelkasidan ilon o‘sib chiq-qan shoh sifatida
- B) ikki boshli ilon sifatida
- C) boshi odam shaklida, ikkinchi qismi ho‘qiz sifatida
- D) yarmi ajdarho, yarmi sher sifatida
- E) yarmi to‘ng‘iz, yarmi ho‘kiz

**8. “Avesto”da tasvirlangan Anaxita kim?**

- A) ezgulik xudosi
- B) yovuzlik xudosi
- C) baxt ma‘budasi
- D) yer, unum, hosil xudosi
- E) shodlik va quvnoqlik xudosi

**9. “Kul Tegin bitiktoshi” kim tomonidan va kimning topshirig‘iga ko‘ra yozilgan?**

- A) Ibrohim Halilulloh topshiri-g‘iga ko‘ra To‘ngyuquq
- B) To‘nyuquq buyrug‘i bilan Bilga Qoon yozgan
- C) Bilga Qoon buyrug‘i bilan Yo‘llog‘ Tegin yozgan
- D) Yo‘llog‘ Tegin buyrug‘i bilan Bilga Qoon yozgan
- E) Kul Tegin buyrug‘i bilan Yo‘llog‘ Tegin yozgan

**10. To‘nyuquq kim bo‘lgan?**

- A) Eltarish xonning sarkardasi va maslahatchisi
- B) Birinchi turk hoqoni
- C) Chingizxonning kenja o‘g‘li
- D) Kul Teginning bosh vaziri
- E) Bo‘min hoqonning o‘g‘li

**11. “Irg bitigi” kimlarga bag‘ishlangan?**

- A) To‘nyuquqqa
- B) Bilga Qoonga
- C) Kul Teginiga
- D) Isig Sangun va Ite Chuk ismli shogird bolalarga
- E) hech kimga bag‘ishlanmagan

**12. “Irg bitigi” qanday kitob?**

- A) tarixiy kitob
- B) badiiy kitob

- C) memuar kitob
- D) ilmiy asar
- E) fol kitobi

## 5-DARS

### XI – XIV ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI

**Darsning maqsadi:** talabalarga XI-XIV asrlarda yaratilgan asarlar haqida ma’lumot berish.

#### Reja:

1. Mahmud Koshg‘ariy ijodi.
2. Yusuf Xos Hojib ijodi.
3. Ahmad Yugnakiy ijodi.
4. Ahmad Yassaviy ijodi.

**Tayanch tushunchalar:** Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u Bilig”, Ahmad Yugnakiy, “Hibat-ul Haqoyiq”, Ahmad Yassaviy, “Devoni Hikmat”.

#### Mahmud Koshg‘ariy

(XI asr)

- Turkiy til grammatikasining ilmiy asosini yaratgan birinchi tilshunos olim;
- Birinchi bo‘lib, turkiy-arabiy tillar orasiga ko‘prik solgan, ikki tilning o‘ziga xos lug‘atini yaratgan alloma;
- Birinchi bo‘lib “qo‘shug‘” “etug‘” “(ertak)” “sav” “(afsona)” so‘zlarini qo‘llagan va “Oltin qon” afsonasini yozib olgan folklorshunos.

**MAHMUD IBN-UL HUSAYN IBN MUHAMMAD-IL KOSHG‘ARIY** turkiy tilning mustaqil til sifatida shakllanishida buyuk hissa qo‘shgan qomusiy olimlardan biridir. U XI asr boshlarida Balasog‘unda (hozirgi Qirg‘iziston respublikasining To‘qmoq shahri yaqinida) tug‘ildi. Bobosi asli Kosh-g‘arlik bo‘lib, Balasog‘unga

ko'chib kelib, shu yerda turg'un bo'lib qolgan edi. Mahmud Koshg'ariy dastlab Koshg'ar, keyinchalik Samarqand, Buxoro, Nishopur, Marv, Bag'dodda tahsil olib, arab tilini mukammal o'rgandi. Olim butun Movarounnahr hamda Sharqiy Turkistonning (Xitoyning hozirgi Sinszyan viloyati) ko'p shahar va qishloqlarini kezib chiqib, turkiy qabila, urug' va xalqlarning tili, og'zaki ijodi, tarixi, urf-odatlarini bilan tanishib chiqdi. Madrasalarda orttirgan bilimi va hayotdan olgan tajribalari asosida u tilshunoslikka oid ikkita asar "Javohir-un nahv fi lu-g'otit turk" ("Turk tili sintaksisi qoidalarini"), "Devonu lug'otit turk" ("Turkiy so'zlar devoni") asarlarini yozdi.

Olimning birinchi asari haligacha topilmagan, "Devonu lug'otit turk" asarida turkiy tilning o'ziga xos grammatik xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilib, olti mingga yaqin turkcha so'zning arabcha izohi keltiriladi. Asarning muhim ahamiyati yana shundaki, u bizga turkiy xalqlarning X-XI asrlarda va bundan avval yaratgan badiiy ijod namunalari bilan tanishish imkonini ham beradi. Unda uch yuzga yaqin she'riy parcha va juda ko'p maqol hamda hikmatli so'zlar berilgan. She'rlarning aksariyati pand-o'git tarzidagi she'rlar bo'lib, ularda ezgulik, mehnatsevarlik ulug'lanadi, insonlarni turli illatlardan xoli bo'lishga, ota-onani hurmat qilish, xushxulq, kamtarin inson bo'lishga da'vat etiladi.

Baqmas budun savuq soz,

Yudki, yuzi saranqa.

Qazg'an ulich tuzunluk,

Qalsun chaving yarinqa.

(Boqmas jahon sovuqsoz,

Shilqim, yuzsiz baxilga.

Yoqimli bo'l, xushxulq bo'l,

Qolsin noming ko'p yilga.)

"Devoni lug'otit turk" asariga kirgan qo'shiqlarda kishilarning shodlik va g'amlari, orzu-umidlari, o'y-xayollari, urf-odatlarini o'z ifodasini topgan. Ularning aksariyati qadimgi turkiy ajdodlarimizning asosiy kasblari – ovchilik va chorvachilik bilan uzviy bog'liqdir.

Asardan, shuningdek, qahramonlik qo'shiqlari ham o'rin olgan. "Tangutlar bilan jang", "Yaboqular bilan jang", "Alp Er To'nga" kabi she'riy va nasriy parchalar vatanga muhabbat va uning himoyasi, yurt taqdiri, el birdamligi g'oyalari bilan sug'orilgan.

O‘z vatani mustaqilligi va ozodligi uchun mardonavor kurashgan, xalq dardi bilan yashagan Alp Er To‘nga haqidagi marsiyada xalqning o‘z qahramoniga bo‘lgan muhabbati, uning vafoti munosabati bilan chekkan alam-iztiroblari bayon etiladi. Xalq bu fojidan bo‘ridek ulib yig‘laydi, yoqalarini yirtadi. Chindan ham Alp Er To‘nga turklar qahramoni, forsiylarda esa u Afrosiyob nomi bilan mashhur bo‘lgan. M Koshg‘ariyning yozishicha, Alp Er To‘nga Koshg‘arda – O‘rdukan shahrida turar, uning Barman va Barsg‘an degan ikki o‘g‘li hamda Qaz ismli qizi bo‘lgan. Alp Er To‘nga Tahmuraspdan uch yuz yil keyin Marvni, qizi Qaz esa Qazvin shahrini qurgan degan naqlar bor.

Shuningdek, asardan munozara janrida bitilgan ko‘plab xalq qo‘shiqlari ham o‘rin olgan. Devonda xalqning dono, purhikmat maqollari ham berilgan: “Ardam – boshi til”(Odob

boshi til), “Bilga erig ezgu tutib so‘zin eshit, ardamini o‘graniban ishqa – sura” (Ilmli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla, ilmlarini, hunarlarini o‘rganib, amalga oshir), “Qo‘l savi qalmas, qag‘il bag‘i yazilmas”(Keksalar nasihati bekorga ketmaydi, tolning ho‘l novdasining bog‘i yozilmaydi), “Kuzaku uzun bo‘lsa, alik kuymas” (kosov uzun bo‘lsa qo‘l kuymas), “Bir qarg‘a bilan qish kelmas”.

## YUSUF XOS HOJIB

(XI asr)

- qadimgi turk tilda ёзилган илк дoston муаллифи;
- туркий адабиётга арузни олиб кирган шоир;
- туркий тилда битилган дастлабки қасида муаллифи;
- туркий адабиётда биринчи бўлиб тўйок жанрида ижод қилган адиб;
- туркий шеърятда биринчи марта диалогик нутқни қўллаган шоир;
- туркий ёзма адабиётга биринчи бўлиб рамзий образни киритди.

Turkiy yozma adabiyotning sardaftarini yaratgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonini, mana, yaqin ming yildirki, xalqimiz sevib o‘qimoqda.

Yusuf Xos Hojib taxminan XI asrning 20-yillarida Balosog‘unda dunyoga kelgan. Bu shahar qadimda Quz O‘rdu nomi bilan mashhur bo‘lgan. Adib umrining ko‘p qismini el kezib o‘tkazgan. U hayotdan olgan saboqlari asosida bir yarim yil ichida o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarini yozib tugatadi va uni hukmdor Tavg‘ach Bo‘g‘roxonga taqdim

etadi. Dostonni yuksak qadrlagan xon unga «Xos hojib» (eshik og‘asi) unvonini beradi.

Yaqin 6500 bayt, 73 fasl(bob)dan iborat bo‘lgan bu asarda to‘rt yetakchi obraz: shoh Kuntug‘di – Adolat, vazir Oyto‘ldi – Davlat, uning o‘g‘li O‘gdulmish - Aql, zohid O‘zg‘urmish – Qanoat ramzi sifatida gavdalantirilgan.

Davlatni adolat bilan boshqarayotgan, o‘z odilligi bilan olamga dong‘i ketgan Kuntug‘di aql – zakovatli, fe‘li ham, fikri, ko‘ngli va so‘zlari ham pok, rost bo‘lgan, bilimli va dono inson bo‘ladi. Unga qo‘yilgan nom ham ramziy ma‘noni ifodalaydi: Quyosh o‘z nurini, taftini hamma yerga teng ulashganidek, Quntug‘di uchun ham boy va kambag‘al, shoh va gado teng edi. Uning nazarida xalqqa faqat yaxshilik qiluvchi, ammo buning evaziga mukofot kutmaydigan, o‘z foydasini ko‘zlamaydigan, odamlarga foyda keltirib, minnat qilmaydigan kishilargina haqiqiy insonlardir.

Bir kuni Kuntug‘di qo‘lida pichoq uch oyoqli kursida o‘tirar, o‘ng tarafiga shakar, chap tarafiga esa achchiq dori qo‘yilgan edi. Oyto‘ldi buning sababini so‘raganida, u shunday javob qaytaradi: «Uchta oyoq kursini mahkam ushlab turadi, ulardan biri darz ketsa kursi yiqiladi, qo‘limdagi pichoq esa keskir, kerakli joydan kesadi, kimki adolatimdan bahra olsa, shakardek chuchuk bo‘lib ketadi, zolimlar esa achchiq dori ichgandek yuzlari burushib ketadi».

Vazir Oyto‘ldining nomi ham ramziy ma‘no kasb etadi: Oy dastlab ko‘kka kichik bo‘lib chiqadi, u kun sayin to‘lishib boraveradi, biroq ayni to‘lishgan, nuri ko‘paygan chog‘da birdaniga yo‘q bo‘lib qoladi. Davlat ham xuddi Oydek bebaqo, vaqtinchalik narsa, unga ishonib, ko‘ngil qo‘yib bo‘lmaydi.

Bir kuni Elig(xon) Oyto‘ldini chaqirib, o‘tirishga yonidan joy ko‘rsatganida, u koptok ustiga o‘tirib oladi, xon unga kulib qarasa, Oyto‘ldi ko‘zini yumib oladi, unga iltifot bilan boqsa, u yuzini o‘girib oladi. Bundan achchiqlangan Elig undan bu qiliqlarining sababini so‘raydi. Vazir esa bunga javoban shunday deydi:»Sen menga joy ko‘rsatganingda, o‘tirmadim, chunki mening (davlatning) o‘rni yo‘q, to‘p dumalab yurganidek, davlat ham bir joyda turg‘un emas, beqarordir. Menga samimiy boqqaningda yuzimni o‘girib oldim, Bu bilan esa mening qilmishlarim jafodan bo‘lak narsa emas, shuning uchun menga ishonma demoqchi edim».

Oyto'ldi Kuntug'diga ana shu tutqich bermas davlatni qo'lda qanday ushlab turish yo'llarini aytadi: buning uchun undan ochiq va yumshoq ko'ngillilik, tilni ehtiyot tutish va shirinso'zlik, takabburlikdan yiroqlik, o'zni yovuz va iflos ishlardan tiyish, har bir ishda me'yorga rioya qilish, katta hurmat, kichikka mehr – muruvvatli bo'lish talab qilinadi.

Dostonning markaziy obrazlaridan yana biri O'gdulmishdir. Uning nomi «o'g»(aql – zakovat) so'zidan olingan bo'lib, «aql bilan ziynatlangan» ma'nosini ifodalaydi. O'gdulmishning Kuntug'di bilan qilgan savol – javoblarida bek, vazir, elchi, xazinachi va boshqa amaldorlarning fazilatlari, turli kasb – hunarlar haqida so'z boradi. U har bir savolga bosiqlik, aql va hushyorlik bilan javob qaytaradi.

Hayotning katta saboqlarini boshdan kechirgan, ismi «hushyor qiluvchi» ma'nosini ifodalovchi O'zg'urmish qiyofasida sabr – qanoat ramzi ifodalangan, u qat'iy fikrli inson, shu boisdan ham Eligning saroyga qaytish haqidagi iltimosiga rad javobini beradi. Bu taklif uch karra takrorlanganda ham, o'z fikrida qat'iy turadi, faqat O'gdulmishning oqilona tushuntirishlaridan so'ng u saroyga boradi. O'zg'urmish xon va uning atrofida qilarni dunyoning hoyu havaslariga uchmaslik, g'aflat bot-qog'iga botib ketmaslik haqida ogohlantiradi, ularning mudrab borayotgan tuyg'ularini sergaklantiradi.

«Qutadg'u bilig» o'z davrida el orasida katta shuhrat qozonadi. Shoirning yozishicha, Eronliklar uni «Shohnomai turkiy», chinliklar «Adabul-ul muluk», mashriqliklar «Ziynat-ul umaro» deb ataydilar.

## **AHMAD YUGNAKIY**

**(XII asr)**

Ahmad Yugnakiy XII asrning donishmand shoirlaridan biridir. Bu buyuk inson haqida bizga qadar juda oz ma'lumotlar saqlanib qolgan. Adibning “Hibat-ul haqoyiq” (“Haqiqatlar armug'oni”) deb nomlangan pandnoma asaridan uning yurti Yugnak ekanligi, otasining ismi Mahmud, o'zi esa tug'ma ko'r ekanligi haqida qisqacha ma'lumotlar bor, xolos. Garchi u tug'ma ko'r bo'lsa-da, qalbi bilan ko'zi ochiq kishilarga nisbatan dunyoni ravshanroq ko'rishini Alisher Navoiy “Nasoyim-ul muhabbat” asarida ta'kidlab o'tgan.

“Hiybat-ul haqoyiq” g'oyaviy yo'nalishi jihatidan “Qutadg'u bilig” ga o'xshab ketadi, unda ham insoniyatni ezgulikka, halollik va pokdillikka, adolat va insofga chorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Doston 14 bobdan iborat bo'lib, dastlabki boblari Alloh va payg'ambarga, uchinchi bobi zamonasining yirik hukmdori bo'lgan Dod Sipahsolorga bag'ishlanadi. Asarning asosiy boblarida ilmning ta'rifi va nodonlikning zarari, til odobi, saxiylik va baxillik haqida so'z boradi.

Dostonning asosiy masalalaridan biri sifatida ilm-ma'rifat masalasi qo'yiladi. Shoir olim bilan nodonni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi, olim o'z ilmi bilan kishilarga baxt-saodat yo'lini yoritisa, nodon o'z johilligi tufayli turli balolarga giriftor bo'ladi:

Biliktin oyurman so'zimga ula,  
Biliklikka, yo do'st, o'zingni ula.  
Bilik birla bilinur saodat yo'li,  
Bilik, bil, saodat yo'lini bo'la.  
(Bilimdan so'zlarman, so'zimni tingla,  
Bilimli kishiga o'zingni ula,  
Bilim ko'rsatadi saodat yo'lin,  
Saodat yo'lini bilimdan tila.

Shoir o'z asarida to'g'ri, muloyim, mazmunli so'zlash, kerak bo'lganda esa sir saqlay olish, ezmalik qilmaslik, tilni tiya bilish kerakligini, achchiq, yomon so'zlar bilan inson qalbini yarador qilmaslik kerakligini alohida ta'kidlaydi:

O'chuktuma erni tilin, bil, bu til  
Bashaqtursa, butmas, butar o'q boshi...  
(Tiling bilan er qalbini tirnama,  
o'q yarasi bitar-u, til yarasi bitmas).

## AHMAD YASSAVIY

(1103 - 1166)

Ahmad Yassaviy Turkiston mulkining shayxul-mashoyixidurlar. Maqomoti oliy va mashhur. Murid va as'hobi g'oyatsiz va shohu gado aning irodatu ixlosi ostonidin nihoyatsiz ermish (A.Navoiy, "Nasoyimul-muhabbat"dan).

- Ahmad Yassaviy tasavvufda o'zining **yassaviya** tariqatiga asos solgan, Turkistonda yashab ijod etgan adiblardan biridir. Bu ulug' inson haqida: "Madinada Muhammad, Turkistonda Yassaviy" degan naql bejiz tarqalmagan.

- Shoir Turkistonning Yassi shahrida mashhur shayx Ibrohim oilsida tavallud topgan. Otasi barvaqt vafot etib, u avvalo, Arslonbobo, so‘ng Buxoroga borib, buyuk olim Yusuf Hamadoniydan tasavvuf bo‘yicha saboq oladi.

- Ahmad Yassaviy o‘zidan keyingi avlodiga o‘lmas meros “Devoni hikmat”ni qoldirdi. U “Daftari soniy” nomi bilan ham mashhur.

“Devoni hikmat”ga shoirning 240 ta she‘ri kirgan. Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o‘zining shoir devoniga (1991 yil) yozgan so‘z boshisida A.Yassaviyning shunday baytini misol keltiradi:

Qul Hoja Ahmad, har bir so‘zing jonga darmon,  
Toliblarga bayon qilsam, qolmas armon.  
To‘rt ming to‘rt yuz hikmat aydim, haqdin farmon,  
Farmon bo‘lsa o‘lguncha so‘zlasam men.

Bu shoirning turt mingdan ziyod she‘r ijod etganligiga ishora emasmi?

- Shoir o‘z she‘rlarida “ Qul Hoja Ahmad”, “Hoja Ahmad Yassaviy”, “Qo‘l Ahmad”, “Miskin Ahmad”, “Ahmadiy” va boshqa bir qancha adabiy taxalluslarni qo‘lladi.

- Ahmad Yassaviyga katta ixlos qo‘ygan Amir Temur 1395-1397 yillarda shoirning eski qabri o‘rnida katta maqbara ko‘tartirdi.

## **NOSIRIDDIN RABG‘UZIY**

**(XIII asr oxiri - XIV asr boshlari)**

- O‘zbek adabiyotiga birinchi bo‘lib g‘azalni olib kirgan shoir.
- O‘zbek adabiyotida nasrda birinchi bo‘lib badiiy asar yaratgan adib.
- O‘zbek nasrida birinchi bo‘lib dialogni (ikki kishining suhbatini) qo‘llaganyozuvchi.

XIII asr oxiri XIV asr boshlarida Xorazmning Raboti O‘g‘uz degan mavzeida tug‘ilib o‘sgan Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziydan bizga qadar “Qisasi Rabg‘uziy” asari saqlanib qolgan. Asar 72 qissadan iborat bo‘lib, 1310-yilda yozilgan. Asarning dastlabki boblari yer, ko‘k, mavjudotlar, insu jins, dev, parilarning yaratilishi haqida bo‘lib, Allohning ulug‘ligini ko‘rsatishga bag‘ishlangan. Bunda Rabg‘uziy Hasan Basra Rahmatulloh, Jobir ibn Ansoriy kabilarning

naqllarini keltiradi. Keyingi qissalarida Nuh, Muso, Iso, Ya'qub, Sulaymon, Dovud, Muhammad sallallohu alayhi vasallam hamda bir qator boshqa payg'ambarlar hayotidan qiziqarli hikoyatlar keltiradi: "Uchar otlar", "Sulaymon va qarinchqa", "Ilon va qarlug'och", "Uzum hikoyati", "Balqis hikoyati", "Namrud hikoyati" va boshqalar shular jumlasidandir.

Asardagi qiziq hikoyatlardan biri "Ilon va qarlug'och"dir.

Butun dunyoni suv bosgan paytda Nuh payg'ambar kemada borar edi. Kemani sichqon teshib qo'yadi. Teshikni ilon berkitib, g'arq bo'lishdan saqlab qoladi, buning evaziga Nuhdan dunyoda eng shirin etni so'raydi. Nuh dunyoda eng shirin et nimaniki ekanini bilib kelish uchun arini jo'natadi. Ari Nuhning topshirig'ini bajarib qaytayotganda qaldirg'ochga duch keladi. Qaldirg'och undan dunyoda eng shirin et nimaniki ekanini so'raydi, ari esa odam go'shti ekanini aytadi. Qaldirg'och unga, qani, tilingdan totib ko'ray-chi, deydi. Ari tilini tutgach, qaldirg'och uni uzib oladi. So'ng ular Nuh oldiga keladilar, ari g'o'ng'illab, javob berolmay turganda, qaldirg'och eng shirin et qurbaqaning go'shti ekan, deydi. Nuh ilonga qurbaqaning go'shtini beradi. Shundan buyon ari g'o'ng'illar ekan, qaldirg'och esa insonning do'stiga aylanib qolibdi.

"Sulaymon va qarinchqa" hikoyatida Rabg'uziy hozirjavob, donishmand chumoli va Sulaymon payg'ambar haqida hikoya qiladi. Sulaymon bir kuni yel ustidagi taxtida o'tirardi. Pastga qarasa, bir dunyo chumoli. Mindir degan chumolilar shohi o'z askarlarini qochirmoqda. Sulaymon bu holni ko'rib kuladi va taxtdan tushib, Mindirdan: "Nega askarlaringni qochiryapsan?" - deb so'raydi. Chumoli unga: "Sen ham shohsan, men ham shohman, sening askarlaring mening askarlarimni oyoq osti qilib o'ldirmasin", - deydi. "Unda nega o'zing qochmayapsan?" deya so'raydi Sulaymon. "Men bularning ulug'iman, balo kelganda, unga qarshi turuvchi bir mehribon kerak-ku,ularga, axir" - deya javob beradi chumoli.

"Bu aqlni kimdan o'rganding?" - so'raydi Sulaymon. "Nima, dunyoda bir o'zim aqlliman demoqchimisan?" - deydi chumoli. "Kel bo'lmasa bir tortishib ko'raylik" - deydi payg'ambar. Chumoli rozi bo'lib, savol beradi:

- Allohdan nima so'rading?
- Shunday bir boylik so'radimki hech kimda bo'lmasin

- Bu gapingdan hasadning isi kelyapti. O‘zimga bo‘lsin-u, boshqalarga bo‘lmasin demoqchimisan? Yana nima so‘rading?
- Fil suyagidan taxt so‘radim.
- Nima senga yer qattiqlik qildimi? Alloh senga yana nima berdi?
- Uchar qushlarga buyurdi, ular boshimda soyabon bo‘lib yuradilar.
- Keng osmon ko‘lankasi senga bas emasmidi? Yana nima berdi?
- Bir uzuk berdi, butun yer yuzi hayvonlari menga itoat qilurlar.
- Alloh yerdan ko‘kka qadar, mag‘ribdan mashriqqa qadar hammasini beribdi. Bilib qo‘yki, bularning qiymati bir kesakchalik qimmatga ega emas. Haqiqiy mulk jannat mulkidirki, uning qiymati bo‘lmagay. Yana nima berdi?
- Dev-parilarni menga bo‘ysundirib berdi.
- Bularning barchasi o‘tkinchi dunyodir, salgina sabr qilsang edi, farishtalarni senga itoat ettirgan bo‘lardi. Negaki, oxir zamonda Muhammad ismli payg‘ambar dunyoga kelgay. U Allohdan hech narsa so‘ramagay. Butun farishtalar unga xizmat qilgaylar”.

## **PAHLAVON MAHMUD**

(1247-1326)

Pahlavon Mahmud fors-tojik tilida ijod qilgan shoir bo‘lib, asosan ruboiy janridagi she‘rlari bilan mashhurdir. U haqdagi ma’lumotlar bir qator manbalarda saqlanib qolgan. Pahlavon Mahmudning Puryovaliy va Qitoliy taxalluslari bilan ijod qilganligi ma’lum. Uni ruboiynavislikda Xayyomdan keyingi o‘ringa qo‘yadilar. Shoirning ruboiylardan tash-qari “Kanzul-haqoyiq” nomli masnaviy ham yozganligi haqida ma’lumot bor, lekin u ko‘proq ruboiylari bilan mashhurdir. Shoirning ruboiylari bir qator adiblarimiz tomonidan o‘zbek tiliga o‘girilgan.

## **SAYFI SAROIYI**

(1321-1396)

Saroyi XIV asrda yashab ijod etgan adiblardan biridir. U 1321-yilda tug‘ilib, 1396-yilda vafot etgan. Uning yashagan davri O‘zbekxonning o‘g‘illari Tinibek va Jonibeklarning davriga to‘g‘ri keladi. Shoir mo‘g‘ul bosqinchilarining vahshiyliklari tufayli o‘z

vatanini tark etishga majbur bo'lgan, Oltin O'rda davlati poytaxti Saroyda yashab, ijod etgan.

Sayfi Saroiy g'azal, qasida, ruboiy janrida go'zal she'rlar ijod qilgan, "Suhayl va Guldursun" dostonini yaratgan hamda Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarini turkiyga tarjima qilgan.

Sayfi Saroiyning "Suhayl va Guldursun" dostoni dunyoviy ishq va sadoqat haqida bitilgan go'zal asarlardan biridir. Amir Temurning Urganch shahriga qilgan hujumi natijasida ko'plab odamlar zanjirband etilib, asir olinadi. Ular orasida Suhayl degan yigit ham bor edi. Temurning qizi uni sevib qoladi. Guldursun zindon qorovullarini mast qilib, Suhaylni zindondan ozod qiladi, ular birgalikda qochadilar, qumli sahrolardan o'tadilar. Yo'lda suvsizlik va ochlikdan sillasi qurigan Guldursun behush yiqilib qoladi. Suhayl uzoqda ko'ringan qishloqqa suv va non izlab boradi. Qaytib kelsa, qiz o'lib yotgan bo'ladi. Bundan nihoyatda iztirob chekkan Suhayl o'zini o'ldiradi. Shu dam bo'ron boshlanib, Suhayl va Guldursun jasadlarini qumlar ko'mib yuboradi.

## **XORAZMIY**

(XIV asr)

O'zbek adabiyotida noma janriga asos solgan shoir Xorazmiydir. U haqda bizga qadar ma'lumot saqlanib qolgan emas. Faqat "Muhabbatnoma" asarida muallif hayoti haqida ayrim tafsilotlarga keltirilgan, xolos. Xorazmiy 1353-yilda Oltin O'rda xoni Muhammad Xo'jabek bilan tanishadi. Muhammad Xo'jabek undan turkiy tilda bir asar yaratishni iltimos qiladi. Forsiy she'rlari bilan mashhur bo'lgan Xorazmiy o'sha yili "Muhabbatnoma" asarini yozadi. Asar o'n bitta nomadan tashkil topgan bo'lib, sakkiztasi turkiy, uchta forsida bitilgan. Bu nomalar samimiy oshiqning ma'shuqasiga maktublari sifatida yaratilgan. Nomalarning o'ntasi to'g'ridan-to'g'ri ma'shuqaga, bittasi esa tong nasimiga murojaat tarzida yozilgan.

"Muhabbatnoma" o'z nomi bilan ishq-muhabbat haqidagi o'zbek dunyo-viy adabiyotining noma janridagi ilk nodir asaridir. Shoir unda insonning insonga bo'lgan haqiqiy sevgisini kuylaydi, kishilarni hayot lazratlaridan, muhabbat zavqidan bahra olishga da'vat etadi.

## **ATOIY**

(XIV asr oxiri XV asrning birinchi yarmi)

Atoiyning tarjimai holiga oid ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Bu haqda ayrim manbalardagina qisqacha ma'lumotlar saqlanib qolgan. Jumladan Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida shoir haqida quyidagi ma'lumotlar beriladi:

"Mavlono Atoiy Balxdan bo'lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveshvash, xushxulq, munbasit kishi erdi. O'z zamonida atrok (turklar) orasida ko'p shuhrat tutdi".

Bizga qadar shoirdan yagona devon meros qolgan. Unda Atoiyning 260 ta g'azali to'plangan.

Atoiy o'zbek adabiyotini o'zining sodda, ravon va o'ynoqi vaznlarda yozilgan, badiiy barkamol, ajoyib tashbeh va tasvirlarga boy g'azallari bilan boyitib ketgan. Shoir she'riyatining mavzulari rang-barang bo'lib, ularda an'anaviy ishq-muhabbat mavzusi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

## **MAVLONO LUTFIY**

**(XIV asr)**

XIV asrning buyuk shoirlaridan biri Lutfiydir. A. Navoiy uni o'z davrining "malik-ul kalomi" ("So'z mulkning sultoni") deb atagan edi. Lutfiy forsiy va turkiy tillarda she'rlar yozgan. 1366-yilda Hirot chekkasidagi Dehikanor degan joyda tug'ilgan Lutfiy 99 umr ko'rgan. U butun kuch-quvvatini, va faoliyatini o'zbek adabiy tili va adabiyotining taraqqiy ettirishga, badbinlik va jaholatga qarshi kurashga, ezgulikni kuylashga bag'ishladi. "Majolis-un nafois"da ta'kidlanishicha, Lutfiy yigitligida dunyoviy ilmlarni o'zlashtirgandan so'ng Mavlono Shahobiddin Xiyoboniydan tasavvuf ilmidan ta'lim olgan. Lutfiy o'z asarlarida hayot va sevgini, bahor va shodlikni, vafo va sadoqatni, ma'rifat va osoyishtalikni, mardlik va bahodirlikni kuylagan, Navoiy ta'biri bilan aytganda, "naziri yo'q shoir" bo'lgan.

### **Savollar:**

1. "Devoni lug'otit turk" asarini o'qiganmisiz?
2. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" asarida qanday mavzu ko'tarilgan?
3. Ahmad Yassaviy ijodi haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. "Devoni lug'otit turk" asari bilan tanishib, unda ko'tarilgan mavzular haqida ma'lumot bering.

2. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asari bilan tanishib, unda ko‘tarilgan mavzular haqida gapirib bering.
3. Ahmad Yugnakiy ijodi haqida ma’lumot bering.

**Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. “Qutadg‘u bilig” qaysi hukmdorga bag‘ishlangan?**

- A) Muhammad Xo‘jabekka
- B) Mahmud G‘aznaviyga
- C) Tavg‘ach Bo‘g‘roxonga
- D) Qoraxoniya
- E) Bilga Qoonga

**2. “Qutadg‘u bilig”da ADOLAT ramzi...**

- A) Kuntug‘di
- B) Oyto‘ldi
- C) O‘gdulmush
- D) O‘zg‘urmush
- E) Ko‘samish

**3. “Qutadg‘u bilig”da shoir olimlarni kimlarga o‘xshatadi?**

- A) mash‘al ko‘tarib boruvchilarga
- B) cho‘ponlarga
- C) quyoshga
- D) payg‘ambarlarga
- E) A va B

**4. “Qutadg‘u bilig” necha fasl (bob)dan iborat?**

- A) 73 fasl
- B) 65 fasl
- C) 72 fasl
- D) 46 fasl
- E) 75 fasl

**5. Dod Sipahsollarga bag‘ishlangan asar qaysi javobda berilgan?**

- A) “Shohnoma”
- B) “Qutadg‘u bilig”
- C) “Muhabbatnoma”
- D) “Hibat-ul haqoyiq”
- E) “Hamsa”

**6. A.Yassaviy hikmatlarining bosh g‘oyalari...**

- A) vatanparvarlik va mehnatsevarlik
- B) nafsni jilovlash va xalqparvarlik, do‘stlik

- C) adolat va insof
- D) nafsni jilovlash va yetim, g'ariblarga muruvvat
- E) do'stlik va mehnatsevarlik

**7. Onadan ko'r tug'ilgan va qalbi ko'zi ochiqlardan ko'ra ravshanroq ko'rgan shoir kim?**

- A) Yusuf Xos Hojib
- B) Ahmad Yugnakiy
- C) Ahmad Yassaviy
- D) Muqrim Obid
- E) Nosiriddin Rabi'ul-uziy

**8. "Qisasi Rabi'ul-uziy" asariga manba bo'lgan kitob...**

- A) "Qur'oni Karim"
- B) Hadislar
- C) "Tavrot"
- D) "Injil"
- E) "Avesto"

**9. "Qisasi Rabi'ul-uziy"da asosan kimlar haqida so'z ketadi?**

- A) mehnatkash xalq
- B) shohlar va vazirlar
- C) olimlar
- D) payg'ambarlar
- E) insu jins, dev, parilar

**10. "Qisasi Rabi'ul-uziy"ga ko'ra Sulaymon payg'ambar Allohdan so'ragan narsalar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) qaynar xumcha, ochil dasturxon, shamol, taxt, uzuk
- B) boylik, yel, taxt, uchar qushlar, uzuk, devlar
- C) boylik, yel, yer, oltin taxt, tilla uzuk, farishtalar
- D) boqiy umr, hayvonlar, soya, uzoq umr, taxt, yel
- E) boylik, yel, taxt, soya, uzuk, dev, parilarning bo'ysundirilishi

**11. "Qisasi Rabi'ul-uziy"da Nuh payg'ambar dunyoda eng shirin et nimaniki ekanligini bilib kelish uchun nimani jo'natadi?**

- A) qaldirg'och
- B) ilon
- C) kaptar
- D) ari
- E) dev

**12. "Qisasi Rabi'ul-uziy"dagi eng oqil, dono hayvon...**

- A) ari

- B) samdun
- C) qaldirg‘och
- D) chumoli
- E) dev

**13. “Muhabbatnoma” asari kimga bag‘ishlangan?**

- A) Dod Sipahsolorga
- B) Husayn Boyqaroga
- C) Mahmud G‘aznaviyga
- D) Qoraxoniya
- E) Muhammad Xo‘jabekka

**14. “Muhabbatnoma” ta’sirida yozilgan asarlarni ko‘rsating.**

- A) “Boburnoma”, “Latofatnoma”, “Sayohatnoma”
- B) “Zafarnoma”, “Taashshuqnoma”, “Dahnoma”
- C) “Dahnoma”, “Sadoqatnoma”, “Taashshuqnoma”
- D) “Latofatnoma”, “Shayboniynoma”,
- E) “Odobnoma”, “Pandnoma”, “Dahnoma”

**15. Sayfi Saroiy yashab ijod etgan davr qaysi hukmdor davriga to‘g‘ri keladi?**

- A) Qoraxoniylar davriga
- B) Somoniylar davriga
- C) Tinibek va Jonibeklar davriga
- D) Shayboniynon davriga
- E) Temuriylar davriga

**16. Sayfi Saroiyning “...kimi to‘ti bikin chaynar durarni” misrasida so‘z kimlar haqida ketyapti?**

- A) tuhmatchilar haqida
- B) ezma, laqmalar haqida
- C) firibgar ruhoniylar
- D) adolatsiz shohlar
- E) iste’dodsiz shoirilar

**17. Sayfi Saroyining “Su-hayl va Guldursun” dostonidagi Suhayl va Guldursun kimlarning farzandlari bo‘lgan?**

- A) To‘xtamish va Temurning
- B) G‘aznaviy va No‘mon
- C) Navdar va No‘mon
- D) Rustam va Zakhok
- E) Temur va Shohruh

**18. “Javohir-un nahv fi lu-g‘otit turk” asari kimning qalamiga mansub?**

- A) A. Zamahshariy
- B) Mahmud Koshg'ariy
- C) A. Navoiy
- D) Narshaxiy
- E) A. Yugnakiy

**19. Qadimgi turkiy ajdodlarimizning mavsum-marosim qo'shiqlari qaysi manba orqali bizga qadar yetib kelgan?**

- A) Zamahshariyning "Muqaddimat-ul adab" asari orqali
- B) A. Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asari orqali
- C) Gerodotning "Tarix" kitobi or-qali
- D) Polienning "Harbiy hiylalar" kitobi orqali
- E) M. Koshg'ariyning "Devonu lu-g'otit turk" asari orqali

**20. "Devonu lug'otit turk"da qancha turkiy so'zning arabcha izohi berilgan?**

- A) 3000 ga yaqin
- B) 6000 ga yaqin
- C) 50000 ga yaqin
- D) 30000 ga yaqin
- E) 20000 ga yaqin

**21. "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan she'riy parchalarning taxminiy soni...**

- A) 6 mingta
- B) 3 mingta
- C) 5 mingta
- D) 300 ta
- E) 133 ta

**22. "O'q yarasi bitar, til yarasi bitmas" maqoli qaysi asarda qo'llanilgan?**

- A) "Qutadg'u bilig"
- B) "Hibat-ul haqoyiq"
- C) "Nasoyim-ul muhabbat"
- D) "Devoni hikmat"
- E) "Shohnoma"

**23. O'tkinchi, bebaqo dunyo "Qutadg'u bilig"da nimaga o'xshatilgan?**

- A) karvonsaroyga
- B) oqar suvga
- C) rabotga
- D) charxpalakka
- E) qalandarxonaga

24. Hayyomdan keyin forsiyda ruboiy yozishda mashhur bo‘lgan shoir kim?

- A) Lutfiy
- B) Pahlavon Mahmud
- C) Atoiy
- D) Xorazmiy
- E) Sayfi Saroiy

25. Ushbu she‘r janri va muallifini aniqlang.

Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,  
Yoki dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq.  
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,  
Nodon suhbatidan ming bor yaxshiroq.

- A) Lutfiy, tuyuq
- B) Sayfi Saroiy, ruboiy
- C) Atoiy, murabba’
- D) Xorazmiy, dostonidan parcha
- E) Pahlavon Mahmud, ruboiy

## 6-DARS


### ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODI

**Darsning maqsadi:** Talabalarga buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.

#### Reja:

1. Alisher Navoiyning hayoti.
2. Alisher Navoiyning ijodi.
3. Alisher Navoiyning lirik asarlari.
4. Alisher Navoiyning liro-epik asarlari.

**Tayanch tushunchalar:** Alisher Navoiy, lirik asarlar, sheriylar, liro-epik asarlar, “Xamsa”.



1441-yil 9-fevral Hirotning Bog‘i Davlatxona mavzeyida temuriylar avlodidan bo‘lgan G‘iyosiddin (laqabi G‘iyosiddin Kichkina, Kichkina bahodir ham bo‘lgan) oilasida tavallud topdi. To‘rt yoshida savodi chiqib, maktabga bordi va she‘riyatga ishq bog‘ladi. Fariduddin Attorning “Mantiq-ut Tayr”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarini

sevib mutolaa qildi. Alisherning she'riyatga muhabbat bog'lashida uning shoir tog'alari Mir Sayyid Kobuliy va Muhammad G'aribiylarning ta'siri katta bo'lgan.

1447-yil Shohruh mirzo vafot etib, toj-taxt uchun temuriy shahzodalar o'rtasida kurash kuchayib ketadi, yurt notinch bo'lib qolganligi tufayli, Alisherlar oilasi Taft shahriga ko'chib ketadi.

1452-yil Alisherlar oilasi Hirotga qaytib keladi. Alisher shoh Abulqosim Bobur saroyida xizmat qila boshlaydi.

1453-yil Otasidan judo bo'ladi. Abulqosim Bobur uni o'z tarbiyasiga oladi va uni o'zi bilan Mashhadga olib ketadi. Bu yerda Alisher Mavlono Lutfiy va Kamol Turbatiylar bilan tanishadi.

1457-yil Abulqosim Bobur vafot etadi. Taxtga Abusaid mirzo o'tiradi. Mashhadga biror-bir mehribonisiz qolgan Alisher madrasa xonaqolarida "g'arib va xasta" kun kechira boshlaydi.

1464-yil Alisher Hirotga qaytadi. Dastlabki kunlardayoq Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Alisher Abusaidga qarshi taxt uchun kurash olib borayotgan Husayn Bayqaroning maktabdosh do'sti bo'lganligi, tog'alari esa Abusaidga qarshi bosh ko'targan qo'zg'olonni qo'llab-quvvatlaganligi tufayli shoh Alisherga kek saqlashi tabiiy edi, albatta, shu bois u Alisherning ota-onasidan qolgan merosini musodara qilib, Samarqandga ketishiga sababchi bo'ladi. U Samarqandda Xoja Fazlulloh Abulaysdan saboq oladi, Qutb Samarqandiy, Uloi Shoshiy kabi shoirlar bilan tanishadi. Samarqand hokimi, shoir Ahmad Hojibek unga homiylik qiladi.

1469-yil Abusaid Mirzo G'arbiy Eronga yurish chog'ida o'ldiriladi. Hirot ostonasiga yaqin turgan Husayn Boyqaro taxtni osonlikcha egallab oladi. Alisherni Hirotga chaqirtirib, muhrdorlik vazifasiga ta-yinlaydi. Keyinchalik (1472-yil) bosh vazir lavozimiga ko'taradi, unga "Amiri kabir" (Ulug' amir) unvonini beradi. Vazirlik chog'ida A. Navoiy "Ixlosiya" madrasasi, "Xalosiya" xonaqohi, "Shifoiya" tabobatxonasi, Jome' masjidi, "Dorul-huffoz" (qiroatxonalar) va boshqa o'nlab binolar qurdiradi, har yili 2 mingga yaqin beva-bechoraga kiyim-kechak, oziq-ovqat ulashadi.

1476-yil Vazirlikdan iste'foga chiqish haqida shohdan qat'iy iltimos qiladi. Uning birdan-bir orzusi Haj safariga borish va tamoman ijod bilan shug'ullanish edi. Sulton uning iltimosini noiloj qondiradi.

1487-yil Husayn Boyqaro qistovi bilan Astrobodga hokim qilib tayinlanadi. 1488-yilda shohga qayta-qayta iltimos qilib, yana Hirotga qaytadi.

1500-yil Yilning oxirlarida Husayn Boyqaro Astrobodda bosh ko'targan o'g'li Badiuzzamonga qarshi qo'shin tortadi. Biroq urush yarashishga aylanadi. Bu xushxabarni eshitgan Navoiy shohni hursandchilik bilan kutib olish uchun yo'lga chiqadi va yo'lda holdan ketib yiqiladi. Uni taxtiravonda Hirotga olib keladilar. Shoir bir necha kun betob yotib, 1501-yilning 3-yanvarida olamdan ko'z yumadi.

### **Lirik asarlari**

1. **“Badoe’-ul bidoya” (Badiiyatning boshlanishi)** 1470-1476-yillarda shoirning o'zi tomonidan tartib berilgan birinchi devoni bo'lib, u 842 she'rdan iborat.

2. **“Navodir-un nihoya” (Nodirliklarning oxiri)** 1476-1483 yillarda tartib berilgan ikkinchi devon hisoblanadi.

#### **“Xazoyin-ul maoniy” (“Ma’nolar xazinası”)**

1491-1498-yillarda tartib berilgan bu kulliyot o'z ichiga to'rtta turkiy devonni oladi (shu bois xalq orasida “Chor devon” deb ham ataladi). Inson umri to'rt faslga bo'linganidek, “Xazoyin-ul maoniy” ham to'rt devondan tuzildi va har biriga alohida nom qo'yildi:

1. **“G‘aroyib-us sig‘ar”** (“Bolalik g‘aroyibotlari”) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha.

2. **“Navodir-ush shabob”** (“Yigitlik nodirliklari”) 20 yoshdan 35 yoshgacha.

3. **“Badoe’ –ul vasat”** (“O'rta yoshlik badiiyatlari”) 35 yoshdan 45 yoshgacha.

4. **“Favoyid-ul kibar”** (“Keksalik foydaliklari”) 45 yoshdan 60 yoshgacha.

Kulliyotga shoirning 16 janrda yozgan she'rlari kiritilgan.

Keling, Hazrati Navoiyning **“Jong‘a chun dermen...”** g‘azaliga e'tibor beraylik.

Jong‘a chun dermen, ne erdi o‘lmagim kayfiyati?

Derki: Bois o‘ldi jism marazning illati.

Jimsdin so‘rsamki, bu za‘fingg‘a ne bo‘ldi sabab?

Der, anga bo‘ldi sabab o‘tlug‘ bag‘irning hirkati.

Chun bag'irdin so'rsam aytur, andoq tushti o't mango,  
Kim ko'ngulg'a shu'la soli ishq barqi ofati.

Ko'nglumg'a qilsam g'azab, ayturki, ko'zdindur gunah,  
Ko'mayin ul tushmadi bizg'a bu ishning tuhmati.

Ko'zg'a chun dermenki, ey, tardomani yuzi qaro,  
Sendin o'lmish telba ko'nglumning balo-yu vahshati,

Yig'lab aytur ko'zki, yo'q erdi menga ham ihtiyor,  
Kim ko'rindu nogahon ul sho'xi ma'vash tal'ati.

Ey, Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy,  
Kim senga ishq o'ti-o'q ermish azalning qismati.

She'rda qanday ma'no ifodalangan va bu ma'nolar o'rtasida qanday bog'lanish mavjud?

Oshiq yor (klassik she'riyatimizda, odatda, yor deganda, ko'z o'ngimizda Alloh timsoli gavdalanadi) ishq yo'lida halok bo'lgan. U o'z halokati sababini uning jismini tark etgan jondan so'raydi. Jon aybni jismga qo'yadi: "Jismingda og'ir kasallik (maraz) bor edi, shu bois uni tark etdim". Oshiq endi jismni so'roqqa tutadi. "Bag'ringdan so'ra, -desdi u, - axir alanga tushgan edi unga". Bag'riga do'q urib so'raydi endi oshiq, u esa "Ko'nglingdan so'ra, agar unga ishq uchquni tushmaganida edi, men alanga ichida qolarmidim?" Oshiq g'azablanib qo'nglidan so'raydi, "Hamma ayb ko'zingda, - dedi u, - gar shu ko'zlaring bo'lmaganida, menga uchqun tusharmidi?" Endi toqati toq bo'lgan oshiq ko'zni "Ey, tardoman, yuzi qaro" deb so'kib yuboradi. Ko'z g'ilq-g'ilq yoshga to'ladi. "Axir menda nima ayb, yonimdan o'tgan mahvashni ko'rmaganimda bu fojia yuz bermagan bo'larmidi".

Ilal-oqibat gap Allohga borib taqalyapti. Tasavvufda o'lim (mavtun) har bir inson uchun ham ma'navan, ham ruhan, ham jismonan komil bo'lib Alloh diydoriga yetishish, ya'ni Hak bilan birlashish (vahdatun) buyuk baxt hisoblanadi.

She'rda savol-javoblar quyidagicha tarzda qo'yilgan:

jon – jism – bag'ir – ko'ngil – ko'z

G'azalda iyhom (lutf) san'ati qo'llanilgan. "**Tardoman**" (etagi ho'l) so'zi tagida ikki xil ma'no, ham buzuq, fohisha, ham doimo yoshlanib turadigan (axir yig'lagan paytimizda ostki ikpriklarimiz ho'l bo'ladi-ku) ko'zlar ma'nolari yotibdi. "**Yuzi qaro**" so'zlari esa ham fohisha, ham qora ko'z ma'nolarini ifodalayapti.

- A. Navoiy lirikasining yetakchi mavzulari quyidagilardan iborat:
- a) hayot va komil insonni ulug‘lash;
  - b) ilohiy va zaminiy ishq vasfi;
  - v) yuksak insoniy fazilatlar: odamiylik, mehr-muruvvat, kamtarlik, rostgo‘ylik, pokdillikni taranum etish;
  - g) teskari zamonadan shikoyat.

4. **“Devoni Foniy”** Forsiy tildagi 12 ming misradan iborat she‘rlarni o‘z ichiga olgan bu devon fotonusxasini professor Hamid Sulaymon Parij Milliy kutubxonasidan keltirib, uni chopga tayyorladi. Undagi she‘rlarning aksariyati Hofiz Sheroziyga tatabbu (ergashish) tarzida yaratilgan.

### **Liro-epik asarlari**

#### **“Xamsa”**

Turkiy tildagi bu buyuk asar 1483-1485-yillar orasida yaratildi. Hamsanavislik aslida bir an‘ana bo‘lib, u go‘yo ijodiy musobaqa edi. Nizomiy Ganjaviy (1141-1209), Xusrav Dehlaviy (1253-1325), Abdurahmon Jomiy (1414-1492) hamsanavislikda o‘z kuchlarini sinab ko‘rganlar. Bundan tashqari Mavlono Kotibiy, Ali Ohiv va boshqalar ham «Xamsa» yozishga urinib ko‘rganlar, biroq yozib tugatolmaganlar.

Alisher Navoiy “Xamsa”si 51 ming misradan iborat bo‘lib, o‘z ichiga besh dostonni oladi:

#### **“Hayrat-ul abror”**

##### **(“Yaxshilarning hayratlanishi”)**

Axloqiy-didaktik doston bo‘lib, o‘ziga xos kompozitsiyaga ega. U 64 bob, 20 maqolatdan iborat. Har bir bobda shoir alohida mavzu ustida hukm yuritadi. Ularda odil shoh, karam va saxovat, rostgo‘ylik va to‘g‘rilik, ilm-ma‘rifat, insondo‘stlik va vatanparvarlik kabi hayotiy masalalar yoritiladi.

Alisher Navoiy har bir mavzu ustida hukm yuritar ekan, o‘z fikrini kichik ibratli hikoyatlar bilan xulosalaydi. Odil shoh haqida so‘z yuritgan shoir “Shoh qahri va adolat hikoyati”ni misol qilib keltiradi:

Kunlarning birida shoh G‘oziy (Husayn Boyqaro) aylanish uchun chiq-qanida bir devona kampir uning etagidan ushlab nolayu afg‘on chekadi va shariat bo‘yicha u bilan bir masalada da‘volashmoqchi

ekanini aytadi. Adolatli shoh uni qozi oldiga boshlab keladi. “Mening birgina jigarim, qurigan shohimning birgina mevasi bor edi, mana shu shoh o‘z tig‘i bilan jigarim qonini yerga oqizdi”, - deydi kampir. Qozi kampirdan ikkita guvoh keltirishni so‘raydi. Kampir: “Agar ikki guvoh kerak bo‘lsa bular shohning adolati va insofidir”, - deydi. Pok niyatli shoh aybiga iqror bo‘ladi. Shoh qiyiq bilan bo‘ynini bog‘lab va hamyonining og‘zini ochib: “Qasos olaman desang, mana boshim, maqsading oltin bo‘lsa, mana oltin, o‘g‘lingni o‘ldirish haqida buyruq berganimda, ilojim yo‘q edi, nima qilsang qil, ixtiyor senda”, - deydi.

Kampir shoh adolati oldida ko‘ngli yumshab, hatto xijolat bo‘lib, shohning jonidan ham, uning oltinlaridan ham voz kechadi. Biroq shoh uni boy qilib yuboradi. Kampir el orasida “zoli zar” (tilla kampir) degan nom oladi.

Vafo va sadoqat bobida Alisher Navoiy ibratli bir hikoyatni keltiradi: Amir Temur iqlimlarni fath etishga kirishganda, Hindistonda qattiq jang bo‘ladi. Dushmanlarning hammasi dinsiz bo‘lgani uchun yoppasiga qatl etilib, qonlar daryo bo‘lib oqadi. Shu payt ikki sevishganlar qotillarga duch keladi. Shoh navkari ularni chopmoqchi bo‘lganida, ularning biri, avval meni o‘ldir, deya jallodga boshini tutadi. Navkar uning boshini olmoqchi bo‘lganda, boshqasi, yo‘q, avval mening boshimni ol, to meni o‘ldirguningcha sherigim ozgina yashab olsin, deb tavallo qiladi. Jallod qaysi birini o‘ldirmoqchi bo‘lmasin, ikki yor o‘sha iltijo bilan uning oyog‘iga yiqilar, bir-biriga o‘z jonini fido etardi. Oradan bir oz vaqt o‘tib, omon-omon bo‘lgani haqida xabar keladi. Bu ikki yor bir-biri uchun jonini kechgan ekan, shoh ham xalqning gunohidan kechgan edi. Shu tariqa vafodorlik faqat ikki yorni emas, butun elni o‘limdan saqlab qoladi.

Alisher Navoiy rostgo‘ylik va to‘g‘rilik haqidagi maqolotda “Sher bilan Durroj”, ilmning afzalligi haqidagi maqolotda “Imom Faxr-ar Roziy va Sulton Muhammad Xorazmshohiy”, saxovat haqidagi maqolotga esa “Hotami Toyi hikoyati”ni keltiradi.

### **“Farhod va Shirin”**

“Farhod va Shirin” ishqiy-sarguzasht asardir. Alisher Navoiy uni “Mehnatnoma” deb ham atadai. Temuriy shahzodalar toj-taxt uchun o‘zaro kurash borayotgan ayni bir paytda shoir pokiza muhabbat, yaratuvchilik qudratiga ega bo‘lgan, insondo‘st va katarin shahzoda

Farhodni ularga ibrat qilib ko'rsatdi, uning timsolida o'zining komil inson haqidagi orzu-umidlarni ilgari surdi.

### **Eslab qoling!**

- Alisher Navoiydan rosa 300 yil muqaddam ozar shoiri Nizomiy Ganjaviy "Husrav va Shirin" dostonida birinchi bo'lib Farhod obrazini yaratgan bo'lsa, Shirin timsoli adabiyotga dastlab Abulqosim Firdavsiyning "Shohnomasi" orqali kirib keldi.

- Muhabbat yo'lida jonini qurbon qilgan sadoqatli malika – Shirin haqida qancha-qancha rivoyatlar to'qilmagan. Arab sayyoxi Yoqut Doro I tomonidan Bisutun tog'i qoyalariga yozib qoldirilgan Shirin haqidagi bitiklarni o'z ko'zlari bilan ko'rganligini elsb o'tadi, Tabariy va Bal'amiy kabi murrixlar esa Eron shohi Husrav parvizning Shiringa bo'lgan muhabbati haqida hikoya qiladilar.

- Nizomiy boshlab bergan an'anani undan 100 yil keyin otabobolari asli shaxrisabzlik bo'lib, mo'g'ul istilosi davrida Hindistonga borib qolgan Husrav Dexlaviy o'z "Hamsa"si bilan davom ettirdi.

- Husrav Dexlaviydan so'ng shu mavzuda ozar o'oiri Orif Ardabeliy ("Farhodnoma"), Xasan Salimiy ("Shirin va Farhod"), Ashraf, Sinon Shayxiylar ham ishqiy-sarguzashtnomalar yaratdilar.

"Farhod va Shirin"ni bitishda ustozlari Husrav Dexlaviy izidan borgan Alisher Navoiy hamsanafis salafilariga ayrim e'tirozlarini bildirdi. Nizomiy bosh qahramon qilib olgan Eron shohi Xurmuздning tilab olgan o'g'li, xudbin va maishatparast Husrav Shirin muhabbatiga hargiz munosib emas. U ishqda beqaror, haqiqiy sevgidan toj-taxtni ustun qo'yadi. Nizomiydan keyingi shoirlar ham, A. Navoiy ta'kidlashicha, Husravning maddoxiga aylanib qolganlar.

Dostonning qisqacha mazmuni quyidagicha:

Chin mamlakatining dovrug'i olamni tutgan hoqoni bor edi. Mol dunyosi, lashkarining son-sanog'i bo'lmagani, tojini dur bezab turgani bilan farzandsizlikdan ko'p alam chekardi. Maqsadiga yetish uchun u ko'p narsalar qildi, farzandsizlarning ko'nglini oldi, otasizlarga otalik qildi. Iltijolari oxiri Xudoga yetib, uning oilasida o'g'il tug'ildi. Butun Chin mamlakati devorlari qimmatbaho, naqshinkor matolar, gilamlar bilan bezatilib, yurtda katta to'y boshlanib ketdi. Shoh xalqning uch yillik hirojidan voz kechadi. Farhod onadan ishq bilan tug'ildi. Uning ismi ham ishq osmonidan tushgan edi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

“Firoq” soʻzidan “F” harfini, “rashk” soʻzidan “R”, “hajr”dan “H”, “oh”dan “O”, “dard”dan “D” harflarini olishib, ismini Farhod qoʻydilar.

Farhod garchi chumolidan ham kam sut ichsa-da, arslon bolasidek tez oʻsa boshladi. Uch yoshga toʻlgan Farhodni muallim qoʻliga topshirdilar. U uch oyda savodini chiqardi, “Qurʻon”ni boshdan oyoq yod oldi, oʻn yoshida dunyodagi bor ilmlarni oʻrgandi. Biroq endigina oʻynab kuladigan paytida negadir gʻamgin, tushkun boʻlib qoldi. Ishq haqida biror soʻz ketsa, yoki qoʻshiq kuylansa, uning koʻzidan duvduv yosh kelardi. Xon bundan qattiq tashvishga tushdi. Oʻgʻlining koʻnglini olish uchun turli tomoshalar, bazmlar uyushtirdi, lekin foydasi boʻlmadi. Oxiri Farhodning tarbiyachi ustodi Mulkoro bilan maslahatlashib, yilning toʻrt fasliga moslab, toʻrt qasr qurdirishga qaror qildi.

Yurtdagi mana-man degan muhandislar, ustalarni chaqirishdi. Ular orasida egizak aka-ukalar – meʼmor Boniy, naqqosh Moniy, shuningdek, tosh yoʻnuvchi Qoran ham bor edi. Toʻrt qasr qurilayotgani haqidagi xabar dunyoga ketdi. Bir kuni Farhod otiga minib qurilish boshiga keldi, ustalarning ishini koʻrib, hayratga tushdi. Koʻp oʻtmay, ularning hunarini oʻrganishga kirishdi, Qorandan tosh yoʻnishni, Boniydan meʼmorchilikni, Moniydan naqqoshlikni shunchalik tez oʻrganib oldiki, ustozlari unga qoyil qolishdi.

Toʻrt yil oʻtib, qasr qurib bitkazildi. Hoqon mulozimlari va Farhod bilan uni koʻrgani keldilar, ustalarga haddan ziyod inʼomlar berilib, bir yillik bazm qurish harakati boshlandi. Har bir qasrda uch oydan bazm qurildi. Biroq Farhod oʻsha-oʻsha gʻamgin qolaverdi. Hoqonning yana boshi qotdi, oxiri uni oʻz taxtiga oʻtqazish fikriga keldi, butun mulozimlarini toʻplab, oʻgʻlini yoniga oʻtqizdi, yoshi oltmishga yaqinlashib qolganini aytib, undan shohlikni qabul qilishini soʻradi. Farhod otasining bu gapiga juda odob bilan asosli ravishda rad javobini berdi, oʻzini bir giyohga, otasini katta sarv daraxtiga, oʻzini bir doʻnglikka, otasini Elbrus togʻiga qiyosladi, avval davlatni boshqarishni oʻrganib olish uchun kichikroq vazifa tayin etilishini soʻradi.

Oʻgʻlining bu oqilona javoblaridan boshi koʻkka yetgan hoqon uning boshidan duru gavharlar sochish uchun uni xazinasiga olib

kirdi. Farhod xazinadagi son-sanoqsiz boylikni ko‘rib, hayratga tushdi, uning diqqatini tip-tiniq billurdan yasalgan g‘aroyib sandiq o‘ziga tortdi. Sandiq bezakdor qulf bilan qulflab qo‘yilgan edi. Farhod otasidan uning qanday siri borligini, kaliti qaerdaligini so‘radi. Otasi bu sandiq sirini hech kim bilmasligi, kaliti yo‘qligini qanchalik uqtirmasin, Farhod so‘zida turib oldi. Noiloj kalitni keltirib, sandiqni ochdilar. Uning ichidan quyosh yanglig‘ bir ko‘zgu chiqdi. Bu ko‘zguni Iskandari Rumiyy (Aleksandr Makedonskiy) to‘rt yuz olimga yasattirgan edi. Ko‘zgu orqasiga bir necha maxfiy sirlar yozib qo‘yilgan edi. Unda aytilishicha, agar kim u oynada yashirin sirni ochishga intilib, niyatiga yeta olsa, u ko‘zguga boqqanida, o‘z kelajagini ko‘rish mumkin. Buning uchun avval juda ko‘p mashaqqat chekishi, Yunonistondagi bir toqqa borishi kerak. Toqqa yetgunicha yo‘lda uch manzil bor. Birinchisida ajdaho uchraydi, ikinchisida Ahraman degan dev, uchinchi manzilda esa yana ham ajoyibroq bir tilsim bor. Shulardan omon-eson o‘tgandagina to‘rtinchi manzil – o‘sha tog‘ keladi. Tog‘da esa g‘or bor, g‘or ichida Suqrot degan donishmand yashaydi. Agar u tirik bo‘lsa, faqat ugina Oinai Iskandariy tilsimini ochish yo‘llarini aytadi, bordi-yu, olamdan o‘tgan bo‘lsa, uning ruhiga iltijo qilinsa, niyatiga yetishi mumkin.

Farhod bu yozuvni o‘qib, o‘zini unutdi, devona bo‘lib qolayozdi, oxiri Mulkoroni chaqirib, undan otasiga tushuntirib, Yunon safariga ijozat olib berishini so‘radi. Mulkoro xoqonga Farhodning bu dardini aytganida, xon ko‘ksiga urib, yoqalarini chok-chok yirtib, yig‘ladi, avval bir nasihat qilib ko‘raylik, ko‘nmasa, na iloj, dedi. Ammo Farhod o‘z fikridan qaytmadi. Hoqon butun Chin mamlakatidan qo‘shin to‘plab, o‘g‘li bilan birga Yunon o‘lkasiga yo‘l oldi. Bir necha oydan so‘ng ular Yunonistonga yetdilar. Yunonning talay olimlari hoqon oldiga keldilar. Hoqon bu yurtga bosqinchilik uchun emas, Suqrotni izlab kelganini tushuntirdi. Yunon hakimlari Suqrot yashayotgan tog‘ yo‘lini faqat yoshi besh yuzlarga borib qolgan Suhaylo degan bir olim bilishini aytdilar, keyin shahzodani o‘sha g‘or sari boshladilar. Ulardan biri ilgariroq borib, Suhayloni kelayotgan mehmonlardan xabardor qildi. Ota-o‘g‘il Suhaylo oldiga kirdilar. Suhaylo ularni shodon kutib oldi. Hoqon bu yerga kelishi sabablarini aytgach, Suhaylo shahzodadan: “Oting Farhodmi?” — deb so‘radi. “Ha” javobini olgach, turib Farhodning peshonasidan o‘pd, so‘ng bu tilsimni ochish yo‘lida unga ikki manzil uchrashi, ularda ajdaho bilan

Axraman degan dev ko'p balolar yog'dirishini aytib, unga yordam berajagini, buni unga Jomosb degan ulug' hakim bashorat qilib qoldirganini ma'lum qildi. Go'yo o'sha Jomosb bashoratida aytilishicha, Farhod ajdahoni o'ldirganidan keyin, katta bir xazinani, devni yo'qotgach esa, Sulaymon payg'ambarning sehrli uzugini qo'lga kiritadi. Uchinchi manzilda tilsimni ochganidan keyin Jamshid jomini oladi. Farhod bu boyliklarni otasiga topshirishi kerak, chunki unga Suqrot hakimga yetgani-yu, Oinai Iskandariyga erishganining o'zi yetarli. Suqrot dan bu sirni bilib olganidan so'ng, Chinga borib, o'sha ko'zguga nazar tashlasa, unda o'z kelajagini ko'radi.

Shundan so'ng Suhaylo bir idishda Farhodga yog' berdi. Bu Samandar degan o'tdan paydo bo'lgan, o't ichida kuymay yashaydigan jonivorning yog'i edi. Suhaylo bu yog'ni ko'p azoblar bilan yiqqanini, uni badaniga surtib olsa, ajdaho sochgan olov unga ta'sir qilmasligini aytdi. Keyin Farhodga devni o'ldirgandan so'ng uning bo'ynidagi kumush taxtachada uchinchi manzildagi tilsimni ochish yo'li aytilgani, tilsimni ochib, Jamshid jomini topishini, jom atrofidagi yozuvlarni o'qisa, o'sha jom ichida Suqrot hakim diydor ko'rsatishini va Oinai Iskandar tilsimini o'rgatishi mumkinligini uqtirgach, Suhaylo Farhodga oq yo'l tilab, jon taslim etdi. Uni hurmat bilan tuproqqa qo'ydilar.

Farhod ajdaho manziliga borib, kurash bilan uni o'ldirdi va g'orga kirdi, u yerda tosh ustidagi bir taxtada Afridun ganjini topish yo'li bitilgandi. Farhod shu yo'l bilan borib, katta xazina ustidan chiqdi. Xazinaxonaning to'rida bir ayvon bo'lib, bu yerdagi taxta ustida qilich va qalqon turgan ekan. Qalqonda shunday so'zlar bitilgan edi: "Agar kimki bu qilich va qalqonga erishsa, birini osib, birini beliga bog'lab olsun, qalqon qubbasida bir ism yozilgan, bu ismning xosiyati shundaki, uni yopingan kishi oldida ne-ne makrga ega bo'lgan devlar ham mahv bo'ladi. Qilichda ham shunday ism yozilganki, uning xosiyati bilan bu tig' bir urilganda, shayton ham, Axraman dev ham ikkiga bo'linib ketadi."

Qalqonni osib, qilichni beliga bog'lab, Farhod Axraman dev manziliga ot soldi. Dev qattiq hujumlar qildi, biroq yigitni sehrli qalqon himoya qildi. Qalqon qubbasiga yozilgan ism Axramanning kuchini olib qo'ydi. U osmondan yerga qulab tushdi va tog'dan dumalab tushgan toshlar orasida qolib ketdi.

Farhod otini dev yashayotgan qasr oldiga bog‘lab, ichkariga kirdi. Muhtasham qasr eshiklarining hammasiga qulflar osilgan edi. Farhodning ko‘zi javohirlar bilan bezatilgan bir eshikka tushdi. Unga: “Bu eshikni ochish juda qiyin, yaxshisi, uni ochishdan qo‘rqqan afzal” deb yozib qo‘yilgan edi. Farhod eshikni sindirib uyga kirib ko‘rsa, uyda bir qandil osilgan, u xonani quyoshdek yoritib turardi. O‘sha qandilni tushirib, ichidan Sulaymon uzugini topdi. Qandilda shunday yozuv bor edi: “Kimki uzukka ega bo‘lsa, unda yozilgan ismni o‘qib, Iskandari Rumiyl tilsimini ochadi”.

Farhod qasrdan chiqib, hoqon bilan qolgan odamlar oldiga bordi. Otasi va Mulkoroga Axraman qasridagi boyliklarni topshirdi va uzuk voqeasini aytib berdi. Ular yo‘lga ravona bo‘ldilar, oldilaridan ajoyib bir o‘tloq chiqdi, o‘rtasida bir tiniq chashma bor edi. Chashma bo‘yidagi bir daraxt esa xuddi Xizr payg‘ambardek edi. Farhod otini daraxtga bog‘lab, chashmaga tushib poklandi, g‘amlarni yuvgandek bo‘ldi, keyin sajda uchun yerga bosh qo‘ydi. Boshini ko‘tarsa, qarshisida yam-yashil kiyimdagi nuroniy bir chol turibdi. Bu Xizr payg‘ambar edi. Xizr unga: “Shu yerdan sanab, o‘n ikki ming qadam yurasan, lekin har qadamda pushaymonlik ham bor, chunki so‘q-moqda o‘tkir-o‘tkir toshlar oyoqni kesib yuboradi, chidam bilan o‘n bir ming qadam yurgandan so‘ng katta toshdan bo‘lgan bir tuynuk chiqadi. Oldida temir zanjir bilan bog‘langan bir sher bor. Agar undan baxting chopib, o‘tsang, qo‘rg‘on eshigiga yana ming qadam qoladi. To‘qqiz yuz qadam tashlagandan so‘ng, bir tosh taxtaga duch kelasan, uning ustiga chiqib qattiq bir tepsang, qal’aning darvozasi ochiladi. Qal’ada odamga o‘xshagan bir temir jussa haykaldek turibdi. Qo‘lida temir kamon. U kamoniga har qanday qalqonni ham teshib o‘tadigan o‘q qadab olgan. Boshdan-oyoq temir sovutga o‘ralib olgan o‘sha jussa ko‘ksida bir oyina bor. Agar yuz qadam joydan turib, oyinani o‘q bilan nishonga olsang, jussa yiqiladi, nishonga ololmasang, uning qo‘lidagi kamonlardan senga qarab o‘qlar yog‘iladi. Shuning uchun sen o‘sha ismi a‘zamni kanda qilmay takrorlab boraver.

Sher hamla qilgudek bo‘lsa, Sulaymon uzugini uning og‘ziga ot, shu bilan uning ishi tugaydi. Keyin uzukni olib, o‘sha men aytgan tosh tomonga yur, o‘q otayotganda, ismni takrorlashni unutma.”

Farhod bu topshiriqlarni Xizr aytganidek amalga oshirdi. Iskandar yetti iqlimdan to‘plagan boyligini shu qal’aga berkitgan ekan. Qal’a markazida har tarafga nur sochib, yal-yal yonib turgan bir imorat

ko'rindi. Farhod unga kirib, uning toqidagi jomni ko'rdi. So'ng ot surib, hoqon oldiga bordi. Odamlarni buloq oldida qoldirib, hoqon va Mulkoroni qal'aga boshlab keldi, boyliklarni ularga topshirdi. Shundan keyin ota-bola ikki mingtacha odamlari bilan Suqrot g'ori joylashgan tog' sari yo'l oldilar. Bu shunday buyuk g'or ediki, uning na oxiri bor, na boshi. Farhod Suqrot yashayotgan g'orni topdi. Ichkaridan "kiring" degan ovoz keldi. Qarasalar, to'rida nur taratib bir kishi o'tiribdi. Bu Suqrot edi. U ham Suhaylo kabi Farhodni uzoq yillar kutgan edi. Suqrot Farhodga bir necha duolarni o'rgatdi. So'ng Farhod oldida jon berdi. Ular Suqrotni katta hurmat bilan dafn etdilar, so'ng yana Chinga qaytdilar. Farhod xazina sari yugurdi. Ko'zguni olib, unga boqqanida ko'm-ko'k maysalaru qip-qizil gullarga burkangan bir dashtni ko'rdi. Dasht chetida baland tog'. Tog' o'rtasida g'uj-g'uj odam. O'rtada xuddi o'ziga o'xshash yigit ariq qazish bilan band. Shu payt bir guruh otliq qizlar paydo bo'ldi. Ular orasida yuzi quyoshday yorug' mohpaykar ham bor edi. Farhod unga boqdi-yu, o'q yegan ohuday nola chekib hushidan ketdi. O'ziga kelgach, qiz xayoli bilan tamoman band bo'lib qoldi.

Farhod dardini qanchalik yashirmasin, uning ahvoli yomonlashib borayotganini ota-onasi sezib turardilar. Tabiblar uning tuzalishi uchun dengizga chiqib bir necha kun havo almashtirishi kerakligini aytdilar. Bu fikr hoqonga ham ma'qul tushdi. Uch yuz ellik kema va qayiqlar bilan yo'lga tushdilar. Ikki kecha-kunduz yurilgach, kuchli to'fon turib, Farhod mingan qayiqni uloqtirib yubordi, hoqonning kemasini esa Chin qirg'og'iga keltirib tashladi. Farhod bo'lak-bo'lak bo'lib ketgan qayiq taxtasiga yopishib, jon saqladi. Uni Yaman mamlakatiga ketayotgan savdogarlar kemasi qutqazib qoldi. Ularning parvarishi bilan Farhod ancha o'ziga keldi. Bir payt dengizda qaroqchilar qayiqdari ko'rinib qoldi. Ular yaqinlashib neft solingan shishalarni otmoqchi bo'ldilar. Farhod kamon otib, shishalarni qaroqchilar qayig'ining o'zidayoq yondirib yubordi. Savdogarlar undan hursand bo'lishib, qirg'oqda katta bazm qurdilar. Ular orasida usta rassom Shopur ham bor edi. U Farhod bilan qalin do'stlashib qoldi. Farhod unga yuragidagi ishq dardini ayta turib, hushidan ketdi. Shopur uning boshini ko'ksiga olib, hushiga keltirdi va unga: "Sen intilgan xazinaning kaliti menda. Sen tushingda ko'rgan joy Arman diyori", - dedi. Farhod ishonmayotganini sezgach, qog'oz va qalamini chiqarib, u so'zlagan manzarani chizib ko'rsatdi.

Farhod va Shopur Arman diyori tomon yo‘l oldilar. Bir kun Farhod uyqudan ko‘zini ochsa, o‘sha Shopur chizgan o‘lkaga kelib qolibdilar. Tog‘da ikki yuztacha odam tosh yo‘nish bilan ovora. Ular uch yil mashaqqat chekib, bor yo‘g‘i ikki-uch yuz qadam ham qaza olmabdilar. Ishboshi esa ularga zug‘um qilmoqda. Farhod bu g‘amgin kishilar oldiga borib ulardan hol-ahvol so‘radi. U xalq chekayotgan azobni ko‘rib yordam berishga tushdi. Temirchidan bir asbob olib, jamiki tesha va metinlarni olovga soldi, ulardan o‘ziga katta tesha yasadi. Farhod katta toshlarni xuddi qumni qazigandek olib ota boshladi. Odamlar buni ko‘rib lol qoldilar. Ishboshilar Mehinbonu-ning oldiga yugurdilar. Mehinbonu shu o‘lkaning malikasi, Shirin esa uning jiyanı ekan. Mehinbonu Shirinning xonasiga kirib, ishboshilar keltirgan mo‘jizaviy xabarni yetkazdi. Shirin to‘rt yuz kanizagi va Mehinbonu bilan birga Gulgun laqabli otiga minib, Farhod ariq qaziyotgan toqqa yetib bordi va uning ishini ko‘rib hayratda qoldi. Farhod odamlar uch yilda eplolmagan ishni bir kunda qilgan edi. Shirin Farhod boshiga javohirlar sochdi. Farhod Shirinning tovushini eshitib shunday oh urdiki, shamol turib Shirinning niqobini ochib yubordi. Farhod bu qiz o‘sha ko‘zguda ko‘rgan pari ekanini bildi va o‘tli fig‘on chekib, hushidan ketdi. Shopur uni o‘ldi deb o‘ylab, yig‘lab boshiga keldi.

Farhodni shohona kajavaga solib saroyga olib bordilar va taxt uzra yotqizdilar. Farhod shu ahvolda ikki kecha-kunduz yotdi, so‘ng hushiga kelib, ko‘rdiki, taxt uzra yotibdi. Sekin o‘rnidan turib, tog‘ sari yo‘l oldi va zavq bilan ishga kirishib ketdi. Shirin tez fursatda ariq boshiga qasr qurdirmoqchi bo‘lgan yerga yetdi. Farhod ulkan qoyatoshni yo‘nib, unga ishlov berib ajoyib qasr bunyod etdi. Qasr devorlariga Shirinning, atrofiga esa qizlarning rasmini soldi, bir chetiga o‘zining behush yotgan holatini ham aks ettirdi.

Ariq va hovuz ochilib, ariqqa “Nahr-ul hayot”, hovuzga esa “Bahr-un najot” deb nom berdilar.

Ajam va Arab o‘lkalarida hukmronlik qilayotgan Xusrav Parvez degan bir shoh bor edi. Uning bir o‘g‘li bo‘lsa-da, shohlikka yaraydigan emas edi. Shuning uchun Xusrav boshqasiga uylanib, o‘g‘il ko‘rish orzusida edi. Shirinning go‘zalligi-yu, Farhodning unga oshiqqligi ovozası ungacha borib yetdi. Xusrav vaziri Buzurg Ummid maslahati bilan Mehinbonuga Shirinni so‘ratib sovchi yubordi. Mehinbonu sovchilarni yaxshi ziyofatlar qilib, bahonalar bilan aldab

jo‘natdi. Xusrav sovchi keltirgan gaplarga ishonmay, boshqa sovchini jo‘natdi. U ham shu javob bilan qaytdi. Shuning uchun Xusrav Arman o‘lkasiga qo‘shin tortdi. Farhod dushman yo‘lidagi baland qoyaga o‘tirib olib, ularga qarata tosh ota boshladi. Uning otgan toshi Xusravning jez qalpog‘i uchidagi milini uchirib ketdi. Farhod: “Sening shohliging men uchun tuproq bilan teng, yaxshilikcha yurtingga qayt, aks holda bayrog‘ingu qalpog‘ing uchini uchirib ketgan tosh kallalarni ham nishonga olishi mumkin, bekorga odam qirilib ketmasin, ” - deya Xusravni ogohlantirdi.

Shoh uni kuch bilan yenga olishiga ko‘zi yetmay, bir iblis odamni topdi, u gulga kishini behush qiladigan dori sepib, Farhod oldiga bordi. Iblis o‘zini oshiq qilib ko‘rsatib, sevgilisi shaharda qolgani, Xusrav shaharni qamal qilib olgani uchun u yerga kira olmayotganini, hijron azobida o‘layotganini aytib o‘hu nolalar qildi. Sevgi azobi ne ekanini bilgan Farhod bu nolani eshitib, behush yiqildi. Iblis esa yugurib borib, gulni unga iskatdi. Shopur shu payt tosh ustida uxlab yotgan edi. Yomon tushdan uyg‘onib ketib, Farhod oldiga kelsa, noxush voqea. Darhol bir tosh bilan u ablahni o‘ldirdi. Biroq Xusravning askarlari kelib Farhodni bandi qilib olib ketdilar. Shopur ko‘pchilikka qarshi kurasholmay, o‘zni o‘ldirgudek holda qolaverdi.

Xusrav Farhodni jinnilardek zanjirband qildirdi. Tabib uni xushiga keltirdi. Farhod hushiga kelgach, o‘zini taxt ustida o‘tirgan shoh qarshisida ko‘rdi. Xusrav uning savlati va ishq o‘tidan ta’sirlanib, o‘ldirishni ham unutdi va savolga tutdi. Farhodning o‘tkir javoblaridan qahrlangan shoh uni dorga osishga amr etdi. Buzurg Ummid Farhodni hozircha o‘ldirmay, vaqtincha zindonda saqlashni maslahat berdi. Farhodni Salosil degan g‘orga qamab, besh yuzta qorovul qo‘ydilar.

G‘orda Farhod Suqrot o‘rgatgan sehrli bir ismni aytib, bari bandlarni yechib tashladi, shuncha qorovul turganiga qaramay, temir darvozalarni ochib, bemalol chiqib ketaverdi. Kechalari u tog‘u dasht sayriga chiqar, yana qaytib kelib joyiga yotardi, chunki u o‘zi tufayli qorovullarning Xusravdan ozor chekishini istamasdi. Qorovullar Farhodning bu rahmdilligini ko‘rib, unga achinishar, qayoqqa ketsang ketaver, ne bo‘lsak biz bo‘laylik, der edilar. ammo Farhod qochib ketmadi. Xalq Farhod to‘g‘risida qo‘shiqlar to‘qidi. Shopur Farhodning tirik ekanini Shiringa yetkazdi va uning maktubini olib Farhod oldiga shoshildi. Shopur Farhodni tong mahali hayvonlar

orasidan topdi va Shirinning maktubini topshirdi. Farhod ham Shiringa bir xat yozdi. Xusrav bundan xabar topib, endi Farhoddan bir iloj qilib qutulish payiga tushdi. U Buzurg Ummid bilan maslahatlashib, makru hiyla o‘ylab topdilar. Qaddi ikki bukilgan, yuzlarini ajin bosgan bir kampirni Farhod oldiga jo‘natdilar. Farhod kampirning oyoqlariga yiqilib qarshi oldi. Makkor kampir esa faryod chekib; “Mehinbonu bilan Xusrav yarashdi, Shirinni unga berishga rozi bo‘ldi, Shirin bundan alam chekib o‘zini o‘ldirdi, u Farhod degan yigitni sevar ekan, ohirgi nafasigacha “Farhod” degan ismni og‘zidan qo‘ymadi” deya ko‘z yoshlar to‘kdi. Bu sovuq xabar Farhodning bag‘riga xanjardek sanchildi, o‘rnidan turmoqchi bo‘lgan, edi, holsizlanib yiqildi, boshlarini toshlarga urib yig‘ladi. U bu o‘tkinchi dunyo-sahro, tog‘, osmon, atrofdagi darrandalaru parrandalar bilan vidolashdi, yurti, ota-onasini esladi, Mulkoro, Bahromni yodga oldi, salomini ularga yetkazishini iltimos qilib, bodi saboga iltijo qildi, keyin Shirinning nomini tilga olib, jon taslim qildi. Farhodning o‘limidan butun darrandayu parrandalar qattiq motamga tushib, o‘zlarini tirnab ko‘z yosh to‘kdilar.

Farhodning o‘limi haqidagi xabar hammaga yetdi. Xusrav yana Shiringa sovchi yubordi. Shirin Farhod hajrida so‘lib borar edi. Tabiblar maslahati bilan uni Farhod yaratgan qasrga kajavada eltayotganlarida Xusrav askarlari uni tomosha qilgani chiqqan edilar, ular orasida Xusravning o‘g‘li Sheruya ham bor edi. U Shirinni ko‘rib oshiq bo‘lib qoldi, bir tomondan taxt ilinji, ikkinchi tomondan Shirin visoli istagi kuchlilik qilib, u otasi Xusravni o‘ldirdi, so‘ng Shiringa og‘iz soldi. Mehinbonu ixtiyor Shirinning o‘zida ekanini aytdi.

Shopur toqqa borib Farhodning jasadini topdi va Shirinning buyrug‘i bilan uni kajavaga solib, qasrga olib keldi. Shirin Farhodi yoniga kirib, uzoq chiqmadi, uni qorong‘u tushguncha kutdilar. Darak bo‘lmagach, eshikni buzib, ichkariga kirib ko‘rsalar, oshiq va ma’shuqa yuzlarini yuzlariga bosib, pechakguldek chirmashib o‘lib yotardilar. Ularning jismi bu yerda qolgan, ruhlari esa falakda birlashib ketgan edi. Mehinbonu bu ahvolni ko‘rib, jon berdi.

G‘amu kulfatlarda qolgan kishilardan qirqtachasi o‘sha kuni bir xil tush ko‘rdilar. Tushlarida go‘yo jannat to‘rida oliy bir qasr bor emish. Qasr ayvonida esa nurdan bir taxt. Unda Farhod va Shirin o‘tirgan emish. Ular oldida Farhodning ota-onasi va Mehinbonu ham bor emish. Farhodning ota-onasi o‘g‘illari firoqida olamdan o‘tib

ketgan edilar. Xitoyu Chin mamlakati taxtiga Farhodning amakisi o'tirgan edi. Farhodning do'sti Bahrom esa lashkarboshi edi. U xondan ruxsat so'rab, Arman o'lkasiga lashkar tortdi va Sheruyani so'rattirdi. Sheruya Farhodni o'ldirgan men emas, otam edi, shuning uchun uni o'zim o'ldirdim, deya jazodan qutulib qoldi. Arman mamlakatiga Mehinbonuning shohlikka loyiq bir qarindoshini qo'ydi. Shundan so'ng Bahrom o'zi bilan kelgan lashkarboshiga javob berib, yurtlariga qaytardi va "Xonga Farhodu Bahrom bir-birlarini topdi, deb aytinglar", - deya tayinladi. O'zi esa Shopur bilan birga Farhod qabrida yashab qoldi.

- Doston ohirida A. Navoiy Sulton Husayn Boyqaro o'g'li Abulfavoris Shohg'arib Bahodir madhiga maxsus bir bob ajratadi, unga ko'p nasihatlar qiladi, go'yo unga doston voqealaridan huloa chiqar, demoqchi bo'ladi.

- "Farhod va Shirin" dostoni aruzning hajazi musaddasi maxzuf (mafoiylun-mafoiylun-foilun) vaznida bitilgan.

- Doston 54 bob (5782 bayt)dan iborat bo'lib, uning II bobi muqaddima, 41 bobi asosiy qism va 2 bobi hotimadan iborat.

- "Farhod va Shirin" dostoni ta'sirida ozar shoiri Samad Vurg'unning "Farhod va Shirin", turk shoiri Nozim Hikmatning "Sevgi haqida qissa"(dramalar, uyg'ur shoirlari Mahzun va Umar Boqiyning "Farhod va Shirin", Nizoriyning shuningdek, Fozil Yo'ldosh o'g'lining "Farhod va Shirin" asarlari, rus yozuvchii P. Skosirevning "Farhod" povesti, Hurshid va, keyinchalik Komil Yashinning "Farhod va Shirin" musiqali dramalari dunyo yuzini ko'rdi.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Farhod va Shirin", "Mahbub ul-qulub", "Saddi Iskandariy", "Arba'in", "Hiloliya" qasidasi, "Xamsat ul-mutahayyirin", "Sab'ai sayyor", "Soqiynoma", "Debochai chahor devon" asarlarining mohirona tahlili bilan taniqli sharqshunos olimi Malohat Po'latovanning "Sharq mumtoz adabiyotida "Arba'in" yozish an'analari" nomli monografiyasida tanishish mumkin<sup>1</sup>.

### **Savollar:**

1. Alisher Navoiyning qaysi lirik asarlarini bilasiz?
2. Alisher Navoiy asarlarida qanday mavzu ko'tarilgan?
3. Alisher Navoiyning liro-epik asarlari haqida nimalarni bilasiz?

---

<sup>1</sup> Po'latova M. Sharq mumtoz adabiyotida "Arba'in" yozish an'analari. – T., TDSHU, 2021.

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Alisher Navoiyning “Xazoyin-ul maoniy” asari bilan tanishib, unda ko‘tarilgan mavzular haqida ma’lumot bering.
2. Alisher Navoiyning “Xamsa” asari bilan tanishib, unda ko‘tarilgan mavzular haqida gapirib bering.
3. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” asari haqida ma’lumot bering.

## **7-DARS**

### **ALISHER NAVOIYNING EPIK ASARLARI**

**Darsning maqsadi:** *Talabalarga buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiyning liro-epik asarlari haqida ma’lumot berish.*

#### **Reja:**

1. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” asari.
2. Alisher Navoiyning “Sab’ai Sayyor” asari.
3. Alisher Navoiyning “Saddi Iskaydariy” asari.
4. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari.

**Tayanch tushunchalar:** *Alisher Navoiy, lirik asarlar, sheriylar, shakllar, liro-epik asarlar, “Hamsa”, “Layli va Majnun”, “Sab’ai Sayyor”, “Saddi Iskaydariy”, “Mahbub ul-qulub”.*

#### **“Layli va Majnun”**

So‘g‘in nechakim uzattim oxir,  
Yig‘lay-yig‘lay tugattim oxir

“Layli va Majnun” ishqiy-fojeiy dostonidir. Shoir butun vujudi olov bo‘lib yongan, ko‘zlarigina emas, hatto qalamidan ham qatra-qatra qon tomgan, shoirning o‘zi yozganidek, “Firoqnoma” ana shunday dard va iztiroblar ila dunyoga kelgandi.

- Layli va Qayslar qissasi 13 asrdan buyon pokiza tillarda doston bo‘lib keldi. Ikki sevishganlarning achchiq qismati, fojiasini birinchi bo‘lib, Nizomiy Ganjaviy qalamga oldi. Shoir dostoniga asrlar osha 118 ta nazira bitildi.

- Nizomiyga bitilgan naziralardan 67 tasi forsiyda, 37 tasi turkiyda bo‘ldi. Bu mavzudan hatto rus, gruzin, arman, kurd, o‘rdu adabiyotlari ham chetda qolmadi. 1911 yilda rus shoiri V.Xlebnikov ham “Majnun va Layli” dostonini yozdi.

- Ildizi uzoq arab qabilalari hayoti bilan bog‘lanib ketgan bu ko‘hna qissa manbalari, qahramonlari haqidan bundan o‘n-o‘n uch asrlar muqaddam Abu Bakr al-Vaolibiy, Abu Muhammad Qutayba, Abularoj Isfahoniy kabi allomalar xabar qoldirgan edilar.

- Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, Qays tarixiy shaxs bo‘lib, uni Qays ibn Mulavvah deb ataganlar, sahroda tuya boqib yurgan bu yigit go‘yo amakisi qiziga muhabbat bog‘lagan, she‘rlar yozgan.

O‘zbek adabiyotida bu otashin ishq mavzusini birinchi bo‘lib Alisher Navoiy boshlab berdi:

Men turkcha boshlabon rivoya,  
Ayladim bu fasonani hikoyat.

Asar voqealari markazida Bani Omir qabilasi boshlig‘ining o‘g‘li Qays turadi. U bolalikdan o‘z husni va zehni bilan tengqurlaridan ajralib turadi, to‘rt yoshida maktabga boradi, shu yerda u Hay qabilasi boshlig‘ining, ya’ni otasiga qaraganda ancha badavlat kishining qizi Layli bilan sevishib qoladi. Sharqona xislatlar qoniga singgan oshiqlar o‘z yurak sirlarini pinhona saqlab yuradilar. Biroq ishq o‘ti kuchaygan sari Qays Layli vasliga intiladi, bu yo‘lda ne-ne azoblarga duch keladi, ishq tuyg‘usidan mahrum kishilar unga malomat toshlarini otadilar, Majnun deb kalaka qiladilar, itlarga talatadilar. Qaysning pokdil yigitligini yaxshi bilgan Laylining otasi avvaliga unga juda achinadi, lekin uning ishq qiziga tushganini bilgach, g‘azabini yashirolmaydi, o‘zidan past kishiga qiz berishni or deb biladi. Ikki sevishganlar fojiasi ana shundan boshlanadi. Laylining otasi talabi bilan Qays oyoqlariga kishan solinadi, Layli kunlari esa zim-ziyo tunga aylanadi (uning nomi ham “layl” - arabcha “tun” ma’nosini bildiradi).

Qays ishq o‘ti tafti bilan zanjirni eritib, banddan bo‘shaladi va cho‘lu sahroga chiqib ketadi. Uni vahshiy hayvonlar orasida ko‘rib qolgan Navfal yurak-yuragidan bechora bu oshiqqa achinadi, avvaliga Laylini unga zo‘rlab olib bermoqchi bo‘ladi, bu yo‘lda hatto Laylining otasi bilan urushishga ham tayyor ekanligi ma’lum bo‘ladi. Qays iltimos qilib, uni bu niyatidan qaytaradi. Navfal endi unga o‘z qizini berib, o‘ziga o‘g‘il qilib olmoqchi bo‘ladi. Biroq to‘y kechasi Layli kuyov Ibn Salomni Qays esa qaylig‘ini tark etib, har ikkisi sahroga chiqib ketadilar.

Dostonning eng hayajonli, ruhiy kechinmalar avjga chiqqan nuqtasi shoʻrlik ota-onaning oʻgʻli Qaysga davo izlab, Makkatullohga kelib, Allohga iltijo qilishlari hisoblanadi. Otaning

Allohdan tilagan yagona oʻtinchi-farzandini darddan xalos qilish boʻlsa, ishqdan qalbi yaralangan farzand tilagi esa mutlaqo teskarisi edi. Qays, aksincha, Allohdan bu ishq gʻamidan xalos etishni emas, balki ana shu oʻtni yana ham balandroq alangalatishni faryod koʻtarib iltijo qiladi.

Qays va Laylini hatto oʻlim ham ayirolmaydi. Jonsiz kelin va kuyovni bir kafanga joylaydilar:

Kirdi iki jism bir kafangʻa,  
Yoʻq, yoʻq iki ruh bir badangʻa.

• “Layli va Majnun” dostoni aruzning hazaji musaddasi ahrabi maqbuzi makfuf vaznida yozilgan.

• A.Navoiydan soʻng oradan bir asr oʻtmay, ozar shoiri Fuzuliy ham “Laylovu Majnun” asarini yozdi.

### **“Sabʻai sayyor” (“Yetti sayyora”)**

1484-yilda toʻrt oy ichida yozib tugatilgan bu ishqiy sarguzasht dostoniga Alisher Navoiy xalq orasida keng tarqalgan “Bahrom Goʻr” afsonasini asos qilib olgan. Dostonning bosh qahramoni Bahrom (arabcha Mirrix maʼnosini bildiradi) dastlab adolatli, xalqparvar shoh boʻladi, yurt farovonligi yoʻlida koʻp ishlarni amalga oshiradi.

• Sharq adabiyotida jangu jadallar, fitnalar ramzi hisoblangan Bahrom dastlab Firdavsiyning “Shohnoma”si oraqali Eron shoxi Yazdijurdning oʻgʻli sifatida tanilgan edi.

• Firdavsiyda Bahrom va uning sevgilisi Ozoda, Nizomiyda Bahrom va Fitna, Husrav Dehlaviy va Navoiyda Bahrom va Diloromlar oʻrtasida kechgan ishqiy sarguzashtlar dostonga qoliplovchi hikoya qilib olingan.

• Firdavsiyda ov chogʻida Bahromning mahoratiga yetarli baho bermagani, uni yovuz Ahrimanga oʻxshatgani uchun Ozoda otlar tuyogʻi ostiga tashlab oʻldiriladi, Nizomiyda Fitnani oʻldirishni Bahrom sipohiylaridan birga topshiradi, Navoiy Bahromi esa Diloromni sochlariga oyoq-qoʻllarini bogʻlab, sahroga tashlab ketadi.

Kayfu safo ustida o‘z sevgilisini nohaq jazolagan Bahrom hushiga kelgach, qilgan ishidan ko‘p pushaymon yeydi, sahroga qaytib kelib Diloromni qidiradi, ammo uni topolmaydi, o‘z qilmishidan ruhiy azoblar chekadi, kundan kunga vijdon qiynoqlari ostida ezilib, ozib cho‘p bo‘lib qoladi, to‘rt yuz tabib uni ikki yil daolashga urinib ko‘radi, ammo to‘la tuzatib yuborolmaydilar. Bahromdagi xastalikni yo‘qotish uchun yetti iqlim shohi unga o‘z qizlarini beradilar. Bahrom yetti qasrga yetti iqlimdan kelgan yetti musofirni taklif qiladi, har kuni bitta musofirdan bitta hikoyat tinglaydi. Xorazmlik yettinchi iqlimdan kelgan musofir nihoyat Dilorom haqidagi hikoyani Bahromga so‘zlab beradi. Bahrom Xorazm shohiga maktub yo‘llab, Diloromni chaqirtirib oladi.

Dilorom visoliga erishganidan so‘ng ham xalq va davlat ishlarini unutib, yana kayf-safoga, kiyiklar oviga berilib ketadi. Navbatdagi ovlarning birida u ming-minglab ohularni o‘ldiradi, ularning qoni yer ostidagi botqoqlik bilan qo‘shilib, Bahrom va uning sheriklarini yer o‘z qa‘riga yutib yuboradi.

Dostonning xulosasi shundan iboratki, chinakam oshiq faqat o‘z maishati, sevgilisini emas, xalqni ham, yurtini ham sevishi kerak. Dostonning 37-bobida shoir ana shu masalaga alohida to‘xtaladi.

- “Sab‘ai sayyor” 38 bob 5000 baytdan iborat bo‘lib, aruzning hafif bahrida yozilgan.

- A.Navoiyning Bahrom haqidagi dostoni ta‘sirida qoshg‘arlik shoir G‘aribiy “Shoh Bahrom va Dilorom”, Umar Boqiy “Qissai haft manzari Bahrom” asarlarini yozdilar, og‘zaki adabiyotda esa Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li “Bahrom va Gulandom” dostonini yaratdi.

### **“Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”)**

“Xamsa”ning so‘nggi 7215 baytdan iborat bo‘lgan bu dostoni qahramonlik eposidir. Unda shoirning adolatli shoh to‘g‘risidagi ilg‘or qarashlari umulashtirilgan. Asardagi Iskandar bizning ko‘z o‘ngimizdagi insonparvar, odil, faqat xalq manfaatini o‘ylovchi olijanob qahramon sifatida gavdalanadi.

### **Eslab qoling!**

- Sharqda Iskandari Makduniy, “Iskandar Zulkarnayn” (“Kun chiqish va kun botish hukmdori”) nomlari bilan mashhur bo‘lgan bu

tarixiy shaxs 329-yilda Markaziy Osiyoni bosib oldi, soʻng Hindistonni zabt etdi, 323 yilda 33 yoshida vafot etdi.

- Iskandar obrazi badiiy adabiyotga birinchi boʻlib Firdavsiyning “Shoxnoma” si orqali kirib keldi.

- Firdavsiydan soʻng bu anʼanani Nizomiy Ganjaviy davom ettirdi. “Iskandarnoma” ning birinchi “Sharafnoma” qismida shoir sarkardaning jahongirlik yurishlari, “Iqbolnoma” deb atalgan ikkinchi qismida uning aql-zakovati, insoniylik xislatlari haqida soʻz yuritadi.

- Nizomiydan soʻng jahongir timsoli Husrav Dehlaviyning “Xiradnomai Iskandari” (“Iskandar zakovatnomasi”) , Abdurahmon Jomiy “Onai Iskandariy” dostonlarida yoritib berildi.

A.Navoiy oʻz dostonida Iskandarning tugʻilishidan boshlab, hayotining oxirigacha kechirgan sarguzashtlarini bayon etadi. Xudodan farzand soʻragan Faylaqus (Filipp) ovdan qaytish chogʻida vayrona bir kulbadan kelayotgan chaqaloq yigʻisini eshitib qoladi. Chinqirab yigʻlayotgan goʻdakni oʻlib yotgan ona bagʻridan avaylab koʻtarib, hukmdor oʻzi bilan birga olib ketadi va uni oʻgʻil qilib oladi, unga Iskandar deb nom qoʻyadi. Olim Naqumohis (Arastuning otasi) taʼlim-tarbiyasini olgan Iskandar aqlli yigit boʻlib kamolga yetadi. 336-yilda Filipp oʻldirilgach, taxtga oʻtiradi. Iskandar adolatli hukmdor sifatida xalqni ikki yillik hirojdan ozod etadi, mazlumlar haqini himoya qilib, zolimlarni qattiq jazolaydi, Kirvon oʻlkasida xalqni tashqi balo-ofatlaridan, yaʼjujlardan emin saqlash maqsadida ulkan devor-sadd qurdiradi.

Hayotining oxirida u shishadan sandiq (suv osti kemasi) yasab, dengiz tubiga tushadi, tabiat moʻjizalarini oʻz koʻzi bilan koʻradi. Oʻlimi oldidan onasi oʻrnida aziz boʻlib qolgan Bonudan farzandlik hurmatini joyiga qoʻya olmagan uchun uzr soʻrab xat yozadi, olamdan koʻz yumar ekan, bir qoʻlini tobutdan chiqarib qoʻyishini vasiyat qiladi. Bu jahongirning dunyoni egallab, yorugʻ olamdan qup-quruq ketayotgani, bu dunyo boyliklari, har qanday mansablar insonga hech vaqt vafo qilmasligiga bir ishorasi edi.

- “Saddi Iskandariy” aruzning mutaqorib vaznida bitilgan.
- Iskandar sarguzashtlari mavzusi qozoq adabiyotidan ham chetda qolmadi: qozoq okini Abay “Iskandar” dostonini yaratdi.

### **“Lison ut-tayr” (“Qush tili”)**

“Lison-ut tayr” (“Qush tili”) A.Navoiyning xayot tajribalarini umumlashtiruchi tasavvufga oid qarashlarini ifodalovchi asar bo‘lib, u 1499 yilda yozilgan. Asarda Foniyl taxallusi qo‘llangan. Doston shoirni bolalik chog‘laridayoq o‘ziga maftun etgan asar: Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” (“Qush nutqi”) dostoniga javoban yozilgan.

### **Axloqiy-ta’limiy, falsafiy asarlari**

1. **“Mahbub ul-qulub”** (**“Ko‘ngillarning sevgani”**) 1500-yilda yaratilgan bo‘lib, unda shoir inson va jamiyat haqidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarini, axloqiy-ta’limiy fikrlarini xulosalagan. Unda A. Navoiy XV asrdagi ijtimoiy tabaqa va guruhlarini ta’rif va tavsif etadi. Bu jihatdan asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Sa’diylarning “Guliston”, Jomiyning “Bahoriston” asarlariga o‘xshab ketadi.

“Mahbub-ul qulub” 3 qismdan iborat: 1-qism xalq ahvoli va fe’latvori haqida, 2-qism yaxshi xulqlar va yomon xislatlar haqida, 3-qism yaxshilikning natijasi va yomonlikning oqibati to‘g‘risida.

2. **“Nazm-ul javohir”** (**“She’riyat javohiri”**) 1485 yilda yozilgan va Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan asar bo‘lib, unda shoir axloqiy-ta’limiy qarashlarini bayon etgan. Bu asar Hazrati Alining “Nasr ul-laoliy” asarining she’riy tarjimasi bo‘lib, undan 266 ta ruboiy o‘rin olgan.

### **Diniy-ma’rifiy asarlari**

1. **“Chihil hadis”** (**“Arbain”**). Muhammad alayhis-salom hadislarini asosida yozilgan.

2. **“Siroj-ul muslimin”** (**“Islom chirog‘i”**).

3. **“Munojotnoma”**

4. **“Nasoyimul muhabbat”** (**“Muhabbat shabadalari”**) A. Jomiyning “Nafahot ul-uns” asari tarjimasi bo‘lib, shoir ustozining asarini faqat tarjima qilibgina qolmay, uni to‘ldirgan ham. Shoir unda 750 nafar mashhur shayxlar hayotiga oid qimmatli ma’lumotlar beradi.

5. **“Tarixi anbiyo va hukamo”** (**“Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi”**) asarda nabiyalar, ya’ni payg‘ambarlar hamda donishmand faylasuflar haqida ma’lumot berilib, ularning hikmatomuz so‘zlari keltirilgan.

### **Qasidalar**

Qasida klassik adabiyotning mashhur janrlaridan bo'lib, u asosan tarixiy shaxslar (hukmdorlar, olim va shoirlar), muhim tarixiy voqealar yoki Alloh yaratgan tabiat va uning muhim hodisotiga bag'ishlanadi. Qasida, odatda tantanali ruhda yoziladi.

1. **“Hiloliya”** (**“Yangi chiqqan oy”**) 1469-yilda Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'tirishi munosabati bilan yozilgan.

2. **“Tuhfat ul-afkor”** (**“Fikrlar tuhfası”**) Xusrav Dehlaviyning **“Daryoi abror”** va Abdurahmon Jomiyning **“Lujjat ul-asror”** qasidalariga javob tarzida forsiy tilda bitilgan.

3. **“Ayn ul-hayot”** (**“Hayot chashmasi”**) xorazmlik mashhur shayx Najmiddin Kubro nomi faxr bilan tilga olingan.

4. **“Fusuli arbaa”** (**“To'rt fasl”**) tabiatning to'rt fasli ulug'lanadi.

5. **“Sittai zaruriya”** (**“Olti zarurat”**) shoirning diniy-falsafiy qarashlari umumlashtirilgan.

### **Tarixiy asarlari**

1. **“Tarixi muluki Ajam”** (**“Eron shohlari tarixi”**) Eron shohlari sulolalari haqida ma'lumot beruvchi asar. Bu asarini shoir o'zining **“Muhokamat ul-lug'otitayn”**ida **“Zubdat ut-tavorix”** (**“Tarixlar qaymog'i”**) deya tilga oladi.

2. **“Tarixi anbiyo va hukamo”** (**“Nabiylar va hakimlar tarixi”**).

### **Ilmiy-filologik asarlari**

1. **“Majolis un-nafois”** (**“Nafis majlislar”**) — turkiy tilda yaratilgan birinchi tazkira. Unda Alisher Navoiy o'zigacha yashab o'tgan va o'zi bilan zamondosh shoirlardan 459 nafari haqida ma'lumot berib, asarlaridan namunalar keltiradi. Asar 8 bob (majlis)dan iborat. 8-majlis temuriylardan chiqqan shoirlar, xususan, Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan.

2. **“Mezon ul-avzon”** (**“Vaznlar o'lchovi”**). Asarda birinchi marta turkiy aruz va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

3. **“Risolai mufradot”** muammo janrining xususiyatlariga bag'ishlangan. Abdurahmon Jomiy iltimosiga ko'ra uning o'g'li Ziyovuddin Yusufga yozib berilgan.

4. **“Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”)**. Asar turkiy va forsiy tillar muhokamasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shoir turkiy til o‘z nafosati va imkoniyatlari bilan forsiy tildan zarracha kam emasligini, ayrim xususiyatlari bilan esa undan hatto ustunligini ilmiy ravishda asoslab bergan.

5. **«Sib’atu abhur»** - lug‘atshunoslikka oid asar.

### **Alisher Navoiy asarlari namunalarining QR kodi**



**Savollar:**

1. Alisher Navoiyning qaysi lirik asarlarini bilasiz?
2. Alisher Navoiy asarlarida qanday mavzu ko‘tarilgan?
3. Alisher Navoiyning liro-epik asarlari haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” asari bilan tanishib, unda ko‘tarilgan mavzular haqida ma’lumot bering.
2. Alisher Navoiyning “Sab’ai Sayyor” asari bilan tanishib, unda ko‘tarilgan mavzular haqida gapirib bering.
3. Alisher Navoiyning “Saddi Iskdariy” asari haqida ma’lumot bering.

### **Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. “Bu ulug‘ amir dinu davlat homiysi, shariat va millatning pushti panohidur”.**

Alisher Navoiy haqidagi bu ta’rif kimga tegishli?

- A) Husayn Boyqaro
- B) Lutfiy
- C) Kamol Turbatiy
- D) Abdurahmon Jomiy
- E) Davlatshoh Samarqandiy

**2. Alisher Taftda tanishgan ulug‘ alloma...**

- A) Lutfiy
- B) Sharafiddin Ali Yazdiy
- C) Abdurahmon Jomiy
- D) Kamol Turbatiy
- E) Abulqosim Bobur

**3. Alisherni bolalikdan o'ziga sehrlab olgan asarlar nomi qaysi javobda ko'rsatilgan?**

- A) F. Attor, "Mantiq ut-tayr", "Muhabbatnoma"
- B) Lutfiy, "Zafarnoma", Xondamir "Makorim ul-axloq"
- C) Firdavsiy, "Shohnoma", Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig"
- D) A. Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq", Xorazmiy, "Muhabbatnoma"
- E) F. Attor, "Mantiq ut-tayr", Sa'diy "Guliston"

**4. Alisher otasining temuriylarga yaqinligi qaysi javobda ko'rsatilgan?**

- A) Shohruh Mirzoning jiyani bo'lgan.
- B) Temuriylar saroyida vazirlik qilgan.
- C) Ota tomonidan bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh bo'lgan.
- D) Ona tomonidan bobosi Temurning jiyani bo'lgan.
- E) Alisherning bobosi (ota tomonidan) Temurning ukasi bo'lgan.

**5. Alisherning "Orazin yopqoch ko'zimdin..." so'zlari bilan boshlanuvchi g'azaliga yuksak baho bergan buyuk shoir kim edi?**

- A) Atoiy
- B) Sakkokiy
- C) Gadoiy
- D) Bobur
- E) Lutfiy

**6. 1464-yilda Mashhaddan Hirotga qaytgan Alisher tanishgan va uni bir umr "hazrati pir" sifatida qadrlagan, ota maqomida turgan buyuk alloma...**

- A) Vosifiy
- B) A. Jomiy
- C) K. Turbatiy
- D) Lutfiy
- E) Sayyid Hasan Ardasher

**7. Alisher Mashhad xonaqohlaridan birida kasal yotgan chog'ida tanishgan va uning homiylaridan biriga aylangan inson...**

- A) K. Turbatiy
- B) S. H. Ardasher
- C) Lutfiy
- D) Abulqosim Bobur
- E) Binoiy

**8. Alisher Samarqandda qaysi buyuk alloma qo'lida ta'lim oldi?**

- A) Uloyi Shoshiy
- B) Shayxim Suhayliy
- C) Xoja Ahror

- D) Bahovaddin Naqshband
- E) Xoja Fazluloh Abulays

**9. 1487-yilda A. Navoiy Husayn Boyqaro qistovi bilan...**

- A) Balx hokimi bo'ldi
- B) Astrobod hokimi bo'ldi
- C) Xuroson hokimi bo'ldi
- D) Mashhad hokimi bo'ldi
- E) Sabzavor hokimi bo'ldi

**10. Navoiy taxallusi qanday ma'nolarni anglatadi?**

- A) baxt, boylik, mulk
- B) tole', qismat, taqdir
- C) o'tkinchi, bebaqo
- D) kuy, sado, chora tadbir, tartib
- E) ishq, vafo, sadoqat

**11. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" asarida o'zi yaratgan baytlar sonini taxminan qancha deydi?**

- A) o'n ming
- B) yuz ming
- C) besh yuz ming
- D) ellik ming
- E) yigirma ming

**12. Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida to'liqroq ma'lumot beruvchi asar...**

- A) Xondamir, "Makorim ul-axloq"
- B) Bobur, "Boburnoma"
- C) Xo'jandiy, "Latofatnoma"
- D) Gulbadanbegim, "Humoyunnoma"
- E) Munis, "Ravzat us-safo"

**13. Alisher Navoiyning o'zi tartib bergan ilk devonlari qaysi?**

- A) "Ilk devon", "Munis ul-ushshoq"
- B) "Badoe'ul-bidoya", "Navodir un-nihoya"
- C) "G'aroyib us-sig'ar", "Xazoyin ul-maoniy"
- D) "Navodir ush-shabob", "Badoe' ul-vasat"
- E) "Navodir un-nihoya", "Favoyid ul-kibar"

**14. "Favoyid ul-kibar" "Xazoyin ul-maoniy" ning nechanchi devoni?**

- A) birinchi
- B) ikkinchi
- C) uchinchi
- D) to'rtinchi

E) beshinchi

**15. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotiga kirgan g‘azal va ruboiylar soni qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) 4000 va 200
- B) 2600 va 133
- C) 3000 va 110
- D) 3600 va 250
- E) 1500 va 100

**16. Alisher Navoiy qit‘alarining soni taxminan ...**

- A) 200 dan ortiq
- B) 300 dan ortiq
- C) 254 ta
- D) 100 dan ortiq
- E) 100 dan ortiq

**17. Alisher Navoiy lirikasining bosh, yetakchi mavzulari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) do‘stlik, pokiza sevgi, sadoqat, mehnatsevarlik
- B) tinchlik, vatan, mehnatsevarlik, do‘stlik
- C) ezgulikni ulutlash, yovuzlikni qoralash
- D) nafsni jilovlash, rahmdillik, saxovat
- E) ilohiy va zaminiy sevgi, hayotga muhabbat

**18. Alisher Navoiy devonlari an‘ana bo‘yicha nima bilan boshlanib, nima bilan tugallangan?**

- A) debocha, so‘ng g‘azal bilan boshlanib, fard yoki muammo bilan tugaydi
- B) hamd bilan boshlanib, na‘t bilan tugaydi
- C) g‘azal bilan boshlanib, qit‘a bilan tugaydi
- D) debocha, so‘ng g‘azal bilan boshlanib, muvashshah bilan tugaydi
- E) Qat‘iy tartib yo‘q.

**19. Alisher Navoiy lirikasining asosiy timsollari kimlar?**

- A) lirik qahramon, olim, payg‘ambarlar
- B) oshiq, ma‘shuqa, orif, soqiy
- C) hunarmandlar, mehnatkashlar, paxtakorlar
- D) ishchilar, folbinlar, soqiy va ma‘shuqa
- E) oshiq, ma‘shuqa, dehqon va hunarmandlar

**20. “Favoyid ul-kibar” devonidan nechta fard o‘rin olgan?**

- A) 86 ta
- B) 54 ta
- C) 133 ta
- D) 75 ta

E) 160 ta

**21. “Devoni Foni”dagi gʻazallarida Alisher Navoiy koʻproq kimga ergashgan?**

- A) Saʼiy Sheroziy
- B) Hofiz Sheroziy
- C) Abdurahmon Jomiy
- D) Farididdin Attor
- E) Xusrav Dehlaviy

**22. “Hamsa”ning har bir dostonida Alisher Navoiy qaysi ustozlariga alohida bob ajratgan?**

- A) Attor, Qosim Anvor, Saʼdiy
- B) Hofiz, Attor, Rumi
- C) Orif Ardabaliy, Ashraf, Nizomiy
- D) Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy
- E) Firdavsiy, Jomiy, Hasan Dehlaviy

**23. Alisher Navoiy “Hamsa” yaratishni dengizga tushish va uchta nahang bilan jang qilish, oʻrmonga kirish va uchta katta sherni yengish bilan barobar deb hisoblaydi. Bunda u kimlarni nazarda tutgan?**

- A) Nizomiy, Jomiy, Ashrafni
- B) Hasan Dehlaviy, Firdavsiy, Jomiyni
- C) Xusrav Dehlaviy, Firdavsiy, Jomiyni
- D) Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy
- E) Rumi, Attor, Qosim Anvorni

**24. Yaxlit bir syujetga ega boʻlmagan, shoirning hayot va jamiyat haqidagi xulosalari umumlashtirilgan doston...**

- A) “Hayrat ul-abror”
- B) “Lison ut-tayr”
- C) “Mahbub ul-qulub”
- D) “Nazm ul-javohir”
- E) “Sabʼai sayyor”

**25. “Shoh Gʻoziy” hikoyati “Xamsa”ning qaysi dostonida keltirilgan?**

- A) “Hayrat ul-abror”
- B) “Farhod va Shirin”
- C) “Layli va Majnun”
- D) “Saddi Iskandariy”
- E) “Sabʼai sayyor”

**26. “Hayrat ul-abror”dagi “Ikki vafoli yor” hikoyati voqealari qaerda roʻy beradi?**

- A) Xorazmda

- B) Hindistonda
- C) Samarqandda
- D) Kobulda
- E) Hirotda

**27. “Hayrat ul-abror”dagi “Imom ar-Roziy” hikoyatining g‘oyasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?**

- A) O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.
- B) Mehnatsiz topilgan boylik vafo qilmaydi.
- C) Boylikni narigi olamga olib keta olmaysan, ilm esa senga doimo hamrohdir.
- D) To‘g‘riso‘z bo‘l, uyatga qolmaysan.
- E) Ota-onang o‘gitlariga quloq sol, maqsadingga yetasan.

**28. “Hayrat ul-abror” dostoni necha bob va maqolotdan iborat?**

- A) 60 va 20
- B) 20 va 64
- C) 64 va 20
- D) 64 va 24
- E) 64 va 21

**29. “Sher bilan Durroj” hikoyatida ilgari surilgan g‘oyani aniqlang.**

- A) do‘stlik va vafodorlik
- B) mehnatsevarlik
- C) vatanparvarlik
- D) rostgo‘ylik
- E) kamtarlik

**30. “Hayrat ul-abror”dagi “Shoh G‘oziy” hikoyatida kampirning qozi oldidagi guvohlari kimlar edi?**

- A) darvesh va dehqon
- B) adolat va insof
- C) vijdon va saxovat
- D) rahmdillik va or-nomus
- E) Guvohi yo‘q edi.

**31. “Hayrat ul-abror” «Hamsa»ning boshqa dostonlaridan asosan qaysi jihati bilan farq qiladi?**

- A) shakli bilan
- B) janri bilan
- C) kompozitsiyasi bilan
- D) adabiy turi bilan
- E) voqealar ko‘lamining kengligi bilan

**32. “Xamsa” dostonlarida ilgari surilgan yetakchi g‘oyani aniqlang.**

- A) do'stlik, mehnatsevarlik, tinchlik, totuvlik
- B) yuksak insoniylik, adolatparvarlik, mardlik, vafodorlik
- C) ota-onaga hurmat, do'stlarga sadoqat
- D) vatanparvarlik, mehnatsevarlik, chin insoniylik
- E) to'g'riso'zlik, halolik, kamtarlik

**33. Firoqu rashku hajru oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.**

Ushbu baytda "Hamsa"dagi qaysi qahramon ismi yashiringan?

- A) Farrux
- B) Farhod
- C) Faridun
- D) Qays
- E) Shopur

**34. Sulaymon uzugini Farhod qaysi jasoratidan so'ng olishi kerak edi?**

- A) Axraman devni yenggach
- B) Ajdar bilan uchrashib, uni o'ldirgach
- C) Xizr bilan uchrashib, uning saboqlarini olgach
- D) Suqrot ta'limini olgandan so'ng
- E) Qandildagi Jamshid jomini olganidan so'ng

**35. "Farhod va Shirin" dostonida Xusravni o'ldirgan shaxs kim?**

- A) Farhod
- B) Axiy
- C) Sheruya
- D) Yovuz kampir
- E) Shopur

**36. Suhayloga Farhodning kelishini bashorat qilib yozib ketgan buyuk hakim kim edi?**

- A) Nakumohis
- B) Suqrot
- C) Arastu
- D) Jomosp
- E) Xizr

**37. Shirin Farhod qoshiga minib kelgan otining laqabi nima edi?**

- A) Raxsh
- B) Gulgun
- C) Gulband
- D) Gulshan
- E) Sabina

**38. "Layli va Majnun" dostonida ilgari surilgan yetakchi g'oya nima?**

- A) qahramonlik va mehnatsevarlik
- B) mehnatsevarlik, vatanparvarlik
- C) sevgida sadoqat, shaxs erki
- D) ota-onaga hurmat, vafodorlik
- E) do'stga sadoqat, rahmdillik, insoniylik

**39. Layli ismining ma'nosi nima?**

- A) muhabbat
- B) yorug'lik
- C) tun (zulmat)
- D) quyosh
- E) vafodor

**40. "Layli va Majnun" dostonining o'ziga xos poetik xususiyati nimada?**

- A) ruhiy kechinmalar o'ta kuchli berilishi
- B) voqealarning o'ta hayotiyligi
- C) qahramonlar romantik usulda berilishi
- D) voqealarning haqqoniy yoritilishi
- E) voqealarning tanqidiy yoritilishi

**41. "Sab'ai sayyor" dostonida Bahrom kaltaklab sahroga tashlab ketgan qahramon kim edi?**

- A) Shirin
- B) Gulandom
- C) Dilorom
- D) Diloru
- E) Sumanso

**42. "Sab'ai sayyor" dostonida nechanchi iqlimdan kelgan musofir Mehr va Suhayl voqeasini hikoya qilib beradi?**

- A) birinchi
- B) ikkinchi
- C) uchinchi
- D) to'rtinchi
- E) beshinchi

**43. "Saddi Iskandariy" dostonida Iskandar qanday shaxs sifatida tasvirlangan?**

- A) adolatsiz, zolim xudbin shaxs
- B) kamtar va adolatli, ilimli shoh
- C) mehnatsevar, vatanparvar shaxs
- D) maqtanchoq, takabbur shoh
- E) kaltabin, egoist shoh

**44. Shoh Iskandar hayotining so‘ngida qanday ishga jazm etdi?**

- A) Xalqni devlardan qutqazishga jo‘nab ketdi.
- B) Eronga katta yurish boshladi.
- C) Dengiz tubiga tushib dunyoni o‘rganmoqqa kirishdi.
- D) Yerto‘laga tushib tarki dunyochilikki berildi.
- E) Markaziy Osiyoga hujum boshladi

**45. Alisher Navoiyning tasavvufga oid qarashlari qaysi asarida umumlashtirilgan?**

- A) “Mahbub ul-qulub”
- B) ”Nazm ul-javohir”
- C) “Lison ut-tayr”
- D) “Muhokamat ul-lug‘atayn”
- E) “Majolis un-nafois”

**46. Shayx San‘on obrazi Alisher Navoiyning qaysi asarida uchraydi?**

- A) ”Nazm ul-javohir”
- B) “Muhokamat ul-lug‘atayn”
- C) “Mahbub ul-qulub”
- D) “Lison ut-tayr”
- E) “Tarixi anbiyo va fuzalo”

**47. “Lison ut-tayr” asarida shoir chiqargan asosiy xulosa qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?**

- A) Tabiatdagi barcha narsa o‘tkinchidir.
- B) Koinot (tabiat) jismlarining hammasi Alloh zuhuroti (ko‘rinishi)dir.
- C) Inson yana qaytib Alloh qoshiga boradi.
- D) Ko‘ngling doimo Allohda bo‘lsin.
- E) Tabiatdagi barcha narsalarni Alloh yaratgandir.

**48. Alisher Navoiy tasavvufning qaysi suluki izidan bordi?**

- A) qodiriya
- B) yassaviya
- C) kubraviya
- D) naqshbandiya
- E) malomatiya

**49. Naqshbandiylarning “Dil ba yoru dast ba kor” qoidasi (amali) nimani ifodalaydi?**

- A) Ko‘ngling bilan tilingni bir tut.
- B) Qo‘ling ishda, ko‘ngling Allohda bo‘lsin.
- C) Yolg‘iz onlaringda Allohni yodingda tut.
- D) Doimo yoring bilan birga bo‘l.
- E) Hamisha Alloh bilan birga bo‘l.

**50. “Mehr va Suhayl” hikoyatidagi qaysi obrazlarning nomlari quyosh, porloq yulduz va zolim degan ma’nolarni anglatadi?**

- A) No‘mon, Navdar, Muqbil
- B) Mehr, Suhayl, Jobir
- C) Mehr, Mudbir, Suhayl
- D) Suhayl, No‘mon, Jobir
- E) Mehr, No‘mon, Navdar

**51. Alisher Navoiyning turkiy aruz nazariyasiga doir asari.**

- A) “Risolai mufradot”
- B) “Mezon ul-avzon”
- C) “Mufasssal”
- D) “Muxtasar”
- E) “Risolai aruz”

**52. Alisher Navoiyning tarixiy asarini ko‘rsating.**

- A) “Tarixi anbiyo va hukamo”
- B) “Tarixi muluki Ajam”
- C) “Zafarnoma”
- D) “Sib’at ul-abhur”
- E) A va B

**53. “Hiloliya” asari kimga bag‘ishlangan?**

- A) Jomiyga
- B) Sulton Husayn Boyqaroga
- C) Farididdin Attorga
- D) Kamol Turbatiyga
- E) Xusrav Dehlaviyga

**54. Alisher Navoiyning qaysi asarida xalqning turli ijtimoiy qatlamlari haqida gap boradi?**

- A) “Nasoyim ul-muhabbat”
- B) “Nazm ul-javohir”
- C) “Mahbub ul-qulub”
- D) “Mezon ul-avzon”
- E) “Muhokamat ul-lug‘atayn”

**55. Alisher Navoiyning diniy-ma’rifiy asarlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) “Mahbub ul-qulub”, “Munojot”, “Arba’in”
- B) “Munojot”, “Siroj ul-muslimin”, “Arba’in”
- C) “Nazm ul-javohir”, “Sib’at ul-abhur”, “Munojot”
- D) “Hamsat ul-mutahayyirin”, “Tuhfat ul-afkor”
- E) “Xazoyin ul-maoniy”, “Sab’ai sayyor”, “Munojot”

**56. Alisher Navoiyning so‘nggi asari.**

- A)»Mahbub ul-qulub»
- B) «Lison ut-tayr»
- C) «Nazm ul-javohir»
- D) «Arbain hadis»
- E) «Munojotnoma»

**57. Alisher Navoiy qo‘llagan Foniyl taxallusi ma‘nosi qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?**

- A) ajralish, judolik
- B) hayot, turmush
- C) baxt, najot
- D) o‘tkinchi, bebaqo
- E) chora, tadbir

## **8-DARS**

### **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBIR HAYOTI**

#### **VA IJODIY MEROSI**

**Darsning maqsadi:** talabalarga Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida ma‘lumot berish.

#### **Reja:**

1. Boburning hayoti va ijodi.
2. Boburning “Boburnoma” asari.
3. Bobur lirikasi.

**Tayanch tushunchalar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma” asari, Bobur lirikasi, shariy shakllar, liro-epik asarlar.

• 1483-yil 14-fevralda Andijon sultoni Umarshayx Mirzo oilasida tavallud topdi. 1492 yilda Umarshayx Mirzoning akasi, Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo o‘z ukasiga qarshi qo‘shin tortib keladi. Bu paytda Umarshayx Mirzo Axsi qo‘rg‘onida askar yig‘ib, mashq qilayotgan edi. U jarlik yoqasida kabutar uchirayotib, oti va kabutarxona bilan birga jarga qulab, 39 yoshida halok bo‘ladi. Taxtga 11 yoshli Bobur Mirzo o‘tiradi. Sulton Ahmad Mirzo sulh tuzib qaytib ketadi.

1498-yilda Bobur bobosi Temur poytaxti Samarqandni egallaydi. Bu yerda 100 kun hukmronlik qilgan Bobur Andijonni o‘gay ukasi Jahongir Mirzo egallagani haqidagi xabarni eshitib, Andijonga qarab

yo‘l oladi, Xo‘jandga yetganda esa, Samarqandni Sulton Ali Mirzo egallaydi. Bobur ham Andijon, ham Samarqanddan ajralib, ikki yil kuch to‘plab yuradi, so‘ng Andijonni egallaydi va e‘tiborini yana Samarqandga qaratadi.

- 1500-yilda Samarqand Sulton Ali Mirzodan Shayboniyxon qo‘liga o‘tadi. Shayboniyxondan norozi bo‘lgan xalq Bobur Mirzoni qo‘llab-quvvatlaydi va Samarqand yana Bobur qo‘liga o‘tadi.

- 1501-yil Shayboniyxon Samarqandga katta qo‘shin bilan hujum qiladi. Bobur yordamchi qo‘shinlarning kelishini kutmay, jangga kiradi va Saripul yaqinida qattiq shikast yeydi, majburan Samarqandga chekinadi.

- Shayboniyxon Samarqandni 4 oy davomida qamal qiladi. Bobur sulh tuzish baho-nasi bilan shahardan tashqariga chiqib ketadi va Andijonga qarab yo‘l oladi, biroq Andijonga kira olmaydi, ancha muddat ba‘zan otliq, ba‘zan yayov Xo‘jand atroflarida kezib yuradi.

- 1504-yilda uch yuzdan ziyodroq lashkari bilan Afg‘onistonga ketadi, yo‘l-yo‘lakay Afg‘on qabilalarini o‘ziga bo‘ysundirib boradi va Kobulni urushsiz egallaydi.

- 1512-yili Bobur Eron shohi Ismoil Cafaviydan yordam olib, Samarqandga uchinchi marta yurish qiladi va uni egallaydi. Bir yil o‘tgach, Shayboniyxon sulolasidan bo‘lgan Ubaydullaxon katta qo‘shin bilan Boburga hujum qiladi va Samarqandni undan tortib oladi.

- 1525-yilda Samarqanddan endi ko‘ngil uzgan Bobur Mirzo e‘tiborini ko‘hna va afsonaviy Hindistonga qaratadi, Panjob viloyatini egallab, Dehliga yurish qiladi va uni egallaydi.

- 1526-yil Panipatda Ibrohim Lo‘diy bilan Bobur qo‘shinlari o‘rtasida qattiq va hal qiluvchi jang bo‘ladi. Bobur g‘olib chiqadi. 27 aprelda uning nomiga xutba o‘qiladi. Shunday qilib, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solindi.

- 1530-yil Agrada vafot etadi va o‘zi barpo etgan Nurafshon bog‘iga dafn etiladi. Keyinchalik esa (1533-yil) shoir vasiyatiga ko‘ra, uning xoki Kobuldagi Bog‘i Boburiyga qayta dafn etiladi.

### **Boburning ijodiy merosi**

Bobur o‘zining 47 yillik qisqa umri davomida katta ijodiy meros qoldirishga ulgurdi. Go‘zal she‘riy devon va “Boburnoma”dan tashqari turkiy aruz vaznining o‘ziga xos xususiyatlari haqida “Muxtasar” (“Mufasssal”), musiqa ilmi va harbiy ish haqida risolalar yozdi, Xatti Boburiyni yaratdi, Xoja Ahrori Valiy Toshkandiyning “Volidiya” asarini forsiydan turkiyga o‘girdi. Bobur she‘rlarining ikki qo‘lyozmasi bizga qadar saqlanib qolganligi ma‘lum. Birinchisi Parijda, ikkinchisi Hindistonda saqlanadi. Ingliz sharqshunosi Denison Ross 1910-yilda Bobur she‘rlarini ingliz tilida nashr ettirgan ham edi.

Bobur lirikaning, ayniqsa, g‘azali musajja’ (ichki qofiyalarga ham ega bo‘lgan g‘azal), ruboiy janrlarida g‘oyat dilbar she‘rlar yaratdi.

Bobur lirikasining asosiy mavzulari quyidagilardan iborat:

- a) hayotga muhabbat va xushnudlik;
- b) ilohiy va zaminiy(hayotiy) ishq, vatan sevgisi;
- c) hijron va g‘urbat azobi;
- d) xushxulqlik va ma‘rifatga da‘vat.

### **“Boburnoma”**

“Boburnoma” faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham memuar janrining nodir namunalaridan biri hisoblanadi. Unda 1494-1529-yillar orasi Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistonda yuz bergan, Boburning o‘zi bevosita guvohi bo‘lgan tarixiy voqealar jonli tilda, aniq dalillar, she‘riy parchalar asosida hikoya qilingan. Demak, asarning bosh qahramoni shoirning o‘zi hisoblanadi.

Manbalarda qayd qilinishicha, asar **“Voqeanoma”**, **“Voqeoti Boburiy”**, **“Tuzuki Boburiy”**, **“Boburiya”** nomlari bilan mashhur bo‘lgan.

“Boburnoma” 1494-yilda yuz bergan mudhish voqea, Umarshayx Mirzoning Axsida jarga qulab tushib, 39 yoshida halok bo‘lishi va 12 yoshga qadam qo‘ygan Bobur Mirzoning Andijon taxtiga o‘tirishi voqealaridan boshlanadi.

Ma‘lumki, ayrim tarixiy asarlarda hukmdorlar va boshqa tarixiy shaxslarga, voqealarga muallifning o‘z nuqtai nazaridan, bir yoqlama baho berganlar. “Boburnoma” muallifi esa ulardan farqli ravishda har bir tarixiy voqea va shaxslarga, hatto o‘ziga dushman kishilarga ham haqqoniy, beg‘araz baho beradi, ularning faoliyati va xulq-atvoridagi yaxshi va yomon tomonlar xolis yoritiladi.

Bobur biror voqea haqida hikoya qilar ekan, avvalo, shu voqea yuz bergan joyni batafsil tasvirlaydi, voqeada ishtirok etuvchi kishilarning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, nasl-nasabi haqida so‘z yuritadi. Masalan: 1494 yilda Umarshayx Mirzoning halokati haqida so‘zlar ekan, Bobur Far-g‘ona viloyati va uning shaharlari, geografik o‘rni, meva va parrandalari, farg‘onaliklar va ularning tili va udumlari haqida to‘xtalib o‘tadi.

“Boburnoma”da yuzlab tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari bilan bog‘liq voqealar bayon etiladi. Voqealar markazida turgan Umarshayx Mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad Mirzo, Xusravshoh kabi tarixiy shaxslar faoliyatini bayon etish bilan birga, ularning shakl-shamoyillari, kishilarga munosabati, madaniy saviyalari haqida ham ma’lumot beriladi. Masalan: mustabid va badaxloq Xusravshoh to‘g‘risida so‘zlarkan, uning Hisor aholisiga o‘tkazgan jabr-zulmi, navkarlarining bosqinchiligi va maishatbozligini qattiq qoralaydi hamda: “...har kim Xusravshohning bu af‘olini eshitsa, la’nat qilsun. Bu af‘olini eshitib, la’nat qilmag‘on ham sazovori la’nat o‘lsun”, - deb yozadi.

Asarda Ulug‘bekday buyuk donishmandning o‘limiga sababchi bo‘lgan padarkush Abdullatif ham la’natlanadi: “...bu besh kunlik o‘tar dunyo uchun andoq, donishmand va qari otasini shahid qildi”, - deb yozadi Bobur va Nizomiy Ganjaviyning quyidagi baytini keltiradi:

Padarkushro ba podshohi nashoyad,  
Agar shoyad ba shash mohash napoyad.

(Padarkush podshohlikka yaramaydi, yaragan chog‘da ham olti oyga yetib bormaydi.)

“Boburnoma”da Alisher Navoiy, Jomiy, Binoiy, Muammoiy, Shayxim Suhayliy, Muhammad Solih, Kamoliddin Behzod, Sulton Ali, Husayn Udiy va boshqa o‘nlab san’at ahli haqida ham qimmatli ma’lumotlar beriladi.

**Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari namunalarining  
QR kodi**



### **Savollar:**

1. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida nima bilasiz?
2. Bobur asarlarida qanday mavzu ko'tarilgan?
3. Bobur lirikasi haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Boburning "Boburnoma" asari bilan tanishib, unda ko'tarilgan mavzular haqida ma'lumot bering.
2. Boburning lirikasi haqida gapirib bering.
3. Boburning sarkardalik faoliyati haqida gapirib bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

#### **1.Bobur Mirzoning Andijon taxtiga o'tirishi qaysi voqea bilan bog'liq?**

- A) 1494-yilda Sulton Abu Said Mirzoning Andijonga qo'shin tortib kelishi va halok bo'lishi bilan.
- B) 1494-yilda Sulton Mahmud Mirzoning Toshkentdan bostirib kelishi va Umarshayx Mirzo tomonidan tor-mor etilishi bilan
- C) 1493-yilda Sulton Ahmad Mirzoning Andijonga hujum qili-shi va Umarshayx Mirzoning Axi-kentda jarlikka qulab, halok bo'lishi bilan
- D) 1498-yilda Shohruh Mirzoning vafot etishi bilan
- E) 1494-yilda Umarshayx Mirzoning vafot etishi bilan

#### **2.Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim qaysi avlodga mansub edi?**

- A) Temuriylarning barlos urug'iga
- B) Mug'ullarning chig'atoy urug'iga
- C) Arablarning ummaviylar avlodiga
- D) Forsiylarning somoniylar avlodiga
- E) Turkiylarning qoraxoniylar avlodiga

#### **3. Bobur Mirzo Samarqandni qaysi yillarda egallashga muvaffaq bo'ldi?**

- A) 1498, 1500, 1512
- B) 1493, 1498, 1500
- C) 1498 va 1512
- D) 1494, 1498, 1511

E) 1495, 1500, 1511

**4. Sulton Ahmad Mirzo Boburning...**

- A) amakisi
- B) tog‘asi
- C) amakivachchasi
- D) qaynotasi
- E) A va D

**5. Boburning 300 yaqin lashkari bilan Kobulga qarab yurishi qaysi yili sodir bo‘lgan?**

- A) 1501-yilda
- B) 1504-yilda
- C) 1512-yilda
- D) 1525-yilda
- E) 1526-yilda

**6. Boburiylar davlatiga qachon va qaerda asos solindi?**

- A) 1504-yilda Kobulda
- B) 1511-yilda Samarqandda
- C) 1525-yilda Hirotida
- D) 1526-yilda Hindistonda
- E) 1501-yilda Samarqandda

**7. Bobur 1527-yilda Hindistonda kimga qaqshatqich zarba berdi?**

- A) Ibrohim Lo‘diyga
- B) Krishnaga
- C) Dilovarxonga
- D) Rono Sangoga
- E) Ubaydullaxonga

**8. Bobur lirikasining yetakchi mavzulari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) vatan sog‘inchi, hayotga muhabbat, mehnatsevarlik
- B) yor va diyor hajri, qismatdan nolish, hayotga muhabbat
- C) sevgi va sadoqat, tinchlik va do‘stlik
- D) tarkidunyochilikni qoralash, ezgulikni ulug‘lash, sevgi va sadoqat
- E) ilohiy ishq, vatan sog‘inchi, yurt osoyishtaligi va xalq dardi

**9. “Topmadim” radifli g‘azal Boburning qaysi kechinmalari asosida yaratilgan?**

A) Ibrohim Lo‘diyning onasi malika Bayda tomonidan zaharlangach, Bobur salomatligi og‘irlashib qoladi, o‘lim to‘shagida yotgan shoir yor-do‘stlarini eslab, og‘ir izzitiroblar chekadi.

B) 1513-yilda Ubaydullo Sultondan yengilib, Hisorga chekingan Bobur magʻlubiyat alamidanda kasal boʻlib yotib qoladi.

C) 1530-yilning oxirlarida oʻlim toʻshagida yotgan oʻgʻli Humoyun qismati shoirga qattiq azob beradi.

D) 1530-yilning oxirlarida Boburga Andijondan qovun keltiradilar. Undan olis Andijonning hidini tuygan shoir koʻzlaridan yosh quyilib oqadi.

E) 1501-yilda Saripulda Shayboniydan yengilgan Bobur Samarqandga chekinadi, buning ustiga yaqin kishilarining, beklarning sotqinligi, xiyonatiga duch keladi.

**10. Bobur lirikaning qaysi janrlarida oʻzining yorqin isteʼdo-dini namoyish eta oldi?**

- A) ruboiy, muhammas
- B) tuyuq, murabbaʼ
- C) masnaviy, ruboiy
- D) ruboiy, gʻazali musajjaʼ
- E) tuyuq, musaddas

**11. 1507-yilda Badiuzzamon va Muzaffar Mirzo tomonidan Hirotga taklif etilgan Bobur mezbonlarning sovuq kutib olganidan ranjib, hech kimga bildirmay, Kobulga qarab yoʻl oladi. Qor bilan koʻmilgan xatarli yoʻlda bir sheʼr yozadi. U qaysi sheʼr edi?**

- A) Xazon yaprogʻi yangligʻ gul yuzung hajrida sargardim...
- B) Gʻurbatda ul oy hajri meni pir qilibtur...
- C) Jonimdin oʻzga yori vafodor topmadim.
- D) Charxning men koʻrmagan jabru jafosi qoldimu...
- E) Mening koʻnglumki, gulning gʻunchasidek tah-batah qondur...

**12. “Boburnoma”da Fargʻona viloyati taʼrifi qaysi yil voqealari bilan bogʻliq holda beriladi?**

- A) 1498-yil
- B) 1493-yil
- C) 1499-yil
- D) 1495-yil
- E) 1512-yil

**13. “Boburnoma” markazida turgan tarixiy shaxslar qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?**

- A) Ahmad Hojibek, A. Navoiy, Behzod, Umarshayx Mirzo
- B) Umarshayx Mirzo, Mazidbek, Ahmad Tanbal, Abdulatif
- C) Muzaffar Mirzo, Moʻmin Mirzo, Abu Said Mirzo
- D) Umarshayx Mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad Mirzo
- E) Sulton Mahmud Mirzo, Xusravshoh, Shoh Gʻarib, Husayn Boyqaro

**14. “Xanafiy mazhabliq, pokiza etiqodliq kishi erdi, besh vaqt namozni kanda qilmas erdi...”**

“Boburnomadan”dan olingan bu ta’rif kimga tegishli?

- A) Umarshayx Mirzoga
- B) Sulton Ahmad Mirzoga
- C) Sulton Mahmud Mirzoga
- D) Sulton Husayn Mirzoga
- E) Alisher Navoiyga

**15. “Boburnoma”ning bosh qahramoni...**

- A) Umarshayx Mirzo
- B) Bobur
- C) Sulton Ahmad Mirzo
- D) A va B
- E) A, B, C

**16. “Har kim... bu af’olini eshitsa, la’nat qilsun. Bu af’olini eshitib, la’nat qilmog‘on ham sazovori la’nat bo‘lsun...”**

“Boburnoma”dan olingan bu parchada Bobur kimni la’natlagan?

- A) Abdullatifni
- B) Sulton Ahmad Mirzoni
- C) Sulton Mahmud Mirzoni
- D) Ahmad Tanbalni
- E) Xusravshohni

**17. “Padarkushro ba podshohiy nashoyad,**

Agar shoyad, ba shash mohash napoyad“.

Bobur bu baytni qaysi shoirdan keltirgan?

- A) Abdurahmon Jomiy
- B) Abulqosim Firdavsiy
- C) Ro‘dakiy
- D) Nizomiy Ganjaviy
- E) Jaloliddin Rumiy

**18. “...naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytiburlar, hech kim oncha ko‘b va xo‘b aytqon ermas”. “Boburnoma”dan olingan bu parchada gap kim haqida ketyapti?**

- A) Mavlono Lutfiy
- B) Badriddin Hiloliy
- C) Alisher Navoiy
- D) Shayxim Suxayliy
- E) Kamol Turbatiy

**19. “Bir-ikki buta tok “Hasht bihisht” bog‘ida ekturub edim, aning ham yaxshig‘ina uzumlari bo‘lub edi...”**

“Boburnoma”da tilga olingan “Hasht bihisht” bog‘i qaerda barpo etilgan?

- A) Kobulda
- B) Hindistonda

- C) Hirotida
- D) Samarqandda
- E) Andijonda

**20. “Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm ermas...”**

“Boburnoma”da olingan ushbu parchada qaysi shahar haqida gap ketyapti?

- A) Andijon
- B) Isfara
- C) Konibodom
- D) Quva
- E) Samarqand

**21. “Agar mening rizomni tilarsen, xilvatnishinliqni va el bila kam ixtilolliqni bartaraf qilg‘il”. Bobur bu maktubni kimga yozgan?**

- A) Askariy Mirzoga
- B) Hindol Mirzoga
- C) Humoyun Mirzoga
- D) Komron Mirzoga
- E) Ukasi Nosir Mirzoga

**22. “Uchinchi qiz Oyisha Sultonbegim edi. Besh yoshimda Samarqandg‘a kelganda, manga qo‘lub edilar...”**

“Boburnomada ta’riflangan” Oysha begim kim edi?

- A) Sulton Ahmad Mirzoning qizi
- B) Sulton Mahmudning qizi
- C) Bobur Mirzoning umr yo‘ldoshi
- D) Sulton Ali Mirzoning umr yo‘ldoshi
- E) A va C

**23. Boburning o‘g‘li Humoyunga bag‘ishlab yozgan asari...**

- A) “Muxtasar”
- B) “Mufasssal”
- C) “Humoyunnoma”
- D) “Mubayyin”
- E) “Volidiya”

**24. “Bobur — dilbar shaxs. Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor inson bo‘lgan, u adabiyotni, san’atni sevar edi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi”.**

Bobur haqidagi ushbu ta’rifni kim aytgan?

- A) Mahatma Gandi
- B) Javohirla’l Neru
- C) Robindranat Tagor
- D) Indira Gandi
- E) Radjiv Gandi

**25. Boburning turkiy aruz qonuniyatlari haqidagi asari...**

- A) “Mubayyin”
- B) “Mezon-ul avzon”
- C) “Mufasssal”
- D) “Muxtasar”
- E) C va D

**26. “Humoyunnoma” asarining muallifi kim?**

- A) Komron Mirzo
- B) Hindol Mirzo
- C) Gulrangbegim
- D) Gulchehrabegim
- E) Gulbadanbegim

**27. Bobur Xoja Ahrori Valiydan qilgan “Volidiya” tarjima asar...**

- A) tarixiy
- B) ilmi hikmatga bag‘ishlangan
- C) ota-onaga bag‘ishlangan
- D) tasavvufga bag‘ishlangan
- E) memuar

**28. Boburning ulkan haykali o‘rnatilgan Bog‘i Shamol yodgorlik majmui qaerda joylashgan?**

- A) Toshkentda
- B) Samarqandda
- C) Farg‘onada
- D) Axsikentda
- E) Andijonda

## **9-DARS**

### **XVII – XIX ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI**

**Darsning maqsadi:** Talabalarga XVII – XIX asrlarda yashab o‘tgan ijodkorlar hayoti va ularning asarlari haqida ma’lumot berish.

#### **Reja:**

1. Turdi (Farog‘iy) hayoti va ijodi.
2. Boborahim Mashrab hayoti va ijodi.
3. Ogahiy hayoti va ijodi.

**Tayanch tushunchalar:** Turdi (Farog‘iy), Boborahim Mashrab, Huvaydo, Gulxaniy, Maxmur, Ogahiy.

## TURDI (FAROG‘IY)

(XVII asr)



Turdi XVII asr o‘rtalarida Buxoroda Ashtarxoniylardan Abdulazizxon va Subhonqulixon davrlarida yashab ijod etgan. Abdulazizxon davrida u o‘zbeklarning yuz urug‘i boshlig‘i sifatida ancha katta hurmat-e‘tiborga ega edi. Buxoro xoni bilan uning ukasi Balx hokimi Subhonqulixon o‘rtasidagi toj-taxt uchun 37 yil davom etgan kurashdan so‘ng Subhonqulixonning qo‘li baland kelib, Buxoro taxtini egallaydi. Hokimiyatga kelgach, u akasiga yaqin kishilarni saroydan chetlatib, ularning o‘rniga hushomadgo‘y, poraxo‘r kishilarni to‘pladi. Ba’zi amalparastlar xonga pora berib bir yo‘la bir necha mansabni egallab olgan edilar. Ularni “xo‘jasarolar” deb atardilar. Mansab amal uchun qirq, yuz, ming, xitoy, jaloyir, oytamg‘ali, jag‘alboyli, qipchoq, nayman, kenages, barlos kabi urug‘ boshliqlari urush-janjal qo‘zg‘ab, xalq boshiga azob, kulfatlar keltirdilar. Bundan qattiq g‘azablangan shoir urug‘ boshliqlarini bir yoqadan bosh chiqarib, ahil, ittifoq yashashga da’vat etuvchi “Tor ko‘ngilli beklar” she’rini yozdi.

Tor ko‘ngilli beklar, manman demang, kenglik qiling,  
To‘qson ikki bori o‘zbek yurtidir, tenglik qiling...

### ***Bilib qo‘ygan yaxshi!***

- Subhonqulixon davrida yurt xonavayron bo‘la boshladi, xalq boshiga cheksiz azob-uqubatlar tushdi. Xon “barot solig‘i” bahonasi bilan yetti yillik soliqni bir yilda yig‘ishtirib ola boshladi, xonliklar o‘rtasidagi urushlar shusiz ham el yostig‘ini quritgan edi.

- Bu bedodlik joy-joylarda isyonlarga sabab bo‘ldi. Isyonchilar boshida Turdi ham bor edi. Biroq uyushib ulgurmagan bu isyonlarni xon qurol kuchi bilan shafqatsizlarcha bostirar edi.

- Ijodini dastlab ishqiy she‘rlar yozishdan boshlagan Turdi o‘z qalamini endi hajv quroliga aylantirdi. 1691-yilda u 33 banddan iborat bo‘lgan o‘zining mashhur “Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari haqida hajviya”sini yozdi. Asarda shoir xon va uning atrofida to‘plangan “xo‘jasarolar”ning razil, jirkanch basharalarini ochib tashladi:

Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,  
G‘asb ila molin olib, qo‘ymadingiz bitini...

Turdi xonning munofiqligi, zolimligi, haromtomoqligini uning o‘z tili bilan fosh etadi. Xonning amaldorlari ham uning o‘zidan qolishmas edilar. Shoir xalqning so‘nggi burda noniga ham changal soladigan, poraga ajdarhodek og‘zini ochib turgan beklarni hayvondan ham battar yirtqich maxluqlarga, xonning parvonachisini ko‘ppak yuzli ko‘rga, dodxohini sovun ko‘pigi aralash ichimlik bilan to‘ldirilgan meshga, askarlarini och itdek uyma-uy sanqib yurgan gadoga o‘xshatadi.

Turdi she‘r oxirida xon va uning amaldorlarini insof va adolatga chaqirib, ularga “el - rabotu to‘ra - qo‘noq” degan maqolni eslatadi.

Shoirdan bizga qadar 434 misradan iborat 17 ta she‘r (ikkitasi tojikcha) saqlanib qolgan, xolos.

## **BOBORAHIM MASHRAB**

(1640 - 1711)



Boborahim Mashrab 1640-yilda Namanganda (ayrim manbalarda Andijonda deyiladi) boʻzchi oilasida tavallud topdi. Mashrab haqida xalq orasida turli rivoyatlar yuradi, ular “Qissai Mashrab” nomli xalq kitobida oʻz ifodasini topgan.

Boborahim dastlab Mulla Bozor Oxund, soʻng Koshgʻarda Ofoqxoʻja eshon qoʻlida tasavvufdan saboq oladi, oʻz aqli, zukkoligi bilan ustozlarini qoyil qoldiradi. Oʻn sakkiz yil Koshgʻarda yashagan Mashrab 1673-yilda oʻz yurtiga qaytadi. Kasalmand kekxa onasi tez orada vafot etadi. Biror munis, mushfiq kishisi qolmagan, zamonasidan, pastkash kishilardan koʻngli zadda boʻlgan shoir yurtmayurt qalandarona yurishni afzal biladi. Movarounnahr, Xurosonning qator shaharlarini piyoda kezib chiqadi, qaerda boʻlmasin, oddiy xalq uni quchoq ochib kutib oladi. Mashrab safarining soʻnggi nuqtasi Balx boʻladi. Oʻz sheʼrlarida telba, teskari dunyoga va uning sababchilari boʻlgan hukmron doiralarga chuqur nafratini bayon etgan shoir Qunduzda 1711-yilda Balx hokimi Mahmud Qatogʻon farmoni bilan dorga osiladi.

Mashrab Mahdiy, Zinda taxalluslari bilan ham turkiy va forsiy tillarida ijod qilgan. Uning lirik merosi asosan “Devonai Mashrab” (“Devona Mashrab”) kabi xalq kitoblari va ayrim bayozlar orqali bizga qadar yetib kelgan. Bu sheʼrlar mavzu doirasiga koʻra isyonkorona va ishqiy sheʼrlardir. Ularda shoir oʻzi yashagan muhitni “gʻurbatxona” deb ataydi, adolatsizlik va zulm-zoʻravonlik ostida bagʻri pora boʻlgan xalqning dardu alamlarini kuylaydi:

Dili tigʻi sitamdin yora boʻlgan xalqni koʻrdim,  
Tani dardu alamdin pora boʻlgan xalqni koʻrdim...

Mashrab she'riyati tasavvuf va uning Naqshbandiya sulukitariqati bilan chambarchas bog'liqdir. Shoir she'rlarida ilohiy haqiqatni, ilo-hiy ishqni ulug'laydi. "Analhaq" degani uchun dorga osilgan Mansur Xalloyni, yolg'on dunyo rohatlaridan, taxtdan voz kechib, umrini Alloh qoshiga poklanib borish aziyatlari bilan o'tkazgan va 777-yilda qatl etilgan Ibrohim Adham nomini tez-tez tilga oladi, o'zini ularga o'xshatadi:

Mansuri Hallojdek ichib sharobi antahur,  
Charx urib yig'lab tururmen ushbu kun dor ostida.

## **XO'JANAZAR HUVAYDO**

**(1704 - 1780)**

XVIII asr boshlarida O'shda tug'ilgan va o'z falsafiy qarashlari bilan Mashrab izdoshi bo'lgan Xo'janazar Huvaydo adabiyotimiz xazinasini o'zining go'zal g'azallari, masnaviylari bilan boyitgan lirik shoirlardan biri hisoblanadi.

Huvaydoning otasi G'oyibnazar Ofoqxo'ja eshonning muridlaridan bo'lgan, Chimyonga ko'chib kelib, bu yerda masjid va xonaqo qurdirgan. Huvaydoning nevarasi Mavlono Sirojii, chevaralari Samarbonu, Salohiddin Soqiblar ham nozikta'b shoirlar bo'lib, devon tuzganlar.

Huvaydo devonidan uch yuzdan ortiq g'azal, bir necha ruboiy, muhammas, musaddas va musammanlar o'rin olgan. Shoir ularda zaminiy va ilohiy ishqni ulug'laydi, zamona adolatsizliklaridan ko'ngli vayron bo'lgan xalq dardini kuylaydi.

Huvaydoning "Rohati dil" dostonida inson hayotining ma'naviy-axloqiy qirralari: ochko'zlik va tamagirlik, o'tkinchi dunyoga hirs qo'yish kabi illatlar qoralanadi, insonlarni mehr-muruvvatli, xayru saxovatli bo'lishga da'vat etiladi.

Dostonning "Bayoni g'addorii dunyo" hikoyatida shoir uch aka-ukaning boylik uchun bir-birlarini o'ldirishgacha borib yetganlari hikoya qilinadi. Oltin topib olgan aka-ukalar kenjalarini bozorga ovqat topib kelishga jo'nata dilar, boylikni ikkovlari bo'lib olishni rejalashtirib, so'ng ukalarini o'ldiradilar. Kenja ham bozordan qaytib qaytayotib, ovqatga zahar qo'shib kelgan bo'ladi. Zaharlangan ovqatdan akalari ham nobud bo'ladilar.

Bu hikoyat orqali shoir mehnatsiz, mashaqqatsiz topilgan boylik hech kimga nasib etmasligi, boylik uchun inson hech vaqt tubanlikka bormasligi kerakligi haqida o'git beradi.

## **MUHAMMAD SHARIF GULXANIY**

**(XVIII – XIX asrlar)**



Muhammad Sharif Gulxaniy XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Qo'qonda yashab ijod etgan. Asli tog'li Darvozda (Tojikiston) tug'ilgan Muhammad Sharif turmush tashvishlari bilan Qo'qonga ko'chib keladi, amir Olimxon saltanati davrida navkar olish e'lon qilingan paytlarda nav-karlikka kiradi, keyinchalik amir Umarxon saroyida xizmat qiladi, Hayotining so'nggi yillarida hammomda o't yoquvchi-go'lax bo'lib ishlaydi.

Shoir Gulxaniy va Jur'at taxalluslari ostida yozilgan 12 g'azali va bir qasidasi bizgacha Fazliy Namangoniyning "Majmuai shoiron" tazkiri orqali yetib kelgan, ular turkiy va forsiy tillarda yozilgan.

Gulxaniy o'zbek masalchiligining asoschilaridan biridir. Uning "Zarbulmasal" asari o'zbek adabiyotining nodir namunalaridan biridir. Asarda Gulxaniy Yapaloqqush va Boyqush kabi majoziy obrazlar orqali urushqoq va bosqinchi xonlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadi. Uch xonlik: Qo'qon, Buxoro, Xiva xonliklari o'rtasidagi to'xtovsiz urushlar xalqning tinka-madorini quritgan edi. Shoir Yapaloqqush va Boyqush o'rtasidagi qudachilik munosabatlari orqali xonlarning bosqinchilik siyosatini qoralaydi.

Boyqush qizi Gunashbonu uchun Yapaloqdan katta qalin — ulkan xarobazorni talab qiladi. Ikki qush oʻrtasida qudachilik voqealari asarning qoliplovchi hikoyasi hisoblanadi.

Asarda “Maymun va Najjor”, “Tuya va Boʻtaloq”, “Toshbaqa bilan Chayon” kabi masallar va yuzlab xalq maqollari uchraydi. Shoir bu maqollarni uzoq yillar xalq orasida yurib toʻplagan va ularni bir asarga jamlashni maqsad qilib qoʻygan. Bu maqsadini amalga oshirishda unga “Zarbulmasal” asari qoʻl keldi. Amir Umarxonning “Otalar kitobini” yozish iltimosiga koʻra bitilgan bu asarda xalqimizning 400 dan ortiq maqol va hikmatli iboralari ishlatilgan.

## MAXMUR

(? - 1844)

Maxmur (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirlarida Qoʻqonda ilgʻor ziyoli oilasida tugʻildi. Uning otasi Mulla Shermuhammad Akmal taxallusi bilan sheʼrlar yozgan, madrasada mudarrislik qilgan. Maxmur uch nafar farzandi bilan muhtojlikda umr kechirdi, amir Umarxon saroyida sipohiy(askar)lik ham qildi. Oʻzining nochor hayoti haqida shoir shunday yozadi:

Kechalari yotgani na qoʻshim bor,  
Kunduzi ichgani na noʻshim bor,  
Bir hovuch uyimda na gʻallam bor,  
Ikki bosh kallamda na sallam bor.

Maxmur turmushi oʻsha davrda “misli soyillar” (tilanchilar) hayotini eslatadi:

Hech kishi mendek olamda tolibi non boʻlmasin,  
Non soʻrogʻida haloyiq ichra sarson oʻlmasin...

Shoir zulm-zoʻravonlik, adolatsizlik avj olgan oʻz zamonasida kambagʻal qashshoq xalq ahvoli oʻzinikidan yaxshi emasligini koʻrdi, bosqinchilik urushlaridan, jabr-zulmdan xonavayron boʻlgan qishloqlar va xor-zor yashayotgan bechora xalq ahvolini haqqoniy yorituvchi “Hapalak” sheʼrini yozdi. Shoir hayotining soʻnggi yillarida oʻzi tugʻilib oʻsgan qishlogʻi Hapalakka koʻchib keladi va shu yerda 1844-yilda vafot etadi.

Maxmur ijodini asosan hajviy yumoristik sheʼrlar tashkil qiladi. Oʻzining “Hakim Turobiy tilidan”, “Hakim Turobiy haqida”, “Qozi Muhammad Rajab Avj”, “Takabbur”, “Qozi Xoʻja sagbon” kabi

she'rlarida shoir xalqni aldab kun kechiruvchi nodon, johil tabiblar, pastkash, poraxo'r amaldorlarning jirkanch basharalarini ochib tashlaydi, bechora xalqqa o'z hamdardligini bayon etadi.

## **SHERMUHAMMAD MUNIS**

**(1778-1819)**

Munis 1778-yilda Xeva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob Avaz oilasida tavallud topdi, Xeva madrasalaridan birida olim Sayid Eshonxo'ja qo'lida tahsil ko'rdi. Munis faoliyati serqirradir: shoir sifatida u "Munis-ul ushshoq" ("Oshiqlar do'sti"), pedogog olim sifatida "Risolai savod", tarixchi sifatida "Firdavs-ul iqbol", tarjimon sifatida "Ravzat-uz safo" asarlarini meros qilib qoldirdi. Otasining vafotidan so'ng Munis xon tomonidan bosh miroblikka tayinlandi va keyinchalik sug'orish inshootlari haqida "Arnalar" asarini yozdi.

"Munis-ul ushshoq" devonining debochasida o'z she'rlarining hajmini taxminan 6 ming baytdan iborat deb hisoblaydi. Devondan shoirning dunyoviy ishq va sadoqatni kuylovchi, teskari dunyoning vafosizligi, amaldorlarining shafqatsizligini qoralovchi she'rlari o'rin olgan.

## **MUHAMMADRIZO OGAHIY**

**(1809-1874)**

Ogahiy 1809-yilda Xorazmning Qiyot qishlog'ida tug'ildi. Uning she'riyat olamiga kirib kelishiga amakisi Munisning ta'siri katta bo'lgan. Muhammad Rahimxon II (shoir Feruz) boshchiligidagi Xiva adabiy muhitida kamolga yetgan Ogahiy ham shoir, ham tarjimon, ham tarixchi sifatida el orasida shuhrat qozondi. Shoir Navoiy ijodidan ta'lim oldi. Uning "Ta'viz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") devonidagi 83 muhammasdan 30 tasi A. Navoiy g'azaliga bog'langanligi ham buning yaqqol dalilidir.

Ogahiy tarixnavis sifatida amakisi Munisning tugallanmay qolgan "Firdavs ul- iqbol" asarini davom ettirdi, Xorazm tarixiga oid "Riyozi ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome' ul-voqeot", "Gulshani davlat", "Iqboli Feruziy" kabi asarlarini yozdi, "Axloqi Muhsiniy", "Nasihatnomai Kaykovus", "Zafarnoma", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Salomon va Absol" va "Bahoriston", Hiloliyning "Shoh va gado" va boshqa ko'plab asarlarni forsiydan turkiyga tarjima qildi.

### **Savollar:**

1. Turdi (Farog'iy) hayoti haqida nima bilasiz?
2. Huvaydo asarlarida qanday mavzu ko'tarilgan?
3. Mashrab lirikasi haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Maxmurning "Hapalak" sherida ko'tarilgan mavzu haqida ma'lumot bering.
2. Ogohiy lirikasi haqida gapirib bering.
3. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari haqida gapirib bering.

### **Talabalar bilimini tekshirish uchun test savollari:**

#### **1. Turdi qaysi davrda va qaerda yashab ijod etgan?**

- A) XV asrda Xurosonda Husayn Boyqaro hukmronligi davrida
- B) XVIII asrning ikkinchi yarmida Ashtarxoniylar davrida Buxoroda
- C) XVII asrning ikkinchi yarmida Abdulazizxon va Subxonqulixonlar hukmronligi davrida Buxoroda
- D) XVII asr o'rtalari va XVIII asr boshlarida Samarqandda Shayboniyxonlar hukmronligi davrida
- E) Yashagan joyi va davri ma'lum emas.

#### **2. Shoir Turdidan bizga qadar saqlanib qolgan adabiy meros nechta she'rni tashkil etadi va ular qaysi tilda ijod etilgan?**

- A) 17 ta she'r, o'zbek va fors-tojik tillarida
- B) 72 ta she'r, o'zbek va fors-tojik tillarida
- C) 45 ta she'r, o'zbek va arab tillarida
- D) 164 ta she'r, o'zbek va fors-tojik tillarida
- E) 100 ta she'r, o'zbek tilida

#### **3. Subhonqulixon davrida "xo'jasarolar" kimlar edilar?**

- A) saroy shoirlari
- B) saroy hofizlari
- C) poraxo'r amaldorlar
- D) tamagir din arboblari
- E) aldamchi zargarlar

#### **4. Turdining urug'lar o'rtasidagi nizo va adovatlarni tugatishga, ahillikka chaqiruvchi she'ri qaysi misra bilan boshlanadi?**

- A) Qirqu, yuz, ming, son bo'lib, bir xon, oyinlik qiling...
- B) Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling...
- C) Sizga yo'q el javhare, yuzga upa, enlik qiling...
- D) Bir o'ngirlik, bir tirizlik, bir yaqo-yenglik qiling...
- E) To'qson ikki bori o'zbek yurtidur, tenglik qiling...

**5. Sizga darkor bu yurt, ey gala, zang‘ar beklar,**

Bu qadim naql erur:

“El-rabotu, to‘ra qo‘noq”.

Ushbu misralar kimning qalamiga mansub va qaysi asardan olingan?

- A) Huvaydo, “Bayoni g‘addorii dunyo”
- B) Muqimiy, “Tanobchilar”
- C) Turdi, “Subhonqulxon va uning amir-amaldarlari hajvi”
- D) Anbar Otin, “Qoralar falsafasi”
- E) Dilshodi Barno, “Tarixi muhojiron”

**6. Boborahim Mashrab yana qanday taxallus bilan ijod etgan?**

- A) Ado, Rind
- B) Mahdiy, Zinda
- C) Baraxna, Zinda
- D) Halloj, Adham
- E) Shoh Mashrab, Adham

**7. Qashqarga kelgan Mashrab Ofoqxo‘ja eshon qo‘lida qaysi ilmdan saboq olgan?**

- A) jahriyadan
- B) tasavvufdan
- C) yassaviyadan
- D) ismoiliyadan
- E) hurufiylikdan

**8. Mashrab tasavvufning qaysi tariqati izidan bordi?**

- A) yassaviya
- B) qodiriya
- C) malomatiya
- D) kubraviya
- E) naqshbandiya

**9. Mashrab lirikasining yetakchi mavzulari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Ilohiy va zaminiy sevgi, xalq dardi, vatan va onaizor madhi
- B) vatanga muhabbat, insonparvarlik, insof va adolat
- C) do‘stlik va sadoqat, ma‘rifatni ulug‘lash
- D) A va B
- E) B va C

**10. Mashrab hayoti qanday yakunlanadi?**

- A) 1710-yilda o‘z yurtida vafot etadi.
- B) 1710-yilda Amir Haydar tomonidan qatl etiladi.
- C) 1700-yilda Shayboniyxon tomonidan qatl etiladi.
- D) 1711-yilda Mahmud Qatog‘on hukmi bilan dorga osiladi.
- E) Vafoti haqida biror ma‘lumot saqlanmagan.

**11. Mashrab o‘z she’rlarida ko‘proq kimlarning nomlarini tilga oladi?**

- A) Yassaviy va Navoiy
- B) Attor va Jaloliddin Rumi
- C) Mansur Halloj, Ibrohim Ad-ham
- D) Naqshbandiy, Najmiddin Kubro
- E) Navoiy va Bobur

**12. “Mashrabman” g‘azali qaysi misra bilan boshlanadi?**

- A) Sanamning ishqida tinmay yugurib, ovvora Mashrabman...
- B) Muhabbat dashtida yurgan bo‘lub ovvora Mashrabman...
- C) Ko‘zimdin qon yoshim tinmay oqar, xunbora Mashrabman...
- D) Ko‘zi yoshlig‘, qadi hamlig‘, dili sadpora Mashrabman...
- E) Namozu ro‘zadan forig‘ bo‘lib sayyora Mashrabman...

**13. Lomakonning shahrini bir ho‘ bila sayr ayladim,**

**Jabrail, borg‘il nari, boli parimni kavlama...**

Mashrab g‘azlidan olingan ushbu baytda Jabrail kim?

- A) ajal farishtasi
- B) Qur‘on oyatlarini Muhammad alayhis-salomga yetkazib turgan farishta
- C) gunoh va savoblarni o‘lchovchi farishta
- D) kishilarni ezgulikka chorlovchi farishta
- E) B va D

**14. Huvaydo she’riyati mazmun mohiyati va g‘oyaviy yo‘nalishi jihatdan qaysi shoir ijodiga yaqin turadi?**

- A) Alisher Navoiy
- B) Jaloliddin Rumi
- C) Mavlono Lutfiy
- D) Boborahim Mashrab
- E) Sayyid Nasimiy

**15. Nigoro bori g‘am birla faqiri notavon aylab,**

**“Alif”dek qomatimni “lom-alif” yanglig‘ duto qilding...**

Xo‘janazar Huvaydodan olingan ushbu baytda “lom-alif” qanday ma‘noni anglatadi?

- A) ikkiga bo‘lib tashlamoq
- B) bukmoq
- C) qiynamoq
- D) ezmoq
- E) yanchimoq

**16. Quyidagi ifodalarning qaysi biri Huvaydoning “Sani ishqingdin, ey dilbar, ajab devonalar bo‘ldum” misrasi bilan boshlanadigan g‘azalida uchramaydi?**

- A) afsonalar
- B) begonalar
- C) parvonalar
- D) hayronalar
- E) ovoralar

**17. Mashrab va Huvaydo she'rlari-da uchraydigan Namrud kim?**

- A) qadimgi eron shohlaridan biri, Afrosiyobni aldab o'ldirgan
- B) afsonaviy zolim shoh, uning farmoni bilan Ibrohim Xalilulloh o'tga tashlangan
- C) Bobil hukmdorlaridan biri, Nuh payg'ambarning kemasini teshgan
- D) Chin mamlakatining qahrli hukmdori bo'lgan, uning hukmi bilan Budda dorga osilgan
- E) shaytoni lainning ikkinchi nomi

**18. "Bayoni g'addorii dunyo" hikoyatining bosh g'oyasi nimadan iborat?**

- A) har kim ekanini o'radi.
- B) mehnatsiz topilgan boylik vafo qilmaydi.
- C) yomonlik qilmaslikka va rahmdil bo'lishga da'vat
- D) aka-ukalarni ahillikka chaqirish
- E) mol-dunyoga, boylikka hirs qo'ymaslikka da'vat

**19. Muhammad Sharif Gulxaniy yana qaysi taxallus bilan ijod etgan?**

- A) Rind
- B) Zinda
- C) Mahdiy
- D) Jur'at
- E) Kamiy

**20. Gulxaniy she'rlari asosan qaysi manba orqali bizgacha yetib kelgan?**

- A) Fazliyning "Majmuai shoiron" tazkirasi orqali
- B) Davlatshoh Samarqandiyning "Majmuat-ush shuaro" tazkirasi
- C) Narshaxiyning tarixiy kitoblari orqali
- D) she'riyat muxlislari tomonidan tuzilgan bayozlar orqali
- E) Hapalak qishlog'idan topilgan devon orqali

**21. "Zarbulmasal" asaridagi Yapaloqqush va Boyqushlar qanday shaxslar timsoli hisoblanadi?**

- A) bosqinchi, zolim xonlar timsoli
- B) takabbur, maqtanchoq, qurumsoq amaldorlar timsoli
- C) aldamchi, firibgar tabiblar timsoli
- D) poraxo'r, berahm mirshablar timsoli
- E) shafqatsiz jallodlar timsoli

**22. Xalq maqollari o‘zbek adabiyotining qaysi asarlarida ko‘proq uchraydi?**

- A) “Qutadg‘u bilig”, “Majolis un-nafois”
- B) “Hibat-ul haqoyiq”, “Rohati dil”
- C) “Mezon ul- avzon”, “Turkiy guliston yoxud axloq”
- D) “Devonu lug‘otit turk”, “Zarbulmasal”
- E) “Zarbulmasal”, “Bayoni g‘addorii dunyo”

**23. Hech kishi olamda mendek tolibi non o‘lmasun,  
Non so‘rog‘ida xaloyiq ichra sarson o‘lmasun.**

Ushbu bayt kimning qalamiga mansub?

- A) Turdi
- B) Muqrim Obid
- C) Mashrab
- D) Gulxaniy
- E) Maxmur

**24. Maxmur asarlari to‘g‘ri sanalgan javobni aniqlang:**

- A) “Hakim Turobiy”, “Afsonaman”, “Hajvi Viktor boy”, “To‘y”
- B) “Hapalak”, “Moskovchi boy”, “Tanobchilar”, “Hakim Turobiy tilidan”
- C) “Hapalak”, “Qozi Muhammad Rajab Avj”, “To‘yi Iqon bachcha”
- D) “Tuya bilan bo‘taloq”, “Maymun bilan najjor”, “Hapalak”
- E) “Hakim Turobiy haqida”, “Qozi Muhammad Rajab Avj”, “Takabbur”

**25. “Firdavs ul-iqbol” tarixiy asari kimlar tomonidan yaratilgan?**

- A) Shermuhammad Munis, Ogahiy
- B) Ogahiy, Bayoniy
- C) Munis, Komil Xorazmiy
- D) Feruz va Komil Xorazmiy
- E) Narshaxiy va Hofiz Tanish

**26. “Munis-ul ushshoq” devonida shoir o‘z she‘rlarining hajmini necha baytdan iborat deb ta’kidlaydi?**

- A) 25 ming bayt
- B) 50 ming bayt
- C) 10 ming bayt
- D) 6 ming bayt
- E) 5 ming bayt

**27. “Arnalar” asarining muallifi kim va u nimaga ba-g‘ishlangan?**

- A) Ogahiyniki, iqtisodiy masalalarga bag‘ishlangan
- B) Ogahiyniki, soliq masalalariga
- C) Munisniki, sug‘orish tizimiga bag‘ishlangan
- D) Avaz O‘tarniki, shariat qoidalariga bag‘ishlangan
- E) Komil Xorazmiyniki, davlat ishlariga bag‘ishlangan

**28. Amaki-jiyan shoirlar nomi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Munis, Avaz O‘tar
- B) Komil Xorazmiy, Mujrim Obid
- C) Haydar Xorazmiy va Hofiz Xorazmiy
- D) Munis, Ogahiy
- E) Mashrab, Huvaydo

**29. Ogahiyning mashhur “Mushkin qoshining...” so‘zlari bilan boshlanuvchi g‘azali matla’sida “nun” va “sod” harflari qo‘shilib “nas” so‘zini keltirib chiqaradi. U qanday ma’noni bildiradi?**

- A) o‘lim
- B) hukm
- C) azob
- D) jazo
- E) qiyomat

**30. Ogahiy Navoiyning nechta g‘azaliga muhammas bog‘lagan?**

- A) 30 ta
- B) 83 ta
- C) 56 ta
- D) 60 ta
- E) 10 ta

**31. Boshimga yoqqan g‘am toshin mingdan biricha bo‘lmagay,**

**Gardun agar ming Besutun yog‘dirsa Farhod ustina.**

Ogahiydan olingan ushbu bayt-dagi “Besutun” so‘zi nimani anglatadi?

- A) Arabistondagi afsonaviy tog‘
- B) Iskandar oshib o‘tgan mashhur afsonaviy tog‘
- C) Farhod qazigan afsonaviy tog‘
- D) Kirmonshoh yaqinidagi qadimgi mixxat yozuvlari naqshlangan tog‘
- E) C va D

**32. Ogahiyning tarixiy asarlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) “Firdavs ul-iqbol”, “Ahloqi Muhsiniy”, “Zubdat ut-tavorix”
- B) “Firdavs ul-iqbol”, “Riyoz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”
- C) “Munis ul-ushshoq”, “Firdavs ul-iqbol”, “Ravzat us-safo”
- D) “Riyoz ud-davla”, “Jome’ ul-voqeot”, “Zafarnoma”
- E) “Tarixi muluki Ajam”, “Firdavs-ul iqbol”, “Riyoz ud-davla”

## 10-DARS

### O‘ZBEK SHOIRALARI

**Darsning maqsadi:** talabalarga XVIII – XIX asrlarda yashab ijod qilgan shoirlar hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.

**Reja:**

1. Nodira hayoti va ijodi.
2. Jahon Otin Uvaysiy hayoti va ijodi.
3. Dilshod Barno hayoti va ijodi.

**Tayanch tushunchalar:** Nodirabegim (Mohlaroyim), Jahon Otin Uvaysiy, Dilshod Barno, lirik shariyat.

### NODIRA (MOHLAROYIM)

(1792 - 1842)



Sharq mumtoz adabiyoti o‘zining Robiha, Ismatiy, Oysha, Mahastiy Xo‘jandiy, Mutriba, Gulbadanbegim, Gulchehrabegim, Zebunniso, Mahzuna, Notavon, Muazzamxon, Uvaysiy va boshqa o‘nlab shoirlari bilan ham mashhurdir.

1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga kelgan, o‘z ijodida adolat, saxovat, muruvvat g‘oyalarini ilgari surgan Nodirabegim ana shunday shoiralardan biridir. U 1808-yilda Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy o‘g‘li Umarxon bilan turmush qurib, dastlabki ikki yil Marg‘ilonda, 1810-yildan umrining oxirigacha Qo‘qonda yashadi. Nodirabegim hayotining so‘nggi nafasigacha umr yo‘ldoshi Umarxonni ham, uning o‘rniga 1822-yilda taxtga o‘tirgan o‘g‘li Muhammadalixonni ham xalqparvarlik va adolatparvarlikka chaqirdi, mamlakatni tinch-totuvlik bilan, oqillik bilan boshqarishga da’vat etdi, she’rlarida ham xuddi shu g‘oyalarni ilgari surdi. Tarixchi Xotifning ta’kidlaganidek, “Aqlu donish va yaxshi fazilatlari bilan yagona nodirai davron” 1842-yilda amir Nasrullo tomonidan o‘g‘li Muhammad Ali, nevarasi Muhammad Amin bilan birga qatl etildi.

Nodirabegim **Komila**, **Maknuna** taxalluslari bilan forsiy va turkiy tillarda go‘zal she’rlar bitdi. Uning lirikasida ishq-muhabbat, ilm-ma’rifat, insonparvarlik, xalq osoyishtaligi mavzulari yetakchilik qiladi.

## JAHON OTIN UVAYSIY

(1779 - 1845)



Jahon otin Uvaysiy XVIII asrning 80-yillarida Marg‘ilonning Childuxtaron mahallasida tavallud topgan. Bo‘lajak shoiraning kamol topishida onasi Chinnibibining, akasi Oxunjonlarning ta’siri kuchli bo‘lgan Jahon otinni Marg‘ilonlik Hojixon ismli kosibga turmushga uzatadilar, biroq Hojixon barvaqt vafot etib, shoira qizi Quyosh va o‘g‘li Muhammadxonlar bilan yolg‘iz qoladi. Nodirabegim Umarxon bilan Qo‘qonga kelgach, Uvaysiyni ham saroyga chaqirib oladi, ammo Umarxon vafotidan so‘ng, Ma‘dalixon davrida shoiraning ahvoli bir oz yomonlashadi va Marg‘ilonga qaytib keladi. Xokiy taxallusi bilan she‘rlar yozuvchi qizi Quyosh vafot etadi, o‘g‘li Muhammadxonni Ma‘dalixon Qashqarga askar sifatida urushga jo‘natib yuboradi. Og‘ir judoliklarga bardosh berolmagan shoira 65 yoshida Marg‘ilonda vafot etadi.

Uvaysiyning shoira chevarasi Xoljon otin (Mag‘ziy) xonadonidan shoiraning 403 betli she‘riy devoni topilgan. Unda g‘azal, muhammas, musaddas, murabba’ janrlarida bitilgan 350 ga yaqin she‘rlar, shahzoda Hasan va Husan haqidagi dostonlar (“Karbalonoma”) hamda tugallanmagan “Voqeoti Muhammadalixon” dostonlari bor.

Uvaysiy lirikasinining asosiy g‘oyasini pokiza muhabbat va sadoqatni ulug‘lash, zamona nosozligidan norozilik, achchiq qismatdan shikoyat tashkil etadi. Shoira chiston janrida ham barakali ijod etdi. Uning “Anor” chistoni mumtoz adbiyotimizning eng latif, go‘zal namunalaridan biri hisoblanadi.

## **DILSHOD BARNO**

**(1800 – 1905)**

Dilshod Barno 1800-yilda Istaravshan (hozirgi Tojikistonning O‘ratepa tumani) shahrida tug‘ildi. Ota-onasidan barvaqt judo bo‘lgan shoira 90 yoshli buvisi bilan bir amallab kun kechiradi. 1816-1817-yillarda Qo‘qon xoni Umarxon O‘ratepani bosib olib, uni o‘z tasarrufiga qo‘shish uchun qo‘shin tortib boradi va juda ko‘p kishilarni asir olib keladi. Ular orasida Dilshod ham bor edi. Dilshodni xon haramiga keltirishadi, uning shoiraligidan xabardor bo‘lgan Umarxon Dilshodni nozik savol bilan sinab ko‘rmoqchi bo‘ladi, qo‘lidagi anorni ko‘rsatib:

- Ushbu anorga ne deyursan? - deb so‘raydi.

- Qizlar xunidin to‘ldiribsan, - javob beradi shoira.

Bu javobdan darg‘azab bo‘lgan xon uni saroydan quvib chiqarishni buyuradi. Dilshod Barno qo‘qonlik Tosh Maxdumga turmushga chiqadi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Shoiraning o‘zbek va tojik tillarida yozilgan 142 she‘ri, “Tarixi muhojiron” va “Tarjimai hol” asarlari saqlanib qolgan. “Tarjimai hol” asarida shoira O‘ratepaning Umarxon tomonidan bosib olinishi, asirga olingan ko‘plab kishilarning Qo‘qonga haydab kelinishi, keyinchalik esa ularning to‘qayzordan o‘zlariga kulba qurib olishlari kabi voqealar bayon etiladi, Umarxon zolim shoh sifatida qoralanadi.

## **ANBAR OTIN**

**(1870 - 1906)**

Anbar Otin 1870-yilda Qo‘qonda tug‘ildi. Nozikta‘b, zukko Anbar Otin yoshligidan Dilshod Barno qo‘lida she‘riyatdan saboq oldi. Dilshod Barno o‘zining “Tarixi muhojiron” asarida uning iste‘dodi va kelajagiga katta umid bog‘lagan va ta‘riflagan edi.

O‘n to‘rt yoshli Anbar Otinni o‘ratepalik nonvoy yigit Zohidxo‘jaga turmushga uzatadilar. Ma‘rifatli yigit uning dardlariga hamdard bo‘lishga, orzu va intilishlariga ko‘makdosh bo‘lishga harakat qiladi. Anbar Otin she‘riyatda momosi Uvaysiy izidan bordi, xalq qalbidagi dard-alamlarni kuyladi.

Anbar Otin Sharq ayollarining og‘ir qismati haqidagi “Qoralar falsafasi” va bolalarning savod chiqarishi uchun mo‘ljallangan “Alifbo” kitoblarini yozdi.

### **Savollar:**

1. Nodirabegim hayoti haqida nima bilasiz?
2. Jahon Otin Uvaysiy asarlarida qanday mavzu ko'tarilgan?
3. Dilshod Barno lirikasi haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Nodirabegimning lirik asarlari bilan tanishib, unda ko'tarilgan mavzular haqida ma'lumot bering.
2. Jahon Otin shariyati haqida gapirib bering.
3. Anbar Otin shariyatida ko'tarilgan mavzular gapirib bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

#### **1. Nodirabegim qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?**

- A) Muazzam, Komila
- B) Sittixonim, Maknuna
- C) Ismatiy, Oyishabegim
- D) Notavon, Munzima
- E) Komila, Maknuna

#### **2. Nodirabegim Umarxonga qaysi yil turmushga chiqqan?**

- A) 1810     B) 1808     C) 1824     D) 1820     E) 1814

#### **3. Nodirabegimni “aqlu donish va yaxshi fazilatlari bilan “yagona nodirai davron” deya ta’riflagan kim edi?**

- A) Uvaysiy
- B) Anbar Otin
- C) Narshaxiy
- D) Xotif
- E) Fazliy

#### **4. “Analhaq” mojarosini aylading fosh,**

**Kel ey, Mansur, istiqboli dor et.**

#### **Nodira g‘azalidan olingan ushbu baytda qaysi voqeaga ishora qiladi?**

- A) Abu Mansur Daqiqiyning sodiq quli tomonidan o‘ldirilishini
- B) Mansur Nishopuriyning dorga osilishini
- C) Mansur Hallojning “Analhaq” (Men Allohman) so‘zi uchun dorga osilishini
- D) Amir Nasrullo tomonidan nevarasi Muhammad Aminning dorga osilishini
- E) O‘g‘li Muhammad Aminning Nasrullo tomonidan dorga osilishini

#### **5. Zohido, ishqu muhabbat ahlini ma’zur tut,**

**Yor ko‘yida na bo‘ldi shayx San‘on oqibat.**

**Nodirabegim g‘azalidan olingan ushbu baytdagi shayx San‘on nomi yana kimning qaysi asarida uchraydi?**

- A) Xoja, “Miftoh ul-adl”
- B) Vosifiy, “Badoe’ ul-vaqoe”
- C) Jomiy, “Bahoriston”
- D) A. Navoiy, “Lison ut-tayr”
- E) Xoja Ahrori Valiy, “Volidiya”

**6. Jahonotinning shoiri qizi va o‘g‘li qo‘llagan taxalluslari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Mag‘ziy, Soqib
- B) Xokiy, Majnun
- C) Mutriba, Sayyid
- D) Quyosh, Mahdiy
- E) Komila, Rind

**7. Uvaysiyning “Karbonoma” asarida kimlarning fojiasi haqida hikoya qilinadi?**

- A) Mansur Halloj, Ibrohim Ad-ham
- B) Ibrohim Halilulloh va Ismoil
- C) Hazrat Ali o‘g‘illari Hasan va Husan
- D) Sayyid Nasimiy va Mashrab
- E) Nodiraning o‘g‘li va nevarasi

**8. Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar,  
Arz to samo uzra mojaru Uvaysiyman.**

Uvaysiy g‘azalidan keltirilgan ushbu baytdagi “kavokib” so‘zi qanday ma‘noni anglatadi va u nimaga o‘xshatilmoqda?

- A) quyosh, yorning yuziga o‘xshatilmoqda
- B) yulduzlar, ko‘z yoshlariga o‘xshatilmoqda
- C) hilol (oy), yorning qoshiga o‘xshatilmoqda
- D) tik o‘suvi daraxt, yor qaddiga o‘xshatilmoqda
- E) bulbul, bag‘ri qon oshiqqa o‘xshatilmoqda

**9. “Tarixi muhojiron” (“Muhojirlar tarixi”) asarining muallifi kim?**

- A) Anbar Otin
- B) Uvaysiy
- C) Nodirabegim
- D) Dilshod Barno
- E) Komila

**10. Anbar Otin qaysi shoiri qo‘lida saboq oldi?**

- A) Uvaysiy
- B) Nodira
- C) Muazzamxon
- D) Sittixonim
- E) Dilshod Barno

## 11-DARS

### XIX ASR IKKINCHI YARMI O‘ZBEK ADABIYOTI

**Darsning maqsadi:** Talabalarga XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan shoir va yozuvchilar hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

#### Reja:

1. Komil Xorazmiy hayoti va ijodi.
2. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy hayoti va ijodi.
3. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat hayoti va ijodi.

**Tayanch tushunchalar:** Komil Xorazmiy, Muhammad Aminxo'ja Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Zavqiy.

### KOMIL XORAZMIY

(1825-1899)



Muhammadniyoz Komil Xorazmiy XIX asr ikkinchi yarmi o'zbek madaniy hayotida o'ziga xos sezilarli iz qoldirgan shoir, xattot, musiqashunos, tarjimon va davlat arbobidir.

Adib 1825-yilda Xevada ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Otasidan erta ajralib bobosi Xo'jash mahram qo'lida tarbiyalanadi va o'z davriga xos chuqur bilim oladi. Arab, fors tillarini mukammal egallaydi, turli bilimlar sohibi bo'ladi. 25-30 yoshidayoq xalq orasida shoir sifatida nom qozonadi. U haqdagi dastlabki ma'lumot

Ogahiyning “Gulshani davlat” kitobida uchraydi. 1856-yilda Xeva xoni Said Muhammad Rahimxon uni saroyga jalb etadi. Said Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) taxtni egallagandan so‘ng Komil Xorazmiy xattotlar boshlig‘i - mirzaboshi vazifasiga ko‘tariladi. Xeva uchun tahlikali yilda unga eng mas‘uliyatli vazifalardan biri - devonbegilik topshiriladi.

Komil Xorazmiy umrining oxiriga qadar she‘riyat, xattotlik, musiqa bilan mashg‘ul bo‘ldi. Rusiyaning katta shaharlari, Afg‘onistonda safarlarda bo‘ldi. U Xevada 1899-yilda 74 yoshida vafot etdi. Shoirdan she‘riy devon, birinchi o‘zbek notasi bo‘lmish “Tanbur notasi” (musiqachilik sohasidagi ishlarini o‘g‘li Muhammad Rasul davom ettirib “Xorazm shashmaqomi”ning hammasini notaga ko‘chiradi), tarjimalaridan Barxurdor bin Mahmud turkman Faroqiy (taxallusi Mumtoz) qalamiga mansub “Mahbub ul-qulub” (xalq orasida “Mahfil oro”), Faxriddin Alii Safiyning “Latoyif at-tavoyif” hamda boshqa asarlar bizga meros qolgan.

## **MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY**

**(1850 - 1903)**



Muqimiy 1850-yilda Qo‘qonning Bekvachcha mahallasida nonvoy oilasida tug‘ildi. Otasi Mirzaxo‘ja Mirfozil o‘g‘li asli toshkentlik bo‘lib, 1835-1836-yillarda Qo‘qonga ko‘chib kelib qolgan edi.

Muhammad Aminxo‘ja dastlab eski maktabda, keyin Qo‘qon va Buxoro madrasalarida tahsil ko‘rdi. 1876-yilda Buxoro madrasasini

tugatib kelib, yer qurilishi mahkamasiga ishga kirdi. Mahkamadagi amaldorlarning razilligi, pastkashligi, poraxoʻrligini oʻz koʻzi bilan koʻrgan Muqimiy keyinchalik ana shu razolatni fosh etuvchi mashhur “Tanobchilar” hajvijasini yaratdi. Muqimiy mahkamada uzoq ishlab qololmadi, Sirdaryo boʻyidagi Oqjar paromiga pattachi boʻlib ishga kirdi. Oqjar xalqining qashshoq turmushi, ayanchli hayoti shoirni chuqur iztirobga soldi, “Oqjar kishilari haqidagi muhammas” sheʼrida ana shular oʻz ifodasini topdi. Biroq shoirning oʻz hayoti, qismati oqjarliklarnikidan ayanchliroq edi. Oilaviy hayotda birin-ketin baxtsizliklar roʻy berdi: xotini Sanambibi shoirdan ajralib, boshqa turmush qurib ketdi, oilani zoʻrgʻa tebratib turgan otasi Mirzaxoʻja olamdan koʻz yumdi.

Muqimiy ham moddiy, ham maʼnaviy azoblarga bardosh berishga majbur edi. Siquq muhitdan bir oz boʻlsa-da, qutulish maqsadida 1887 yilda Toshkentga borishga qaror qildi. Toshkentdagi adabiy doiralar, ayniqsa, Almaiy, Nodim singari shoirlar bilan tanishuv, goʻzal suhbatlar shoir yuragidagi chigallarni bir oz yozganday boʻldi. Muqimiy keyinchalik 1892 va 1899-yillarda Toshkentga yana ikki marta kelib ketdi. Toshkent sayohatlari shoirning qalb dardlariga malham boʻlib, unga maʼnaviy quvvat bagʻishlagan boʻlsa-da, turmush mashaqqatlari uni hamon qiynar edi. Shu bois otasidan qolgan bir parcha hovlini sotib, shu bilan oilani halokatdan saqlab qolishga majbur boʻldi. Oʻgay ona qizlarinikidan panoh topdi, oʻzi esa madrasa hujralaridan birini ijaraga olib, umrining oxirigacha shu yerda muhtojlikda hayot kechirdi. 1903-yilning 25 mayida qattiq oʻpka shamollashidan olamdan koʻz yumdi.

Demokratik yoʻnalishdagi oʻzbek adabiyotida Muqimiy ham lirik, ham satirik shoir sifatida nom qoldirdi, gʻazal, murabbaʼ, muhammas janrlarida oʻlmas asarlar yaratdi. Shoir devonidan oʻrin olgan 21 murabbaʼ oʻzining xalqchilligi va ohangdorligi, yuksak badiiy sanʼati bilan ajralib turadi. Muqimiy lirikasining bosh gʻoyaviy yoʻnalishini “kajraftor” (teskari) dunyoning adolatsizliklaridan, taqdirining ayanchliligi, toleining pastligidan shikoyat tashkil etadi. “Toleim”, “Shunchalar”, “Axtaring”, “Kim desun”, “Navbahor” sheʼrlarida buni yaqqol koʻrish mumkin:

Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor emish,  
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zogʻlar...

Podshoh yoʻqlatsalar, nogoh, gado deb axtaring,

Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring...

Muqimiy o'zbek adabiyotida "Sayohatnoma" janriga asos soldi. Uning "Sayohatnoma"si xalq orasida keng tarqalib, shuhrat qozonib ketdi. "Sayohatnoma" yozish an'anasi Zavqiy, Sobir Abdulla ijodida ham davom ettirildi.

"Tanobchilar", "Dodxohim", "Maskovchi boy ta'rifida", "Aroba", "Loy", "Ko'samen", "Ot", "Shikoyati bezgak" kabi hajviya va mutoyibalarida shoir o'z zamonasidagi razil va poraxo'r amaldorlarning jirkanch qiyofalarini fosh etadi, ijtimoiy hayotdagi ayrim illatlarni kulgi ostiga oladi.

## **ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LI FURQAT**

**(1959-1909)**

Demokratik yo'nalishdagi o'zbek adabiyotida ham lirik, ham ma'rifatparvarlik yo'nalishlarining asoschilaridan biri sifatida nom qoldirgan Zokirjon Furqat 1859-yilda Qo'qon shahrida tavallud topdi. Olti yoshidan mahallasidagi Muhammad Olim qo'lida tahsil olib, Attorning "Mantiq-ut tayr" va Navoiy devoni bilan tanishadi, Fuzuliy ijodiga ishq qo'yadi. 1871-72- yillar Qo'qondagi Masjidi Jome' mudarrisi Poshshoho'ja eshondan arab tilidan saboq oladi, 14 yoshida madrasaga o'qishga kiradi. Qo'qon xonligidagi ichki ziddiyatlar tufayli madrasa yopiladi. 1876-yilda esa Qo'qon xonligi tugatilib, markazi Marg'ilon bo'lgan Farg'ona viloyati tashkil etiladi. Tog'asining taklifi bilan Zokirjon Yangi Marg'ilonga borib, do'kon ishlarida unga yordamlashib turadi, keyinchalik o'zi ham do'kon ochadi. 1880-yilda esa otasi yoniga qaytadi va Muqimiy boshliq Qo'qon adabiy muhitiga qo'shiladi, 20 yoshlarida yetuk shoir sifatida nom qozonadi.

- 1889-yil boshlarida Furqat Toshkentga boradi, u yerda Ko'kaldosh madrasasidan bir hujrani ijaraga olib, yashay boshlaydi. Toshkentdagi hayot uning dunyoqarashi va ijodining shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. "Turkiston viloyati gazetisi" muharriri N. Ostroumov, tarixchi va tilshunos V.Nalivkinlar bilan tanishadi, gazeta tarjimoni betob bo'lib qolganligi tufayli Furqat "Turkiston viloyati gazetisi"ga ishga kiradi.

- 1891-yil o'rtalarida Furqat Samarqand, Marv, Krasnovodsk orqali Bokuga, so'ng Istambulga, 1892-yil boshlarida Bolgariya va

Gresiyaga, arab mamlakatlari orqali Bombayga keladi. Bombaydan Kashmirga borgan Furqat Tibet orqali Yorkentga keladi va umrining oxiriga qadar shu yerda turg'un yashab qoladi.

- Furqat Yorkentda ona yurti, yoru-birodarlaridan olisda yashasa-da, ular bilan aloqasini uzmas, “Turkiston viloyati gazetasi”ga she’rlari, maqolalarini yuborib turdi, badiiy ijod bilan birga, tabobat bilan ham shug’ullandi. Bu yerda u Yonaxon ismli uyg’ur qizga uylanib, undan uch farzand – Nozimjon, Hakimjon va Nodirjon ismli o’g’illar ko’rdi.

- Shoir og’ir kasallikdan so’ng 1909-yilning kuzida vafot etdi. Uni Yorkentning Dongdor mahallasidagi qabristonga dafn etdilar.

Furqat ijodining asosiy qismini uning g’azal, marabba’, mustazod, muhammas va musaddas janrlaridagi hamda masnaviydagi she’rlari tashkil etadi. Shoir lirikasining bosh mavzulari hayot va tabiat go’zalliklariga oshuhtalik, Vatan sog’inchi, erkinlik va ozodlikni ulug’lashdan iborat.


Shoir o’zining “Fasli navbahor”, “Fasli guldir”, “Bahor ayyomida”, “Istar ko’ngul” kabi she’rlarida hayot go’zalliklarini tarannum etadi, “Adashganman”, “Bir qamar siymoni ko’rdim” she’rlarida esa begona yurtlarda darbadar kezib yurgan lirik qahramonning chuqur iztiroblari, vatanga bo’lgan samimiy muhabbati kuylanadi.

Furqatning qullik va haqsizlikka nafrati, erkin va ozod hayot haqidagi orzu-istaklari uning “Sayding qo’ya ber, sayyod” musaddasida yorqin ifodasini topgan. She’r o’zbek she’riyatining eng go’zal namunalaridan biri hisoblanadi. Shoir unda zulm va zo’ravonlik, adolatsizlik timsoli sifatida sayyod (ovchi) erki, huquqidan mahrum bo’lgan insoniy qadr qimmatini toptalgan inson sifatida sayd (ohu) obrazini beradi, zulm va jafodan bag’ri sadpora bo’lgan saydga achinish va mehr bilan qaraydi, sayyodni esa yovuz kuch sifatida qoralaydi.

Furqat faqat lirik she’rlar yozibgina qolmay, “Yunon mulkida bir afsona”, “Bir mojaro”, “Suvorov xaqida” dostonlari hamda “Furqatnoma” (“Sarguzashtnoma”) memuar asarini, qator publitsistik maqolalarni yaratdi, “Nuh manzar”, “Chor darvesh” kabi asarlarni forsiydan turkiyga tarjima qildi.

## UBAYDULLA ZAVQIY

(1853-1921)



Ubaydulla usta Solih o'g'li Zavqiy demokratik yo'nalishdagi o'zbek adabiyotiga o'zining lirik va o'tkir hajviy she'rlari bilan hissa qo'shgan shoirdir. U 1853-yilda Qo'qonning Shayxon dahasida hunarmand oilasida tug'ildi. Boshlang'ich ma'lumotni maktabda olgan Ubaydulla tog'asi Muhammad Siddiq yordamida Qo'qondagi "Madrasai oliy" va "Madrasai Chalpak"da tahsil ko'rdi. Oilaviy turmushining nihoyatda nochorligi (onasi vafot etgan, otasi esa falaj bo'lib, to'shakka mixlanib qolgan edi) tufayli Ubaydulla madrasani tark etib, biror tirikchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Bu paytda Zavqiy taxallusli shoir sifatida ancha tanilib qolgan edi. Qo'qondagi poyafzal rastalarining xo'jayini Mo'minboy uni mirzolik vazifasiga ishga oladi, xizmat vazifasi bilan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xo'jand va boshqa qator shaharlarda bo'lgan shoir xalq hayoti bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

1898-yilda Zavqiy birin-ketin hayot zarbalariga duchor bo'ladi: uzoq vaqt bemor yotgan otasi, ikki ukasi vafot etadi, umr yo'ldoshi Tojibibining ikki ko'zi ojiz bo'lib, o'tirib qoladi. Ana shu baxtsizlikdan yuragi qon bo'lgan shoir bir oz bo'lsa-da, siqilgan yuragini yozish maqsadida Muqimiy bilan birga Farg'ona vodiysi bo'yicha safarga chiqadi, Andijon va O'shda shoir do'stlari Muntazir va Bimiylar bilan uchrashadi. 1900-yilda Zavqiy tog'asi Muhammad Siddiq bilan Arabistonga sayohat qiladi. Uch yil davom etgan sayohatdan qaytib kelganda, uning eng aziz do'sti Muqimiy vafot etgan, Furqat esa Yorkentga ketib qolgan edi.

Shoir 1921-yilning yoz oylarida o'zi tug'ilgan qishloqda vafot etadi. Jo'shqin muhabbat va go'zallikni kuylovchi ishqiy hamda baxtli

kelajakka umid ruhi bilan sugʻorilgan siyosiy lirika Zavqiy ijodida salmoqli oʻrin egallaydi. Uning kamtarlik va kamsuqumlikka, qadr-qimmatini saqlash, oʻrnini bilib soʻzlash, manmanlik va takabburlikdan qochishga daʼvat etuvchi “Nazokat orttiray desang” gʻazali, Vatan istiqboli haqidagi orzular tarannum etilgan “Ajab ermas” muhammasi shoir ijodining eng goʻzal namunalari hisoblanadi.

Zavqiy oʻz hajviyalarida shoir doʻsti Muqimiy kabi inson qadr-qimmatini faqat boylik, pul bilan oʻlchanadigan zamonaning, ana shu boylik yoʻlida har qanday tubanlikka boruvchi, vijdon yuziga tupurib qoʻygan shaxslarning haqiqiy qiyofalarini ochib tashlaydi:

Sheʼr eshitmaydi birov, davron qulogʻi kar anga,  
Bir hovuch oltin, kumushning xushjarang ovozi boʻl...

Shoir hajviyotida 1904-1905-yillarda yozilgan, Qoʻqondagi 46 nafar rasta boylarini hajv qilgan “Hajvi ahli rasta” sheʼri alohida oʻrin egallaydi. Zavqiy sheʼrni yirik harflar bilan katta qogʻozga koʻchirib, shaharning eng gavjum Moʻymarak saylgohidagi terakka osib qoʻyadi. Sheʼrda Qoʻqonning manaman degan boy va savdogarlari nom-banom oʻtkir hajv qamchisi ostiga olingan edi. Ular shoir ustidan yuqoriga arz qiladilar, nihoyat uzoq davom etgan tergovdan soʻng, shoir 300 soʻm jarima toʻlab, qamoq jazosidan qutulib qoladi.

#### **Savollar:**

1. Komil Xorazmiy hayoti haqida nima bilasiz?
2. Furqat asarlarida qanday mavzu koʻtarilgan?
3. Muqimiy lirikasi haqida nimalarni bilasiz?

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Furqat asarlari bilan tanishib, unda koʻtarilgan mavzular haqida maʼlumot bering.
2. Muqimiy shariyati haqida gapirib bering.
3. Zavqiy shariyatida koʻtarilgan mavzular gapirib bering.

#### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

1. **“Muqimiy” taxallusining maʼnosini aniqlang.**  
A) mehribon, gʻamxoʻr  
B) ayriliq, judolik  
C) bir joyda turgʻun yashovchi  
D) vafodor, sadoqatli  
E) yashirin, sirli

**2. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari qaysi davr adabiyotida yetakchilik qilgan?**

- A) XIII-XIV asrlar adabiyotida
- B) XIX asr oxiri XX asr boshlari adabiyotida
- C) XV-XVI asrlar adabiyotida
- D) XX asr boshlari adabiyotida
- E) B va D javoblari to‘g‘ri

**3. Muqimiyning tug‘ilgan va vafot etgan yillari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javob qaysi?**

- A) 1889-1909
- B) 1850-1903
- C) 1858-1909
- D) 1860-1900
- E) 1870-1910

**4. Muqimiy lirik merosini asosan qaysi janrdagi she’rlar tashkil etadi?**

- A) g‘azal, murabba, muhammas
- B) g‘azal, ruboiy, tuyuq
- C) g‘azal, musaddas, musabba’
- D) g‘azal, chiston, ruboiy
- E) g‘azal, fard, qit’a

**5. Muqimiy devonidan nechta murabba’ o‘rin olgan?**

- A) 46 ta
- B) 52 ta
- C) 21 ta
- D) 48 ta
- E) 27 ta

**6. Muqimiy lirikasining yetakchi mavzulari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) zolim xonlarni qoralash, adolatni ulug‘lash
- B) pokiza sevgisini ulug‘lash, ezgulikka da’vat
- C) sevgi va sadoqatni ulug‘lash, adolatsiz zamonadan va taqdirdan shikoyat
- D) ma’rifatni ulug‘lash va ilm egallashga da’vat
- E) xalqni totuvlikka chorlash va do‘stlikni ulug‘lash

**7. Muqimiyning Toshkentga qilgan safarlari qaysi yillarga to‘g‘ri keladi?**

- A) 1888, 1890, 1892
- B) 1886, 1888, 1900
- C) 1889, 1900, 1903
- D) 1887, 1892, 1899

E) 1888, 1891, 1895

**8. Muqimiy Toshkentda uchrashgan shoirlar...**

- A) Fazliy, Shavkat
- B) Kamiy, Nodim
- C) Shavkat, Kamiy
- D) Almaiy, Nodim
- E) Toshxo‘ja Asiriy, Shoshiy

**9. Ul tag‘ofulpeshag‘a holi xarobim kim desun,  
Hajrida mundog‘ meni ko‘rgan azobim kim desun?**

Muqimiydan olingan ushbu baytdagi “tag‘ofulpesha” so‘zi ostida shoir kimni nazarda tutyapti?

- A) aldamchi yorni
- B) beparvo ma’shuqani
- C) zolim xonni
- D) berahm kishini
- E) teskari dunyoni

**10. Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,  
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog‘lar.**

Muqimiydan olingan ushbu baytda bulbul va zog‘lar qiyofasida kimlarning timsoli berilgan?

- A) oqil, dono va johil kishilar timsoli
- B) rahmdil va beshafqat kishilar timsoli
- C) hukmron sinf va mehnatkash xalq vakillari timsoli
- D) saxiy va baxilq kishilar timsoli
- E) aldamchi va rostgo‘y kishilar timsoli

**11. “Sayohatnoma” turkumini Muqimiydan tashqari yana qaysi shoirlar yaratgan?**

- A) Almaiy va Avaz O‘tar
- B) Furqat va Zavqiy
- C) Zavqiy va Sobir Abdulla
- D) Mavlaviy Yo‘ldosh va Kamiy
- E) Muqimiydan boshqa hech kim bu turkumda asar yozgan emas

**12. Poraxo‘r, ma’naviy pastkash amaldorlar obrazi Mu-qimiyning qaysi asarlarida berilgan?**

- A) “To‘y”, “Hajvi Viktor boy”
- B) “To‘yi Iqon bachcha”, “Moskovchi boy ta’rifida”
- C) “Voqeai Laxtin”, “Sayohatnoma”
- D) “Tanobchilar”, “Dodxohim”
- E) “Axtaring”, “Voqeai veksels”

**13. Furqat Toshkentda yaqin aloqa bog‘lagan va bir necha muddat ishlagan gazeta...**

- A) “Turkestanskije vedomosti”
- B) “Turkiston viloyati gazetasi”
- C) “Sadoi Turkiston”
- D) “Ishtirokiyun”
- E) “Sharq”

**14. Furqat lirikasining yetakchi g‘oyalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) adolatsiz tuzumdan shikoyat, sevgi va sadoqatni ulug‘lash
- B) ma’rifatparvarlik, mehnatsevarlikni ulug‘lash
- C) to‘g‘riso‘zlik, do‘stlik, mehnatsevarlikni ulug‘lash
- D) zolim xon va amaldorlariga nafrat, mehnatkash xalqqa muhabbat
- E) hayot va tabiat go‘zalliklariga oshuhtalik, vatan sog‘inchi, erkinlik va ozodlik, ma’rifatparvarlik

**15. “Sayding qo‘ya ber, sayyod” musaddasining bosh g‘oyasi nimadan iborat?**

- A) shaxs erkinligi va ozodligini ulug‘lash
- B) tabiat go‘zalliklariga oshuhtalik va hayotga muhabbat
- C) zolim xonlarga nafrat va mehnatkash xalqqa muhabbat
- D) ezgulikni ulug‘lash va yovuzlikni qoralash
- E) tabiatni asrash

**16. Zokirjon Furqat o‘zbek adabiyotida qanday yo‘nalishga asos soldi?**

- A) so‘fiylik
- B) jadidchilik
- C) realistik
- D) tasavvuf
- E) ma’rifatparvarlik

**17. Charxi kajraftorning bir shevasidin dog‘men,  
Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur.**

Furqat g‘azalidan olingan ushbu baytda qaysi tasviriy vosita qo‘llanilgan?

- A) tanosib
- B) talmeh
- C) tashxis
- D) tazod
- E) tashbeh

**18. Zavqiyning qo‘qonlik 46 nafar boyni o‘tkir hajv ostiga olgan she‘ri qanday nomlanadi?**

- A) “Tanobchilar”
- B) “Moskovchi boy ta’rifida”

- C) “Hajvi Viktor boy”
- D) “Bo‘l”
- E) “Hajvi ahli rasta”

**19. Zavqiyning vatan istiqboli haqida yozgan, umidbaxsh ruh bilan sug‘orilgan she’ri...**

- A) “Ajab ermas”
- B) “Farg‘ona”
- C) “Adashganman”
- D) “Sayohatnoma”
- E) “Navbahor”

**20. Nazokat ortturay desang, misoli g‘uncha xomush bo‘l,  
Nadinkim og‘zini to ochdi gul, bargi xazon bo‘ldi.**

Zavqiy g‘azalidan olingan ushbu baytda qaysi badiiy san’at qo‘llanilgan?

- A) talmeh
- B) istiora
- C) tashxis
- D) tazod
- E) husni ta’lil

## 12-DARS

### MILLIY UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI

**Darsning maqsadi:** Talabalarga milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti va shu davrda yashab ijod qilgan shoir va yozuvchilar hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.

#### Reja:

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi.
2. Abdulla Avloniy hayoti va ijodi.
3. Abdulhamid Cho‘lpon hayoti va ijodi.
4. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi.

**Tayanch tushunchalar:** Jadid adabiyoti, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat.



- Milliy uygʻonish davri adabiyotining shakllanishi XIX asr oxiri - XX asr boshlariga toʻgʻri keladi. Bu davrda turk, tatar, ozarbayjon, rus adabiyoti taʼsirida roman, hikoya, drama, publitsistika janrlari paydo boʻldi. Sheʼriyatda anʼnaviy aruz vazni qatoridan barmoq, keyinchalik sarbast (30-yillar) vaznlari mustahkam oʻrin oldi.

- Milliy uygʻonish davri adabiyotining shakllanishini jadidchilik harakatisiz tasavvur etib boʻlmaydi. Qrim-tatar xalqining buyuk farzandi Ismoil Gʻaspirali (Gasprinskiy) taʼsirida Turkistonda quloch yoygan bu harakat boshida Munavvar qori, Mahmudxoʻja Behbudiy, Hoji Muin, Abdulrauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Ismoil Obidiy, Shakuriylar turardilar.

- Eski taʼlim tizimini zamonaviy taʼlim-tarbiya tizimi bilan isloh qilish, dinning oʻzi emas, undagi xurofot va bidʼatga qarshi kurashish, taraqqiyot uchun toʻgʻanoq boʻlgan salbiy hodisalarni xalqqa tushuntirish jadidlar maʼrifiy qarashlarining asosini tashkil etadi. Birinchi boʻlib mustamlakachilik siyosatiga qarshi bosh koʻtarganlar va milliy istiqloolni yoqlab chiqqanlar ham shu jadidlarning (jadid-arabcha “yangi” maʼnosini beradi) ilgʻor vakillari edi.

- Jadidlarning 1906-yilda tashkil etilgan va Ismoil Obidiy muharrirlik qilgan “Taraqqiyot” hamda “Sadoi Turkiston”, “Vaqt”, “Shuhrat”, “Turon”, “Hurriyat”, “Buxoroi sharif” gazetalari Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-maʼrifiy taraqqiyoti yoʻlida turgan muhim muammolarni, mustamlakachilik siyosatiga qarshi ilgʻor fikrlarni koʻtarib chiqdi. “Haq olinur, berilmas”, - deb yozgan edi oʻshanda M. Behbudiy.

- Jamiyatni hurlik, ozodlikka olib chiqishning yagona yoʻli maʼrifatda deb bilgan jadidlar oʻlkada yangi usuldagi maktablarni ochishda jonbozlik koʻrsatdilar, ularning taʼsirida Turkiston hayotida jiddiy madaniy oʻzgarishlar yuz berdi, oʻlkada teatr, gazeta-jurnallar

vujudga keldi, fan-texnikaga qiziqish kuchaydi, milliy til va milliy san'at qadriga e'tibor ortdi.

- Milliy ongni uyg'otishda o'sha paytda publitsistika alohida rol o'ynadi. Yosh iste'dodli publitsistlardan Mirmuhsin Shermuhammedov 1917-yilda yozgan "Tarixiy ikki voqea" nomli maqolasida ma'rifat dushmanlarini "Buxoro mikroblari" deb ataydi. Maqolani e'lon qilgan "Turon" gazetasi yopib qo'yiladi.

- XX asr tongida shakllanib ulgurgan milliy uyg'onish davri adabiyotning eng ko'zga ko'ringan arboblarning deyarli barchasi jadidchilik harakatining rahbarlari edilar.

## **MAHMUDXO'JA BEHBUDIY**

**(1875-1919)**



Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilda Samarqandda muftiy oilasida tug'ildi. Yoshligidanoq arab, fors, turk tillarini mukammal o'rganib oldi, o'z davrining peshqadam gazetalaridan biri "Tarjimon"ni muntazam o'qib bordi. Asr boshlarida u Arabiston, Turkiya, Orenburg, Qozon, Moskva, Peterburg safarlarida bo'ldi. Bu safarlar uning dunyoqarashini ancha kengaytirdi. Behbudiy bu mamlakatlardagi maorif ishlariga katta qiziqish bilan qaraydi. "Bolalar uchun kitob", "Rusiyaning qisqacha jug'rofiyasi", "Aholi jug'rofiyasiga kirish" asarlari yangi usuldagi jadid maktablarining asosiy qo'llanmalariga aylanib qoldi.

Behbudiy o'zbek matbuoti va pedagogikasining asoschilaridan biri edi. "Zarafshon" gazetasi 1922-yildagi sonlarining birida uni "nashri maorif to'g'risida vatanimizning birinchi qahramoni" deb ataydi. Bu bejiz emas edi, albatta. Chunki uning birinchi jahon urushi

arafalaridayoq bosilib chiqqan maqolalari ikki yuzdan oshib ketgan edi. Ijtimoiy-siyosiy mavzularda yozilgan, xalqning koʻzini ochish, millat ravnaqi, yoshlarni bilim olishga, vatan taqdiri, kelajagi uchun qaygʻurishga daʼvat etuvchi “Turkiston idorasi”, “Turkistonda maktabi jardida”, “Buxoroda usuli jadid”, “Yoshlarga murojaat”, “Ehtiyoji millat” kabi maqolalarda milliy ongni uygʻotish maqsad qilib qoʻyilgan edi. Yoshlarni Rusiya, Yevropaning markaziy shaharlariga, Turkiya, Arabiston oliy oʻquv yurtlariga yuborib oʻqitish Behbudiyning yagona orzusi edi.

Behbudi 1918-yilning oʻrtalarida “Musulmon ishchi va dehqon shoʻrosi”ga maorif xalq komissari etib tayinlanadi. U Turkiston Davlat tili haqidagi dekret loyihasini tayyorlashda jon kuydiradi, biroq uning bu maqsadi oʻz vaqtida amalga oshmay qoladi.

“Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxti va saodati uchun qurbonlik sifatida kerak boʻlsa, biz oʻlimni ham xursandchilik bilan kutib olamiz”, - degan edi Behbudi. Uning hayoti shu yurt mustaqilligi, ozodligi yoʻlida qurbon boʻldi, 1919-yilning bahorida Amir Olimxonning Shahrisabzdagi kishilari uni shoʻro aygʻoqchisi deya Qarshi shahrida qatl etadilar.

Oʻz davrining Fitrat, Choʻlpon, Ayniy kabi sanʼatkorlari buyuk maʼrifatchi oʻlimiga marsiyalar yozdilar, dramaturg Hojimurod esa bu allomaning qatl etilishi voqeasini “Maorif qurbonlari” pesasida aks ettirdi.

### **“Padarkush”**

Mahmudxoʻja Behbudi oʻzbek dramaturgiyasining asoschisidir. Uning “Padarkush” asari 1911-yilda yozilgan boʻlib, unda maʼrifat-parvarlik gʻoyasi, xalq baxtsizligining asosiy sabablarini koʻrsatib berish bosh maqsad qilib olingan. Yerli xalqni ezib, uning taraqqiy etishiga, milliy madaniyatni, adabiyotni, tilning rivojlanishiga toʻsqinlik qilib kelgan rus chorizmi bu asarni alohida kitob holida nashr etishga yoʻl qoʻymadi. Asar ilk bor “Turon” gazetasida bosilib, chiqdi. U tez orada Turkistonda mashhur boʻlib ketdi, Samarqand, Toshkent, Buxoroda sahnalashtirildi.

Dramaning bosh qahramonlaridan biri boyning 16 yoshlardagi, takasaltang, nashavand oʻgʻli Toshmurod na eski maktabda, na yangi usuldagi maktabda oʻqiydi, otasining boyligini maishatga sovurib kun

o‘tkazadi. Asar ichiga kirib borar ekanmiz, bolaning yengiltak, tantiq bo‘lib o‘sganligiga otaning o‘zi aybdor ekanini bilib olamiz.

Boy dunyoda hurmat, izzat faqat boylikda deb o‘ylaydi, yoningda puling bo‘lsa, o‘qishning nima keragi bor, axir odamlar o‘qimishli kishidan ko‘ra puldor odamlarni hurmat qiladilar, deydi u. Dramada domla va ziyoli obrazlari berilgan. Ular boyning fikrlariga qarshi chiqib, bolani albatta o‘qitish kerakligi aytadilar. “Agar o‘zimiz, bolalarimiz o‘qigan, ilmi bo‘lsak edi, shu ahvolga tushmas edik”, - deydi domla. Unga javoban boy: “O‘qiganning biri sizmi, yegani noningiz yo‘q”, - deya jerkib tashlaydi.

Asar so‘ngida boyni o‘ldirishib, pullarini olib ketishadi. Qotillarni o‘z uyiga uning o‘g‘li boshlab kelgan edi. Boyni Toshmurod emas, uning ulfati Tangriqul o‘ldiradi, biroq bundan qat’iy nazar, Behbudiy asarni “Padarkush” deb nomlaydi. Bu bilan u otaning o‘limiga sababchi bo‘lgan narsa ilmsizlik, noto‘g‘ri tarbiya, jaholat ekanligini, badfe‘l kishilar bilan do‘stlashish qanday fojialarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatib beradi.

**Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlari namunalarining QR kodi**



**ABDULLA AVLONIY**

**(1878-1934)**



Atoqli o'zbek shoiri, dramaturgi va pedagogi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda kosib oilasida tavallud topdi. 12 yoshidan O'qchi mahallasidagi madrasada tahsil ko'ra boshladi. Turkiston, Tatariston, Kavkazda chiqadigan gazeta va jurnallarni kuzatib borgan Abdulla 15 yoshidan o'z she'rlari va maqolalari bilan matbuot sahifalarida ko'rina boshlaydi. 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida yangi jadid maktabini ochadi, unga o'zi ham mudir, ham o'qituvchi edi. Uning yangi maktablar uchun yozgan "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim", "Tarix", "Turkiy Guliston yoxud axloq" darsliklari yoshlarni milliy ruhda o'qitish va tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. U yaratgan besh to'plamdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (1909-1916) kitobi maktablarda qo'llanma sifatida foydalanildi.

1913-yilda yozilgan "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari buyuk fors-tojik shoiri Sa'diy Sheroziyning "Guliston"i ruhida yozilgan bo'lib, uning tub mohiyati yoshlarni ma'rifatga chorlash, tarbiya va axloqning shaxs kamolotidagi ahamiyatini ko'rsatib berishdan iborat. Asar «Axloq», «Tarbiya», «Yaxshi xulqlar», «Yomon xulqlar» kabi bo'limlardan iborat bo'lib, diyonat, g'ayrat, shijoat, qanoat, vijdon, iffat, munislik va xayru saxovat kabi yuksak insoniy fazilatlar hasad va loqaydlik, nafs balosi, adovat va g'araz, johillik, vijdonsizlik kabi tuban illatlar bilan bog'liq holda talqin etiladi. "Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo falokat masalasidir", - deb yozadi adib.

Abdulla Avloniy 1895-yildan boshlab, "Qobil", "Shuhrat", "Hijron", "Surayyo", "Abulfayz" taxalluslari ostida matbuotda she'r, hikoya, feletonlari bilan qatnasha boshladi. U ham zamondoshlari Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon kabi o'z she'rlarida jaholat va qoloqlikni qoralaydi, xalqni ilm-ma'rifatni egallashga chaqiradi.

Abdulla Avloniy matbuot va teatrchilik sohasida ham jonbozlik ko'rsatdi. Oktabr to'ntarishiga qadar u "Shuhrat", "Turon" gazetalarini chiqardi, "Sadoi Turkiston"da faollik ko'rsatdi, 1918-yilda "Ishtirokiyun" gazetasiga muharrirlik qildi. "Turon" gazetasiga u "Yashasin xalq jumhuriyati!" shiorini tanlab olgan edi.

Abdulla Avloniyning "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va siz", "Ikki muhabbat", "Portugaliya inqilobi" kabi dramatik asarlari o'zbek dramaturgiyasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

## ABDURAUF FITRAT

(1886-1938)



Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida tavallud topdi. Dastlab eski maktabda, soʻng “Mir Arab” madrasasida tahsil koʻrdi, arab, fors, turk tillarini mukammal oʻrgandi. 1909-yilda bir guruh yoshlar bilan Stanbul universitetiga oʻqishga kirdi. Toʻrt yillik tahsil Abdurauf dunyoqarashining shakllanishiga chuqur taʼsir koʻrsatdi.

- Fitrat “Yosh buxoroliklar”ning siyosiy kurashlarida faol qatnashdi. Shoʻro toʻntarishidan soʻng til, adabiyot va sanʼat masalalari bilan shugʻullanuvchi “Chigʻatoy gurungi” tashkilotiga rahbarlik qildi. Jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri sifatida u Turkiston maktab va maorifini isloh qilish, jadid usulini hayotga tatbiq etish gʻoyalarini ilgari surdi.

- Fitrat 1923-1924-yillarda Leningradda yashadi, soʻng Moskvadagi Sharq tillari universitetida arab, fors, turk tillaridan dars berdi. Bu yerda oʻzbek ziyolilari orasida birinchilardan boʻlib “professor” ilmiy unvonini olishga muvaffaq boʻldi.

- Abdurauf Fitrat 1938-yilning 4-oktabrida “millatchi”, “inqilob va xalq dushmani” degan nohaq tuhmatlar bilan qatl etildi.

- Fitrat oʻz ijodini sheʼr yozishdan boshlagan. Dastlab u Mijmar (choʻgʻdon), soʻng Fitrat (tugʻma isteʼdod, aql-zakovat) taxalluslari bilan ijod qildi. Shoirning ilk sheʼriy toʻplami “Sayha” (“Faryod”) 1912-yilda Turkiyada fors tilida bosilib chiqdi. Bundan tashqari uning yana uch sheʼriy toʻplami “Uchqun”, “Sheʼrlar. Doston”, “Mening tunim” nashr ettirildi.

- Oʻzbek dramaturgiyasining shakllanishida Fitratning buyuk hissasi bor. Uning ayrim parchalarigina saqlanib qolgan, nashr

etilmagan “Begijon”, “Abo Muslim”, “Temur sag‘anasi”, “O‘g‘uzxon” hamda hind yoshlarining ingliz istilochilariga qarshi kurashiga bag‘ishlangan “Hind ixtilolchilari” va “Chin sevish”, “To‘lqin”, “Vose’ qo‘zg‘oloni”, “Arslon” kabi asarlari o‘zbek dramaturgiyasining maydonga kelishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

- Yozuvchi sifatida A. Fitrat “Shaytonning Tangriga isyoni”, “Qiyomat”, “Oq mozor”, “Qiyshiq eshon”, “Zayd va Zaynab”, “Me’roj” hikoyalarini yaratdi.

- Fitrat o‘zbek adabiyotshunosligiga ham salmoqli hissa qo‘shdi. Uning “Adabiyot qoidolari”, “Aruz haqida”, “Farhod va Shirin” dostoni haqida”, “Bedil”, “Firdavsiy zamoni va muhiti”, “Mashrab”, “Hibat-ul haqoyiq” va boshqa o‘nlab milliy risolalari o‘zbek va fors-tojik adabiyoti namoyandalari ijodiga va nazariy masalalarga bag‘ishlangan. Fitrat turkiy adabiyotning ilk nodir namunasi hisoblangan “Qutadg‘u bilig”ning Namangan nusxasini o‘z egasi-xalqiga yetkazgan zabardast olimlardan biri bo‘ldi.

### **“Abulfayzxon”**

O‘zbek tragediyasining ilk namunalaridan biri bo‘lgan bu asarda XVIII asr Buxoro hayoti-ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi namoyandalaridan Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang‘itlar sulolasining dastlabki bosqichi tarixiy haqiqatlar asosida yoritilgan.

Akasi Ubaydullaxonni o‘ldirib, taxtni manfur va qabih yo‘llar bilan egallab olgan Abulfayzxon o‘ziga yaqin sodiq kishilarni ham birma-bir o‘ldira boshlaydi. Uning nazarida go‘yo hamma yoq dushman bilan to‘lib-toshganday, go‘yo hamma unga qarshi fitna uyushtirayotganday. Uning Xorazmga qarshi boshlab yuborgan urushi yurti xonavayron qiladi. Xorazm o‘sha paytlarda Eron tasarrufida edi. Mag‘lubiyatga uchragan Abulfayzxon Eronga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi. Biroq, urushda mehnatkash xalqning ne-ne o‘g‘lonlari qurbon bo‘ladi. Oxiri bosqinchi va qo‘rqoq, xudbin va zolim xonni pokdil va halol kishilarning uvoli tutadi. O‘zi ham saroy fisqu fasodlari qurboni bo‘ladi, Ulfat kabi o‘zi ishongan odamlar yordamida Rahimbiy tomonidan o‘ldiriladi. Buxoro xonligi Eronga bo‘ysunishga majbur bo‘ladi.

Abulfayzxon bizning ko‘z o‘ngimizda nomard, qo‘rqoq, irodasi tamoman bo‘sh, shafqatsiz, razil shaxs sifatida gavdalanadi. Uning

xo‘jasaroyi va haram boshlig‘i Ulfat, yaqin xizmatchisi, to‘qsoba Davlat, qozikalon Nizom, inog‘i va otalig‘i Hakimbiy va uning o‘g‘li Rahimbiy xonning qo‘lidagi zulm pichog‘ini qayrab beruvchi sotqin, mansabparast amaldorlardir. “Podshohlik qon bilan sug‘orilib turiladigan bir og‘ochdur (daraxt), qon oqib turmagan yerda bu og‘och qurib qolishi mumkin”, - deydi Ulfat xonga

Asarda Farhod otaliq, Ibrohimbiy singari vijdonli, mard, jasur, boshiga qilich kelganda ham, rostini so‘zlovchi kishilar obrazi ham berilgan.

### **Abdurauf Fitrat asarlari namunalarining QR kodi**



### **Hamza Hakimzoda Niyoziy**

(1889-1929)



Shoir, dramaturg, pedagog, bastakor va teatr arbobi Hamza Hakimzoda 1889-yil 16-martda Qo‘qonda tabib oilasida dunyoga keldi. 1899-1906-yillarda madrasada, 1908-yilda esa Namanganda bir

necha muddat tahsil oldi. 1910-yilda Toshkentning Qashqar mahallasida, 1914-1917-yillarda Marg'ilon va Qo'qonda yangi maktablar ochib, yo'qsullar bolalarini o'qitdi va o'zi shu maktablar uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi", "Qiroat kitobi" kabi darsliklar yozdi. 1921-1924-yillarda Buxoro, Xorazm, Xo'jaylida maorif, targ'ibot muassalarida ishlab, yana Farg'onaga qaytdi.

1926-yilda badiiy ijod va teatr sohasidagi ulkan xizmatlari uchun Hamzaga "O'zbekiston Xalq yozuvchisi" faxriy unvoni berildi. Hamza 1929-yilning 18-martida Shohimardonda fojiali halok bo'ldi.

Hamza adabiyotga "Nihon" (yashirin) taxallusi ostida aruzda yozgan she'rlari bilan kirib keldi. O'zbek xalq musiqasiga havasi kuchli bo'lgan Hamza Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan o'nlab xalq qo'shiqlarini to'pladi. Ayrim qo'shiqlarning mazmunan zaif, past, tuturiqsiz matnlari o'rniga o'zi yangi she'rlar ijod qilib, ularni 1915-1917-yillarda "Oq gul", "Qizil gul", "Safsar gul", "Pushti gul" kabi 8 to'plamga kiritdi. Xalq orasida mashhur bo'lgan "Lo'm-lo'm Mamajon" ohangida: "Yig'la Turkiston", "Eski Xorazm", "Do'st Mavlon-yey"; "Vaysulqoriy" ohanglarida: "Yaxshi holin yo'qotgan oqibatsiz Turkiston", "Dardiga darmon istamas", "Millat degan kimsa suymas dunyoni" kabi she'rlarini yaratdi.

Hamzaning nasrdagi dastlabki intilishlari "Haqiqat kimda", "Turmush urinishlari", "Yangi saodat", "Uchrashuv" romanlari bo'ldi. Biroq bu asarlar janr talabi darajasiga ko'tarila olmadi. Shunday bo'lsa-da, "Yangi saodat" romani o'z g'oyasi bilan ahamiyatini yo'qotmadi. Unda jaholat insonni tubanlikka, ma'rifat esa baxt-saodatga eltishini ko'rsatib berish asosiy maqsad qilib olingan. Bu g'oya asarning bosh qahramoni, jadid maktabida o'qigan, o'zi ham muallimga yordamchilik qilib, bolalarga saboq bergan, keyinchalik Abdurahmon degan bir boyga mirzalikka ishga kirib, uning qizi Nazokatxonimga uylangan va oqibatda qaynatasi o'lib, butun boyligi unga qolgan Olimjon timsolida ochib beriladi. Uning otasi Abduqahhor boy ma'rifatdan mahrum bo'lgan, johil bir savdogar bo'lib, butun mulkini qimorga boy beradi. Olti yoshli Olim va singlisi Xadicha oqila ona Maryam qo'lida qoladi. Ona o'zi xar qancha qiynalsa-da, o'g'lini o'qimishli qilishga intiladi. Ma'rifat orqali baxtini topgan Olimjon Toshkentda yamoqchilik qilib, itning kunini ko'rib yashayotgan otasini izlab topadi va uni hayotga - oila bag'riga qaytaradi.

“Al-isloh” jurnali “Yangi saodat” to‘g‘risida shunday deb yozgan edi: “Xalqni o‘quv va yozuv tarafig‘a targ‘ib qilmoq uchun hozirg‘acha Turkiston shevasinda buningdek ta’sirli ro‘mon nashr o‘linmamish”.

### **“Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari”**

O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi Hamza ijodi bilan chambarchas bog‘liqdir. 20-yillarda uning “Kim to‘g‘ri?”, “Tuhmatchilar jazosi”, “Burungi saylovlar”, “Maysaraning ishi”, “Paranji sirlaridan bir lavha”, “Loshmon fojiasi”, “Jahon sarmoyasining ohirgi kunlari” va boshqa o‘nlab pesalari xalq orasida mashhur bo‘lib ketgan edi. Ularning ko‘pini Hamzaning o‘zi sahnalashtirib, ayrim rollarni ham o‘zi o‘ynagan edi.

1915-yilda yozilgan “jaholat va g‘aflat zindoni”ning qurbonlari, erki, pokiza tuyg‘ulari toptalgan yoshlarning fojiali taqdirini ko‘rsatishga bag‘ishlangan “Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari” dramasi Hamza ijodida alohida o‘rin egallaydi. Asarning bosh qahramonlari “qora xalqdan chiqqan”, “bir bechora kosib qizi” Maryamxon va “ochiq fikrli, tarbiya ko‘rmish, ovrupacha kiyingan” Mahmudxonidir. Bir-birini sevgan bu ikki yosh “zaharli hayot” qo‘ynida, “millatni, adolatni, mehr-shafqatni... aqchaga sotadigan” zamonda o‘z maqsadlariga yetolmay, halok bo‘ladilar. Hamzaning asosiy maqsadi ham ana shu yoshlar baxtiga to‘g‘anoq bo‘lgan, ularni jaholat bag‘riga otgan sabablarni ochib berish edi. Bu sabablar Mahmudxonning otasi Mirzahamdam boyning o‘zidan past kishiga quda bo‘lishdan or qilishida yoki Maryamning yoshligida eshonga nazira qilib qo‘yilishida, yo bo‘lmasa, ota ra’yini qaytarolmagan Mahmudxonning jur’atsizligidagina emas, balki inson tuyg‘ularini sariq chaqaga olmaydigan o‘sha jamiyatning jaholat botqog‘iga botganligidadir, degan xulosaga keladi, Hamza.

Maryamxon o‘z orzu va rejalari bilan Mahmudxonga nisbatan ancha baland turadi. Eshon bilan yashashdan ko‘ra o‘limni afzal ko‘radi. Uning o‘limi o‘z zamonasiga “zaharli hayot”ga nisbatan isyoni edi.

**ABDULLA QODIRIY**

**(1894-1938)**



O‘zbek adabiyotida romanchilik janriga asos solgan iste’dodli yozuvchi Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelida Toshkentda tug‘ildi. Dastlab eski maktabda, so‘ng rus-tuzem maktabida o‘qidi, 1912-yili maktabni bitirib, Toshkentdagi Abulqosim madrasasida tahsil ko‘rdi.

“Sadoi Turkiston” gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida “Yangi masjid va maktab” sarlavhali maqola matbuotda ilk bor A. Qodiriy nomi bilan paydo bo‘ldi. Shundan so‘ng birin-ketin “Millatimga”, “Ahvolimiz” she‘rlari, “Baxtsiz kuyov”, “Juvonboz”, “Uloqda” hikoyalari bosilib chiqdi. Yozuvchi asardan asarga o‘tib bordi. 1919-1925-yillarda matbuotda Julqunboy, Kalvak, Jiyan, J-boy, Toshpo‘lat, Shilg‘ay, Bir kechalik futurist va boshqa taxalluslar ostida yozgan o‘nlab feleton, maqola, hajviy hikoyalari bilan qatnashdi.

Abdulla Qodiriy “Mushtum” jurnalining asoschilaridan biri edi. Jurnalning 1923-1927-yillar sonlarida adibning “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” hajviy asarlari bosilib chiqdi.

1926-yili “Mushtum” jurnalida bosilgan “Yig‘indi gaplar” feletoni uchun aksilinqilobiy harakatlar qilganlikda ayblanib, A. Qodiriy qamoqqa olindi. Uzoq davom etgan sudda dadil turib, tuhmatchi va razil shaxslarni ayovsiz fosh etdi, haqiqatni, o‘z sha‘nini qattiq himoya qildi. “Men to‘g‘rilik orqasidan boshi ketsa, “ix” deydigan yigit emasman”, -degan edi o‘shanda u. Bu qat’iy irodali inson 1937-yil 31-dekabrda qamoqqa olinib, og‘ir qiynoqlarga duchor bo‘lganda ham bukilmadi. A. Qodiriy “xalq dushmani”, “ashaddiy millatchi” degan nohaq tuhmatlar bilan 1938-yilning 4-oktabrida pinhona qatl etildi.

### **“O‘tkan kunlar”**

Abdulla Qodiriy 1928-yilda “Mehrobdan chayon” romanini, 1934-yilda esa “Obid ketmon” qissasini yozdi.

Birinchi o‘zbek romani hisoblangan, 1919-yilda yozila boshlangan “O‘tkan kunlar” asari 1925-yilda bo‘limlari alohida-alohida, 1926-yilda esa yaxlit bir kitob holida nashr etildi. Asar chindan ham adabiyotimizda realizmning yorqin bir namunasiga aylandi, unda o‘zbek xalqi o‘z turmushini, o‘z qiyofasi va ichki olamini asl holicha ko‘rdi. Asar qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, el orasida doston bo‘lib ketdi.

Tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lgan keyingi “xon zamonlari”, XIX asr o‘rtalaridagi Turkiston xalqi hayotining achchiq manzaralari romanga asosiy mavzu qilib olindi. Yurt, millat taqdiri, istiqloli masalalarini qalamga olish yozuvchining asosiy maqsadi edi. Bu g‘oya xalqparvar va yurt qayg‘usi bilan yashovchi Otabek va Yusufbek hoji, oqila, sadoqatli Kumush, umri mehnatda o‘tgan, baxti qaro usta Alim va Hasanali, pokdil, o‘ktam va mulohazali Mirzakarim qutidor, munis, mushfiq ona Oftob oyim obrazlari orqali ochib beriladi. Ular o‘zlarining yuksak, samimiy fazilatlari bilan Xudoyorxon va Azizbek, Musulmonqul va O‘tabboy qushbegi kabi zolim, bosqinchi hukmdor shaxslar, Homid, Zaynab, Xushro‘y, Jannat singari qotil, razillardan ajralib turadilar.

Otabek - o‘z xalqining chinakam farzandi. Uning yagona maqsadi, orzusi yurtini taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida ko‘rish, u bu yurtni bosqinchilar oyog‘i ostida toptalishini istamaydi. Shuning uchun rus bosqini boshlanganda, birinchilardan bo‘lib, ularga qarshi kurashga otlanadi, shu kurash yo‘lida shahid bo‘ladi. Otabek sevgisiga xiyonatdan yiroq, biroq unga Zaynabni o‘z xohishicha unashtirib kelgan ona oldida itoatkor, ota qoshida andishali. “Aqlli kishilarning o‘g‘illari ustidan qilgan ishlari, albatta, noma’qul bo‘lmas”, - deydi ota qarshisida hurmat saqlab.

Asarda Yusufbek hoji mulohazali, kamgap, kamtarin, yurt taqdirini o‘ylovchi bir inson sifatida gavdalanadi. Uni xalq tashvishi, kelajak avlod tashvishi o‘ylantiradi: “Biz bu holda ketadurgan, bir-birimizning tagimizga suv quyadigan bo‘lsak, yaqindirki, o‘ris istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘ar va biz bo‘lsak, o‘z qo‘limiz bilan kelguvsi naslimizning bo‘yniga o‘ris bo‘yunturug‘ini kiydirgan bo‘lamiz. O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir

qo‘liga tutqun qilib topshirguvchi - biz, ko‘r va aqlsiz otalarga xudoning la‘nati albatta tushar, o‘g‘lim”, - deydi Yusufbek hoji.

Kumush - yozuvchi orzu qilgan, muallif o‘z qahramonini o‘zi o‘ldirib qo‘yib ho‘ngrab yig‘lagan obraz, chinakam iffat, hayo, nomus timsoli. U o‘z hayoti uchun fojia bo‘lgan Otabekning ikkinchi uylanishi haqida xabar topgach, dodlamaydi, Otabekka ishongan holda “Meni unutmaysizmi?” deydi.

“O‘tkan kunlar” muhabbat fojiasidir. Asarda ana shu fojiani tug‘dirgan sabablar haqqoniy ochib beriladi. Otabek va Kumushlar baxtiga o‘zining iflos changalini botirgan, yuzlab kumushlarni zaharlab o‘ldirgan zaynablar, homidlar, xushro‘ylargina emas, “tariximizning eng kirlik, qora kunlari”da tomir otgan zulm-zo‘ravonlik, jaholat, erksizlik edi. Muallifning o‘zi ham ana shu erksizlik qurboni bo‘ldi.

### **Abdulla Qodiriy asarlari namunalarining QR kodi**



**ABDULHAMID CHO‘LPON**

**(1897 - 1938)**



Abdulhamad Cho‘lpon 1897-yilda Andijonda tavallud topdi. Otasi Sulaymonqul Muhammadyunus o‘g‘li bazzoz (gazlama-furush)lik qilar, badiiyatga chuqur havas qo‘ygan, ba‘zan “Rasvo”

taxallusi bilan hajviy she'rlar yozib turardi. U o'g'lining mudarris bo'lishini istardi, ammo Abdulhamid otasidan ham, domlalaridan ham qochib, Toshkentga keladi. Bu yerda Gaspiralinining "Tarjumon" gazetasini o'qib, siyosiy dunyoqarashini kengaytiradi, keyinchalik hayotining eng qiziq yillarini matbuot bilan bog'laydi. "Sharq" (1919), "Darxon" (1923) gazetalarida adabiy xodim, "Axbori Buxoro" gazetasi va "Inqilob" (1922) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi.

1914-yilda "Sadoi Turkiston" gazetasida uning ilk hikoyalari "Qurboni jaholat" va "Do'xtur Muhammadyor" e'lon qilinadi. 1922-uning birinchi she'riy kitobi "Uyg'onish", 1923-yilda "Buloqlar", 1926-yilda "Tong sirlari", 30-yillarda esa "Soz" va "Jo'r" she'riy to'plamlari bosilib chiqdi.

A. Cho'lpon o'zbek teatri va dramaturgiyasining shakllanishida ham jonbozlik ko'rsatdi. Moskvada o'zbek dramstudiyasida dramaturg va tarjimon sifatida faoliyat ko'rsatib qaytgan (1924-1926) adib xalq motivlari asosida yozgan "Yorqinoy" p'esasini qayta ishladi, "Mushtumzo'r", "O'rtoq Qarshiboev", "Hujum" dramalarini yozdi, V. Shekspirning "Hamlet", A. S. Pushkinning "Boris Godunov", "Dubrovskiy", N. Gogolning "Tergovchi", Ivan Frankoning "Feruza", M. Gorkiyning "Ona" romanlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

A. Cho'lpon maslakdosh do'stlari A. Qodiriy, A. Fitratlar bilan bir kunda "xalq dushmani" degan nohaq tuhmatlar bilan 1938-yilning 4-oktabrida qatl etildi.

### **"Kecha va kunduz"**

"O'tkan kunlar" romanidan so'ng 1936-yilda "Kecha va kunduz" romanining paydo bo'lishi o'zbek adabiyotida katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Asarning "Kunduz" ("Bugun") deb atalgan ikkinchi qismi taqdiri hozirgacha noma'lum bo'lib kelmoqda.

Romanga birinchi jahon urushi endigina boshlangan bir paytda Andijon atroflaridagi qishloqlardan birida yuz bergan voqea, Razzoq so'fi va Qurvonbibi oilasining tutday to'kilishi voqeasi asos qilib olingan bo'lsa-da, yozuvchi unda jaholat va g'aflat botqog'iga botgan, erk va huquqdan mahrum bo'lgan mehnatkash xalqning, xususan, o'zbek ayollarining fojiali qismatini yoritib berishni maqsad qilib qo'ygan.

Asarning bosh qahramoni - endigina o'n besh bahorni ko'rgan, Razzoq so'fidek badfe'l, johil kishi xonadonida o'n gulidan bir guli

ochilmay xazon bo'lgan, o'zbek qizlariga xos hayo iffat sohibi Zebi. Razzoq so'fi uni o'zi tengi kishiga, uch xotinli Akbarali mingboshiga turmushga chiqishga majbur etadi. Zebining esa ota ra'yiga qaramay iloji yo'q. Sharq qizlariga xos ana shu andisha, mutelik, erksizlik uni iflos bir xonadonga, badbashara er va razil kundoshlar orasiga olib borib tashlaydi, o'n besh yoshida erining qotili sifatida yetti yilga Sibirga surgun qilinadi.

Razzoq so'fi - ma'naviyatdan mahrum, johil, nihoyatda qo'rs odam. Uning sig'ingani-Eshon bobo, ko'zi tanho eshonni ko'radi, qulog'i tanho eshonni eshitadi. So'fi suyangan narsasi bir soya ekanligini, aldanganini boshiga fojia tushgandagina biladi: "Maslahat? - dedi eshon, xoxolab kuldi. - Odam o'ldirgan bolaning otasiga qanday maslahat bo'ladi, so'fi? Bolasining o'rniga nega otasini jo'natmaydi bu ahmoq o'rus? Adolat bormi kofirda?"

Farzandining achchiq qismati aqldan ozdirgan Razzoq so'fi butun umidi chilparchin bo'lganini, sig'ingan narsasi sarob ekanligini endi tushunadi, ixtiyorsiz eshonning qotiliga aylanadi.

Romanda Miryoqub obrazi berilgan. Akbarali mingboshi butun mol-mulkini uning uddaburonligi tufayli topgan, uning maslahatidan chiqmas edi. Mingboshiga Akbarali qanchalik yaqin bo'lmasin, ular qanchalik og'iz-burun o'pishmasinlar, baribir Miryoqub undan jirkanadi, mingboshi singari u jaholat botqog'iga botib qolishni istamaydi. Ana shu iflos muhitdan tezroq qochish yo'llarini qidiradi. Og'ir hayot fahsh girdobiga shaf-qatsizlarcha uloqtirib tashlagan Mariya Ostrova qismatiga yuragi achishadi, uni olib, Kavkazga qarab jo'naydi. Yo'lda u Sharafiddin Xo'jaev degan jadid bilan tanishadi va uning ta'sirida dunyoqarashi o'zgardi.

"Kecha va kunduz" romanida Cho'lpon Razzoq so'fi oilasining barbod bo'lishining, zebilar fojiasining ildizini tub-tubigacha ochib tashlaydi: bu fojialarning sababchilari Akbarali mingboshidek yurtni boshi berk ko'chaga olib kelgan, noib to'radek mamlakatni osonlik bilan boshqarishni ko'zlab Zunnun singari kallasi puch odamlarni amal kursisiga o'tqazib qo'ygan mansabdorlargina emas yoki eshon kabi qorin g'amidan boshqa narsani o'ylamaydigan shaxslargina emas, balki jamiyatni qoloqlikda, jaholatda saqlashga urinib kelgan mustabid tuzum edi.

**Abdulhamid Cho'lpon asarlari namunalarining QR kodi**



### **Savollar:**

1. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti haqida nima bilasiz?
2. Abdulla Avloniy asarlarida qanday mavzular ko‘tarilgan?
3. Abdurauf Fitrat asarlari haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotiga xos bo‘lgan xususiyatlarni sanab o‘ting
2. Abdulla Avloniy asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar haqida gapirib bering.
3. Cho‘lpon lirikasida ko‘tarilgan mavzular haqidagapirib bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. XX asr boshlarida jadid adiblar o‘z asarlarida qanday g‘oyalarni ilgari surdilar?**

- A) milliy uyg‘onish g‘oyasini
- B) mustaqillik g‘oyasini
- C) ma‘rifatparvarlik g‘oyasini
- D) Rossiya davlati bilan tinch-totuv yashash g‘oyasini
- E) A, B va C

**2. Turkistonda milliy uyg‘onish g‘oyasini targ‘ib etishda qaysi gazeta jonbozlik ko‘rsatdi?**

- A) “Sadoi Turkiston”
- B) “Zarafshon”
- C) “Xurshid”
- D) “Sadoi Farg‘ona”
- E) “Turon”

**3. Toshkentda 1917-yilning oktabrida bo‘lib o‘tgan qurultoyda “Turkiston muxtoriyati”ni ta‘sis etishga bir ovozdan qaror qilgan va mustaqillik g‘oyalarni ilgari surgan tashkilot qaysi?**

- A) “Sho‘roi Ulamo”
- B) “Shuroi Islom”

- C) “Yosh Buxoroliklar”
- D) Sho‘ro hokimiyati
- E) Bolsheviklar partiyasi

**4. XX asrning 10-yillarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi muammolarni ko‘tarib chiqqan jurnallar qaysi javobda ko‘rsatilgan?**

- A) “Guliston”, “Yer yuzi”
- B) “Sharq yulduzi”, “Al-isloh”
- C) “Mushtum”, “Turkiston”
- D) “Al-isloh”, “Oyna”
- E) A, B, C, D

**5. 1906 yil boshlaridan 1907 yil o‘rtalarigacha chiqqan, Turkistonda milliy uyg‘onish, o‘zlikni anglash g‘oyalari targ‘ib etgan birinchi jadid gazetasiga kim muharrirlik qilgan?**

- A) Munavvar Qori Abdurashidov
- B) Abdulhamid Cho‘lpon
- C) Abdurauf Fitrat
- D) Ismoilbey G‘aspirali
- E) Ismoil Obidiy

**6. Turkistonda jadidchilik harakatining yoyilishida mu-him rol o‘ynagan kishi...**

- A) Ismoilbey G‘aspirali
- B) Munavvar Qori
- C) Hoji Muin
- D) Hamza Hakimzoda
- E) Sadriddin Ayniy

**7. Yangi davr o‘zbek nasrining ilk namunalarini kimlar yaratgan?**

- A) M. Behbudiy, Munavvar Qori, G‘. G‘ulom, A. Qodiriy
- B) A. Avloniy, A. Fitrat, Oybek, M. Behbudiy, Cho‘lpon
- C) A. Fitrat, A. Cho‘lpon, A. Qodiriy, Hamza
- D) Munavvar Qori, A. Fitrat, A. Cho‘lpon, Shavkat, A. Qahhor
- E) Hamza, Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhammedov, Oybek

**8. O‘zbek dramaturgiyasining ilk namunalari kimlarning qalamiga mansub?**

- A) Behbudiy, Shayxzoda, Hamza, A. Qodiriy, A. Avloniy
- B) Behbudiy, Avloniy, A. Fitrat, Hamza, A. Qodiriy
- C) Cho‘lpon, A. Qodiriy, Oybek, Fitrat
- D) A. Avloniy, Cho‘lpon, X. Olimjon, Fitrat
- E) S. Ayniy, Fitrat, A. Avloniy, Behbudiy

**9. O‘zbek dramaturgiyasining ilk namunalari...**

A) «Padarkush», «Baxtsiz kuyov», «Oltin devor», «Hind ixtilolchilari»  
B) «Zaharli hayot», «Pinak», «Doktor Muhamaddiyor», «Baxtsiz kuyov»  
C) «Advokatlik osonmi?», «Padarkush», «Baxtsiz kuyov», «Mirzo Ulugʻbek»

D) «Padarkush», «Baxtsiz kuyov», «Advokatlik osonmi?», «Pinak»  
E) «Zaharli hayot», «Boyvuchcha Oynisa», «Yurak sirlari», «Pinak»

**10. Ilk oʻzbek romanlari...**

A) «Yangi saodat», «Oʻtgan kunlar», «Kecha va kunduz»  
B) «Navoiy», «Doktor Muhammadyor», «Haqiqat kimda»  
C) «Padarkush», «Oʻtkan kunlar», «Kecha va kunduz»  
D) «Turkiy Guliston yoxud axloq», «Oʻtkan kunlar»  
E) «Baxtsiz kuyov», «Temir xotin», «Kecha va kunduz»

**11. Oʻzbek matbuoti asoschisi kim?**

A) Abdulla Avloniy  
B) Abdulla Qodiriy  
C) A. Choʻlpon  
D) M. Behbudiy  
E) Mirmuhsin Shermuhammedov

**12. «Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak boʻlsa, biz oʻlimni ham xursandchilik bilan kutib olamiz.**

Ushbu fikrlarni aytgan maʼrifatparvar kim boʻlgan?

A) Abdurauf Fitrat  
B) Maxmudxoʻja Behbudiy  
C) Abdulhamid Choʻlpon  
D) Abdulla Avloniy  
E) Abdulla Qodiriy

**13. «Padarkush» dramasi dastlab qaysi gazetada bocilib chiqdi?**

A) Sadoi Turkiston»  
B) «Sadoi Fargʻona»  
C) «Turon»  
D) «Sadoi Buxoro»  
E) «Sharq»

**14. «Oʻqiganning biri siz, yeyishga noningiz yoʻq... « Ushbu gap kimga tegishli va u qaysi asardan olingan?**

A) domlaga, «Padarkush»  
B) domlaga, «Pinak»  
C) Abduqodirga, «Zaharli hayot»  
D) Miryoqubga, «Kecha va kunduz»  
E) boyga, «Padarkush»

**15. «Padarkush»da ilgari surilgan asosiy g‘oya...**

- A) bilim baxt sari yetaklaydi
- B) noto‘g‘ri tarbiya jaholatga yetaklaydi
- C) yomonlar bilan do‘stlashish fojiaga olib keladi
- D) A va B
- E) B va C

**16. A. Avloniy o‘z she‘rlarining birida «nonimizni teva qilib berarlar...» deb yozadi. Bu kimlarga ishora?**

- A) mahalliy boylarga
- B) rus mustamlakachilariga
- C) poraxo‘r amaldorlarga
- D) diniy bid‘atchilarga
- E) mahalliy hukmdorlarga

**17. Abdulla Avloniy tashkil etgan «Turon» gazetasiga qaysi shiorni tanlab olgan edi?**

- A) «Butun dunyo proletarlari, birlashingiz!»
- B) «Yashasin xalq jumhuriyati!»
- C) «Yashasin mehnatkash ishchi-deh-qonlar!»
- D) «Yashasin yo‘qsullar, yo‘qolsin boylar!»
- E) «Butun hokimiyat Sho‘rolarga!»

**18. Abdulla Avloniyning dramatik asarlari ko‘rsatilgan javobni toping.**

- A) «Portugaliya inqilobi», «Advokatlik osonmi?», «Pinak»
- B) «Biz va siz», «Baxtsiz kuyov», «Ikki muhabbat»
- C) «Qurboni jaholat», «Padarkush», «Pinak»
- D) «Advokatlik osonmi», «Zaharli hayot», «Biz va siz»
- E) «Portugaliya inqilobi», «Pinak», «Baxtsiz kuyov»

**19. 1925-yili Abdulla Avloniy davlatning qanday mukofotiga sazovor bo‘ldi?**

- A) «O‘zbekiston Xalq Qahramoni» ordeniga
- B) «O‘zbekiston Xalq yozuvchisi» faxriy unvoniga
- C) «Sotsialistik Mehnat Qahramoni» unvoniga
- D) «O‘zbekiston Madaniyat arbobi» faxriy unvoniga
- E) «Mehnat Qahramoni» unvoniga

**20. «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarining «Hifzi lison» qismida Avloniy qanday fikrni ilgari suradi?**

- A) odob masalasini.
- B) milliy tilni asrash va toza tutish masalasini
- C) haqiqat va erk masalasini
- D) mustaqillikni asrash masalasini

E) milliy istiqlol masalasini

**21. «Fitrat» va «Mijmar» taxalluslari qaysi javobda to‘g‘ri izohlangan?**

- A) «Fitrat» (arabcha) -go‘zallik, «mijmar» (arabcha) kiprik.
- B) «Fitrat» (forscha) -saodat, «mijmar» (arabcha) -nazokat
- C) «Fitrat» (arabcha) -aql, zako, «mijmar» (arabcha) -cho‘g‘don
- D) «Fitrat» (arabcha) -quyosh, «mijmar» (forscha) -oy
- E) «Fitrat» (arabcha) -tole qismat, «mijmar» (arabcha) -baxt

**22. 1909-1913-yillarda Fitrat qaerda tahsil oldi?**

- A) Qohira universitetida
- B) Buxoro madrasasida
- C) Berlin universitetida
- D) Istambul universitetida
- E) Qozon universitetida

**23. XX asr boshlarida Fitrat qaysi tashkilot safida siyosiy kurashlarda faol ishtirok etdi?**

- A) «Sho‘roi ulamo»
- B) «Yosh buxoroliklar»
- C) «Sho‘roi islom»
- D) «Qizil qalam»
- E) «Turkiston»

**24. Fitratga o‘zbek ziyolilari orasida birinchi bo‘lib «professor» ilmiy unvoni berilgan edi. Unga bu unvon qaerda berildi?**

- A) Moskvadagi sharq tillari universitetida
- B) Berlin universitetida
- C) Istambul universitetida
- D) Qohira universitetida
- E) Leningrad universitetida

**25. Fitrat yozib qoldirgan adabiy va ilmiy meros A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofotiga munosib ko‘rildi. Bu unvon unga qachon berildi?**

- A) 1994-yilda
- B) 1995-yilda
- C) 1993-yilda
- D) 1992-yilda
- E) 1991-yilda

**26. 1922 yilda yozgan «Mirrix yulduziga» she‘rida Fitrat ko‘kka-Mirrix yulduziga nimalar haqida iltijo qiladi?**

- A) ona-zaminni balolardan omon saqlab qolish haqida
- B) toleining pastligi haqida
- C) yurtning mustamlakachilar tomonidan oyoq osti qilinayotgani haqida

- D) vatanida yuz berayotgan razilliklar, el-yurtini sotib yeyayotgan shaytonlar haqida
- E) hurriyat saodati haqida

**27. Fitrat «Tong» jurnalining birinchi sonida ilgari surgan ilg'or fikr...**

- A) «Yashasin ilmiy, adabiy, ijtimoiy o'zgarish! Yashasin Sharq qutulishi!»
- B) «Haq olinur, berilmas»
- C) «Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa, biz o'limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz»
- D) «Yashasin butun dunyo proletarlari!»
- E) «Butun dunyo mehnatkashlari, birlashingiz!»

**28. Fitratning Boybo'latovga ochiq xati qanday nomlanadi va unda kimlarga qarshi gap boradi?**

- A) «Ochiq xat», Turkiston mustaqilligini buzuvchilar haqida
- B) «Munozara», «Turkiston muxtoriyati»ga qarshi chiqqanlar haqida
- C) «Yopishmagan gajaklar», o'ziga nisbatan «panturkist», «panislomist» degan tuhmat yopishtiruvchilar haqida
- D) «Raddiya», xurofot va bid'at botqog'iga botgan shaxslar haqida
- E) «Munosabat», o'z kursisini o'ylovchi amalparastlar haqida

**29. Fitratning «Hind ixtilolchilari» dramasi yozishdan asl maqsadi nima edi?**

- A) Hind xalqining chet el bosqinchilariga qarshi kurashini aks ettirish
- B) Vatandoshlarini Rusiya istibdodiga qarshi kurashga da'vat etish
- C) kishilarni sezgirlikka chaqirish
- D) o'z vataniga muhabbat bog'lash va uni boyitishga da'vat etish
- E) chet el hayotini yoritish

**30. Fitrat hikoyalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) «Uloqda», «Juvonboz», «Oq mozor»
- B) «Dahshat», «Ko'r ko'zning ochilishi», «Bemor»
- C) «Qiyomat», «Zaynabning imoni», «Oq mozor»
- D) «Doktor Muhammadyor» «Qurboni jaholat», «Qiyomat»
- E) «Qiyshik eshon», «Me'roj», «O'g'ri»

**31. «Hind ixtilolchilari» dramasi qachon va qaerda nashr etildi?**

- A) 1922-yil Istambulda
- B) 1924-yil Angliyada
- C) 1925-yil Kozonda
- D) 1926-yil Kavkazda
- E) 1923-yil Berlinda

**32. Fitrat dramasi qahramoni Abulfayzxon kim bo'lgan?**

- A) XVI asrda yashagan Shayboniylarning so'nggi namoyandasi
- B) XVIII asrda yashagan ashtarxoniylarning so'nggi namoyandasi
- C) XVIII asrda yashagan mang'itlar sulolasining to'ng'ich namoyandalardan biri
- D) XIX asrda yashagan mang'itlar sulolasining so'nggi vakili
- E) XVI asrda yashagan shayboniylarning o'rta bo'g'in vakili

**33. Qaysi javobda Fitrat dramalari to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) «Hind ixtilolchilari», «Pinak», «Advokatlik osonmi»
- B) «Biz va siz», «Portugaliya inqilobi», «Arslon»
- C) «Abulfayzxon», «Hind ixtilolchilari», «Padarkush»
- D) «Hind ixtilolchilari», «Arslon», «Chin sevish», «Abulfayzxon»
- E) «Baxtsiz kuyov», «Pinak», «Chin sevish», «Portugaliya inqilobi»

**34. «Abulfayzxon» dramasi xon fojiasining tub sabablari Fitrat talqinida qanday aksini topgan?**

- A) uning bosqinchilik siyosatida
- B) xalqqa zulm-zo'ravonlikni haddan ziyod oshirib yuborganligida
- C) Barchaga, hatto o'z yaqinlariga ham shubha, g'araz bilan qaraganligida
- D) o'z atrofiga xushomadguy, johil kishilarni yig'ib olib, halol, pokdil oqil kishilarni uzoklashtirganligida
- E) A, B, C, D

**35. «Abulfayzxon» dramasi qahramonlaridan biri Xayolning «Ey, kop-qora saodat sensan!» degan fikri nimaga qaratilgan?**

- A) amaldorlarga va din arboblarga qarshi
- B) Abulfayzxon saroyi va uni qurshab olgan jirkanch muhitga qarshi
- C) saodatni «va'da bergan» mustabid rus mustamlakachilariga qarshi
- D) ashtarxoniylar sulolasiga qarshi
- E) B va C

**36. «Abulfayzxon» dramasi qachon va qaerda nashr etildi?**

- A) 1924-yil Istambulda
- B) 1924-yil Moskvada
- C) 1925-yil Berlinda
- D) 1925-yil Toshkentda
- E) 1925-yil Samarqandda

**37. Abulfayzga sotqinlik qilib, Nodirshohga o'z niyatini amalga oshirishda yordamlashgan xiyonatchilar...**

- A) Hakimbiy va Xayol
- B) Farhod otaliq va Ibrohimbiy
- C) Hakimbiy va uning o'g'li Rahimbiy
- D) Mirvafo va Qozi Kalon

E) Ulfat va Davlat

**38. «Abulfayzxon» dramasi­dagi Farhod otaliq va Ibro-himbiylar qanday kishilar sifatida tasvirlangan?**

- A) johil, bid'atchi kishilar sifatida
- B) mansabparast, manfaatparast kishilar sifatida
- C) xonga xushomadgo'y kishilar sifatida
- D) jasur, mard, to'g'ri so'zlovchi kishilar sifatida
- E) qo'rqq, amalparast kishilar sifatida

**39. «Abulfayzxon» dramasi­dagi Ulfat «podshohlik qon bilan sug'oriladigan og'ochdir» deganda, nimani nazarda tutgan edi?**

- A) xalqni zulm qamchisi ostida tutib turish kerakligini
- B) o'zga yurtlarni bosish, shafqatsiz talab turish kerakligini
- C) kishilarga rahm-shafqat qilmaslik, xonga bosh ko'targanlarning qonini ayovsiz to'kish darkorligini
- D) xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirish kerakligini
- E) Barcha javoblar to'g'ri.

**40. «Abulfayzxon» fojiasining to'qima obrazlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Davlat, Ulfat, Qozi Kalon, Xayol
- B) Qozi Kalon, Rahimbiy, Ibro-himbiy
- C) Xayol, Ulfat, Abulfayzxon
- D) Nodirshoh, Xo'ja Kalon, Doniyol biy
- E) Mir Vafo, Abdumo'minxon, Rahim qo'rchi

**41. Hamza Hakimzoda o'zining dastlabki she'rlarini qaysi taxallus ostida yozgan edi?**

- A) «Notavon»
- B) «Maxmud»
- C) «Mijmar»
- D) «Dumbul»
- E) «Nihoniy»

**42. Hamza o'zining birinchi jadid usulidagi maktabini qachon va qaerda ochdi?**

- A) 1919-yil Buxoroda
- B) 1914-yil Marg'ilonda
- C) 1915-yil Qo'qonda
- D) 1918-yil Farg'onada
- E) 1910-yilda Toshkentning Qashqar mahallasida

**43. Sobiq sho'rolar davrida. Hamza...**

- A) baxt kuychisi sifatida tanildi
- B) vatan kuychisi sifatida tanildi
- C) inqilob kuychisi sifatida tanildi

- D) tinchlik kuychisi sifatida tanildi
- E) ozodlik kuychisi sifatida tanildi

**44. Hamzaning yangi jadid maktablari uchun yozgan darsliklari...**

- A) «Yengil adabiyot», «O‘qish kitobi», «Qiroat kitobi»
- B) «Yengil adabiyot», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim»
- C) «Boshlang‘ich sinflar uchun o‘qish kitobi», «Tazhib us-sibyon»
- D) «Risoi savod», «O‘qish kitobi», «Ikkinchi muallim»
- E) «Maktab», «O‘qish kitobi», «Usuli jadid»

**45. Qaysi javobda Hamzaning nasriy asarlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) «Haqiqat kimda», «Yangi saodat», «Zaharli hayot»
- B) «Yangi saodat», «Ilm ista», «Befarزند Ochildiboy»
- C) «Yangi saodat», «Padarkush», «Baxtsiz kuyov»
- D) «Yangi saodat», «Haqiqat kimda?», «Turmush achchig‘i», «Uchrashuv»
- E) «Yangi saodat», «Uloqda», «Befarزند Ochildiboy»

**46. «Yangi saodat» asarining yetakchi g‘oyasi...**

- A) mehnatsiz topilgan boylik vafo qilmaydi
- B) inson boyligiga emas, aqliga ishonishi kerak
- C) pastkash, razil kishilar bilan do‘stlashish fojiaga olib boradi
- D) johillik fojiaga, bilim baxtga yetaklaydi
- E) Qanday inson bo‘lmasinlar, ota-onani qadrlash farzandning burchidir

**47. «Yangi saodat» romanining bosh qahramonlarini ko‘rsating**

- A) Olimjon, Hidoyatxon, Mahmudxon, Abduqahhor
- B) Abduqahhor, Maryam, Olimjon, Xadicha, Nazokatxonim
- C) Maryam, Olimjon, Abdurahmonboy, Rizvon, Xadicha
- D) Olimjon, Maryam, Xolisxon, Domla
- E) Olimjon, Qodirqul, Abdurahimboy, Abdurahmon

**48. Hamza dramalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) «Maysaraning ishi», «Boy ila xizmatchi», «Qizil gul», «Pinak»
- B) «Hind ixtilolchilari», «Pinak», «Zaharli hayot», «Rabochiy»
- C) «Zaharli hayot», «Haqiqat kimda?», «Paranji sirlari»
- D) «Zaharli hayot», «Maysaraning ishi», «Loshmon fojiasi», «Paranji sirlaridan bir lavxa»
- E) «Zaharli hayot», «Paranji sirlaridan bir lavha», «Uchrashuv», «Jahon sarmoyasining so‘nggi kunlari»

**49. «Zaharli hayot» dramasining yetakchi g‘oyasi nimadan iborat?**

- A) ma‘rifat bilangina jaholatni yengish mumkin

- B) diniy e'tiqod insonni poklikka eltadi
- C) erkinlik berilmaydi, u kurash bilan qo'lga kiritiladi
- D) qashshoqlikdan qutulish yo'li kurashdadir
- E) inson o'z sevgisi uchun kurashmog'i lozim

**50. «Zaharli hayot»da Maryamxon qanday qahramon sifatida gavdalanadi?**

- A) ota-ona xohishiga itoat etuvchi, odobli, iffatli qiz sifatida
- B) pokiza muhabbati uchun o'zini o'ldirishdan boshqa chora topmagan ojiz bir inson sifatida
- C) sevgida vafodor, e'tiqodda sobit qiz
- D) o'z insoniy sha'ni, huquqini poymol etuvchilarga nisbatan murosasiz, jur'atli qiz sifatida
- E) barcha javoblar to'g'ri

**51. «Zaharli hayot»da Mahmudxon qiyofasida Hamza qanday kishini tasvirlashga intilgan?**

- A) o'z insoniy huquqi uchun kurashuvchi jasur yigit sifatida
- B) eskilik bid'atlarining ashaddiy dushmani, yangilik tarafdori sifatida
- C) vatanparvar kishi sifatida
- D) o'z davrining madaniyatli, hurfikrli, ilg'or kishisi sifatida
- E) ma'rifatli jadid sifatida

**52. «Ikkovimiz qo'limizni tutushib, zulmatda qolmish bu millatni siz quyoshi bo'lganda, men mohi toboni bo'lub, qorong'u vatanni yorutaylik». «Zaharli hayot»dan olingan bu so'zlar qaysi qahramon tilidan aytilgan?**

- A) Mahmudxon
- B) Maryamxon
- C) Xolisxon
- D) Ro'zixon
- E) Oyxon

**53. Hamzaning yoshlarni ilm-ma'rifatni egallashga, odob-axloq va halollikka da'vat etuvchi asarlari...**

- A) «Ilm ista», «Ramazon», «Ilm xosiyati»
- B) «Ramazon», «Sog'inib», «Ilm xosiyati», «O'qi»
- C) «O'qi», «Qimorning boshi», «To'g'ri so'z bola», «Olim bo'laylik»
- D) «Uyg'on», «Kitob», «Biz ishchimiz», «O'qi»
- E) «Ilm ista», «Ilm xosiyati», «O'g'ri», «Ramazon»

**54. «Maysaraning ishi» komediyasida «maqtovdan ortiq chiroyli, uzun soch, shirin so'z»...**

- A) Maysara
- B) Rizvon
- C) To'laxon
- D) Xolisxon

E) Oyxon

**55. «Maysaraning ishi» komediyasida payg‘ambar yoshiga yetib ham quyilmagan, Oyxonni o‘z hirs domiga tortmoqchi bo‘lgan shaxs...**

- A) Hidoyatxon
- B) Mulla Ro‘zi
- C) Cho‘pon
- D) Qozi kalon
- E) Qodirqul

**56. Hamzaning «Yaxshi holin yo‘qotgan oqibatsiz Turkiston», «Yig‘la Turkiston» she‘rlarida qanday g‘oyalar ilgari surilgan?**

- A) ma‘rifatparvarlik, erk, istiqlol g‘oyalari
- B) johillikni qoralash, mustamlakachilarga qarshi bosh ko‘tarish
- C) vatanni rus istibdodidan qut-qazishga da‘vat
- D) insonparvarlik va vatanparvarlikni ulug‘lash
- E) xalqni boy va amaldorlarga qarshi oyoqqa turg‘izish

**57. Rus chorizmi tomonidan xalqni mardikorlikka olish mavzusida Hamza yaratgan she‘rlar...**

- A) «Rabochiy», «Uyg‘on», «Berma erkingni qo‘ldan»
- B) «Sog‘inib», «Salom ayting»
- C) «Shundoq qolurmi?», «Uzilgan chechaklar»
- D) «Nolai zorim eshitmas», «Yodimga tushdi»
- E) A va B

**58. O‘zbek adabiyotida A. Qodiriy (Julqunboy) qanday adib sifatida o‘rin tutadi?**

- A) iste‘dodli shoir sifatida
- B) pedagogik asarlar muallifi sifatida
- C) tarixiy romanlar ustasi sifatida
- D) mohir hikoyanavis sifatida
- E) o‘tkir hajvchi sifatida

**59. A. Qodiriyning adabiy taxalluslari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Tavallo, Usta, Mijmar, Afandi
- B) To‘qay, Bir kechalik futurist, Jiyan
- C) Ovsar, Dumbul, Jiyan, Toshpo‘lat
- D) J-boy, Kalvak Maxzum, So‘tak, Bir kishi
- E) Ko‘sa, Toshpo‘lat, Afandi, Mushfiqiy

**60. A. Qodiriy o‘z ijodini qanday asarlar yozish bilan boshladi?**

- A) she‘r va publitsistik maqolalar yozish bilan
- B) tarixiy romanlar yozish bilan
- C) dramatik asarlar yozish bilan

- D) qo'shiqlar yozish bilan
- E) ocherklar yozish bilan

**61. «Ko'pdan haqiqiy hayot bilan aloqasi uzilgan, madrasa xurofotidan miyasi buzilgan» mahalla imomi obrazi A. Qodiriyning qaysi asarida berilgan?**

- A) «Toshpo'lat tajang nima deydi?»
- B) «Uloqda»
- C) «Obid ketmon»
- D) «Mehrobdan chayon»
- E) «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan»

**62. A. Qodiriy qaysi asarida tarbiya ko'rmagan, kallasi puch, kaltafahm, chapani yigit obrazini bergan?**

- A) «Baxtsiz kuyov»
- B) «Obid ketmon»
- C) «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan»
- D) «Toshpo'lat tajang nima deydi?»
- E) «Shirvon xola nima deydi?»

**63. A. Qodiriy asos solgan jurnal**

- A) «Maorif va o'qituvchi»
- B) «Yer yuzi»
- C) «Mushtum»
- D) «Ishtirokiyun»
- E) «Sadoi Turkiston»

**64. «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan» va «Toshpo'lat tajang nima deydi?» asarlari qanday usulda yozilgan?**

- A) yumoristik usulda
- B) realistik usulda
- C) romantik usulda
- D) satirik usulda
- E) allegorik usulda

**65. A. Qodiriyning ilk hikoyalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) «Doktor Muhammadyor», «Uloqda», «Mening o'g'rigina bolam»
- B) «Uloqda», «Juvonboz», «Jinlar bazmi»
- C) «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Obid ketmon»
- D) «Toshpo'lat tajang nima deydi?», «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan»
- E) «Baxtsiz kuyov», «Oynisa boyvuchcha»

**66. A. Qodiriyning qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish mavzusida yozgan asari...**

- A) «Yig'indi gaplar»
- B) «Obid ketmon»

- C) «Dushman»
- D) «Tirilgan murda»
- E) «Qishloq hukm ostida»

**67. «O'tkan kunlar» romanida «mavzuni tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lgan keyingi «xon zamonlari»dan boshladim», deb yozganida, A. Qodiriy qaysi davrni nazarda tutgan edi?**

- A) Qo'qon xoni Amir Umarxon hukmronligi davrini
- B) Qo'qon va Toshkent xonlari Xudoyorxon hamda Azizbeklar hukmronligi davrini
- C) Buxoro xoni Amir Haydar hukmronligi davrini
- D) Xiva xoni Muhammad Rahimxon hukmronligi davrini
- E) Qo'qon xoni Amir Olimxon hukmronligi davrini

**68. «O'tkan kunlar»ning ijobiy obrazlari qatorini toping**

- A) Otabek, Kumush, Homid, Oftob oyim, Jannat
- B) Otabek, Yusufbek hoji, Sodiq, O'zbek oyim
- C) Otabek, Yusufbek hoji, Kumush, Mirzakarim qutidor
- D) Oftob oyim, Kumush, usta Alim, Hasanali, Oybodoq
- E) C va D

**69. «O'tkan kunlar»dagi qaysi obrazlar kitobxonda nafrat tuyg'usini uyg'otadi?**

- A) Homid, Hasanali, usta Alim, O'tabboq qushbegi
- B) Homid, Sodiq, Jannat, O'tabboq qushbegi
- C) Musulmonqul, Xushro'y, Xudoyorxon, Zaynab
- D) A, B va C
- E) B va C

**70. «O'tkan kunlar» romanidagi Kumushning haqiqiy qotili Zaynab deb o'ylaysizmi?**

- A) Ha. Kundoshlik azobi uni shu qabih yo'lga boshladi.
- B) Yo'q. Kumushbibi o'limida Zaynabga zahar olib kelgan opasi Xushro'y aybdor.
- C) Ha. Zaynab xonadonda yolg'iz arzanda kelin bo'lib qolishni, Otabekning boyligiga ega bo'lishni ko'zlab, qotillikka qo'l urgan edi.
- D) Yo'q. Kumushga «zahar ichirgan» aslida inson tuyg'ularini va huquqlarini sariq chaqaga olmay, uni poymol etgan adolatsiz tuzum va ana shu tuzumda o'sib, voyaga kishilardagi ja-holat va loqaydlik edi.
- E) Yolg'on xatlarni uyushtirgan Homid edi.

**71. Marg'ilondan qaytgan Otabekka otasi Yusufbek hoji: «O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yo'qmi, biz seni ustingdan bir ish qilib qo'ydik», - deganida, «... hoji o'g'lining javobini eshitib, yerga qaradi va nima deb javob qaytarishini bilmay qoldi». Bu qanday oqilona javob edi?**

- A) «Aqlli kishilar faqat o‘g‘illarining ra‘yiga qarab ish ko‘radilar»
- B) «Aqlli kishilarning o‘g‘illari ustidan qilgan ishlari, albatta noma’qul bo‘lmas»
- C) «Aqlli kishilar o‘z o‘g‘illari ustidan o‘ylamay qilgan ishlari uchun oxiri afsuslanadilar»
- D) «Aqlli kishilar o‘z o‘g‘illari ustidan o‘ylamay ish qilmasliklari kerak»
- E) «Aqlli kishilar birinchi navbatda o‘zlarini emas, farzandlari baxtini o‘ylashlari kerak»

**72. Otabek va Mirzakarim qutidorlarni dor ostiga aslida nima olib keldi?**

- A) Ziyo shohichining uyida xonlik tuzumi haqida o‘ylamay aytgan gaplari
- B) Homidning Otabekka qasdi
- C) O‘tabboy qushbегining fuqaro taqdiriga befarqligi
- D) xonlik tuzumidagi adolatsizlik, xalq taqdiriga loqaydlik, tuzum kishilaridagi hasad, g‘araz, chaqimchiliklar
- E) Xudoyorxonning kaltafahmliги

**73. “-Qanday kuyni chalay, bek aka? Otabek sarxush tovush bilan jiddiygina qilib dedi:**

-Bilsangiz, haydalish kuyini chalingiz, ajralish kuyini chalingiz...”

«O‘tkan kunlar»dan olingan bu parcha asarning qaysi bobida uchraydi?

- A) «Haydalish kuyi»
- B) «Navo kuyi»
- C) «Bir g‘aribi bechora»
- D) «Bizda kim ko‘p yig‘laydir»
- E) «Quvlanish»

**74. Asarda g‘am-hasrati, fojiasi Otabeknikidan kam bo‘lmagan, bechora, g‘arib inson kim edi?**

- A) Hasanali
- B) Oybodoq
- C) Kumush
- D) Usta Alim
- E) Xushro‘y

**75. «Otabek holsizlanib oyoq uzra va orqasidagi yarim yalangoch ko‘lagani ko‘rib, bir necha qadam qabr tomonga tislandi...**

Bu ko‘laga kimniki edi?

- A) Qur‘on tilovat qilgan qoriniki edi
- B) Xushro‘yning ko‘lagasi edi
- C) Kumush arvoҳining ko‘lagasi edi
- D) Zaynabning ko‘lagasi edi
- E) Tilanchi ayolning ko‘lagasi edi

**76. Otabekning Kumushdan xotira bo‘lib qolgan o‘g‘lining ismi...**

- A) Oybek
- B) Yodgor
- C) Farhod
- D) Yusufbek
- E) nomi aytilmagan

**77. «Mehrobdan chayon» romanining bosh mavzusi nima?**

- A) xonlik tuzumi davridagi deh-qonlarning xonavayron bo‘lishi
- B) kosiblar va ishchilar sinfining mazlumona hayoti
- C) Xudoyorxon davridagi o‘zboshimchaliklar, mehnatkash xalqqa istagancha zulm o‘tkazish va bunga qarshi borganlarni ayovsiz jazolash
- D) mehnatkash xalqning xonga va Rusiya zulmiga qarshi ozodlik uchun olib borgan kurashi
- E) mamlakatni Rusiya istibdodidan qutqazish uchun olib borilgan kurash

**78. Qodiriy «mehrobdan chiqqan chayonlar» sifatida kimlarni qoralaydi?**

- A) Xudoyorxon, Abdurahmon, Shahodat mufti, Kalonshoh
- B) Xudoyorxon, Safar bo‘zchi, Samad buqoq, Gulshan
- C) Xudoyorxon, Nozik, Sultonali, Qobil
- D) Xudoyorxon, Zokir gov, Solih maxdum, Nigor oyim
- E) Xudoyorxon, Abdurahmon, Muhammad Rajabbek

**79. A. Qodiriy haqida kimlar xotira asarini yozgan?**

- A) Nabijon Boqiy, «Qatlnoma», Shukrullo, «Kafansiz ko‘milganlar»
- B) Tog‘ay Murod, «Otamdan qolgan dalalar», O‘tkir Hoshimov «Tushda kechgan umrlar»
- C) Shukur Xolmirzaev, «Qora kamar», X. To‘xtaboev, «Mungli ko‘zlar»
- D) Habibullo Qodirov, «Otam haqida», «Qodiriyning so‘nggi kunlari», Nabijon Boqiy, «Qatlnoma»
- E) A va D

**80. Qaysi adib «... mudarrislik qilish o‘rniga men milliy o‘zbek yozuvchisi bo‘lishga ahd qildim» deydi...**

- A) Abdulla Qodiriy
- B) Abdulhamid Cho‘lpon
- C) Abdurauf Fitrat
- D) Hamza Hakimzoda
- E) Abdulla Avloniy

**81. A. Cho‘lpon ijodi va dunyo-qarashining shakllanishida kuchli ta’sir ko‘rsatgan jadid gazetasi...**

- A) I. Gaspirinskiyning «Tarjimon» gazetasi
- B) Ismoil Obidiyning «Taraqqiyot» gazetasi

- C) Avloniyning «Turon» gazetasi
- D) «Sadoi Turkiston» gazetasi
- E) «Oyna» gazetasi

**82. Cho‘lponning «Duxtur Muhammadyor» asarida kimning fojiasi hikoya qilinadi?**

- A) Hoji sartarosh fojiasi
- B) Muhammadyor fojiasi
- C) rus ofitseri fojiasi
- D) muallim fojiasi
- E) ikki bezorining fojiasi

**83. «Doktor Muhammadyor» hikoyasining yetakchi g‘oyasi nimadan iborat?**

- A) xalqni erk, istiqlol uchun kurashga da’vat etish
- B) rus mustamlakachilariga qarshi kurashga da’vat etish
- C) xalq baxti uchun kurashga da’vat etish
- D) xalq ongini uyg‘otish va ma’ri-fatga da’vat etish
- E) A va D

**84. Cho‘lponning dastlabki she’riy to‘plamlari qanday nomlanadi?**

- A) «Soz», «Ishq va muhabbat»
- B) «Qora yo‘llar», «Sevgi», «Sezgilar»
- C) «Uyg‘onish», «Buloqlar», «Tong sirlari»
- D) «O‘lim yovga», «Poyga», «Buloqlar»
- E) «Soz», «O‘zbekim», «Buloqlar»

**85. Hurriyat bo‘lganda sen kelding,  
Minayin semirgan otga deb,  
Og‘zingga «mallalar» tepdilar,  
«Ma’rifat haromdur sartga» deb...**

Ushbu misralar Cho‘lponning qaysi she’ridan olingan?

- A) «Qizil bayroq»
- B) «Binafsha»
- C) «Oktabr»
- D) «Ozod turk bayrami»
- E) «O‘zbekim»

**86. A. Cho‘lpon tarjima qilgan asarlar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) «Urush va tinchlik», «Hamlet», «Revizor»
- B) «Hamlet», «Dubrovskiy», «Kapitan qizi»
- C) «Boris Godunov», «Hamlet», «Dubrovskiy»
- D) «Tog‘ oraliqlari romani», «Susima», «Ona»
- E) «Hamlet», «Qirol Lir», «Don Kixot»

**87. A. Choʻlpon lirikasining yetakchi mavzui...**

- A) ijtimoiy tuzumga nisbatan isyon
- B) erk va hurfikrlilik
- C) goʻzallik, sevgi va sadoqat
- D) vatanga muhabbat, tinchlik
- E) A va B

**88. Bir-biriga qarama-qarshi ikki obraz-koʻngil va kishan timsollari Choʻlponning qaysi sheʼrida tasvirlangan?**

- A) «Xalq»
- B) «Kishan»
- C) «Koʻngil»
- D) «Binafsha»
- E) «Buzilgan oʻlkaga

**89. Abdulhamid Choʻlponning sahna asarlari toʻgʻri koʻrsatilgan qatorni aniqlang.**

- A) «Rustam», «Baxtsiz kuyov», «Mirzo Ulugʻbek»
- B) «Oʻlim bosqinchilarga», «Hujum», «Oʻrtoq Qarshiboev»
- C) «Yorqinoy», «Hujum», «Oʻrtoq Qarshiboev»
- D) «Yurak sirlari», «Rustam», «Hujum»
- E) «Vatan ishq», «Parvona», «Oʻrtoq Qarshiboev»

**90. «Kecha va kunduz» romanining bosh mavzusi...**

- A) mustamlakachilar zulmiga qarshi milliy ozodlik kurashi
- B) mazlum xalqning 1916 yilgi mardikorlikka qarshi qoʻzgʻoloni
- C) rus mustamlakachilarining oktabr toʻntarishi arafasidagi buyuk shovinistik siyosati
- D) tipik feodal tuzum qamchisi ostida xoʻrlangan va tahqirlangan xotin-qizlar fojiasi
- E) rus chorizmiga qarshi xalq isyoni

**91. «Kecha va kunduz» romanining ijobiy obrazlari...**

- A) Qurvonbibi, Razzoq soʻfi, Zebi, Sultonxon
- B) Qurvonbibi, Zebi, Enaxon, Fazilat, Oʻlmasjon
- C) Zebi, Qurvonbibi, Oʻlmasjon, Enaxon, Saltanat
- D) Zebi, Enaxon, Poshshohon, Oʻlmasjon, Xolmatjon
- E) Zebi, Qurvonbibi, Razzoq soʻfi, Xolmatjon

**92. «Kecha va kunduz»da razillik va adolatsizlik, fahsh va qabohat olamining vakillari...**

- A) Eshon, Razzoq soʻfi, Qurvonbibi, Safar boʻzchi
- B) Akbarali mingboshi, Abdusamat mingboshi, Oʻlmasjon
- C) Akbarali mingboshi, noib toʻra, eshon, Razzoq soʻfi, Xolmat
- D) Akbarali mingboshi, noib toʻra, eshon

E) noib to‘ra, Miryoqub, Akbarali, Mamaturdi, Xolmat

**93. «Kecha va kunduz»da Miryoqubga o‘zining ilg‘or jadidona qarashlarini «yuqtirgan» ziyoli kim?**

- A) noib to‘ra
- B) Abdisamat
- C) O‘lmasjon
- D) Zunnun
- E) Sharafuddin Xo‘jaev

**94. «Kecha va kunduz»dagi «ko‘rgazmaga qo‘yilaturgon antiqa maxluq-lardan biri» kim edi?**

- A) Akbarali
- B) Razzoq so‘fi
- C) Zunnun
- D) noib to‘ra
- E) eshon bobo

**95. «... Zebi sekingina bo‘ynini cho‘zib, gapga quloq soldi.**

**U faqat Qumrining so‘zini-bittasi o‘zimizning aravakash... « degan so‘nggi so‘zini eshitib oldi.**

«Kecha va kunduz»dagi bu aravakash kim edi?

- A) O‘lmasjon
- B) Xolmatjon
- C) Mamaturdi
- D) Abdisamat
- E) Hakimjon

**96. «Qafasning darichasi ochildi...»**

**«Kecha va kunduz»dan olingan bu so‘zlarda muallif nimaga ishora qilgan?**

- A) milliy ozodlik uchun kurashning boshlanganiga
- B) rus mustamlakachiligining bar-ham topishiga
- C) Zebixon uchun Enaxonlarnikiga borishga ruxsat berilganligiga
- D) Razzoq so‘fi ayvonidagi bedana qafasiga
- E) turma eshigining ochilishiga

**97. «Kecha va kunduz»dagi Akbarali mingboshi xotinlarining ismi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Umriniso, Poshohon, Xadicha
- B) Maryam, Sultonxon, Zebi
- C) Xadicha, Poshshohon, Sultonxon
- D) Enaxon, Zebixon, Xadicha
- E) Poshshohon, Zebixon, Fazilat

**98. «Kecha va kunduz»dagi Miryoqub Akbaralidan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?**

- A) «shamolning qaysi tomonga esishini» yaxshi bilishi bilan
- B) tashqi ko‘rinishi bilan
- C) kambag‘al xalqqa g‘amxo‘rligi bilan
- D) o‘zi voyaga yetgan muhitdan qochishga intilishi bilan
- E) A, B va D

**99. «Kecha va kunduz»da Akbarali mingboshi o‘rniga noib to‘raning oshpazi Zunnunning mingboshi qilib tayinlanishining boisi nimada?**

- A) Zunnun yuqori amaldorlarga pora uzatgan
- B) Noib to‘raning xotini oldida «tili qisiq»ligi uchun
- C) Zunnun xalqparvar inson
- D) Xalqning o‘zi Zunnunni mingboshilika saylagan
- E) Noib to‘ralarga xalqni osonlik bilan boshqarish uchun xuddi shunday kallasi puch kishilar kerak edi

**100. «Kecha va kunduz»dagi Zebini sud zaliga nima yetaklab keldi?**

- A) Poshshohon zahar solib qo‘ygan choynak
- B) Mustabid tuzum adolatsizligi, shu tuzumda yashayotgan kishilardagi jaholat, inson qismatiga lo-qaydlik
- C) Akbarali mingboshining ichkilikka mukkasidan ketishi va tasodifiy o‘limi
- D) Razzoq so‘fining nodonligi
- E) Razzoq so‘fi muhitida o‘sgan Zebining itoatkorligi

**101. «Kecha va kunduz»da yozuvchi Akbarali mingboshi orqali qanday kishilar obrazini yaratgan?**

- A) xalqparvar, sofdil kishilar obrazini
- B) rostgo‘y, mehnatkash insonlar obrazini
- C) mazlum elga «rahbarlik qilib» uni boshi berk ko‘chaga olib kelib qo‘ygan kishilar obrazini
- D) Ham surati, ham siyrati jihatidan iflos, amalparast, qo‘rqoq kishilar obrazini
- E) C va D

**102. Razzoq so‘fining fojiasi nimada deb o‘ylaysiz?**

- A) kambag‘alligida
- B) dindorligida
- C) halolligida
- D) johilligida
- E) odamlarga ishonuvchanligida

**103. Razzoq so‘fining birdan telba bo‘lib qolishining sababi?**

- A) dunyoda ishongan yakkayu-yagona kishisi, piri-eshon boboning uni yer bilan yakson qilib tahqirlashi  
B) eshon bobo tomonidan kaltaklanishi  
C) qizi boshiga tushgan kulfat  
D) eshonga qilgan xizmatlariga achinishi  
E) kasallik yuqishi

## 13-DARS

### XX - XI ASR O'ZBEK ADABIYOTI

**Darsning maqsadi:** talabalarga *sho'rolar davri adabiyoti* va *shu davrda yashab ijod qilgan G'afur G'ulom va Oybek hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.*


#### Reja:

1. *G'afur G'ulom shariyati.*
2. *G'afur G'ulomning nasriy asarlari.*
3. *Oybek shariyati.*
4. *Oybekning nasriy asarlari.*

**Tayanch tushunchalar:** *sho'rolar davri o'zbek adabiyoti, G'afur G'ulom shariyati va nasri, Oybekning shariyati va nasriy asarlari.*

### G'AFUR G'ULOM

(1903-1966)



Gʻafur Gʻulom 1903-yil 10-mayda Toshkentda tugʻildi. Ota-onasidan barvaqt yetim qolgan Gʻafur hayotning barcha ogʻir sinovlarini boshidan kechirdi: etikdoʻz kosibga shogirdlik, tegirmonga qorovullik qildi, Sariboy boʻlis degan boyning bogʻini qoʻridi. 1916-yili rus-tuzem maktabida, soʻng 8 oylik oʻqituvchilar tayyorlash kursida oʻqidi, kursni tugatib, maktab-internatda oʻqituvchi hamda mudir boʻlib ishladi. Bir kuni bolalar uyidan internatga bir necha bolalarni oʻtkazadilar. Shu kecha yosh Gʻafur tonggacha bolalar yonida poyloqchilik qilib chiqadi va ilhomi kelib, ana shu yetim bolalar haqida, oʻzining yetimligi haqida bir sheʼr yozadi. Bu uning birinchi sheʼri edi. Keyin “Goʻzallik nimada?” bundan soʻng “Surnay” sheʼrlari tugʻiladi. Shunday qilib yangi bir shoir dunyoga keladi.

Gʻafur Gʻulom adabiyot maydoniga 20-yillarning boshlarida kirib keldi. “Mushtum”, “Yer yuzi” jurnallari, “Sharq haqiqati”, “Qizil Oʻzbekiston” gazetalarida oʻz sheʼrlari, hajviy hikoya va feletonlari bilan tez-tez koʻrina boshladi. 30-yillarning boshlarida Gʻafur Gʻulom yozuvchi, shoir sifatida ancha tanilib qolgan edi. Birin-ketin “Dinamo”; “Tirik qoʻshiqlar” sheʼriy toʻplamlari, “Kulgi hikoyalar”, “Yigit” nomli hikoyalar toʻplamlari bosilib chiqdi.

“Elatiyada bir ov”, “Chorbozorchi”, “Hiylayi sharʼiy” hikoyalari yozuvchi oila va ahloq masalalarini qalamga oladi. “Hiylayi sharʼiy” hikoyasida Mulla Dilkash obrazi orqali adib bir necha xotini boʻlishiga qaramay, yangisini olishni koʻngli tusab qolgan, buning uchun shariatdan yoʻl qidirishga majbur boʻlib, tubanlikkacha borib yetgan pastkash bir shaxs qiyofasini tasvirlaydi.

Gʻ.Gʻulom qissachilik janrida ham oʻzining noyob isteʼdod egasi ekanligini koʻrsatadi. Uning “Netay”, “Yodgor”, “Shum bola” qissalari oʻzbek adabiyotining eng nodir namunalariga aylanib qoldi.

Chuqur xalqchillik ruhi bilan sugʻorilgan avtobiografik xarakterga ega boʻlgan, xalq latifalari, askiya va ertaklari singdirib yuborilgan “Shum bola” qissasi xalqimizning eng koʻp oʻqimishli asarlaridan hisoblanadi. Asarning “Shum bolaning sarguzashti” deb nomlangan dastlabki boʻlimi 1936 yilda “Mushtum”da bosilib chiqdi. Oʻsha yillarning oʻzida adib uning nomini “Dovdirash” deb oʻzgartirib, kitob hoida nashr ettirdi, keyinchalik uni ikki boʻlim bilan toʻldirdi va 1938-yilda yaxlit kitob hoida bosmadan chiqardi. Asarning soʻnggi qayta ishlangan variantida qissadagi realistik ruh yanada kuchaytiriladi. Asar qahramonlari shum bola, uning oʻrtoqlari Omon

va Yo‘ldoshlar o‘g‘ri, kazzob, firibgar, ko‘knori, din niqobi ostida kun kechiruvchi imonsiz kishilar, xasis, qurumsoq boylar ustidan kulib, o‘ch oladilar. Qissani o‘qir ekanmiz, uning qahramonlari bilan birga shaharma-shahar, qishloqma-qishloq kezib, qashshoq, tutday to‘kilay deb turgan kulbalarda bo‘lamiz, oddiy, uyida bug‘doy noni bo‘lmasada, bag‘ri ochiq, halol insonlar bilan tanishamiz, ipaklarga ko‘milgan, qavat-qavat ko‘rpachalar tashlangan boylar xonadonida ochko‘zlik va qallobliklarning guvohi bo‘lamiz.

G‘. G‘ulom “Men Sharqdan kelayotirman” she’riy to‘plami uchun 1946 yilda Ittifoq Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

**G‘afur G‘ulom asarlari namunalarining QR kodi**



**MUSO TOSHMUHAMMAD O‘G‘LI**

**OYBEK**

**(1905-1968)**



Oybek 1905-yilda Toshkentda Govkush mahallasida dunyoga keldi. Dastlabki ta’limni eski maktabda, so‘ng “Namuna” nomli

boshlang'ich maktabda oldi, Navoiy nomidagi pedagogika texnikumini, 1930-yilda esa O'rta Osiyo Davlat universitetini tugatdi.

Oybek adabiyot maydoniga 1926-yilda chop etilgan "Tuyg'ular" she'riy to'plami bilan kirib keldi. "Ko'ngil naylari" (1929), "Mash'ala" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq" (1938) kabi to'plamlari bilan u el orasida iste'dodli shoir sifatida tanildi. Oybek kichik lirik va voqeaband she'rlar bilan bir qatorda doston(poema) janrida ham o'z iste'dodini namoyish eta oldi. Uning "O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Navoiy", "Qizlar", "Temirchi Jo'ra", "Dilbar - davr qizi" dostonlari keyinchalik yirik nasriy asarlari uchun zamin yaratdi.

### **"Qutlug' qon"**

Yangi davr o'zbek prozasi taraqqiyotini Oybek ijodisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yozuvchi adabiyotimiz xazinasini "Qutlug' qon" (1938), "Navoiy" (1942), "Oltin vodiya shabadalar" (1949), "Quyosh qoraymas" (1943-1958), "Ulug' yo'l" (1968) romanlari va "Bolalik", "Nur qidirib" povestlari bilan boyitib ketdi.

"Qutlug' qon" romani 1938-yilda yozib tugatilgan bo'lsa-da, 1940-yilda ko'p qiyinchiliklar bilan bosilib chiqdi. Bu paytda avj olayotgan Stalin qatag'oni Oybekni ham chetlab o'tmadi, uning boshiga ham ko'p malomatlar yog'ilib, ham institutdan, ham yozuvchilar uyushmasidan haydalgan edi.

Romandagi voqealar yuz bergan paytda Oybek endigina 11 yoshda edi. Adib bolaligidan xalq turmushini, kambag'allarning qorong'i va dim uy-joylarini, boylarning atrofi baland-baland devorlar bilan o'ralgan hashamatli imoratlari, muzdek hovuzi bo'lgan bog'larini o'z ko'zi bilan ko'rgan edi. Keyinchalik bolalikdan qolgan ana shu yorqin xotiralar "Qutlug' qon" romani uchun material bo'ldi.

Ikkiyoqlama zulm pichog'i suyak-suyagiga borib taqalgan xalqning 1916-yilgi milliy ozodlik kurashiga olib borgan yo'l romanga asosiy mavzu qilib olindi. Bu kurash yo'li Yo'lchi, Shokir ota, O'roz, Qoratoy kabi mehnatkashlar bilan Mirzakarimboy va chor amaldorlari, o'g'illari Hakimboyvachcha, Salimboyvachcha, kuyovi Tantiboyvachcha o'rtasidagi ziddiyatlar orqali ko'rsatib berildi.

Yo'lchi - asarning bosh qahramoni. U uzoq qishloqdan umid bilan tog'asi Mirzakarimboynikiga ish axtarib kelgan. Dastlabki uchrashuvdayoq u o'zi bilan tog'asi o'rtasida katta farq borligini sezadi. Boy xotini Lutfinisaning unga jirkanib muomala qilishi uning ko'nglini ranjitsa-da, tog'asidan umidini uzmaydi. "Tog'am-ku,

boshqalardan yulsa ham, mendan yulmas”, - deb o‘ylaydi. Yo‘lchi voqeadan voqeaga tomon o‘tib boradi. U Mirzakarimboy xonadonida uch yil qora terga botib xizmat qiladi, biri ikki bo‘lmaydi. Asar boshida soddadil, hali oq-qorani ajrata bilmagan Yo‘lchi boy xonadonidagi siyiq muhitda, adolatsizlik va zulm tig‘i ostida pishib, chiniqib boradi. Boyning “senga bu tilni kim berdi?” deya bergan savoliga javoban “zulmingiz berdi” deya javob qaytaradi.

Boy xonadonidagi kamsitish va xo‘rliliklar, aravasi buzilib, qovunini suv tekinga berib yuborgan dehqonning og‘ir ahvoli, xotinidan judo bo‘lgan Shoqosimning ayanchli qismati, Gulnorga bo‘lgan muhabbatining poymol etilishi va Gulorning zaharlab o‘ldirilishi-hammasi Yo‘lchining ko‘zini ochadi. U endi Mirzakarimboy faqat o‘zining emas, balki barcha mehnatkashlarning dushmani ekanini tushunib yetadi va milliy ozodlik kurashida halok bo‘ladi

O‘zbek xalqining 1916-yil milliy-ozodlik kurashi arafasidagi og‘ir hayoti asarda ana shunday fojiali manzaralar orqali haqqoniy yoritib berilgan. Adib «Qutlug‘ qon» romanining mantiqiy davomi sifatida «Ulug‘ yo‘l» romanini yaratdi.

### **Oybek asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. G‘afur G‘ulom hayoti haqida nima bilasiz?
2. G‘afur G‘ulom sherlarida qanday mavzular ko‘tarilgan?
3. Oybek hayoti haqida nima bilasiz?
4. Oybek nasriy asarlari haqida nimalarni bilasiz?

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. G‘afur G‘ulomning “Sen etim emassan” sherini tahlil qilib bering.

2. Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” asarida ilgari surilgan gʻoya haqida garirib bering.

3. Oybek lirikasiga xos boʻlgan asosiy xususiyatlarni sanab bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. Gʻ. Gʻulomning ilk sheʼrlari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?**

- A) «Feliks bolalariga», «Sen yetim emassan», «Sogʻinish»
- B) «Turksib yoʻllarida», «Men yahudiyman», «Bizning koʻchada ham bayram boʻlajak»
- C) «Kuzatish», «Vaqt», Men yahudiyman»
- D) «Feliks bolalariga», «Goʻzallik nimada?», «Surnay»
- E) «Goʻzallik nimada?», «Qizil bayroq», «Uylanish»

**2. Gʻ. Gʻulomning nasriy asarlari berilgan qatorni koʻrsating.**

- A) «Uloqda», «Jinlar bazmi», «Shum bola», «Qiyomat»
- B) «Yangi saodat», «Netay», «Shum bola», «Dushman»
- C) «Netay», «Shum bola», «Yodgor», «Tirilgan murda», «Hiylai sharʼiy», «Oʻgʻri»
- D) «Shum bola», «Mening oʻgʻrigina bolam», «Hiylai sharʼiy»
- E) «Chorbozorchi», «Hiylai sharʼiy», «Bemor», «Uloqda»

**3. Urush yillarida frontda jang qilayotgan oʻgʻlini kutayotgan ota kechinmalari Gʻ. Gʻulomning qaysi sheʼrida ifodalangan?**

- A) «Kuzatish»
- B) «Sogʻinish»
- C) «Biz yengamiz»
- D) «Xalq otlandi»
- E) «Bizning koʻchada ham bayram boʻlajak»

**4. Gʻ. Gʻulomning qaysi sheʼrida oʻzining yetim oʻsganligi bilan bogʻliq lirik chekinish mavjud?**

- A) «Sogʻinish»
- B) «Turksib yoʻllarida»
- C) «Sen yetim emassan»
- D) «Kuzatish»
- E) «Vaqt»

**5. «Bir qoʻngʻiz moʻylovli, baroq soch malʼun... «**

Bu misralar kimning qaysi sheʼrida uchraydi va unda shoir kimga oʻz nafratini bayon etgan?

- A) Gʻ. Gʻulom, «Men yahudiyman», «Gitler»
- B) Gʻ. Gʻulom, «Sen yetim emassan», «Gitler»
- C) H. Olimjon, «Qoʻlingga qurol ol!», «Gitler»
- D) Uygʻun, «Qasos», «Gitler»
- E) M. Shayxzoda, «Kurash nechun?», «Gitler»

**6. Gʻ. Gʻulomning «Shum bola» qissasidagi voqealar qaysi yillarda kechadi?**

- A) Oktabr toʻntarishi arafasida
- B) Oktabr toʻntarishidan keyin
- C) Birinchi jahon urushi arafasida
- D) Vatan urushi davrida
- E) Tinch qurilish yilarida

**7. «Shum bola» qissasi qahramonlari kimlar ustidan kuladilar?**

- A) firibgar, yulgʻich, qalloblar ustidan
- B) din niqobi ostidagi imoni boʻsh, axloqsizlar ustidan
- C) bezbet amaldorlar, vijdotsiz mirshablar ustidan
- D) faqat nafsini oʻylovchi, koʻknori, miyasi puch odamlar ustidan
- E) A, B, C, D

**8. Oybekning dastlabki sheʼriy toʻplamlari qaysi javobda toʻgʻri berilgan?**

- A) «Tuygʻular», «Koʻngil naylari», «Mashʼala»
- B) «Tuygʻular», «Koʻklam», «Koʻngil naylari»
- C) «Koʻngil naylari», «Ukraina yellari», «Vatan»
- D) «Mashʼala», «Koʻklam», «Sevinch tuygʻulari»
- E) «Baxtigul va Sogʻindiq», «Dil amri»

**9. Qaysi qatorda Oybek romanlari berilgan?**

- A) «Dushman», «Quyosh qoraymas», «Qutlugʻ qon»
- B) «Qoʻshchinor», «Doxunda», «Qutlugʻ qon»
- C) «Navoiy», «Hujum», «Sarob»
- D) «Mashrab», «Sarbadorlar», «Navoiy»
- E) «Oltin vodiyan shabadalar», «Ulugʻ yoʻl», «Nur qidirib»

**10. Oybekning «Quyosh qoraymas» romani qaysi mavzuda yozilgan?**

- A) Grajdandar urushi mavzusida
- B) Vatan urushi mavzusida
- C) qishloq xoʻjaligini kollektivlashtirish mavzusida
- D) milliy ozodlik kurashi mavzusida
- E) qoʻriq va boʻz yerlarni oʻzlashtirish mavzusida

**11. Oybekning Pokiston xalqi hayotini yoritishga bagʻishlangan asari...**

- A) «Qutlugʻ qon»
- B) «Ulugʻ yoʻl»
- C) «Qizlar»
- D) «Navoiy»
- E) «Nur qidirib»

**12. Oybekning ikki romandan iborat-dilogik asari qaysi?**

- A) «Qutlugʻ qon» va «Nur qidirib»
- B) «Navoiy» va «Bolalik»

- C) «Qutlug‘ qon» va «Ulug‘ yo‘l»
- D) «Oltin vodiya shabadalar» va «Quyosh qoraymas»
- E) «Qutlug‘ qon» va «Bolalik»

**13. «Qutlug‘ qon» romanidagi mehnatkash xalq vakillari obrazlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Lutfiniso, Yormat, Yo‘lchi, Qoratoy
- B) Abdushukur, Shokir ota, Gulsum, Yo‘lchi
- C) Yo‘lchi, Qoratoy, Shokir ota, Unsin
- D) Qambar, Parpixo‘ja, Yo‘lchi, Unsin
- E) Yo‘lchi, Salim, Nuri, Shokir ota

**14. «Qutlug‘ qon» romanida yozuvchining badiiy niyatiga zid ravishda kiritilgan obraz qaysi?**

- A) Abdushukur
- B) Petrov
- C) Hokim to‘ra
- D) Qoratoy
- E) pristav

**15. «Ona, men qamalishdan qo‘rqmayman, dordan ham, o‘qdan ham qo‘rqmayman. Turma! Bu dunyo turmadan yaxshimi?»**

Bu gaplar qaysi qahramon tilidan kimga qarata aytilgan?

- A) Yo‘lchi tilidan Shokir ota singlisiga qarata
- B) Unsin tilidan Shokir ota kampiriga qarata
- C) Gulnor tilidan Gulsumga qarata
- D) Yo‘lchi tilidan Saodat kampirga qarata
- E) Abdushukur tilidan Saodat kampirga qarata

**16. «Qutlug‘ qon» romanidagi qaysi qahramon ko‘zlarida yozuvchi tasvirlaganidek, «tuyg‘unlik, olijanoblik, ko‘ngilning bahoriy tozaligi, iliqligi va qandaydir parishon xayolchanlik» jilvalanardi?**

- A) Nuri
- B) Gulsum
- C) Saodat kampir
- D) Unsin
- E) Gulnor

## 14-DARS

### USMON NOSIR, ABDULLA QAHHOR VA HAMID OLIMJON

**Darsning maqsadi:** talabalarga sho'rolar davri adabiyoti va shu davrda yashab ijod qilgan Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon va Usmon Nosir hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

#### Reja:

1. Usmon Nosir shariyati.
2. Abdulla Qahhorning nasriy asarlari.
3. Hamid Olimjon shariyati.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Usmon Nosir, shariyat, nasriy asarlar, "Sinchalak" qissasi, "O'tmishdan ertaklar", "Zaynab va Omon" dostoni.

### USMON NOSIR

(1912-1944)



O'zbek adabiyotida chaqmoqdek paydo bo'lib, chaqmoqdek qisqa umr kechirgan Usmon Nosir she'riyatga favqulodda yangicha, o'ziga xos ovoz bilan kirib keldi. Uning she'riyati, Abdulla Oripov yozganidek, tekkan joyni kuydiruvchi olovdir.

1912-yilda Namanganda oddiy oilada dunyoga kelgan Usmonning murg'ak qalbiga butun olam sig'sa-da, uning o'zi ana shu keng olamga sig'may yashadi. Tengqurlaridan o'zining zukkoligi, xotirasining o'ta kuchliligi bilan ajralib turgan sho'x, quvnoq Usmon dastlab mahallasidagi boshlang'ich maktabda, oilasi bilan Qo'qonga ko'chib kelgach, internatda o'qiydi, bu yerda u G'arb va rus adabiyoti bilan yaqindan tanishdi, "Geyne bilan o'rtoq tutindi", "Lermontovdan ko'mak o'tindi".

Badiiy ijodning Moskva bergan “qolip”idan chetga chiqishga yo‘l qo‘ymay kelayotgan “sotsialistik realizm” har qanday tuyg‘uni jilovlab olishga, qafasga solishga qodir edi, san‘atkor qalb buyurganini emas, markazkom buyurganini yozishga majbur edi. Ammo ana shu “qolip”ga sig‘magan Usmon Nosir uni nafrat bilan sindira boshladi, qalbida tug‘yon urayotgan tuyg‘ulariga erk berdi, tutqich bermas xayollariga qanot yasab, baland ucha boshladi.

37-yillarning sovuq shabadasi esa boshlagan bir paytda uning qanotlarini qayirmoqchi bo‘ldilar, Usmon Nosir “xalq dushmani”ga aylanib qolganini o‘zi bilmay qoldi. Uni 1937-yilning 14-iyulida, sevimli ustoz Abdulhamid Cho‘lpondan atigi bir kun keyin qamoqqa olishdi, avval Toshkent, so‘ng Magadan, Kemerovoning muz turmalarida ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan qiynoqlar ostida azoblashdi. Aql bovar qilmaydigan bu azoblar 32 yoshli shoirni 1944-yilning mash‘um qishi tugayotgan bir paytda hayotdan olib ketdi. Shunday qilib, she‘riyat osmonida yana bir Cho‘lpon so‘ndi.

Bo‘lmoq istab, she‘riyat uzra darg‘a,  
Itardilar meni chuqur bir jarg‘a.  
Menga ayon, bulbulning oshiyonig‘a,  
Qo‘nolmag‘ay urinish bilan qarg‘a.

Ushbu satrni shoir 1937-yil sentabrda zindonda yozgan. Shubhasiz, she‘rda shoirga hasad qilganlar, uni xalq dushmani deya chaqib tuhmat qilganlar tilga olingan.

1940-yilning 20-avgust kuni Usmon Nosir Magadandan I.V.Stalin nomiga xat yozadi. Maktubda shoir “ish”ini qayta ko‘rib chiqishlarini so‘raydi. Shuningdek, qamoqxonada turib ham “she‘riy roman, uchta sahna asari va bir qator she‘rlar yozgani” haqida xabar beradi. Maktubda: “Men hali yoshman va g‘ayratga to‘laman. Men xalq uchun ijod qilishim kerak! Menda ayb yo‘q!” degan so‘zlar ham bo‘ladi. Ajablanarlisi, minglab shunday maktublar orasidan Usmon Nosirning xati e‘tiborga tushadi va O‘zbekiston hukumati Kreml dan shoir ishini qayta ko‘rib chiqish haqida buyruq oladi.

1944-yilning so‘nggida professor Borovkov, shoir Maqsud Shayxzoda, va “Qizil O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriridan tarkib topgan komissiya Usmon Nosirni aybsiz deb topadi. Biroq, bunday xulosaga endi juda kech edi. Shoir 1944-yilning 9 mart kuni vafot etadi.

Inson hayoti u bosib o'tgan uzoq yillar bilan emas, balki uning mazmuni bilan, o'zidan keyingi qoldirayotgan ezgu ishlari bilan o'lchanadi. Usmon Nosir nari borsa, 15 yil ijod qilgandir, biroq shu qisqa vaqt ichida u yangi avlodga ulkan adabiy meros qoldirib ketdi. "Quyosh bilan suhbat" (1932), "Safarbar satrlar" (1932), "Traktorobod" (1934), "Yurak" (1935), "Mehrim" (1936) she'riy to'plamlarini nashr ettirdi, "Norbo'ta", "Naxshon", "Nil va Rim" poetik asarlarini yozishga, "Atlas" she'riy dramasini yaratishga ulgurdi, A. S. Pushkinning "Bog'chasaroy fontani", M. Lermontovning "Demon" ("Iblis") dostonlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Shoirning "Norbo'ta" dostonida O'zbekistonda fuqarolar urushi voqealari, "Naxshon"da esa arman xalqining ozodlik uchun olib borgan kurashi tasvirlanadi.

"Nil va Rim" asari bilan Usmon Nosir inson erkiga bamisoli bir haykal qo'ydi. Shoir unda erk, ozodlik yo'lida kurashgan va shu kurashda qurbon bo'lgan qullar hayotining jonli tarixini chizadi. Ko'z o'ngimizda "sariq qumlar orasida ko'tarilayotgan qon rangli Quyosh, qon oqayotgan Nil daryosi, kosasida suv yo'q, quruq xaltasida non yo'q, erki qulf, hayoti qulf, xudolari qulf bo'lgan qullar gavdalanadi. Rim yalang'och yig'laydi. Yuliy sezar tilla qadahda qon ichadi. O'yingohda yo'lbars bilan olishayotgan gladiatorning parcha-parcha bo'lganini tomosha qilib, asilzodalar sevinganidan qarsak chaladilar, ming azob bilan jon berayotganini ko'rib zavqlanadilar..."

She'rning ohirgi qismlarida kurashning hali o'lmaganligi, uni kelgusi avlodlar davom ettirajagi ta'kidlanadi. 32 yoshida mustabid tuzum qurboni bo'lgan shoirning o'zi esa bizga hamon ana shu kurashlar safida turganday tuyuladi.

### **Usmon Nosir asarlari namunalarining QR kodi**



## ABDULLA QAHHOR

(1907-1968)



Abdulla Qahhor 1907-yil 17-sentabrda Qo‘qonda tug‘ildi. Yozuvchining bolaligi achchiq kunlar qo‘ynida Qo‘qon atrofidagi Olqor, Yaypan, Qudash, Buvayda, Oqqo‘rg‘on kabi qishloqlarda o‘tdi. Temirchi Qahhor akaning turmush mashaqqatlari murg‘ak Abdullani ham chetlab o‘tolmadi. U dastlab eski maktabda, Sho‘ro to‘ntarishidan keyin maktab-internatda, pedagogika bilim yurtida o‘qib, O‘rta Osiyo Davlat universitetining ishchi fakultetini tugatdi.

Abdulla Qahhorning ilk kitobi “Qishloq hukm ostida” qissasi 1932-yilda bosilib chiqdi. 1934-yilda “Sarob”, 40-yillarning o‘rtalarida “Qo‘shchinor chiroqlari” (1951-yilda adib bu romanni qayta ishladi) romanini yozdi.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotida hikoyachilik maktabiga asos solib ketdi. Said Ahmad, Shuhrat, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, O‘tkir Hoshimov, Abdulla Oripov, Shukur Xolmirzaev kabi iste‘dodli yozuvchilar Abdulla Qahhordan ma‘naviy ozuqa oldilar.

30-yillarda adib yaratgan “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Mayiz yemagan xotin”, “Jonfig‘on”, “Adabiyot muallimi”, “O‘jar”, “Ko‘r ko‘zning ochilishi”, “San‘atkor”, “Millatchilar” va keyingi yillarda ijod etgan “Ming bir jon”, “Dahshat”, “Dumli odamlar”, “Asror bobo”, “Qabrdan tovush” va boshqa o‘nlab hikoyalari bilan yozuvchi o‘zining xarakter yaratish, detal tanlash, voqealarni chexovchasiga ixcham, lo‘nda bayon etishdagi mahoratini ko‘rsata oldi. Bu mahorat sirlarini aslida Abdulla Qahhor buyuk rus adiblari N. V. Gogol, A. P. Chexovlardan o‘rgangan edi. Adib ta‘biri bilan aytganda, Chexov go‘yo unga o‘z ko‘zoynagini berib, hayotga ana shu ko‘zoynak orqali qara, deyayotganday bo‘ladi. Adibning rus tilidan qilgan tarjimalari-

A.Pushkinning “Kapitan qizi”, Gogolning “Revizor”, L.Tolstoyning “Urush va tinchlik”, (turmush o‘rtog‘i Kibriyo Qahhorova bilan hamkorlikda) A.Gorkiyning “Mening universitetlarim”, F.Gladkovning “Temir oqim”, M. Shaginyanning “Gidrotsentral” - yozuvchi qalamini yanada qayradi.

Abdulla Qahhor o‘zining “Yangi yer” (“Shohi so‘zana”), “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” kabi pesalari bilan o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi.

### **“Sinchalak”**

Abdulla Qahhor qissachilik janrida ham barakali ijod qildi. Uning “Sinchalak” (1958), “O‘tmishdan ertaklar” (1964), “Muhabbat” (1966) qissalari o‘zbek prozasining nodir namunalariga aylanib qoldi.

1958-yilda yozib tugallangan va 1959-yilda nashr etilgan “Sinchalak” qissasida yozuvchi ikki illatni: xotin-qizlarga past nazar bilan qarash va shaxs rolini oshirib, kollektiv rolini pastga urish kabi illatlarni qoralaydi. Bu illatlarning biri o‘tmish feodalizm davridan qolgan bo‘lsa, ikkinchisi Stalin shaxsiga sig‘inish oqibatlarini edi.

Asarda 50-yillarning o‘rtalarida o‘zbek qishlog‘ida yuz bergan o‘zgarishlar, qishloq mehnatkashlarining o‘ylari, orzu-umidlari, quvonch va tashvishlari aks ettirilgan. Adib qishloqni kelajakka tomon borayotgan ilg‘or kuchlarni “Bo‘ston” kolxoziga yangi partkom sekretari bo‘lib kelgan Saida Alieva va ularga xalaqit berayotgan illatlarni kolxoz pravleniesi raisi Arslonbek Qalandarov obrazlari va ular o‘rtasida kechadigan ziddiyatlar orqali ko‘rsatib bergan.

Saida ko‘rinishidan mo‘rtgina, nozikkina bir qiz. Biroq undagi ma‘naviy kuch-g‘ayrat, ishbilarmonlik, tashabbuskorlik Qalandarov bilan dastlabki to‘qnashuvdayoq ko‘zga tashlanib qoldi. Qalandarov nazarida paxta inson uchun emas, inson paxta uchun xizmat qilish kerak, Shuning uchun u plandan boshqasini tan olmaydi, unga shuhrat ham xuddi shu plan orqasidan kelgan, rayon rahbarlari oldida uning degani-degan, aytgani-aytgan, komissiya ham shu kolxozga keladi, mukofotlar ham, avvalo, shu kolxozga beriladi. Qalandarov, o‘zining aytishicha, kolxozning qitig‘i qaerdaligini yaxshi biladi, kolxoz haqida kitob ham yozgan. Biroq uni yutuqlar esankiratib, savodsizlik mo‘rt qilib qo‘ygan. Manmanlik, ayniqsa, xotin-qizlarga past nazar bilan qarash uning qoniga singib ketgan. “Xotin kishi bilan ishlasam, kalavamni uchini yo‘qotib qo‘yaman”, -deydi u.

Saidaga dastlab hayot to'liqlari ichiga tushib qolganday, bu girdobdan chiqish qiyinday tuyuladi. Biroq u ikkilanib qolmaydi. Ishni mehnatkashlar turmush sharoitini yaxshilash, tashabbuskorlikni jonlantirishdan boshlaydi. “Mo‘rtgina narsa ekansiz, qiynalib qolmasmikansiz?”-deya Saidaga shama qilgan Qalandarov aslida o‘zining mo‘rt ekanligini, zamondan orqada qolganligini anglab yetadi. A. Qahhor Saida Alieva orqali yangi davr, yangi sharoitda shakllanib kelayotgan yangicha ong, yangicha xarakterga ega bo‘lgan o‘zbek ayolining realistik obrazini yaratib berdi.

Adib uzoq davom etgan kasallikdan so‘ng 1968-yil 25-mayda Moskvada vafot etdi.

### **Abdulla Qahhor asarlari namunalarining QR kodi**



### **HAMID OLIMJON**

**(1909-1944)**



Hamid Olimjon 1909-yilning 12-dekabrida Jizzax shahrida dunyoga keldi. Otasidan to‘rt yoshida judo bo‘lgan Abdulhamid onasi Komila aya va bobosi Mulla Azim qo‘lida qoladi. Yosh Abdulhamidning bolalik dunyosini yoritgan, uni adabiyot olamiga

yetaklab kirgan onasi Komila ayaning ertaklari bo'ldi. 1916 yilgi Jizzax qo'zg'oloni paytida u yetti yoshda edi, qishloqlarning to'pga tutilishi, xalqning suvsiz dashtga quvilishi, och va yalang'och darbadar kezgan beva-bechoralar uning ko'z o'ngida bir umrga muhrlanib qoldi.

Abdulhamid Narimonov nomli to'liqsiz o'rta maktabni bitirib, Samarqand o'zbek bilim yurtida o'qiydi, keyinchalik Toshkentga kelib pedakademiyaning tugatadi va "Yosh leninchi" gazetasi, "Qurilish", "O'zbekiston sho'ro adabiyoti" jurnallarida ishladi.

H. Olimjonning "Kimdir" deb nomlangan birinchi she'ri 1926 yilda "Zarafshon" gazetasida e'lon qilindi. 1929 yilda esa shoirning birinchi she'riy to'plami "Ko'klam" nashr etildi. Shundan so'ng birin-ketin uning "Tong shabadasi" hikoyalari to'plami (1931), "Olov sochlar", "Poyga", "O'lim yovga" (1932), "Daryo kechasi" (1936), "She'rlar" (1937), "O'lka", "Oygul bilan Baxtiyor" (1936), "Baxt" (1939) kabi she'riy to'plamlari bosmadan chiqdi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Hamid Olimjon g'alabaga ishonch ruhi bilan sug'orilgan, jangchilarni safarbarlikka chorlovchi she'rlar, "Roksananing ko'z yoshlari", "Jangchi Tursun" balladalari, "Muqanna" dramasini yozdi.

### **"Zaynab va Omon"**

30-yillarning boshlarida mamlakatda qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jarayoni avj olib ketdi. Kompartiya chaqiriqlariga "labbay" deb javob berib kelgan va uning beminnat dastyoriga aylanib qolgan sovet adabiyoti bu jarayonda chetda turolmadi, albatta. G'. G'ulomning "Ko'kan", "Tirilgan murda", Uyg'unning "Jontemir", H. Olimjonning "Zaynab va Omon" asarlari partiya chaqirig'iga javoban o'z vaqtida berilgan javob bo'ldi.

30-yillarning boshlarida O'zbekistonda paxta mustaqilligi uchun kurash borayotgan bir paytda o'zbek paxtakorlarining bir guruhi orden va medallar bilan mukofotlandi. Ular orasida ayollardan birinchi bo'lib Lenin ordenini olgan Buxoro viloyati Akmalobod (hozirgi G'ijduvon) tumanidagi Stalin nomli kolxoz brigadiri Zaynab Omonova ham bor edi. H. Olimjon u bilan uchrashib, uning hayoti va mehnat faoliyati haqida "Zaynab" ocherkini yozdi. 1938-yilda esa shoir ko'ngliga tugib qo'ygan niyati amalga oshdi, "Zaynab va Omon" dostoni dunyoga keldi.

O‘tmishni qoralash va yangi sotsialistik hayotni ko‘klarga ko‘tarib ulug‘lash an‘anasi sho‘ro shoiri H. Olimjonni ham chetlab o‘tolmadi. Dostonda eski turmush va urf-odatlar bilan yangicha hayot, yangicha o‘y-fikrlar o‘rtasidagi kurash Anor xola va Zaynab, Omon, Sobirlar o‘rtasidagi ziddiyatlar orqali ochib beriladi.

O‘tmish taqdiriga qora xat chizib ketgan, ota-onasidan ajralib, Anor xola kulbasida asrandi bo‘lib o‘sgan, kolxoz tufayli o‘z baxtini topgan Zaynab va unga qismatdosh bo‘lgan Omon - dostonning bosh qahramonlari. Ular yangi davrning yangi kishilari. H. Olimjon Zaynab, Omon singari ming-minglab kishilarga “baxt-saodat keltirgan yangi jamiyatdagi kollektiv hayot”ning badiiy manzarasini chizishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shoir “erkin mehnat” tufayli hurmat-e‘tibor qozongan, insonlik haq-huquqini tanigan Zaynabning baxti — Omonga yetishuvini kolxoz tuzumi bilan bog‘laydi. Zaynab go‘dakligidan Sobirga nishona qilinganligini va non sindirilganligini biladi va yangicha hayot tantanasi uchun kurashadi, bu kurashda Sobir ham, dugonasi Huri ham uning tarafida turadilar va eski turmush, eski aqidalar ustidan g‘olib keladilar.

Doston nozik tuyg‘u va kechinmalar asosida yozilgan. Muhimi shuki, shoirning sotsialistik tuzum haqidagi fikrlari, qarashlari va ana shu tuzumni olqishlashi qanchalik xato bo‘lmasin, doston o‘zbek adabiyotida sevgi va muhabbatni, yoshlarning insoniy huquq va erki uchun mardona kurashlarini aks ettiruvchi jo‘shqin harorat bilan yozilgan badiiy asar sifatida ardoqli bo‘lib qolaveradi.

### **Hamid Olimjon asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Abdulla Qahhor hayoti haqida nima bilasiz?
2. Hamid Olimjon sherlarida qanday mavzular ko‘tarilgan?
3. Usmon Nosir hayoti haqida nima bilasiz?
4. Usmon Nosir lirik asarlari haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Abdulla Qahhorning “Sinchalak” asarida ilgari surilgan g’oya haqida garirib bering.
2. Hamid Olimjonning lirik sherlarini tahlil qiling.
3. Usmon Nosir lirikasiga xos bo’lgan asosiy xususiyatlarni sanab bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. Abdulla Qahhorning ilk kitobi-qissasi qanday nomlanadi va u qaysi yili bosilib chiqdi?**

- A) «Sarob», 1934
- B) «Qo‘shchinor chiroqlari», 1951
- C) «Qishloq hukm ostida», 1933
- D) «Bemor», 1931
- E) «O‘g‘ri», 1930

**2. A.Qahhorning dastlabki hikoyalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) «Bemor», «Dahshat», «Anor»
- B) «Dahshat», «Mayiz yemagan xotin», «Ming bir jon»
- C) «Bemor», «O‘g‘ri», «Anor»
- D) «Ming bir jon», «Dumli odamlar»
- E) «Nurli cho‘qqilar», «Qabrdan tovush», «Bemor»

**3. A.Qahhor romanlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) «Sarob», «O‘tmishdan ertaklar»
- B) «Muhabbat», «Qo‘shchinor chiroqlari»
- C) «Sarob», «Nur qidirib»
- D) «Nurli cho‘qqilar», «Qishloq hukm ostida»
- E) «Sarob», «Qo‘shchinor chiroqlari»

**4. A. Qahhor komediyalari ko‘rsatilgan qatorni toping.**

- A) «Dumli odamlar», «Dahshat», «Og‘riq tishlar»
- B) «Ayajonlarim», «Og‘riq tishlar», «Tobutdan tovush»
- C) «Shohi so‘zana», «Yangi yer», «Qo‘shchinor»
- D) «Yangi yer», «Og‘riq tishlar», «Qo‘shchinor»
- S) «So‘nggi nusxalar», «Tobutdan tovush», «Pushaymon»

**5. A. Qahhorning tugallanmay qolgan va vafotidan so‘ng nashr etilgan asarlarini ko‘rsating**

- A) «Zilzila», «Tashvish»
- B) «To‘yda aza», «Mahalla»
- C) «Og‘riq tishlar», «Kartina»
- D) «Botirali», «Bolsheviklar»
- E) «So‘ngan vulqon», «Dumli odamlar»

**6. A.Qahhorning avtobiografik xarakterdagi asari...**

- A) «Bolalik»
- B) «Ko‘rgan-kechirganlarim»
- C) «O‘tmishdan ertaklar»
- D) «Shum bola»
- E) «Shoirning bolaligi»

**7. A.Qahhorning hikoyachilik mahoratiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan adib kim edi?**

- A) O. Genri
- B) M. Oybek
- C) O. Balzak
- D) A. Chexov
- E) L. Tolstoy

**8. «Sotiboldining xotini og‘rib qoldi...» Abdulla Qahhorning qaysi hikoyasi shunday so‘zlar bilan boshlanadi?**

- A) «Bemor»
- B) «Qabrdan tovush»
- C) «Dahshat»
- D) «O‘sal»
- E) «Kasal»

**9. Hayotni yurak-bag‘ridan sevib, o‘limni yenggan irodali ayol Mastura qaysi hikoya qahramoni?**

- A) «Bemor»
- B) «Tobutdan tovush»
- C) «Dahshat»
- D) «Mayiz yemagan xotin»
- E) «Ming bir jon»

**10. 30-yillarning kallasi puch, savodsiz, maqtanchoq kishilari obrazi Abdulla Qahhorning qaysi hikoyalarida berilgan?**

- A) «San’atkor», «Adabiyot muallimi»
- B) «So‘nggi nusxalar», «Dumli odamlar»
- C) «Ig‘vogar», «Ayb kimda»
- D) «To‘yda aza», «Bek»
- E) «Mayiz yemagan xotin», «Anor»

**11. Ayrim shaxslardagi ig‘vogarlik, fisq-fujur, g‘arazgo‘ylik illatlarini Abdulla Qahhor o‘zining qaysi hikoyalarida ko‘rsatgan?**

- A) «Mayiz yemagan xotin», «Qaysar», «Ig‘vogar»
- B) «Adabiyot muallimi», «San’atkor»
- C) «So‘nggi nusxalar», «Tobutdan tovush»
- D) «Dumli odamlar», «Kartina»
- E) «To‘yda aza», «Og‘riq tishlar»

**12. «Teshiktosh» hikoyasi Abdulla Qahhorning qaysi asari tarkibiga kiradi?**

- A) «Muhabbat»
- B) «O‘tmishdan ertaklar»
- C) «Sarob»
- D) «Zilzila»
- E) «Qo‘shchinor»

**13. «Teshiktosh» hikoyasi qahramonlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) Babar, amin, otqorovul, domla-imom
- B) amin, guruchfurush, Quadrat cho‘loq, Sattorqul
- C) Babar, usta Turdiali, Xotam samovarchi, otqorovul
- D) amin, mingboshi, ellikboshi, domla- imom
- E) guruchpurush, Quadrat cho‘loq, Mamajon, Jontemiir

**14. «Asror bobo» hikoyasida muallif qanday kishilar obrazini bergan?**

- A) ma‘rifatli, halol kishilar
- B) vatanparvar, irodali insonlar
- C) hayotdan umidini uzgan, irodasizlar
- D) mayda gap, ig‘vogar kishilar
- E) soddadil, taqvodor kishilar

**15. Abdulla Qahhorning «Tobutdan tovush» komediyasida jamiyatimizdagi qanday illatlar fosh etiladi?**

- A) chayqovchilik, tekinxo‘rlik
- B) manmanlik, ig‘vogarlik
- C) poraxo‘rlik, ma‘naviy pastkashlik
- D) ma‘rifatsizlik, o‘g‘rilik
- E) nizo va adovat

**16. «Sinchalak» qissasi qanday voqealarni yoritishga bag‘ishlangan?**

- A) qishloq hayoti va kishilar dunyo-qarashida yuz berayotgan o‘zgarishlar, xotin-qizlarning rahbarlik faoliyati
- B) qishloq xo‘jaligini kollektivlashtirish harakati
- C) qishloqda mehnatkash xalqning savodini chiqarish va madaniy ishlarni kuchaytirish
- D) qishloqda diniy bid‘atlarga qarshi kurashi
- E) xotin-qizlar ozodligi

**17. «Sinchalak»da konfliktning qaysi ko‘rinishi ko‘proq namoyon bo‘ladi?**

- A) davr va qahramon ziddiyati
- B) qahramon ruhidagi ziddiyat
- C) xarakterlararo ziddiyat
- D) siyosiy ziddiyat
- E) shaxsiy ziddiyat

**18. «Sinchalak»da shaxsga sigʻinish illatlari qaysi qahramon timsolida koʻrsatilgan?**

- A) Saida Alieva
- B) Eshon
- C) Nosirov
- D) Arslonbek Qalandarov
- E) Zulfiqorov

**19. Hamid Olimjonning ilk sheʼriy toʻplami qanday nomlanadi va u qachon nashr etiladi?**

- A) «Koʻklam», 1929-yil
- B) «Olov sochlar», 1932-yil
- C) «Koʻklam», 1927-yil
- D) «Poyga», 1940-yil
- E) «Oʻlim yovga», 1941-yil

**20. Hamid Olimjon ijodida qaysi mavzu boʻrtib ajralib turadi?**

- A) vatan mazusi
- B) ona mavzusi
- C) mehnat mavzusi
- D) tinchlik
- E) baxt mavzusi

**21. Hamid Olimjonning dramatik asarlari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?**

- A) «Muqanna», «Baxtsiz kuyov»
- B) «Soʻnggi nusxalar», «Yangi yer»
- C) «Muqanna», «Jinoyat»
- D) «Shubha», «Mirzo Ulugʻbek»
- E) «Jaloliddin Manguberdi», «Jinoyat»

**22. Hamid Olimjonning «Oʻrik gullaganda» sheʼrining asosiy motivi nimadan iborat?**

- A) tabiat tasviri
- B) goʻzallik madhi
- C) sevinch tarannumi
- D) sogʻinch tuygʻusi
- E) bahor va yurtga oshuftalik

**23. Hamid Olimjonning «Zaynab va Omon» dostonidagi Zaynabning prototipi kim boʻlgan?**

- A) Zaynab Xonlarova, mashhur aktrisa
- B) Zaynab Omonova, brigadir
- C) Zaynab Qoʻshoqova, sigir sogʻuvchi
- D) Zaynab Sadrieva, aktrisa
- E) Zaynab obrazining prototipi boʻlmagan

**24. Zaynab va Omonning bir-biriga o'xshash sifatlari ko'proq nimada ko'rinadi?**

- A) jismonan va ruhan chiniqqanligida
- B) tashabbuskorligi, qat'iyatli-ligida
- C) yetim o'sganligi, pokdilligi, mehnatsevarligida
- D) ilmga tashnaligi va rostgo'yligida
- E) irodaliligi va yangilikka intilishida

**25. «Zaynab va Omon» dostonida Anor qanday shaxs sifatida gavgavdalantirilgan?**

- A) mehnatsevar va vatanparvar ayol
- B) insonparvar va rostgo'y, halol inson
- C) baxtsiz va najotsiz, ojiza bir ayol
- D) taqdirning quli, eski turmush qurboni
- E) irodali va jasur ayol sifatida

**26. Geyne bilan o'rtoq tutingan» mashhur o'zbek shoiri kim?**

- A) G'.G'ulom
- B) Usmon Nosir
- C) Oybek
- D) A.Oripov
- E) Hamid Olimjon

**27. Usmon Nosirning she'riy to'plamlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A)»Sayha»,»Mening tunim», «Mening kecham»
- B) «Mirrix yulduziga», «Ko'klam», «Bahor sevinchlari»
- C) «Safarbar satrlar», «Yurak», «Sozim»
- D) «Ukraina yellari», «Men sharqdan kelayotirman»
- E) «Yurak», «Mehrim», «Quyosh bilan suhbat»

**28. Usmon Nosirning qalamiga mansub eng go'zal tarjima asarlari**

- A) «Fors taronalari», «Ilohiy komediya»
- B) «Shohnoma», «Anna Snegina»
- C) «Yevgeniy Onegin», «Fors taronalari»
- D) «Demon», «Bog'chasaroy fontani»
- E) «Dubrovskiy», «O'lik jonlar»

**29. «Rim-o'yindan o'lim kutgan jinni teatr...» Usmon Nosirning «Nil va Rim» asaridan olingan ushbu misrada nimaga ishora qilingan?**

- A) hukmdor aslzodalar saltanatiga
- B) bir-birini o'ldirgan gladiatorlarga
- C) isyonkor qullarga
- D) fojiali o'yinlar sahnasiga
- E) adolatsiz tuzumga

## 15-DARS

### MAQSUD SHAYXZODA, UYG‘UN, MIRTEMIR

**Darsning maqsadi:** talabalarga sho‘rolar davri adabiyoti va shu davrda yashab ijod qilgan Maqsud Shayxzoda, Uyg‘un va Mirtemir hayoti va ijodi haqida ma‘lumot berish.

**Reja:**

1. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi.
2. Uyg‘un hayoti va ijodi.
3. Mirtemir hayoti va ijodi.

**Tayanch tushunchalar:** Maqsud Shayxzoda shariyati, Maqsud Shayxzoda dramaturgiyasi, Uyg‘un ijodi, Mirtemir shariyati, “Jaloliddin Manguberdi” dramasi.

### MAQSUD SHAYXZODA

(1908-1967)



Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Oqdosh tumanidagi Ganja qishlog‘ida tavallud topdi. Ayni yigitlik chog‘ida, 20 yoshida Toshkentga kelib qolgan Maqsud hayotini bir umrga ana shu yurt bilan bog‘ladi. 1929-yilda “Sharq haqiqati” gazetasida uning ilk she‘ri e‘lon qilindi. 1932-yilda esa shoirning birinchi she‘riy to‘plami “O‘n she‘r”, so‘ng “Undoshlarim”, “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) nomli she‘riy kitoblari birin-ketin bosmadan chiqdi. Shundan keyingi yaqin 40 yil ichida M. Shayxzoda o‘zining “Kurash nechun?”, “Jang va qo‘shiq”, “Yillar va yo‘llar”, “Kapitan Gastello”, “Ko‘ngil deydiki”, “Xiyobon”, “Chorak asr devoni” va

boshqa yigirmadan ortiq to‘plamlarini nashr ettirdi. “O‘n birlar”, “Oqsoqol”, “Toshkentnoma” dostonlarini yozdi.

Maqsud Shayxzoda o‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shdi. Urush yillarida vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan “Jaloliddin Manguberdi” pesasini qog‘ozga tushirdi. Asarda shoir XII asrda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi mardona kurashgan Jaloliddinning badiiy obrazini yaratdi. Shayxzoda Jaloliddinni o‘z ona tuprog‘ini bosqinchilar tomonidan toptalishiga chidab turolmaydigan, so‘nggi tomchi qoni qolguncha yovga qarshi jang qilgan bahodir sifatida ko‘rsatib berdi, bu obraz o‘sha yillari frontda fashist bosqinchilari bilan jang qilayotgan ming-minglab o‘g‘lonlarga ibrat namunasi bo‘ldi.


1961-yilda Maqsud Shayxzoda XV asrning buyuk mutafakkiri, davlat arbobi, olim va mutafakkir Ulug‘bekning yorqin siymosini aks ettiruvchi “Mirzo Ulug‘bek” fojiasini yaratdi. Unda jaholat va ma’rifat o‘rtasidagi kurash bosh mavzu qilib olindi. Bu mavzu Ulug‘bek va uning atrofiga to‘plangan Ali Qushchi, Abdurazzoq Samarqandiy, Sakkokiy singari ilg‘or fikrli kishilar bilan Abdulatif, Sayyid Obid, Abbos kabi razil, johil, qotil shaxslar orasida kechadigan ziddiyatlar orqali yoritib berildi. Asarda ana shu bosh ziddiyatlarning keskinlashuviga xizmat qiluvchi, Feruza, Piri Zindoniy, Berdiyor, Ota Murod, Bobo Kayfiy, Ko‘r Qalandar kabi bir qator to‘qima obrazlar ham berilgan.

### **Maqsud Shayxzoda asarlari namunalarining QR kodi**



## UYG‘UN

(1905 - 1990)



O‘zbek adabiyotida tabiatning hassos kuychisi sifatida shuhrat qozongan Rahmatulla Otaqo‘zi o‘g‘li Uyg‘un 1905-yilda Qozoqiston-nig Marki shahrida tug‘ildi. 1932-yilda Toshkentga kelib, pedagogika bilim yurtida. so‘ng 1925-1930- yillar orasida Samarqand ped-akademiyasi (Hozirgi SamDU) da tahsil oldi.

Uyg‘unning birinchi she‘ri “Ko‘nglim” 1925-yilda e‘lon qilindi, ilk she‘riy to‘plami esa 1929-yilda “Bahor sevinchlari” nomi ostida bosilib chiqdi. 30-yillarda shoirning “Ikkinchi kitob”, “Quyosh o‘lkasiga”, “She‘rlar”, “Muhabbat” kabi she‘riy to‘plamlari nashr ettirildi.

“O‘zbekiston” (1942), “Hayot chorlaydi” (1954) to‘plamlari shoirning ijodining eng gullagan davrida dunyoga keldi. Shoir ularda ona yurt va uning go‘zal tabiatiga samimiy muhabbat tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan she‘rlarini to‘plagan edi.

Uyg‘un dramaturgiya janrida ham barakali ijod qildi. Uning Izzat Sulton bilan birgalikda yaratgan “Alisher Navoiy” dramasi, mana yarim asrdiki, o‘zbek sahnasidan tushmay kelmoqda. Uyg‘un “Hayot qo‘shig‘i”, “Navbahor”, “Oltinko‘l” “So‘nggi pushaymon”, “Parvona”, “Shubha”, “Abu Rayhon Beruniy”, “ Abu Ali ibn Sino”, “Zebunniso” kabi o‘nlab asarlari bilan o‘zbek dramaturgiyasini boyitdi.

Uyg‘un 1965-yilda “O‘zbekiston xalq shoiri”, 1985 yilda esa Mehnat Qahramoni unvoniga sazovar bo‘ldi.

## Uyg'un asarlari namunalarining QR kodi



**MIRTEMIR**

**(1910 - 1978)**



Mirtemir o'zbek she'riyatiga 20-yillarda yangicha ruh, yangicha shakl-sochma (nasriy) she'r shaklini olib kirgan novator shoirdir. U 1910-yilda Turkiston (Qozoqiston)ning Iqon qishlog'ida tug'ildi.

Birinchi "Tanburim ovozi" she'ri 1926-yilda "Yosh leninchi"da e'lon qilingan shoir qalami yarim asr davomida bir nafasga bo'lsa-da, to'xtamadi. 30-yillarda uning "Shu'lalar qo'ynida", "Qaynashlar", "Zafar", "Kommuna", "Bong", "Poytaxt", "O'ch", "Tingla, hayot", "Izlaganim" va boshqa qator she'riy to'plamlari birin-ketin bosmadan chiqdi. Shoir she'rlarida vatanimiz tabiatining go'zalligi, munis ona mehri, mehnatkash insonning orzu-o'ylari tarannum etildi.

Mirtemir doston janrida ham o'zining yorqin iste'dodini namoyish eta oldi. Uning "Barot", "Nomus", "Ajdar", "Dilkusho", "Suv qizi", "Farg'ona", "Surat" kabi qator dostonlari kitobxonlar qalbidan chuqur o'rin egalladi.

Mirtemir ijodining gultoji bo'lgan, "Qoraqalpoq daftari" turkumiga kirgan "Surat" dostonida inson boshiga kulfatlar keltiruvchi

mash'um urush qoralanadi. Asar ming o'limlardan hatlab omon qaytgan, biroq hayotdagi birdan-bar tayanchi bo'lgan sevgilisidan va o'g'lidan ayrilgan Toshlonning ayrim-ayrim monologlari, ruhiy iztiroblari, alamli nidolaridan iborat. Toshlon va Oysuluv sevib turmush qurganlar, biroq la'nati urush ularni ajratadi, Toshlon frontga ketadi. Oradan ko'p o'tmay, uni o'lgan deb o'ylab, Oysuluv boshqa yigitga turmushga chiqib ketadi. Frontdan omon qaytgan Toshlon "bazmlarning guli", "maqtovlarning quli" bo'lgan Oysuluv xiyonatidan iztirob chekadi, ko'chalarda uni yangi turmush o'rtog'i bilan ko'rib, ruhiy azoblarga botadi, qosh-ko'zlari o'ziga o'xshash o'g'lini uchratganda esa bir dardiga ming dard qo'shiladi. Oysuluv ham vijdon azobida qovurilib, Toshlonga xat yozib, tavba-tazarru qiladi. ammo bu kechikkan tavba-tazarrular Toshlonning yaralangan qalbiga malham bo'lolmaydi. Unga baxtli visol onlaridan yodgorlik bo'lib Oysuluv bilan birga tushgan surat va achchiq iztiroblargina qoladi.

Asarda shoirning portret yaratishdagi chinakam mahorati, lirik kechinmalarni berishda surat ramzidan ustalik bilan foydalanish san'ati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Mirtemir tarjimon sifatida ham o'zining yorqin iste'dodini ko'rsatdi. Qirg'iz xalqining "Manas" va qoraqalpoqlarning "Qirq qiz", Shota Rustavelining "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" dostonini, shuningdek, Homer, Haynrix Hayne, A. S. Pushkin, M. Yu. Lermontov, R. Txokur, Nozim Hikmat kabi jahon klassiklarining asarlarini o'zbekchaga o'girdi.

### **Mirtemir asarlari namunalarining QR kodi**



### **Savollar:**

1. Maqsud Shayxzoda hayoti haqida nima bilasiz?
2. Mirtemir she'rlarida qanday mavzular ko'tarilgan?
3. Uyg'un lirik asarlari haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddi Manguberdi" asarida ilgari surilgan g'oya haqida gapirib bering.
2. Mirtemirning lirik sherlarini tahlil qiling.
3. Uyg'un dramaturgiyasiga xos bo'lgan xususiyatlarni sanab bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

#### **1. M. Shayxzodaning ilk she'riy to'plami qanday nomlangan?**

- A) «O'n she'r»
- B) «Undoshlarim»
- C) «Jumhuriyat»
- D) «Chorak asr devoni»
- E) «Xiyobon»

#### **2. M. Shayxzodaning «Mirzo Ulug'bek» fojiasidagi to'qima obrazlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Sayyid Obid, Piri Zindoni, Abdurazzoq Samarqqandiy
- B) Firuza, Ota Murod, Berdiyor, Piri Zindoni, Bobo Kayfiy
- C) Piri Zindoni, Ko'r Qalandar, Feruza, Ali Qushchi
- D) Shohruh, Feruza, Bobo Kayfiy, Piri Zindoni, Ota Murod
- E) Feruza, Abdurazzoq Samarqandiy, Shayxulislom Burhoniddin

#### **3. «Mirzo Ulug'bek» fojiasidagi Piri Zindoni kim bo'lgan?**

- A) Temur tomonidan zindonga tashlangan sarbadorlardan biri
- B) Ulug'bek saltanatiga qarshi bosh ko'targan isyonchi
- C) Mug'ul bosqinchilariga sotilgani uchun zindonband etilgan mahbus
- D) Temur lashkarboshilardan biri
- E) Ulug'bekni qatl etishga bosh bo'lgan sotqinlardan biri

#### **4. O'zbek she'riyatida Uyg'un qanday shoir sifatida nom olgan?**

- A) Vatan kuychisi
- B) Tinchlik kuychisi
- C) tabiat kuychisi
- D) baxt kuychisi
- E) mehnat kuychisi

**5. Uygʻunning «Tong» sheʼrida tong nimalarga oʻxshatiladi?**

- A) oppoq shoyiga
- B) gʻunchaning ochilgan chogʻiga
- C) marmarga va zarga
- D) qizning marmar yanogʻiga
- E) A, B, C, D

**6. Ushbu misralar Mirtemirning qaysi sheʼridan olingan?**

«Mening yuragimni teshib oʻtdilar  
Xalqimga otilgan talay-talay oʻq»

- A) «Roziman, roziman oʻla-oʻlguncha»
- B) «Ona tilim»
- C) «Qaynashlar»
- D) «Bong»
- E) «Xalqim»

**7. Mirtemir dostonlarini koʻrsating.**

- A) «Barot», «Dilbar- davr qizi», «Oʻch»
- B) «Temirchi Joʻra», «Ajdar», «Dilkusho»
- C) «Qizlar», «Suv qizi», «Surat»
- D) «Barot», «Suv qizi», Surat»
- E) «Fargʻona», «Suv qizi», «Ruh bilan suhbat»

**8. Mirtemir sheʼrida ona tilimiz qadimlikda nimaga oʻxshatiladi?**

- A) ona tuproqqa
- B) qorli togʻlar jilosiga
- C) arslon naʼrasiga
- D) childirma ovozig
- E) dutor ovozig

**9. Mirtemir qalamiga mansub nodir tarjima asarlari qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?**

- A) «Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon», «Otello», «Hamlet»
- B) «Urush va tinchlik», «Dubrovskiy», «Oʻlik jonlar», «Manas»
- C) «Taras Bulba», «Revizor», «Qirq qiz»
- D) «Manas», «Qirq qiz», «Yoʻlbars terisini yopingan pahlavon»
- E) «Manas», «Shohnoma», «Urush va tinchlik», «Qirol Lir»

**10. «Mening onam, oʻzining taʼbiricha, usti butun, ichi tutun ayollardan edi. U hamma vaqt kamgap, xayolchan edi...»**

Gap kimning onasi haqida ketyapti?

- A) Mirtemir
- B) Usmon Nosir
- C) Zulfiya
- D) Abdulla Oripov
- E) Erkin Vohidov

## 16-DARS

### ZULFIYA VA SAID AHMAD

**Darsning maqsadi:** Talabalarga Zulfiya va Said Ahmad hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

**Reja:**

1. Zulfiyaning hayoti va ijodi.
2. Zulfiya she'riyati.
3. Said Ahmadning nasriy asarlari.
4. Said Ahmad dramaturgiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** Zulfiya hayoti va ijodi, Zulfiya shariyati, Said Ahmad hikoyalari, “Ufq” romani, “Jimjitlik” romani, Said Ahmad dramaturgiyasi.

### ZULFIYA

(1915-1996)



Zulfiya Isroilova 1915-yilda Toshkentda degrez (temirchi) oilasida tug'ildi. adabiyotga 17 yoshida kirib kelgan shoirani ilk she'riy to'plami “Hayot varaqlari” (1932) elga tanitdi.

Zulfiya 1935-yilda hayotini hassos shoir Hamid Olimjon bilan bog'ladi, biroq shafqatsiz o'lim 1944-yilda sevimli umr yo'ldoshi, do'sti, hammaslagini xonadonidan bevaqt yulib olib ketdi. Zulfiya hayotining so'nggi nafasigacha shoir xayoli, yodi bilan yashadi, she'rlarida hijron azoblari, dard va alamlarini kuyladi. “Hijron kunlarida” (1944) to'plamiga kirgan “Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh”, “O'rik gullaganda”, “Bahor keldi seni so'roqlab”, “Hijron kunlarida”, “Sensiz” she'rlarida suyukli yoridan judo bo'lgan ayolning qalb iztiroblari qog'ozga ko'chdi.

Zulfiya - el suygan shoira. Ona-vatanimiz dala va cho'llarida, zavod va fabrikalarida mehnat qilayotgan paxtakor va g'allakorlar, mexanizatorlar, ishchi va injenerlar, ilm-fan kishilari Zulfiyaning doimiy qahramonlariga aylanib qoldi. "Hulkar", "Men tongni kuylayman", "Yuragimga yaqin kishilar", "Kuylarim sizga", "Salom sizga, erkparvar ellar" kabi to'plamlaridan o'rin olgan she'rlarida oddiy mehnat kishilarining o'y va fikrlari, orzu-umidlari kuylanadi. Shoira Hamza va Oybeklarning yorqin xotirasiga bag'ishlab "So'roqlaydi shoirni she'rim" (1960) va "Quyoshli qalam" (1967) dostonlarini yozdi.

Zulfiya Mehnat Qahramoni unvoniga, Ittifoq hamda Respublika Davlat mukofotlariga, Javohirlal Neru nomidagi hamda "Nilufar" xalqaro mukofotlariga sazovor bo'lgan.

### **Zulfiya asarlari namunalarining QR kodi**



**SAID AHMAD**

**(1920-2007)**



Said Ahmad (Husanxo‘jaev) 1920-yilda Toshkentda tug‘ilgan. “Mushtum” va “Sharq yulduzi” jurnallarida, “Qizil O‘zbekiston” gazetasida ishlagan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining nasr bo‘limini boshqargan.

Said Ahmad kitobxonlarga 1940-yilda birinchi hikoyalar to‘plami “Tortiq” bilan tanildi. Urush va urushdan keyingi yillarda uning “Er yurak” (1942), “Farg‘ona hikoyalari” (1948), “Muhabbat” (1949) kabi to‘plamlari nashr etildi.

Yozuvchi ijodining takomilida ustoz Abdulla Qahhorning ta’siri kuchli bo‘lgan. Xarakter yaratish, detal tanlash, voqealarini lirik ta’sirchanlik bilan tasvirlashda adib ustoz izidan bordi. Bu mahorat uning “Xazina”, “Cho‘l burguti”, “Muhabbatning tug‘ilishi”, “Ko‘z-laringda o‘t bor edi”, “Alla” va boshqa hikoyalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Said Ahmad kichik hikoyalardan asta-sekin yirik asarlar yozishga o‘tdi. 1949 yilda “Qadrdon dalalar”, 1958-yilda “Hukm” qissalari hamda 1964-yilda “Ufq”, 1988-yilda “Jimjitlik” romanlarini yozdi.

“Qirq besh kun”, “Hijron kunlarida”, “Ufq bo‘sa‘asida” romanlaridan iborat “Ufq” trilogiyasining yozilishi o‘zbek adabiyotida katta voqea bo‘ldi.

Asar bo‘yicha ishlangan ko‘p seriyali televizion film butun sobiq Ittifoq bo‘yicha keng namoyish etildi, adib tomoshabinlardan ming-minglab maktublar oldi.

Asar markazida hayotining og‘ir sinovlaridan o‘tgan, urushda bir oyog‘ini qoldirib qaytgan, qochoq o‘g‘li Tursunboy tufayli nomus o‘tida qovurilgan Ikromjon turadi. Voqealar urush yillarida front ortida — Farg‘ona vodiysida kechadi. 45 kun ichida Katta Farg‘ona kanalini qazib bitkazgan, Nayman cho‘llarida qamishzorlarni yoqib, o‘rnida yangi yerlar ochgan, front uchun ishlagan mehnat kishilari (Azizxon, Do‘nan polvon, Esh polvon, Jo‘ra polvon, Hasan ota, Ummatali), ulug‘ ishlarda rahbarlik qilgan davlat arboblari (Usmon Yusupov, Yo‘ldosh Oxunboboev), farzand o‘stirib, rohatini ko‘rmay olamdan o‘tgan Jannat xola, o‘z otasi Inoyat Oqsoqolning pastkashligi tufayli xonadonni tark etib, Ikromjon va Jannat xolaga farzandlik qilgan Nizomjon, muhabbatning murakkab so‘qmoqlaridan bosib o‘tgan Lutfiniso, Dildor, Zebi obrazlari orqali yozuvchi butun o‘zbek xalqining turmushi, psixologiyasi, o‘y-fikrlari, tashvish va quvonchlarini yoritib bergan.

Said Ahmad o‘tkir hajvchi hamdir. Hayotdagi biror kulgili yoki salbiy hodisa yozuvchi nazaridan chetda qolmaydi, tezda hajviyaga, feleton yoki intermediyaga aylanadi. Uning hajv ustaxonasidan istagan nusxangizni: ikkiyuzlamachi, xushomadgo‘ylarni ham (“Qoplon”, “Omonat”), poraxo‘r amaldorlarni ham (“Gugurt”, “Poraxo‘rning o‘limi”), yulg‘ich, tovlamachilarini ham (“Aftobiografiya”), ig‘vogar, tuhmatchi, hasadgo‘ylarni ham (“Olqindi”), xullas, xilma-xil basharalarni uchratishingiz mumkin. Adibning bugungi hayotimizdan olingan ichakuzdi “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Kuyov” komediyalari faqat respublikamiz emas, undan tashqarida ham tomoshabinlarning katta olqishiga sazovor bo‘ldi.

### **Said Ahmad asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Zulfiya hayoti haqida nima bilasiz?
2. Zulfiya she‘rlarida qanday mavzular ko‘tarilgan?
3. Said Ahmad nasriy asarlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Said Ahmad dramatic asarlarida qanday mavzular ko‘tarilgan?

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Zulfiya lirikasida ilgari surilgan g‘oya haqida gapirib bering.
2. Said Ahmad “Ufq” romanini tahlil qiling.
3. Said Ahmadning “Jimjitlik” romani haqida gapirib bering.

#### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

1. Zulfiya she‘rlarining yetakchi motivi...
  - A) ona yurtgan muhabbat
  - B) hijron va sadoqat
  - C) tabiatga oshuftalik
  - D) mehrga tashnalik
  - E) baxt nashidasi

**2. S.Ahmadning dastlabki hikoyalar to‘plami qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) «Hukm», «Qishloq hukm ostida», «Sud»
- B) «Er yurak», «Farg‘ona hikoyalari», «Muhabbat»
- C) «Muhabbat», «Jimjitlik», «Hukm»
- D) «Xazina», «Ko‘r ko‘zning ochilishi», «Sud»
- E) «Alla», «Farg‘ona hikoyalari», «Ufq»

**3. «Ufq» trilogiyasi qaysi romanlardan iborat?**

- A) «Hijron kunlarida», «Qirq besh kun», «Ufq bo‘sag‘asida»
- B) «Ufq», «Qirq besh kun», «Hijron kunlarida»
- C) «Jimjitlik», «Ufq bo‘sag‘asida», «Hijron kunlarida»
- D) «Hijron kunlarida», «Ota», «Qirq besh kun»
- E) «Ufq bo‘sag‘asida», «Qirq besh kun», «Cho‘l burguti»

**4. «Ufq» trilogiyasining barcha romanlarida qatnashuvchi bosh qahramon...**

- A) Tursunboy
- B) Nizomjon
- C) Azizxon
- D) A‘zamjon
- E) Ikromjon

**5. «Qirq besh kun» romani markazida qanday voqealar yotadi?**

- A) Farhod GESi qurilishi
- B) Katta Farg‘ona kanali qurilishi
- C) Norin GESi qurilishi
- D) Yozyovon cho‘llarini o‘zlashtirish
- E) To‘g‘ri javob yo‘q.

**6. «Qirq besh kun» romanida to‘y kechasi Lutfinisoni olib qochgan yigit kim edi?**

- A) Akbarali
- B) A‘zamjon
- C) Tursunboy
- D) Azizxon
- E) Nizomjon

**7. Qochoq Tursunboy o‘rniga Ikromjonga o‘g‘illik qilgan yigit?**

- A) Nizomjon
- B) A‘zamjon
- C) Akbarali
- D) Do‘danboy
- E) Azizxon

**8. S.Ahmadning «Qoplon» hikoyasida qanday shaxs obrazi yaratilgan?**

- A) poraxo‘r va byurokrat
- B) xushomadgo‘y va ikkiyuzlamachi
- C) amalparast va xudbin
- D) ig‘vogar va tuhmatchi
- E) hasadgo‘y va ichi qora shaxs

## **17-DARS**

### **ASQAD MUXTOR VA ODIL YOQUBOV**

**Darsning maqsadi:** talabalarga Asqad Muxtor va Odil Yoqubov hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.

#### **Reja:**

1. Asqad Muxtor nasriy asarlari.
2. Asqad Muxtor she’riyati.
3. Odil Yoqubov prozasi.

**Tayanch tushunchalar:** Asqad Muxtor lirikasi, “Chinor” romani, “Opa-singillar” romani, Odil Yoqubov asarlari, “Diyonat” romani, “Ulug‘bek xazinasi” asari.

### **ASQAD MUXTOR**

**(1920-1997)**



Asqad Muxtor 1920-yilda Farg‘onada temir yo‘l ishchisi oilasida dunyoga keldi. 2 yoshida otasidan yetim qolgan Asqad bolalar uyida tarbiyalanadi. A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Davlat universitetida o‘qiydi.

Asqad Muxtorning adabiy faoliyati uning Toshkentga kelishi bilan boshlandi. “Yosh leninchi”, “Qizil O‘zbekiston” gazetalarida bo‘lim mudiri, “Sharq yulduzi” va “Guliston” jurnallarida bosh muharrir bo‘lib ishladi.

“Po‘lat quyuvchi”, “Hamshaharlarim”, “Rahmat, mehribonim”, “Chin yurakdan” kabi she‘riy to‘plamlariga kirgan she‘rlarida shoir vatanimiz tabiati va kishilari, uning boyliklari va xalq hayotidagi o‘zgarishlarni tasvirladi.

Adibning “Daryolar tutashgan joyda”, “Qoraqalpoq qissasi”, “Buxoroning jin ko‘chalari” qissalari va “Opa-singillar”, “Tug‘ilish”, “Davr mening taqdirimda”, “Chinor”, “Amu” kabi romanlari xalqimizning uzoq va yaqin o‘tmishi, bugungi kunlargacha bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, yangi davr kishilari hayotini yoritishga bag‘ishlangan.

Asqad Muxtor “Mardlik cho‘qqisi”, “Yaxshilikka yaxshilik”, “Samandar” singari dramalar muallifi hamdir.

### **Asqad Muxtor asarlari namunalarining QR kodi**



**ODIL YOQUBOV**  
(1926-2009)



Odil Yoqubov 1926-yilda koʻhna Turkistonning Qarnoq qishlogʻida tugʻildi. Otasi Egamberdi Yoqubov 1916 yilda mardikorlikka olingan, Belorusiya oʻrmonlarida daraxt kesib, rus tilini oʻrganib, qishlogʻiga bolshevik boʻlib qaytgan edi. 37-yillarning Stalin qatagʻoni ularning xonadonini ham tinch qoʻymadi, otasini ham “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olishdi. Odiljon oʻqishni tashlab, qoʻliga ketmon olishga majbur boʻldi. 1945-yilda armiyaga chaqirilib, Uzoq Sharqdagi Kvantun qoʻshinini tor-mor etishda qatnashdi. 1950 yilda harbiy xizmatdan qaytib, Toshkent Davlat universitetiga oʻqishga kirdi. Oʻqishni tugatgach, “Literaturnaya gazeta”ning Oʻzbekiston boʻyicha muxbiri, Gʻ. Gʻulom nashriyatida bosh muharrir, Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining birinchi kotibi vazifalarida ishladi.

1951-yilda adibning “Tengdoshlar” nomli qissasi bosilib chiqdi. O. Yoqubovni elga yozuvchi sifatida tanitgan asari esa 1960 yilda yozilgan “Muqaddas” qissasi boʻldi. Adibning zamondoshlarimiz haqidagi “Bir feleton qissasi”, “Qanot juft boʻladi”, “Matluba”, “Billur qandillar” qissasalarida koʻpchilikni hayajonga solayotgan ijtimoiy muammolar qalamga olindi.

70-yillarda chuqur ildiz otgan turgʻunlik davri kishilarining taqdiri, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy muammolar adibning “Diyonat” romanida oʻz aksini topdi. Yozuvchi unda amal kursisiga minib olib, oddiy insonlar taqdirini oʻzi istaganicha hal etib yuboraveradigan, koʻpchilik yutugʻini oʻziniki qilib koʻrsatishga usta boʻlgan, qonunchilikni oyoq osti qilishdan ham qoʻrqmaydigan nopok kimsalar qiyofasini kolxoz raisi Otaqoʻzi, olim Vohid Mirobidov, partiyaviy rahbar Jamol Boʻriboevlar misolida, adolatsizlikka butun borligʻi bilan

qarshi turgan, halol pokdil insonlar obrazini Normurod Shomurodov timsolida chizib beradi.

Odil Yoqubovning Chingiz Aytmatov olqishiga sazovor bo'lgan, XV asrning buyuk mutafakkiri Ulug'bek hayotining shiddatli, fojiali sahifalarini aks ettiruvchi "Ulug'bek xazinası" asari yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Asar Ulug'bek saltanatining so'nggi tahlikali yillari tasviridan boshlanadi. Bizning ko'z o'ngimizda Ulug'bek, bir tomondan, o'g'li-toj-taxt uchun otaga qarshi bosh ko'targan, riyokor, johil raqiblar qo'lida bir o'yinchoqqa aylanib qolgan Abdulatif tufayli chuqur iztirob chekkan, temuriylar saltanatini saqlab qolishga intilgan adolatpesha, bag'ri keng shoh, ikkinchi tomondan, shayx Nizomiddin Xomush, Salohiddin zargar, amir Jondor, ayg'oqchi Qashqar kabi johil shaxslarga o'z ma'rifati bilan tamoman teskari turgan, kelajak avlodga buyuk ma'naviy va moddiy meros: kitoblar, madrasa, kutubxona, rasadxonalar qoldirgan olim sifatida gavgdalandi.

### **Odil Yoqubov asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Asqad Muxtor hayoti haqida nima bilasiz?
2. Asqad Muxtor asarlarida qanday mavzular ko'tarilgan?
3. Odil Yoqubov asarlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Odil Yoqubovning tarixiy mavzudagi asarlarida qanday mavzular ko'tarilgan?

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Asqad Muxtor she'riy asarlarida ilgari surilgan g'oyalar haqida gapirib bering.
2. Asqad Muxtorning "Chinor" romanini tahlil qiling.
3. Odil Yoqubovning "Diyonat" romani haqida gapirib bering.

#### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. Asqad Muxtor romanlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.**

- A) «Daryolar tutashgan yerda», «Jannat qidirganlar», «Sud»
- B) «Qishloq hukm ostida», «Qo'shchinor», «Qadrim»
- C) «Uch ildiz», «Opa - singillar», «Chinor»
- D) «Davr mening taqdirimda», «Chinor», «Amu», «Opa- singillar»
- E) «Opa - singillar», «Chinor», «Sarob», «Tug'ilish»

**2. Davlat arbobi Fayzulla Xo'jaev A. Muxtorning qaysi asari qahramoniga prototip bo'lgan?**

- A) «Chinor»
- B) «Davr mening taqdirimda»
- C) «Buxoroning jin ko'chalarida»
- D) «Tug'ilish»
- E) «Daryolar tutashgan joyda»

**3. Odil Yoqubov adabiyotga qaysi asari bilan kirib keldi?**

- A) «Billur qandillar»
- B) «Matluba»
- C) «Muqaddas»
- D) «Tengdoshlar»
- E) «Bir feleton qissasi»

**4. «Diyonat» romanida adolattalab, pokdil inson obrazi...**

- A) Jamol Bo'riboev
- B) Vohid Mirobidov
- C) Otaqo'zi
- D) Normurod Shomurodov
- E) A va B


**5. Odil Yoqubovning Chingiz Aytmatov olqishiga sazovor bo'lgan asari qaysi?**

- A) «Ulug'bek xazinasini»
- B) «Chinor» S) «Diyonat»
- D) «Baydamtol sohillarida»
- E) «Oq qushlar, oppoq qushlar»

**6. «Ulug'bek xazinasini» romani Ulug'bek xayotining qaysi davri tasviri bilan boshlanadi?**

- A) Ulug'bekning Samarqand taxtiga o'tirish voqealari bilan
- B) Shohruh Mirzo vafoti kunlaridagi voqealar bilan
- C) Ulug'bek saltanatining tahlikali yillari tasviri bilan
- D) Ulug'bekning bolalik yillari voqealari bilan
- E) Ulug'bek hayotining so'nggi kunlari voqealari bilan

**18-DARS**  
**PIRIMQUL QODIROV**  
**(1928-2010)**



**Darsning maqsadi:** talabalarga Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

**Reja:**

1. Pirimqul Qodirov hayoti.
2. Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romani.
3. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani.

**Tayanch tushunchalar:** Pirimqul Qodirov prozasi, “Uch ildiz” romani, “Yulduzli tunlar” romani, “Meros” qissasi, “Olmos kamar” qissasi.

Pirimqul Qodirov 1928-yilda Tojikistonning Shahrison tumanida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatib, Toshkent Davlat universitetining sharqshunoslik fakultetida o'qidi, so'ng Moskvadagi M.Gorkiy nomidagi adabiyot institutining aspiranturasida tahsil ko'rdi.

Pirimqul Qodirov kitobxonlarga 1955-1958 yillarda yaratilgan “Uch ildiz” romani bilan tanildi. “ancha vaqtdan beri men o'zbek adabiyotida momaqaldiraq guldurosini eshitmay yurgan edim, - deb yozgan edi roman bilan tanishib chiqqan Abdulla Qahhor, - nazarimda, mana shu asar adabiyotimizga momaqaldiraqday guldiros solib, chaqmoqday yaltirab kirib kelyapti”.

Studentlar hayotidan hikoya qiluvchi bu asarda o'zbek adabiyotida shaxsga sig'inish illatlari birinchi bo'lib fosh etildi, yoshlar muhabbati va ularning bu yo'ldagi adashishlari, yangicha turmush tantanasi hayajonli epizodlarida yoritib berildi.

60-yillar boshlarida adibning chorvadorlar turmushidan olib yozilgan “Qora ko‘zlar”, shuningdek “Qadrim”, “Erk”, “Meros”, “Olmos kamar” kabi qissalari e‘lon qilindi.

Pirimqul Qodirov keyingi yillarda tarixiy mavzularga qo‘l ura boshladi. “Yulduzli tunlar” (“Bobur”) va “Avlodlar dovoni” (“Humoyun va Akbar”) romanlarida boburiylar sulolasining tarixiy hayotini aks ettirdi.

“Yulduzli tunlar” shoir va shoh Boburning tarix sahnasiga chiqishidan boshlanib, hayotining so‘nggi kunlarigacha bo‘lgan ziddiyatli voqealar, Boburning ma‘naviy-ruhiy olami, shoh sifatida olib borgan jangu jadallari, ayniqsa, o‘zining “Xalifai rahmon” deb baholagan Shayboniyo‘xon bilan to‘qnashuvlari, Hindistonga qilgan yurishlari, bu yurishlardan ko‘ngli zada bo‘lgan shoirning afsus-nadomatlari, qalb azoblari, xalq hayoti, orzu-intilishlari bilan bog‘liq holda tasvir etiladi.

### **Pirimqul Qodirov asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Pirimqul Qodirovning hayoti haqida nima bilasiz?
2. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida qanday mavzu ko‘tarilgan?
3. “Olmos kamar” qissasining bosh qahramonlari xarakteri haqida nima deya olasiz.

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida ilgari surilgan g‘oyalar haqida gapirib bering.
2. Yozuvchining “Meros” qissasini tahlil qilib bering.
3. Pirimqul Qodirovning “Uch ildiz” romani syujet liniyasi haqida so‘zlab bering.

**Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

**1. «Ancha vaqtdan beri men o‘zbek adabiyotida momaqalldiroq guldurosini eshitmay yurgan edim. Nazarimda mana shu asar adabiyotimizga momaqalldiroqday gulduros solib, chaq-moqday yaltirab kirib kelayapti».**

P. Qodirovning «Uch ildiz» romaniga bu bahoni kim bergan edi?

- A) Chingiz Aytmatov
- B) Said Ahmad
- C) Sharof Rashidov
- D) Abdulla Qahhor
- E) Komil Yashin

**2. P.Qodirovning «Qora ko‘zlar» qissasi kimlar hayotidan olib yozilgan?**

- A) olimlar
- B) metrochilar
- C) chorvadorlar
- D) paxtakorlar
- E) mexanizatorlar

**3. P.Qodirovning studentlar hayotidan yozilgan va adibga katta shuhrat keltirgan asari qaysi?**

- A) «Uch ildiz»
- B) «Erk»
- C) «Qadrim»
- D) «Olmos kamar»
- E) «Meros»

**4. P. Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida dastlab qaysi qahramon bilan uchrashamiz?**

- A) Robiya va Tohir
- B) Umarshayx Mirzo, Qutlug‘ Nigorxonim
- C) Xonqulibek va Uzun Hasan
- D) Mulla Fazliddin va Tohir
- E) Qorako‘zbegin va Fotima sulton

**5. «Yulduzli tunlar» romanida Xonzoda beginning rasmini chizgan rassom, me’mor kim?**

- A) Mulla Qutbiddin
- B) Mahmud
- C) Mazidbek
- D) Xo‘ja Abdulla
- E) Mulla Fazliddin

**6. «Yulduzli tunlar»da Bobur kimni Hindubek deb atagan?**

- A) La'l Chandni
- B) Indrini
- C) Taxmaspni
- D) Dilovarxonni
- E) Bayramxonni

**19-DARS**

**HUSNIDDIN SHARIPOV**

**(1933-2015)**



**Darsning maqsadi:** talabalarga Husniddin Sharipov hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

**Reja:**

1. Husniddin Sharipov hayoti.
2. Husniddin Sharipov she'riyati.
3. Husniddin Sharipov dramaturgiyasi.

**Tayanch tushunchalar:** Husniddin Sharipov she'riyati, obraz yaratish mahorati, she'riy shakl, "Sotvoldidan salom" dostoni, "Bir savol" sheri romani.

Shoir va dramaturg Husniddin Sharipov 1933-yil 10-fevral kuni Namanganda tavallud topdi. Uning «Navoiy» degan dastlabki she'ri 1948-yilda bosildi. «Nihol» nomli birinchi she'rlar kitobi esa 1956-

yilda nashr etildi. O'sha yili viloyat «Namangon haqiqati» gazetasiga taklif etilib, adabiy xodim, so'ng mas'ul kotib bo'lib ishladi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining nashri «O'zbekiston madaniyati» gazetasida adabiy kotiblik qildi. 1962-yildan boshlab, uzoq muddat «Sharq yulduzi» jurnali she'riyat bo'limiga mudirlik qildi, tahririyat a'zosi bo'ldi. 1984-yildan boshlab, adabiy maslahatchi sifatida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tarjima va dramaturgiya bo'yicha ishlarini yuritib turdi.

Husniddin Sharipov adabiyotga o'z mavzui bilan kirib kelgan shoir. Dastlabki she'rlaridanoq u mehnat ahli – dehqonlar, bog'bonlar, o'rmonchilarning orzu-o'ylarini, ona tabiatni ulug'ladi. Oltmishinchi yillarda chiqqan kitoblarini soddagina «Ko'ngil buyurgani» (1961), «Quyoshga oshiqman» (1963), «Tuproqqa qasida», «Yerning qalbi» (1965), «Men sizga aytsam» (1968) deb atagani bejiz emas, albatta. U hatto zamonaviy ilm-fan va sanoat taraqqiyoti cho'qqisida tug'ilgan kosmonavtika yutuqlari, fazokor parvozida ham paxtakorimiz qalb harorati borligi bilan faxrlanadi.

Shoir uzbek zamonaviy dostonchiligi rivojiga jiddiy hissa qo'shdi. Uning o'n sakkiz dostonidan eng yirigi bo'lmish «Bir savol» (1972) nomli she'riy roman qahramoni Abror yigirmanchi yillarda g'irrom kishilarning qutqusiga uchib gunoh qilgan, Sibirga badarg'a bo'lgan esada, mamlakat boshiga xatar qo'nganida, uning himoyasiga barcha to'siqlardan oshib yetib borgan halol insondir. Jang maydonlaridan qaytgach, u yagona o'g'lini izlab, cho'llarni obod qilayotgan dehqonlar safiga kiradi. Afsus, yoshi bir yerga borganida, farzand qabri ustidan chiqadi, xolos. Abror yetmagan kunlarga yetib, mehnatda baxt nasib etgan brigadir Sotvoldi esa («Sotvoldidan salom», 1968) quvligi va chapdastligi bilan jahonda o'z halol nomini ehtiyot qilib kelayotgan o'zbek dehqonlarining timsoli deyish mumkin. H.Sharipov yaratuvchilik mavzuini «Bog' ko'cha bolalari» (1963), «Tanovar» (1965), «Shoir haqida» (1967), «Qilmish-qidirmish» (1976), «Insof diyori» (1979), «Sohillar» (1986) kabi dostonlarida izchillik bilan tahlil eta boradi.

Husniddin Sharipov faol ijodkor. Uning 70-yillarda chiqqan «Lirika», «Dostonlar» singari she'riy to'plamlari qatoriga saksoninchi yillarda «Hayajonli daqiqalar», «Oh, go'zal», «Xirmon», «Yana visol» kabi asarlari qo'shildi, o'z ellik yoshini ikki jildlik «Saylanma» bilan kutib oldi.

Shoir dramaturgiya sohasida ham muntazam qalam tebratadi: «Seni sevaman» (1958), «Ota o‘gli» (1964), «Afsona» (1975), «Chollar va kampirlar» (1979), «Yer istab» (1993) kabi pesalari poytaxt va viloyat teatrlarida sahnalashtirildi. U farzand va nevaralari oldida ham «Ukajonlarimga» (1963), «Bu yog‘i nima bo‘ladi» (1973), «Chavandoz» (1974) singari bolalar uchun kitoblari nashr etildi.

Mustaqillik yillari H. Sharipov uchun g‘oyat mahsuldor bo‘ldi. «Ming ikkinchi kecha» (1992), «Qaltis yurish» (1999), «Qaynar-buloq» (2002) dostonlari, «Yor istab» (1993) she‘riy kitobi, «Asiringman» (2003), «Yillar va dillar» (2013) nomli saylanma asarlari nashr etildi. «Onaning ko‘ngli bolada yohud Toshkentcha qo‘ydi-chiqdi» dramasi «O‘zbekteatr» e‘lon qilgan tanlov g‘olibi bo‘ldi. Xuddi o‘sha yili Mustaqillikning X yilligiga bag‘ishlangan «Do‘stim Tojiddin» nomli hujjatli qissasi bosilib chiqdi. Ayni vaqtda O‘zbekiston Milliy akademik teatri e‘lon qilgan tanlov munosabati bilan «Insofnoma» she‘riy dramasini yaratdi.

Husniddin Sharipov qo‘shiq san‘ati bilan ham oshno boldi. Uning qo‘shiq va she‘rlari Navro‘z va Mustaqillik bayrami tantanalarida muntazam yangrab turadi. Shoir harbiy qo‘shiqlar (1996) va «Vatan himoyasida» (2002) tanlovlarining g‘olibi, Husniddin Sharipov J.Lafonten, I.Turgenev, U.Uitmen, V.Mayakovskiy, B.Brext, P.Neruda, R.Rojdestvenskiy, R.Hamzatov she‘rlarini o‘zbekchaga o‘giran bo‘lsa, uning «Всё тот-же я» («O‘sha-o‘sha», 1970), «Привет от Сатвалды» («Sotvoldidan salom», 1977), «Самое дорогое» («Eng aziz», 1980) kabi kitoblari rus tilida bosildi, she‘rlari urdu, polyak, turk va, qolaversa, barcha qo‘shni qardoshlarimiz tillariga tarjima qilindi. O‘zbekistonning ko‘pgina teatrlari R.Hamzatovning «Tog‘ qizi», B.Vasilevning «Ro‘yxatlarda yo‘q» va «Sokin tonglar», Sh. Rahmatullinning «Ajal quvlaganda», E.Yurandotning «To‘qqizinchi pokiza», V.Yeskin va K.Krikoryanning «Kavkazlik kelin» pesalarini H.Sharipov tarjimasida sahnalashtirganlar.

Adabiyotshunoslar Husniddin Sharipov ijodida g‘azal va oq she‘r, lirika va hikoyat, doston va miniatyura, falsafa va lutf, qo‘shiq va chaqiriq yonma-yon yashashi haqida, qahramonlarining xalqona sodda va tagdor tili to‘g‘risida ko‘p yozishgan. Bu sifatlar G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti 1989-yili bosib chiqargan «Adabiy portretlar» kitobidagi professor Ozod Sharafiddinovning

«Husniddin Sharipov» sarlavhali monografiyasida ayniqsa to‘la va sinchkovlik bilan tahlil etiladi.

Husniddin Sharipov O‘zbekiston komsomoli mukofoti sohibi (1977), «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi» unvoniga ega (1983). Mustaqillik yillarida «Mustaqillik» medali (1992) va «Mehnat shuhrati» ordeni (2000) bilan mukofotlandi. 2012-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Husniddin Sharipovga “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi.

### **Husniddin Sharipov asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Husniddin Sharipovning hayoti haqida nima bilasiz?
2. Husniddin Sharipovning lirik she‘rlari haqida nima deya olasiz?
3. “Sotvoldidan salom” dostoni bosh qahramoni xarakteriga xos bo‘lgan xususiyatlar haqida nima deya olasiz?

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Husniddin Sharipovning “Bir savol” she‘riy romanida ko‘tarilgan mavzu haqida gapirib bering.
2. Husniddin Sharipovning dramaturgiyadagi mahorati haqida gapirib bering.
3. Husniddin Sharipovning tarjimonlik faoliyati haqida so‘zlab bering.

#### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

##### **1. Husniddin Sharipov ijod qilgan sohalarni ko‘rsating.**

- A) shariyat, dramaturgiya, adaboyotshunoslik
- B) nasr, sheruyat, dramaturgiya
- C) shariyat, dramaturgiya, tarjima
- D) shariyat, dramaturgiya, tarjimashunoslik
- E) shariyat, dramaturgiya, matnshunoslik

##### **2. Husniddin Sharipov qalamiga mansub bo‘lgan dostonni belgilang.**

- A) “Nido”

- B) “Sotvoldidan salom”
- C) “Palatkada yozilgan doston”
- D) “Jannatga yo’l”
- E) “Sohibqiron”

**3. Husniddin Sharipov qalamiga mansub bo’lgan sheriy roman nomi ko’rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) “Ziyod va Adiba”
- B) “Xamsa”
- C) “Boqiy dunyo”
- D) “Bir savol”
- E) “Haqqush qichqirig’i”

**4. Husniddin Sharipov tomonidan asarlari o’zbek tiliga qalamiga tarjima qilingan shoir va yozuvchilar nomlari ko’rsatilgan qatorni belgilang.**

- A) I.Turgenev, U.Uitmen, B.Brext, R.Hamzatov
- B) A.Pushkin, R.Hamzatov, V.Mayakovskiy, M.Lermontov
- C) G.Markes, A.Pushkin, U.Uitmen, P.Neruda
- D) A.Pushkin, Ch.Aytmatov, V.Mayakovskiy, R.Hamzatov
- E) Mahtumquli, I.Turgenev, U.Uitmen, A.Pushkin

## **20-DARS**

**ERKIN VOHIDOV**

**(1936-2016)**



**Darsning maqsadi:** talabalarga Erkin Vohidov hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

**Reja:**

1. Erkin Vohidov hayoti.
2. Erkin Vohidov she'riyati.
3. Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati.

**Tayanch tushunchalar:** Erkin Vohidovning badiiy mahorati, obraz yaratish, shakily izlanishlar, shoirning tarjimonlik mahorati.

O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov 1936-yilda Farg'ona viloyatining Oltariq tumanida qishloq o'qituvchilari oilasida tavallud topdi. Otasi Cho'yanboy Vohidov, onasi Roziyaxon ma'rifatli kishilar edi, taassufki, ular uzoq yashamaydilar. Erkin Toshkentda tog'asi qo'lida tarbiyalanadi.

Erkin Vohidov qo'lga juda barvaqt qalam olgan. Hali 7-sinfda o'qib yurgan chog'laridayoq "Mushtum"da she'ri e'lon qilingan edi. Birinchi she'riy to'plami Toshkent Davlat universitetida o'qib yurgan kezlari bosilib chiqdi.

Erkin Vohidov she'riyatga hayot, go'zallik, yoshlik va muhabbat kuychisi sifatida kirib keldi., o'z istedodini aruz vaznida, g'azalda ham sinab ko'rdi. Uning "Yoshlik devoni"dan jo'shqinlik, hayotsevarlik tuyg'ulari bilan yo'g'irilgan samimiy sevgi va sadoqatni tarannum etuvchi go'zal g'azal va muhammaslari o'rin oldi. 1986-yilda "Muhabbatnoma" va "Sadoqatnoma" she'riy to'plamlari nashr etildi.

Lirik she'rlaridan yirik asarlarga tomon o'sib borgan E. Vohidov urush razolatlarga qarshi vatanparvarlik bongi bo'lgan "Nido", kishilarimizning mardligi, jasorati, yuksak ma'naviyati haqidagi "Palatkada yozilgan doston", milliy, irqiy, diniy adovatlariga nafrat bayon etilgan "Ruhlar isyoni" dostonlarini, hamda inson hayotining chigal qirralarini yorituvchi «Istambul fojiasi» she'riy dramasini, shuningdek, zamonaviy turmushimizdan olingan "Oltin devor" komediyasini yozdi.

"Ruhlar isyoni" dostoni isyonkor she'rlar bilan Hindistonni larzaga solgan, hayotini ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashga bag'ishlagan, xalq erki, yo'lida jonini fido etgan bengal shoiri Nazrul Islomning achchiq qismati, fojiasi asos qilib olingan. Qamoq va qiynoqlar ostida hali o'ttiz beshga yetmagan shoirni aqldan

ozdiradilar, shu ahvolda u o‘ziga ko‘rsatilgan ehtiromlarni his etmay, qirq yil ruhiy azoblar bilan yashaydi. Shoir Nazrul Islom hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni birma-bir tasvirlab qolmay, uning hayoti bahonasida o‘z qalbida tug‘ilib qolgan o‘y-fikrlar, inson hayoti haqidagi haqiqatlarni qog‘ozga tushirdi. Dostondagi “Abadiyat haqida rivoyat”, “Fidoyilik to‘g‘risidagi rivoyat”, “Jaholat to‘g‘risidagi rivoyat”, “Shoh Jahon va Avrangzeb haqidagi rivoyat”, “Shoirilar va Payg‘ambarlar haqidagi rivoyat”larda hayotning ham adolatli, ham shafqatsiz qirralari yoritiladi.

Erkin Vohidov nemis adabiyoti klassigi Gyotedan tarjima qilgan “Faust”i hamda mashhur rus shoiri Sergey Yesenindan qilgan betakror she’riy tarjimalari bilan ham o‘ziga xos ijodiy maktab yaratdi.

### **Erkin Vohidov asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Erkin Vohidovning hayoti haqida nima bilasiz?
2. Erkin Vohidovning badiiy mahorati haqida nima deya olasiz?
3. Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida qanday mavzu ko‘tarilgan?
4. Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati haqida nima deya olasiz?

#### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Erkin Vohidov lirikasida ilgari surilgan g‘oyalar haqida gapirib bering.
2. Erkin Vohidovning “O‘zbekim” sherini tahlil qilib bering.
3. Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati haqida so‘zlab bering.

#### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

1. Erkin Vohidovning urushning kishilar qalbida qoldirgan og‘ir jarohatlari haqida yozgan asari qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- A) «Palatkada yozilgan doston»
- B) «Nido»

- C) «Istambul fojiasi»
- D) «O‘ch»
- E) «Ruhlar isyoni»

**2. «Shoirni u tug‘ilmasdan  
Gado qilgan edilar...»**

**Erkin Vohidovning «Ruhlar isyoni» asaridan olingan ushbu misralarda gap kim haqida boryapti?**

- A) Nazrul Islom
- B) Mirzo Bobur
- C) Xusrav Dehlaviy
- D) Mirzo G‘olib
- E) Furqat

**3. Erkin Vohidovning turkum she‘laridagi hajviy qahramon kim?**

- A) Mamajon
- B) Matmusa
- C) Afandi
- D) Mamadali
- E) Musavoy

**4. Erkin Vohidovning qalamiga mansub nodir tarjimalar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A) «Bog‘chasaroy fontani», «Yevgeniy Onegin», «Faust»
- B) «Shohnoma», «Anna Snegina», «Faust», «Kavkaz asiri»
- C) «Faust», «Anna Snegina», «Fors taronalari»
- D) «Fors taronalari», «Demon», «Bog‘chasaroy fontani»
- E) «Shohnoma», «Masnaviyi ma’naviy», «Yesenin she‘rlari»

**21-DARS**  
**ABDULLA ORIPOV**  
**(1941-2016)**



**Darsning maqsadi:** talabalarga Abdulla Oripov hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

**Reja:**

1. Abdulla Oripov hayoti.
2. Abdulla Oripov she'riyati.
3. Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati.

**Tayanch tushunchalar:** Abdulla Oripov she'riyati, Abdulla Oripov obraz yaratish mahorati, Abdulla Oripov ijodida shakily izlanishlar, Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati.

Abdulla Oripov 1941-yil 21-martda Qashqadaryoning Koson tumanida tug'ildi. O'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, 1958 yilda Toshkent Davlat universitetining jurnalistika bo'limiga o'qishga kirdi. Studentlikning jo'shqin yillari, poytaxtdagi ijodiy muhit Abdullaning iste'dodli shoir sifatida takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1965-yilda shoirning birinchi she'riy to'plami "Mitti yulduz" kitobxonlarga taqdim etildi.

Keyingi yillarda nashr etilgan "Onajonim", "Ruhim", "O'zbekiston", "Hayrat", "Yuzma-yuz" to'plamlariga kirgan she'rlarida bugungi kun tashvishlari bilan yashayotgan lirik qahramonning ruhiy dunyosidagi kechinmalar, xalq hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar, quvonch va tashvishlar o'z ifodasini topdi. Shoir o'zining "Ishonch ko'priklari" she'rida ayrim kishilardagi oqibatsizlik, o'zaro ishonchsizlik kabi illatlarni qoralaydi.

Abdulla Oripov ijodining yangi o‘ziga xos qirrasi, badiiy xususiyatlari “Munojot”, “Haj daftari” kabi to‘plamlaridagi she’rlarda yorqin ifodasini topdi.

Abdulla Oripov faqat o‘zbek xalqi emas, bashariyat dardini kuylaydigan shoir. “Qo‘riqxon” she’rida u dunyoviy muammolarni, diyonat, mehr-oqibat, ishonch yo‘qolib borayotganligi, pokiza tuyg‘ular xiralashib ketayotganligi haqida bong uradi.

Shoirning “Jannatga yo‘l” dramatik dostoni o‘zbek adabiyotida katta voqealardan biri bo‘ldi. Afsonoviy mifologik uslubda yaratilgan bu asarda voqealar narigi dunyoda kechadi. Unda Yigit, Ona, Ota, Do‘st, Chol obrazlari berilgan. Yigitning jannatga tushishiga ikki paysa savob yetmaydi. Aslida u bu dunyoda pokdomon, halol, ig‘vogorlardan qalbi tinalgan, sevgida ham baxtsiz shoir bo‘lgan. Biroq bir haqiqatni u keyin anglab yetadi, hayotdagi qabih, yaramas kishilarga qarshi kurashmagan, ojiz, notavon odamlar dardini kuylash o‘rniga faqat go‘zallikni, gulni kuylagan. Poymol etilgan or-nomusni himoya qilmagan, qalbni tirnagan sovuq so‘zlarni eshitib turib, qulog‘ini kar qilib olgan. Demak, u aybdor. Dostondan kelib chiqadigan xulosalardan eng mu-himi shuki, bani odam bir-birining taqdiriga loqayd qarab turishi og‘ir gunohdir, sadoqat, mehr-muruvvat insonni inson qiluvchi eng yuksak fazilatdir. Bu g‘oya asar oxirida Sado tilidan beriladi.

### **Abdulla Oripov asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Abdulla Oripovning hayoti haqida nima bilasiz?
2. Abdulla Oripovning “Qo‘riqxon” sherida qanday mavzu ko‘tarilgan?
3. Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati haqida nima deya olasiz.

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Abdulla Oripov ijodida ko'tarilgan asosiy mavzular haqida gapirib bering.
2. Abdulla Oripovning "Jannatga yo'l" dramatik dostonini tahlil qilib bering.
3. Abdulla Oripovning tarjimonlik mahorati haqida so'zlab bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

- 1. A.Oripov she'riyatining asosiy yo'nalishini nima tashkil etadi?**
  - A) Vatan va uning farzandlari sevinch- tashvishlarini kuylash
  - B) Insonni uning buyukligi va chirkin illatlari bilan butunicha tasvirlash
  - C) Mamlakatimiz hayotida yuz berayotgan buyuk o'zgarishlarni yuksak ruh bilan kuylash
  - D) Tabiatda yuz berayotgan ekologik fojialar haqida bong urish
  - E) A va B
- 2. A.Oripovning «Qo'riqxon» she'rida qanday g'oya ilgari surilgan?**
  - A) Qo'riqxonalar qurib, yo'qolib borayotgan hayvonlarni saqlab qolish
  - B) Tabiatning ifloslanishiga, ekologik fojialarga yo'l qo'ymaslik
  - C) Inson qonidagi, hayo, imon, mehru oqibatni asrab qolish
  - D) Qurib borayotgan Orol tabiatini asrash
  - E) Avvalo, hayvonlarni emas, insonlarni asrab- avaylash
- 3. A.Oripovning ushbu satrlari uning qaysi she'ridan olingan?**

«Yuzdan parda ketsa,  
Dildan diyonat,  
Mehr rishtalari zimdan uzilsa,  
Yuraklarni bossa shubha, xiyonat...»

  - A) «Ishonch»
  - B) «Ishonch ko'priklari»
  - C) «Genetika»
  - D) «Fojia»
  - E) «Temir Odam»
- 4. A.Oripovning kommunistik tuzumning haqiqiy qiyofasi, mohiyatini ochib berishga bag'ishlagan she'ri...**
  - A) «Ishonch ko'priklari»
  - B) «Genetika»
  - C) «Fojia»
  - D) «Asrimiz odami»
  - E) «Avlodlarga maktub»

5. A.Oripovning fantastik, afsonaviy-mifologik mavzuda yozilgan asarini aniqlang.

- A) «Ranjkom»
- B) «Qiyomat»
- C) «Iblis»
- D) «Jannatga yo‘l»
- E) «Tush»

6. A.Oripovning «Jannatga yo‘l» asarida yigitning jannatga tushishiga nega ikki paysa yetmay qoldi?

- A) Ota- onasini yetarlicha qadrlamagani uchun
- B) Suvga oqqan qizaloqni qutqazib qolmagani uchun
- C) Manfur kishilarning razilligini ko‘rib, loqayd bo‘lganligi uchun
- D) Diniy e‘tiqodining sustligi uchun
- E) Faqat o‘zini, o‘z manfaatini o‘ylagani uchun

## 22-DARS

### O‘TKIR HOSHIMOV

(1941-2013)



**Darsning maqsadi:** talabalarga O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodi haqida ma’lumot berish.

#### Reja:

1. O‘tkir Hoshimov hayoti.
2. O‘tkir Hoshimovning nasriy asarlari.
3. O‘tkir Hoshimovning badiiy obraz yaratish mahorati.

**Tayanch tushunchalar:** *O'tkir Hoshimovning nasriy asarlari, O'tkir Hoshimovning obraz yaratish mahorati, "Bahor qaytmaydi", "Nur borki soya bor".*

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov Toshkentda 1941-yilning 5-avgustida tavallud topgan bo'lib, bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan. Shu tufayli u o'rta maktabni a'lo baholar bilan bitirgan bo'lsa ham oilaviy sharoiti yuzasidan ishlab turib o'qishga majbur bo'lgan. Toshkent Davlat universiteti jurnalistika fakultetining sirtqi bo'limida o'qish bilan «Temiryo'lchi», «Toshkent haqiqati», «Qizil O'zbekiston» kabi gazetalarda turli yumushlarni bajargan.

1966-1982-yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri, 1982-1985-yillarda G'.G'ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o'rinbosari, 1985 yildan boshlab esa «Sharq yulduzi» jurnalining bosh muharriri bo'lib ishlab keladi. U O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati hamda Matbuot va axborot qo'mitasining raisi bo'lib ham ishlagan.

O'tkir Hoshimov ijodi publitsistikadan boshlangan bo'lib, birinchi kitobi 1962-yilda «Po'lat chavandoz» nomi bilan bosilib chiqqan. Uning ilk hikoyasi esa 1963-yili «To'rt maktub» nomi bilan chop etilgan. Keyinchalik mazkur hikoya asosida «Cho'l havosi» (1963) qissasi yaratilgan. Mazkur qissa haqida ustoz Abdulla Qahhordan olingan maktub, yosh adib ilhomiga ilhom qo'shdi, dalda berdi. Shundan so'ng uning «Odamlar nima derkin», «Shamol esaveradi» qissalari maydonga keldi. Ayniqsa, adibning «Bahor qaytmaydi» (1970), «Qalbingga quloq sol» (1973) kabi qissalari yozuvchiga shuhrat keltirdi. 1976 yilda mazkur asarlar muallifi Respublika Yoshlar mukofotiga sazovor bo'ldi.

Adib «Nur borki, soya bor» (1976) romanida jamiyat ijtimoiy hayotidagi illatlarni, turg'unlikning mohiyatini ochish asnosida davrning muhim ma'naviy-axloqiy masalalarini ko'tarib chiqdi. Shundan so'ng u yana bir go'zal asarni — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Oybek mukofoti bilan taqdirlangan «Dunyoning ishlari» (1982) qissasini yaratib, ma'naviyat haqidagi bahsni davom ettirdi.

O'tkir Hoshimov ijodida «Ikki eshik orasi» romani alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Unda adib qariyb qirq yillik davrni o'z ichiga olgan va bir qator chigal hamda murakkab taqdirlar misolida o'z

xalqining tarixiy qismatini mahorat bilan umumlashtirib berdi. Shu tufayli ham O‘.Hoshimov romani 1986 yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

O‘tkir Hoshimov hikoya janrida ham unumli ijod qilgan. Xususan, uning «Muhabbat», «Dehqonning bir kuni», «Urushning so‘nggi qurboni», «O‘zbek ishi» kabi asarlari o‘zbek hikoyachiligi rivojiga salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Uning «Qalbning oppoq daftari», «Muqaddas qasamni buzganlar», «Avlodlarga nima deymiz», «Mantiq qani?», «Davlat siri» kabi maqolalari esa so‘nggi yillar o‘zbek publitsistikasining yutuqlaridan biri bo‘ldi.

O‘tkir Hoshimov mohir hikoyanavis, qissanavis, romannavis va publitsistgina emas, dramaturg sifatida ham zamonaviy adabiyot rivojiga ta’sir ko‘rsatdi. Uning «Hazon bo‘lgan bahor», «To‘ylar muborak», «Vijdon dorisi», «Inson sadoqati», «Qatag‘on» drama va komediyalari Respublika teatrlari sahnalaridan munosib o‘rin egallagan. «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» (2001) kitobi ijtimoiy-ma’naviy hayotda muayyan iz qoldirgan.

O‘tkir Hoshimov tarjimon sifatida Olga Berggols, Stefan Sveyg, Mustay Karim, Vasiliy Shukshin asarlarini o‘zbek tiliga ag‘dargan. Uning eng yaxshi va sara asarlari rus va boshqa tillarga tarjima etilgan. Adibning jami nashr etilgan asarlari ellikdan ortiq bo‘lib, ularning umumiy tiraji qariyb ikki milliondan oshadi. O‘. Hoshimovga samarali ijodiy mehnati uchun 1991-yili «O‘zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni berilgan. «Mehnat shuhrati» (1996), «Buyuk xizmatlari uchun» (2001) ordenlari bilan mukofotlangan. 2013-yil 24-may kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

### **O‘tkir Hoshimov asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. O‘tkir Hoshimovning hayoti haqida nima bilasiz?

2. O‘tkir Hoshimovning «Nur borki, soya bor» romanida qanday mavzu ko‘tarilgan?

3. O‘tkir Hoshimovning hikoyalari haqida nima deya olasiz.

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. O‘tkir Hoshimov ijodida ko‘tarilgan asosiy mavzular haqida gapirib bering.

2. O‘tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasini tahlil qilib bering.

3. O‘tkir Hoshimovning tarjimonlik mahorati haqida so‘zlab bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

#### **1. O‘tkir Hoshimov asarlari ko‘rsatilgan qatorni belgilang?**

A) «Yulduzli tunlar», «Dunyoning ishlari», «Qalbingga quloq sol».

B) «Dunyoning ishlari», «Qalbingga quloq sol», «Nur borki, soya bor».

C) «Dunyoning ishlari», «Farg‘ona tong otguncha», «Nur borki, soya bor».

D) «Dunyoning ishlari», «O‘tkan kunlar», «Nur borki, soya bor».

E) «Yodgor», «Qalbingga quloq sol», «Nur borki, soya bor».

#### **2. O‘tkir Hoshimovning onasiga bag‘ishlab yozilgan va adibga katta shuhrat keltirgan asari qaysi?**

A) «Shamol esaveradi»

B) «Qalbingga quloq sol»

C) «Bahor qaytmaydi»

D) «Dunyoning ishlari»

E) «Nur borki, soya bor»

#### **3. O‘tkir Hoshimovning ilk hikoyasi qaysi nomda elon qilingan?**

A) «Yodgor»

B) «Muhabbat»

C) «Dehqonning bir kuni»

D) «Urushning so‘nggi qurboni»,

E) «To‘rt maktub»

#### **4. Qaysi yozuvchilarning asarlari o‘zbek tiliga O‘tkir Hoshimov tomonidan tarjima qilingan?**

A) V.Shukshin, M.Lermontov, S.Sveyg

B) O.Berggols, M.Karim, V.Shukshin

C) M.Sholoxov, M.Karim, V.Shukshin

D) F.Dostoevskiy, V.Shukshin, S.Sveyg

E) A.Chexov, M.Karim, V.Shukshin

**23-DARS**  
**MUHAMMAD YUSUF**  
**(1954-2001)**



**Darsning maqsadi:** talabalarga Muhammad Yusuf hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

**Reja:**

1. Muhammad Yusuf hayoti.
2. Muhammad Yusuf shariyati.
3. Muhammad Yusufning badiiy obraz yaratish mahorati.

**Tayanch tushunchalar:** Muhammad Yusuf shariyati, Muhammad Yusuf badiiyati, Muhammad Yusuf – yoshlik kuychisi.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel kuni Andijonda tavallud topgan.

Rus tili va adabiyoti institutining rus tili va adabiyoti fakultetini tugatgan (1978). Respublika kitobsevarlar jamiyati (1978-80), «Toshkent oqshomi» gazetasi (1980-86), G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti (1986-95)da turli lavozimlarda ishlagan. 1995-97 yillar «Tafakkur» jurnalida bo'lim mudiri, 1997-2001-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida rais o'rinbosari. 2-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati.

Muhammad Yusufning dastlabki she'rlari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligida bosilgan (1976). Shundan boshlab respublika matbuotida uning she'r, ocherk va maqolalari muntazam ravishda chop etila boshlagan. Ilk she'rlar kitobi — «Tanish teraklar» (1985).

«Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz», «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1991), «Bevafo ko'p ekan», «Yolg'onchi yor» (1993), «Erka kiyik» (1995) va «Osmonimga olib ketaman» (1998), “Ulug'imsan, Vatanim” (2004), “Saylanma” (2007), “Xalq bo'l elim” (2009) she'riy kitoblari nashr etilgan. 1989 yilda «Uyqudagi qiz» nomli she'riy to'plami uchun u respublika Yoshlar tashkilotining mukofotiga sazovor bo'lgan.

Mazkur kitoblarga kirgan she'rlarda Muhammad Yusuf mansub bo'lgan avlodning eng olijanob va yuksak insoniy fazilatlar bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o'zbekona, sodda, ayni paytda ezgu, bokira va betakror tuyg'u hamda kechinmalari o'zining yorqin ifodasini topgan. So'zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg'ular tiniqligi, samimiyluk va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo'nda va yaqqol ifodalay bilish Muhammad Yusuf she'riy uslubining yetakchi xususiyatlaridir. Uning qalamiga mansub aksariyat she'rlar taniqli xonandalar tomonidan ijro etilmoqda. Muhammad Yusuf ijodi ayni gullab yashnagan paytda, Ellikqal'a tumanida she'riyat muxlislari b-n uchrashish maqsadidagi ijodiy safarida vafot etgan. Andijonda dafn etilgan.

### **Muhammad Yusuf asarlari namunalarining QR kodi**



#### **Savollar:**

1. Muhammad Yusuf hayoti haqida nima bilasiz?
2. Muhammad Yusuf ijodida qanday mavzlar etakchilik qiladi?
3. Muhammad Yusuf badiiy mahorati haqida nima deya olasiz.

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Muhammad Yusuf ijodida ko'tarilgan asosiy mavzular haqida gapirib bering.
2. Muhammad Yusufning "Ulug'imsan, Vatanim" sherini tahlil qiling.
3. Muhammad Yusuf badiiy mahorati haqida so'zlab bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

- 1. Muhammad Yusufning ilk sheri to'plami qanday nomlangan?**
  - A) "Xalq bo'l elim"
  - B) «Bevafo ko'p ekan»
  - C) «Iltijo»
  - D) "Ulug'imsan, Vatanim"
  - E) «Tanish teraklar»
- 2. Muhammad Yusuf qaysi kitobi uchun Respublika Yoshlar tashkilotining mukofotiga sazovor bo'lgan?**
  - A) "Ulug'imsan, Vatanim" (2004)
  - B) "Saylanma" (2007)
  - C) "Xalq bo'l elim" (2009)
  - D) «Uyqudagi qiz» (1989)
  - E) «Iltijo» (1988)
- 3. Muhammad Yusuf ijodining bosh g'oyasi nimadan iborat?**
  - A) Ishq va Vatanga muhabbat
  - B) Hazil-mutoyiba
  - C) Dramatizm
  - D) Tarixiy haqiqat
  - E) Majoz
- 4. Muhammad Yusuf nechanchi yilda vafot etgan?**
  - A) 2001
  - B) 2002
  - C) 2003
  - D) 2004
  - E) 2005

**24-DARS**  
**XAYRIDDIN SULTONOV**  
**(1956)**



**Darsning maqsadi:** talabalarga Xayriddin Sultonov hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

**Reja:**

1. Xayriddin Sultonov hayoti.
2. Xayriddin Sultonov prozasi.
3. Xayriddin Sultonov badiiy obraz yaratish mahorati.

**Tayanch tushunchalar:** Xayriddin Sultonov prozasi, Xayriddin Sultonov badiiyati, Xayriddin Sultonovning obraz yaratish mahorati.

Zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Xayriddin Sultonov 1956-yil 19-yanvarda Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi Tuzel qishlog'ida tug'ilgan. Parkentdagi 42-maktabni bitirganidan so'ng Toshkent davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetiga o'qishga kiradi va uni 1978-yilda tugatadi.

Mehnat faoliyatini hali talabalik yillaridayoq boshlagan yozuvchi "Guliston" (1974-80) va "Yoshlik" (1982-85) jurnallari tahririyatida adabiy xodim bo'lib ishlaydi. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida muharrir, bosh muharrir o'rinbosari (1980-82) va bosh muharrir (1985-93) vazifalarida faoliyat olib boradi. 1993-yildan buyon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasida mas'ul lavozimda ishlab keladi.

Xayriddin Sultonov yoshlik davridan badiiy ijod bilan jiddiy shug'ullanadi. Dastlab matbuotda hikoyalari bilan ko'ringan

yozuvchining “Quyosh barchaga barobar” deb nomlangan ilk kitobi 1980-yilda nashr etiladi. Adabiy jamoatchilik tomonidan qizg‘in kutib olingan mazkur kitobdagi hikoyalar adabiyotga iste’dodli bir adib kirib kelayotganidan darak beradi.

Shundan so‘ng muallifning “Bir oqshom ertagi” (1983), “Onamning yurti” (1987), “Umr esa o‘tmoqda” (1988) kabi kitoblari o‘quvchilar e’tiboriga havola etiladi.

Xayriddin Sultonov ijodida qilich va qalam bahodiri, buyuk shoir va hukmdor, boburiylar sulolasining asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati alohida o‘rin egallaydi. “Boburning tushlari” (1992) hikoyasi, “Boburiynoma” (1997, 2019) romani va “Saodat sohili” (2005) qissasida Boburning yorqin obrazi yaratilgan.

Bu asarlar orasida “Boburiynoma” romani alohida badiiy qimmatga ega. O‘zbek adabiyotida mutlaqo yangi hodisa kabi paydo bo‘lgan bu asarni muallifning o‘zi “ma’rifiy roman” deb ataydi.

Xayriddin Sultonov buyuk yozuvchi, o‘zbek adabiyotida roman janriga asos solgan Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiy faoliyati haqida ham bir necha asarlar, jumladan, “Moziydan bir sahifa” deb nomlangan videofilm ssenariysini yozgan.

“To‘qchilik va yo‘qchilik” (2002), “Триста шестьдесят четыре дня” (2013), “Uch yuz oltmish to‘rt kun” (2019), “Ko‘ngil ozodadur” (2019), “Haqiqat jamoli” (2019), “Onamning yurti” (turk tilida, 2022) kitoblari yozuvchiga tom ma’noda shuhrat keltirdi.

Asarlari bir necha xorijiy tillarga tarjima qilingan Xayriddin Sultonovning o‘zi ham mohir tarjimon hisoblanadi. Uning tarjimasida dunyo adabiyotining qator sara namunalari o‘zbek o‘quvchilariga yetib borgan. Bunga misol tariqasida Sent-Ekzyuperi, Dina Bussati, Yuriy Nagibin, Valentin Rasputin, Vasiliy Shukshin va boshqa mashhur adiblarning qissa va hikoyalarini ko‘rsatish mumkin.

Yozuvchining so‘nggi yillarda nashr etilgan “Odamlardan tinglab hikoya” (2020) va “Navoiy–30” (2022) kitoblari adabiyot muhiblarining alohida e’tibori va mehrini qozondi. Birinchi kitobdan adibning o‘ttiz bitta hikoyasi o‘rin olgan va ularning barchasi turli yoshdagi va kasb-kordagi kishilar tilidan bayon qilingan. Kitobga kirgan hikoyalar yangi zamonning badiiy-hujjatli asarlariga yorqin misol bo‘la oladi. Ushbu asarida yozuvchi so‘nggi ellik yil davomida o‘zi ko‘rgan, tanigan-bilgan adabiyot va madaniyat xodimlari, o‘zi

guvoh bo'lgan betakror voqea-hodisalar haqida maroq bilan hikoya qiladi.

Xayriddin Sultonov asarlari milliy qadriyatlarga yo'g'rilgan teran hikmatlar, nozik lutf va rivoyatlarga boydir. Yozuvchi asarlarida nafis lirizm, teran realizm va drammatizm yaqqol namoyon etadi. Uning barcha hikoyalari mavzusi real hayotdan olingan. Aksariyat asarlarining qahramonlari biz har kuni ko'rib-bilib turgan oddiy insonlardir. Hikoyalarning syujet liniyasi, tasvir uslubi original, goho hazin, lirik va zarifdir. Fabula yuksak pardalarda inkishof etiladi, lekin o'quvchi hodisalar qaerda kechganini, nimalar bo'lganini bilmaydi. Hikoyalari bir qarashda novellaga o'xshab ketadi, keyin muallifning izohi boshlanadi, voqea haqida fikr va muhokama beriladi, oxirida ibratomuz xulosa chiqariladi.

Masalan, "Omad" hikoyasida yosh qishloq yigiti ish qidirgani va yumush topilgani, uning qabristonga go'rkov bo'lib xizmatga kirgani tasvirlanadi. O'sha yigit bir yildan so'ng o'ziga ish topib bergan odamning oldiga kelib, boshqa xizmat topib berishini iltimos qiladi. Bu ish yoqmadimi, degan savolga yigit, yoqdi, hammasi joyida, lekin shu bir yil ichida qishlog'imizda hech kim o'lmadi-da, deydi va go'yo buning uchun o'zi aybdorday bosh egib, xijolat chekadi.

"Otabekning janozasi" hikoyasi Abdulla Qodiriyning mashhur romani qahramoni Otabek rolini kinoda mohirona ijro etgan aktyorning dafn marosimi haqida. Bu yerda ikki mayitning so'nggi manzilga kuzatilishi taqqoslanadi, hatto go'ristonda ham amalning kuchi katta ekani, elning ardoqli san'atkorining dafn marosimi nihoyatda g'arib holda o'tgani achinish ila bayon qilinadi. Muallifning: "Millatimiz xalq bo'lib o'zligini namoyon etayotgan saodatli onlar edi bu", degan so'zlarida achchiq kinoya, afsus-nadomat aks etib turganday tuyuladi.

"Valijon kasal bo'ldi" hikoyasida yosh bir qizning tog'asini davolatish uchun zo'r berib qilgan harakatlari, bemorning Toshkentdagi nufuzli shifo markaziga olib kelinishi, u yerdagi ajoyib hangomalar, rang-barang insoniy munosabatlar mahorat bilan ifoda qilinadi.

"Millatchining jazosi" hikoyasida pasportida noto'g'ri qayd etilgan ismini ("Jamoliddin" o'rniga "Jamolitdin" yozilgan) to'g'rilab yozdirib olishga uringan bir ziyolining boshidan kechirgan sarguzashtlari hazin bir tabassum bilan tasvirlanadi. Ziyoli

pasportidagi xatoni tuzattirib oladi-yu, lekin hayotida yangi, kutilmagan muammolar boshlanadi...

Xayriddin Sultonning eng go‘zal hikoyalaridan biri, bu shubhasiz, “Onamning yurti” asaridir. Inson o‘z tug‘ilgan qadrdon go‘shasidan ayro tushsa, uni hech vaqt unuta olmaydi, oradan yillar o‘tsa-da, Vatan sog‘inchi kuchayib boraveradi. Keksa ona oltmish olti yildan so‘ng asl yurtini topadi. U bu makonga o‘g‘li bilan keladi. O‘g‘il onasining diyorini u qayta-qayta so‘zlab bergan ertakmonand hikoyalar ta’sirida zumrad dalalar yastanib yotgan, zilol suvlar sharqirab oqadigan, mayin yellar esadigan jannatiy maskandek tasavvur qilardi. Bu xaroba qishloqni ko‘rgach esa: “Nahot onam shu yaydoq yalangliklarga, shu zebsiz maskanlarga umr bo‘yi ta’rif topolmay o‘tgan bo‘lsa? Shu befayz go‘shaning behisht makon ekaniga nahot o‘zi ham ishongan, bizni ham ishontirgan bo‘lsa?” – deya hayratga tushadi. Bunga javoban onaning aytgan so‘zlari esa yuraklarni titratib yuboradi: “Yurtning yaxshi-yomoni bo‘lmaydi, bolam”.

Adib ssenariylari bo‘yicha bir necha badiiy va hujjatli filmlar suratga olingan. Bu o‘rinda “Changak”, “Mehrobdan chayon”, “Tushlarimda ko‘rib yig‘layman”, “Yolg‘iz yodgorim” kabi filmlarni qayd etish joiz. Uning qalamiga mansub “Sarhovuzning bo‘ylarida” (1992) dramasi Samarqand viloyati drama teatrida sahnaga qo‘yilgan. Yozuvchi, shuningdek, tarixiy mavzudagi o‘tkir syujetga ega “Ulug‘ amir va donna Mariya” (2008) badiiy filmining ham ssenariy muallifidir.

**Xayriddin Sultonov asarlari namunalarining QR kodi**



## SIROJIDDIN SAYYID

(1958)



**Darsning maqsadi:** talabalarga Sirojiddi Sayyid hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

### **Reja:**

2. Sirojiddi Sayyid hayoti.
2. Sirojiddi Sayyid shariy asarlari.
3. Sirojiddi Sayyidning badiiy obraz yaratish mahorati.

**Tayanch tushunchalar:** Sirojiddi Sayyid shariyati, Sirojiddi Sayyid badiiyati, Sirojiddi Sayyidning obraz yaratish mahorati.

Sirojiddin Sayyid 1958-yil 30-oktabrda Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Kundajuvoq qishlog'ida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri (2006). ToshDUning jurnalistika fakultetini tugatgan (1979).

«Toshkent oqshomi» (1980—89), «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» (1989—90; 1991—96) gazetalari va «Mushtum» jurnalida (1990—91) adabiy xodim, bo'lim mudiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshkaruvida rais o'rinbosari (2001—03), birinchi o'rinbosari (2003 yildan).

Ilk she'rlar to'plami - «Ruhim xaritasi» (1985). Shundan keyin uning «Salqin xarsanglar kaftida» (1987), «Sevgi mamlakati» (1989), «Asragil», «Mehr qolur, muhabbat qolur» (1990), «Kuydim» (1994), «Vatanni o'rganish» (1996), «Vatan abadiy» (2001), «Ustimizdan o'tgan oylar» (2003), «Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni» (200) va boshqa to'plamlari nashr etilgan.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida o'zbek mumtoz she'riyati an'analari bilan birga xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlar — xalqchilik, soddalik, tilning shiraligi, Surxondaryo shevasiga xos leksik va musiqiy tovlanishlar yetakchilik qiladi. Shuning uchun uning aksariyat she'rlari ashulaga aylangan. Ayni paytda Sirojiddin Sayyid o'z ijodida o'zbek she'riyatining so'nggi badiiy yutuqlarini o'zlashtirgan holda hoz. voqelikda va kishilarning ruhiy olamida yuz berayotgan o'zgarishlarni aks ettirilgan.

Sirojiddin Sayiid she'riyatida xalq og'zaki ijodiga xos sodda, lo'nda ifoda usuli mumtoz adabiyotimiz ohanglari bilan uyg'unlashib ketadi. Buning ustiga shoir Sharqning Firdavsiy, Hofiz, Bedillaridan Navoiygacha, Yevropaning Artur Rembo, Pablo Neruda, Aleksandr Blok, Imant Ziyodanislargacha, o'zimizning Cho'lpon, Oybek, G'.G'ulomlardan E.Vohidov, A.Oripovlargacha o'rganib, ulardan ilhom olgan. Ayni chog'da ularni va o'zini takrorlamaslik yo'lini topgan. Sirojiddin Sayyid izlanuvchan, iste'dodli va ko'p qirrali shoir sifatida o'zbek she'riyati rivojida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Sirojiddin Sayiid Andrey Voznesenskiyning «Mangu rizq» (1990) asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlangan (1999).

Sirojiddin Sayiid 2020-yil 18-yanvarda Oliy Majlis Senatori etib saylandi. Sirojiddin Sayyid jamiyat, xalq oldidagi xizmatlari uchun munosib mukofotlangan. U 1999-ilda "Do'stlik" ordeni, 2006-yilda "O'zbekiston xalq shoiri", 2021-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan taqdirlangan.

### **Sirojiddin Sayyid asarlari namunalarining QR kodi**



### **Savollar:**

1. Xayriddin Sultonov hayoti va ijodi haqida nima bilasiz?
2. Xayriddin Sultonov va Sirojiddin Sayyid ijodida qaysi g'oyalar etakchilik qiladi?
3. Xayriddin Sultonov va Sirojiddin Sayyidning tarjimonlik mahorati haqida nima deya olasiz.

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Xayriddin Sultonov ijodida ko'tarilgan mavzular haqida gapirib bering.
2. Sirojiddin Sayyidning ona obraziga bag'ishlab yozilgan sherlarini tahlil qilib bering.
3. Sirojiddin Sayyidning tarjimonlik mahorati haqida so'zlab bering.

### **Talabalarning bilimini tekshirish uchun test savollari:**

- 1. Sirojiddin Sayyidning ilk sheriy to'plami qanday nomlangan?**  
A) «Vatanni o'rganish»  
B) «Vatan abadiy»  
C) «Ustimizdan o'tgan oylar»  
D) «Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni»  
E) «Ruhim xaritasi»
- 2. Sirojiddin Sayyid qaysi yili "O'zbekiston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'lgan?**  
A) 2006  
B) 2007  
C) 2008  
D) 2009  
E) 2010
- 3. Sirojiddin Sayyid qaysi shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?**  
A) Bella Axmadullina  
B) Robert Rojdestvenskiy  
C) Andrey Voznesenskiy  
D) Rasul Hamzatov  
E) Aleksandr Pushkin
- 4. Sirojiddin Sayyid qaysi o'zbek shoiri badiiy an'analarini davomchisi ekanligini ta'kidlagan?**  
A) Oybek  
B) Hamid Olimjon  
C) Cho'lpon  
D) Erkin Vohidov  
E) Abdulla Oripov

## MINHOJIDDIN MIRZO

(1965)



**Darsning maqsadi:** talabalarga Minhojiddin Mirzo hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish.

### **Reja:**

1. Minhojiddin Mirzo hayoti.
2. Minhojiddin Mirzo shery asarlari.
3. Minhojiddin Mirzoning badiiy obraz yaratish mahorati.

**Tayanch tushunchalar:** Minhojiddin Mirzo sheryati, Minhojiddin Mirzo badiiyati, Minhojiddin Mirzoning obraz yaratish mahorati.

Minhojiddin Mirzo (Hojimatov Minhojiddin Mirzajonovich) 1965-yil 30-iyulida Andijon shahrida xizmatchi oilasida tavallud topgan. 1990-yili Toshkent davlat universiteti (hozirtgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetini tamomlagan.

O'z faoliyatini O'zbekiston radiosi Adabiy dramatik eshittirishlar bosh muharririyatida muharrir sifatida boshlagan. 1990-1998-yillarda turli tahririyatlarda bosh muharrir lavozimida xizmat qilgan. 1999-yili Shuhrat medali bilan taqdirlangan. 2002-yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist fahriy unvonini olgan.

O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vaziri, "Guliston" jurnali bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati mas'ul xodimi sifatida faoliyat olib borgan. Bugungi kunda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining

birinchi o‘rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Oliy Majlis Senati a‘zosi.

Minhojiddin Mirzoning “Nilufar“ (1996), “Visol xabari“ (2002), “Yulduzim“ (2007), “Ko‘nglim kurtaklari“ (2015), “Gullash payti keldi, bog‘larim“ (2015), “Muhabbat qarshingda bu jonim nadir“ (2021) she‘riy to‘plamlari, “Saodatga eltuvchi qudratli kuch“ (2008), “Ulug‘ xalq qudratining tajassumi“ (2021) esselar to‘plamlari chop etildi. Boborahim Mashrabga bag‘ishlangan “Qayg‘u guli“, Amir Temur tuzuklari asosida “Sohibqiron yog‘dusi“, Bobur haqidagi “Sog‘inch saltanati“ dostonlari nashr etilgan. A.Pushkin, R.Hamzatov, J.Bayron, S.Yesenin, M.Lermontov, G.Geyne, shuningdek yapon, rus, belarus, arab shoirlari she‘rlarini tarjima qilgan. 2019-yili uning tarjimasida Rasul Hamzatov she‘rlari asosida “Oq turnalar“, belarus she‘riyati namunalari asosidagi “Salom senga, mehr diyori“ kitoblari nashr etilgan.

Uning adabiyotshunos sifatida Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Chustiy, Rauf Parfi, Ikrom Otamurod, Erkin Malik, Sa‘dulla Hakim, A‘zam O‘ktam kabi o‘zbek adabiyoti namoyondalari, Ivan Bunin, Rasul Hamzatov, Chingiz Aytmatov, Abay kabi jahon adabiyoti vakillari haqidagi maqolalari, milliy adabiyot takomili, xalqaro adabiy aloqalar rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilgan.

### **Savollar:**

1. Minhojiddin Mirzo hayoti va ijodi haqida nima bilasiz?
2. Minhojiddin Mirzoning tarjimonlik mahorati haqida nima deya olasiz.

### **Mustaqil ish uchun topshiriqlar:**

1. Minhojiddin Mirzo ijodida ko‘tarilgan mavzular haqida gapirib bering.
2. Minhojiddin Mirzoning tarjimonlik mahorati haqida so‘zlab bering.

# TEST SAVOLLARINING KALITI

## ADABIYOT NAZARIYASI

### 1-DARS

#### BADIIY ADABIYOTGA OID ASOSIY TUSHUNCHALAR

|     |     |     |     |
|-----|-----|-----|-----|
| 1-C | 3-E | 5-D | 7-C |
| 2-C | 4-A | 6-A | 8-A |

### 2-DARS

#### BADIIY ADABIYOT TURLARI VA JANRLARI

|      |      |      |       |
|------|------|------|-------|
| 1-E  | 28-B | 55-E | 82-C  |
| 2-B  | 29-A | 56-D | 83-D  |
| 3-C  | 30-B | 57-D | 84-C  |
| 4-D  | 31-D | 58-B | 85-A  |
| 5-C  | 32-A | 59-A | 86-A  |
| 6-A  | 33-D | 60-B | 87-A  |
| 7-D  | 34-A | 61-D | 88-A  |
| 8-B  | 35-D | 62-E | 89-C  |
| 9-A  | 36-D | 63-C | 90-B  |
| 10-D | 37-B | 64-A | 91-A  |
| 11-D | 38-D | 65-B | 91-A  |
| 12-A | 39-B | 66-C | 93-A  |
| 13-C | 40-B | 67-E | 94-B  |
| 14-A | 41-D | 68-B | 95-A  |
| 15-D | 42-D | 69-A | 96-B  |
| 16-B | 43-B | 70-D | 97-D  |
| 17-C | 44-B | 71-D | 98-C  |
| 18-B | 45-A | 72-B | 99-D  |
| 19-C | 46-D | 73-A | 100-A |
| 20-B | 47-E | 74-C | 101-C |
| 21-D | 48-B | 75-E | 102-C |
| 22-A | 49-A | 76-E | 103-A |
| 23-D | 50-E | 77-D | 104-B |
| 24-C | 51-B | 78-C | 105-A |
| 25-C | 52-A | 79-A |       |
| 26-C | 53-B | 80-B |       |
| 27-A | 54-D | 81-B |       |

### **3-DARS**

#### **XALQ OG‘ZAKI IJODI (FOLKLOR)**

|      |      |      |      |
|------|------|------|------|
| 1- E | 11-E | 21-C | 31-A |
| 2- B | 12-B | 22-C | 32-B |
| 3- B | 13-E | 23-D | 33-B |
| 4- E | 14-A | 24-E | 34-E |
| 5- C | 15-B | 25-B | 35-B |
| 6- D | 16-B | 26-B | 36-B |
| 7- E | 17-E | 27-B | 37-C |
| 8- E | 18-A | 28-B | 38-E |
| 9- D | 19-C | 29-A | 39-B |
| 10-E | 20-B | 30-B | 40-D |

### **4-DARS**

#### **ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR**

|     |     |     |      |
|-----|-----|-----|------|
| 1-C | 4-D | 7-C | 10-A |
| 2-E | 5-B | 8-D | 11-D |
| 3-A | 6-B | 9-C | 12-E |

### **5-DARS**

#### **XI – XIV ASRLAR O‘ZBEK ADABIYOTI**

|      |      |      |      |
|------|------|------|------|
| 1- C | 8- A | 15-C | 22-B |
| 2- A | 9- D | 16-E | 23-C |
| 3- E | 10-E | 17-A | 24-B |
| 4- A | 11-D | 18-B | 25-E |
| 5- D | 12-D | 19-E |      |
| 6- D | 13-E | 20-B |      |
| 7- B | 14-C | 21-D |      |

### **6-7 - DARS**

#### **ALISHER NAVOIY**

|     |      |      |      |
|-----|------|------|------|
| 1-E | 16-B | 31-C | 46-D |
| 2-B | 17-E | 32-B | 47-B |
| 3-E | 18-A | 33-B | 48-D |
| 4-C | 19-B | 34-A | 49-B |
| 5-E | 20-A | 35-D | 50-B |
| 6-B | 21-B | 36-B | 51-B |

|      |      |      |      |
|------|------|------|------|
| 7-A  | 22-D | 37-C | 52-E |
| 8-E  | 23-D | 38-C | 53-B |
| 9-B  | 24-A | 39-C | 54-C |
| 10-D | 25-A | 40-A | 55-B |
| 11-B | 26-B | 41-D | 56-A |
| 12-A | 27-C | 42-E | 57-D |
| 13-B | 28-C | 43-B |      |
| 14-D | 29-D | 44-C |      |
| 15-B | 30-B | 45-C |      |

### 8-DARS

#### ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

|     |      |      |      |
|-----|------|------|------|
| 1-C | 8-B  | 15-B | 22-E |
| 2-B | 9-E  | 16-E | 23-D |
| 3-A | 10-D | 17-D | 24-B |
| 4-E | 11-D | 18-C | 25-E |
| 5-B | 12-V | 19-B | 26-E |
| 6-D | 13-D | 20-A | 27-D |
| 7-D | 14-A | 21-C | 28-E |

### 9-DARS

#### XVII - XIX ASR ADABIYOTI

|     |      |      |      |
|-----|------|------|------|
| 1-C | 9-A  | 17-B | 25-A |
| 2-A | 10-D | 18-B | 26-D |
| 3-C | 11-C | 19-D | 27-C |
| 4-B | 12-A | 20-A | 28-D |
| 5-C | 13-B | 21-A | 29-B |
| 6-B | 14-D | 22-D | 30-A |
| 7-B | 15-B | 23-E | 31-D |
| 8-E | 16-D | 24-E | 32-B |

### 10-DARS

#### O‘ZBEK SHOIRALARI

|     |     |     |      |
|-----|-----|-----|------|
| 1-E | 4-C | 7-C | 10-E |
| 2-B | 5-D | 8-B |      |
| 3-D | 6-B | 9-D |      |

## 11-DARS

### XIX ASR IKKINCHI YARMI ADABIYOTI

|     |      |      |      |
|-----|------|------|------|
| 1-C | 6-C  | 11-C | 16-E |
| 2-E | 7-D  | 12-D | 17-D |
| 3-B | 8-D  | 13-B | 18-E |
| 4-A | 9-B  | 14-E | 19-A |
| 5-C | 10-A | 15-A | 20-E |

## 12-DARS

### MILLIY UYG'ONISH DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI. BEHBUDIY, AVLONIY, FITRAT, HAMZA, QODIRIY, CHO'LPON

|      |      |      |       |
|------|------|------|-------|
| 1-E  | 28-C | 55-D | 82-A  |
| 2-A  | 29-B | 56-A | 83-D  |
| 3-A  | 30-D | 57-B | 84-C  |
| 4-D  | 31-E | 58-C | 85-E  |
| 5-E  | 32-B | 59-C | 86-C  |
| 6-A  | 33-D | 60-A | 87-E  |
| 7-C  | 34-E | 61-E | 88-C  |
| 8-B  | 35-E | 62-D | 89-C  |
| 9-D  | 36-B | 63-C | 90-D  |
| 10-A | 37-C | 64-A | 91-C  |
| 11-D | 38-D | 65-B | 92-D  |
| 12-B | 39-E | 66-C | 93-E  |
| 13-A | 40-A | 67-B | 94-B  |
| 14-A | 41-E | 68-E | 95-A  |
| 15-E | 42-E | 69-E | 96-C  |
| 16-B | 43-C | 70-D | 97-C  |
| 17-B | 44-A | 71-B | 98-E  |
| 18-A | 45-D | 72-D | 99-E  |
| 19-E | 46-D | 73-B | 100-B |
| 20-B | 47-B | 74-D | 101-E |
| 21-C | 48-D | 75-D | 102-D |
| 22-D | 49-C | 76-B | 103-A |
| 23-B | 50-E | 77-C |       |
| 24-A | 51-B | 78-A |       |
| 25-E | 52-D | 79-D |       |
| 26-D | 53-C | 80-B |       |
| 27-A | 54-E | 81-A |       |

### **13-DARS**

**XX – XXI ASR O'ZBEK ADABIYOTI.**

**G'AFUR G'ULOM, OYBEK**

|     |     |      |      |
|-----|-----|------|------|
| 1-D | 5-B | 9-E  | 13-C |
| 2-D | 6-C | 10-B | 14-B |
| 3-B | 7-E | 11-E | 15-D |
| 4-C | 8-A | 12-C | 16-E |

### **14-DARS**

**USMON NOSIR, ABDULLA QAHHOR, HAMID OLIMJON**

|     |      |      |      |
|-----|------|------|------|
| 1-C | 9-E  | 17-C | 25-D |
| 2-C | 10-A | 18-D | 26-B |
| 3-E | 11-A | 19-A | 27-E |
| 4-B | 12-B | 20-E | 28-D |
| 5-A | 13-C | 21-C | 29-A |
| 6-C | 14-B | 22-E |      |
| 7-D | 15-C | 23-B |      |
| 8-A | 16-A | 24-C |      |

### **15-DARS**

**MAQSUD SHAYXZODA, UYG'UN, MIRTEMIR**

|     |     |     |      |
|-----|-----|-----|------|
| 1-A | 4-C | 7-D | 10-C |
| 2-B | 5-E | 8-A |      |
| 3-A | 6-A | 9-D |      |

### **16-DARS**

**ZULFIYA, SAID AHMAD**

|     |     |     |     |
|-----|-----|-----|-----|
| 1-B | 3-A | 5-B | 7-A |
| 2-B | 4-E | 6-D | 8-B |

### **17-DARS**

**ASQAD MUXTOR, ODIL YOQUBOV**

|     |     |     |
|-----|-----|-----|
| 1-D | 3-C | 5-A |
| 2-C | 4-D | 6-C |

**18-DARS**

**PIRIMQUL QODIROV**

1-D  
2-C

3-A  
4-A

5-E  
6-B

**19-DARS**

**HUSNIDDIN SHARIPOV**

1-C

2-B

3-D

4-A

**20-DARS**

**ERKIN VOHIDOV**

1-B

2-A

3-B

4-C

**21-DARS**

**ABDULLA ORIPOV**

1-E  
2-C

3-D  
4-C

5-D  
6-C

**22-DARS**

**O‘TKIR HOSHIMOV**

1-B

2-D

3-E

4-B

**23-DARS**

**MUHAMMAD YUSUF**

1-E

2-D

3-A

4-A

**24-DARS**

**XAYRIDDIN SULTONOV, SIROJIDDIN SAYYID,  
MINHOJIDDIN MIRZO**

1-E

2-A

3-C

4-E

